

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TA‘LIM MENEJMENTI KAFEDRASI
UMUMIY PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

fanidan

O‘QUV –USLUBIY MAJMUA



Bilim sohasi:	100 000 – Gumanitar
Ta`lim sohasi:	140 000 - Tabiiy fanlar
Ta`lim yo`nalishi:	Barcha bakalavriat ta`lim yo`nalishlari uchun

NAMANGAN – 2023

O‘quv-uslubiy majmua O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2017 yil 1 martdagi 107-sonli buyrug‘i asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi:

M. Boltayeva NamDU, Pedagogika nazariyasi va tarixi kafedrası dotsenti.

Taqrizchilar:

NamDU, pedagogika nazariyasi va tarixi kafedrası dotsenti, PhD, D.Inamov

NamDU, psixologiya kafedrası katta o‘qituvchisi
Z.Qurbonova

O‘quv uslubiy majmua Namangan davlat universiteti Kengashining 2023-yil “30”avgustdagi “1” – son yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

1. Titul varog‘i.....
2. Mundarija.....
- 3.1 Ma‘ruzalar matnlari.....
- 3.2 Seminar mashg‘ulotlari ishlanmasi.....
- 4.1 Fan bo‘yicha mustaqil ta‘lim mavzulari.....
- 4.2 Fan bo‘yicha mustaqil ta‘limni bajarish bo‘yicha yo‘riqnoma.....
- 5. Kurs ishlari va kurs loyihasi. (Fan bo‘yicha kurs loyihasi, rejalashtirilmagan).**
6. Glossariy.....
7. Ilovalar:.....
- 7.1 Fan dastur.....
- 7.2 Ishchi fan dasturi.....
- 7.3 Tarqatma materiallar.....
- 7.4 Oraliq nazorat savollari.....
- 7.5 Testlar.....
- 7.6 Ishchi fan dasturiga muvofiq baholash mezonlari.....
- 7.8 Ta‘lim yo‘nalishi o‘quv rejasi.....

1-MA'RUZA O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirishning kontseptual asoslari.

Reja:

1. O'zbekiston ta'lim tizimi haqida umumiy tushuncha.
2. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning mohiyati
3. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari
4. Ta'lim tizimi va turlari.

Mavzuning maqsadi:

Fan, texnika, texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan foydalangan holda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash, o'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablar haqida ilmiy tushuncha berish.

Mavzuning vazifalari:

- "Ta'lim to'g'risida"gi qonun mazmunini tushuntirish;
- demokratik jamiyatda pedagoglik kasbining rolini ko'rsatish;
- o'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablarni ochib berish.

Tayanch ibora va atamalar:

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, pedagogika, mutaxassis, raqobatbardosh kadr, o'qituvchi, o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar.

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning rivojlanishi ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keladi. Ta'lim tizimining modernizatsiyasi davlat va jamiyatning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ro'y beradi. Ta'lim amaliyotida pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi ta'lim tizimi modernizatsiyasining tarkibiy elementi hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda ta'lim-tarbiya jarayonlarini texnologiyalashtirish kam kuch va vaqt sarflagan holda kutilayotgan natijani qo'lga kiritishga imkon beradi, o'qitish sifatini yaxshilab, samaradorligini oshiradi. Pedagogik innovatsiyalar pedagogik faoliyatga yangiliklarning izchil olib kirilishini tavsiflaydi. Pedagogik innovatsiyalarning didaktik imkoniyatlariga ko'ra ta'lim tizimi va jarayoni rivojlanib boradi. O'qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a undovchi, bunyodkorlikka rag'batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lib, ta'lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. Shu sababli har bir o'qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to'la tushungan holda o'z faoliyatiga izchil tatbiq eta olishi zarur.

Respublikamiz Konstitutsiyasining 18 va 41-moddalarida ta'kidlanganidek, jumhuriyatimizda yashovchi barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar bilim olish huquqiga ega. Shuningdek, bepul umumiy ta'lim olishi davlat tomonidan kafolatlangandir. Yoshlarga umumiy majburiy o'rta ta'lim berishning amalga oshirilishi, o'qitishni hayot bilan, unumli mehnat bilan bog'lash asosida rivojlantirish bilan, o'quvchilarga va talabalarga Davlat stipendiyalari va imtiyozlar berish bilan, maktab darsliklarini tekin berish bilan (qisman), maktabda davlat tilida (o'zbek tili) o'qitish imkoniyatlarini yaratib berish bilan kafolatlanadi.

1991 yilning 1- sentyabr respublikamiz hayotida tarixiy voqea-respublikamiz mustaqilligi e'lon qilindi. Shu munosabat bilan dunyo tajribalaridan kelib chiqib, eng birinchi navbatda mustaqil respublikamizning xalq ta'limini qayta qurish masalasi ko'tarildi.

Mustaqillikka erishganimizning dastlabki yillarida, ya'ni 1992- yil 2- iyulda Mustaqil O'zbekistonning «Ta'lim to'g'risida»gi birinchi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun avvalo, O'zbekiston ta'limida ilgari erishilgan muvaffaqiyatlarni saqlab qolishga xizmat qildi. Aniqrog'i, eski tuzumdan yangisiga o'tishga ko'proq vazifasini o'tadi. Shu bilan birga 1992 yilda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun yaratgan imkoniyatlarga sabab, ta'lim tizimiga qator yangiliklar kirib keldi. Oliy va o'rta maxsus bilim yurtlariga test tizimi joriy qilinishi, kasb-hunar bilim berishga e'tiborni kuchaytirilishi kabilar shular jumlasidandir.

Yangi tuzum talablariga javob beradigan, xalq ta'limi tizimini tubdan isloh qiladigan qonun qabul qilish ehtiyoji qondirilib, 1997 yil 29 avgustda O'zbekistonning yana bir «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi va ta'lim tizimini jiddiy yangilanishiga sabab bo'ldi. Oldingi qabul qilingan Qonunlardan farqli o'laroq, ta'lim ijtimoiy taraqqiyot sohasida ustivor deb e'lon qilindi va xalq ta'limi tizimi tuzilishining quyidagi Yangi qoidalari joriy qilindi:

1-Ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakter ekanligi.

Buning mohiyati shundaki, bizdagi barcha xalq ta'limi tizimiga kiruvchi muassasalarda berilayotgan ta'lim va tarbiya insonlarni moddiy va ma'naviy kamolotini, aql-zakovatining o'sishi, insoniy faoliyatining barq urishi va nihoyat, o'zligini bilish va xaq-xuquqlari uchun kurashadigan chin vatanparvar bo'lib yetishishlarini maqsad qilib qo'yadi.

2-Ta'limning uzluksizligi va izchilligi.

3-Umumiy o'rtta, shuningdek o'rtta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi.

1930 yilda boshlang'ich, 1949 yilda yetti yillik, 1958 yilda sakkiz yillik, 1970 yilda o'rtta umumiy majburiy ta'limga asos solindi. 1984 yildan boshlab o'n bir yillik majburiy ta'limga o'tildi.

Mustaqillik sharofati bilan mazkur masalada ham o'zgarish sodir bo'ldi. Yangi Qonun umumiy o'rtta (I-IX sinf) ta'lim, ya'ni IX sinf va keyingi uch yillik o'rtta maxsus, kasb-hunar (litsey yoki kollej) ta'limini majburiy deb tasdiqladi.

4- O'rtta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishi: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi.

5- Ta'lim tizimining dunyoviy xarakter ekanligi. .

6- Davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham ta'lim-tarbiya masalasiga alohida o'rin ajratilgan. Chunonchi, Qomusning 41-moddasida shunday deyilgan: «Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish Davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari Davlat nazoratidadir. Bu sermazmun va purma'no qonun 42-moddada yanada rivojlantiriladi». «Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish xuquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi.»

7-Ta'lim dasturini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan o'quv reja va dasturlarini tasdiqlaydi..

8-Bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish..

9-Ta'lim tizimida Davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Ta'lim muassasasi mastaqil yuridik shaxs bo'lib, qonunlarda belgilangan tartibda barpo etiladi. Davlat tasarrufida bo'lmagan ta'lim muassasasi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vaqtdan boshlab, yuridik shaxs xuquqini qo'lga kiritadi.

Yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan , O'PQ-637-sonli. 11 bob, 75 moddadan iborat.

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari

Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

davlat akkreditatsiyasi — davlat ta'lim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek nodavlat ta'lim tashkilotlari (bundan buyon matnda ta'lim tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatining davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablariga hamda o'quv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan e'tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni topshirish huquqining taqdim etilishidan iborat jarayon;

davlat ta'lim muassasasi — davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan muassasa;

davlat ta'lim standartlari — davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

davlat ta'lim talablari — ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar;

malaka — shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalar darajasi;

mutaxassislik — malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi;

nodavlat ta'lim tashkiloti — davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

tarbiya — aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta'lim — ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta'lim kampusi — yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarini), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish ob'ektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo'lgan, o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan ta'lim-tarbiya muhiti;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari — ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari;

ta'lim tashkilotlari attestatsiyasi — ta'lim tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari hamda o'quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo'yicha davlat nazoratining asosiy shakli.

4-modda. Ta'lim sohasidagi asosiy printsiplar

Ta'lim sohasidagi asosiy printsiplar quyidagilardan iborat:

ta'lim ustuvorligining tan olinishi;

ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi;

ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;

ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi;

ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;

ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;

ta'limning uzluksizligi va izchilligi;

o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi;

davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;

o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;

insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi;

jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;

ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;

bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;

ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;

ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

5-modda. Ta'lim olish huquqi

Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

Ta'lim olish huquqi:

ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish;

ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va o'quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshirish;

ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy) ta'lim olishni tashkil etish;

kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'limni va boshlang'ich professional ta'limni bepul olish;

oilada yoki mustaqil o'qish orqali ta'lim olgan fuqarolarga, shuningdek umumiy o'rta ta'lim olmagan shaxslarga akkreditatsiyadan o'tgan davlat ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

Chet ellik fuqarolar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga va qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida ta’lim olishga haqlidir.

O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ta’lim olish uchun O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

2-bob. Ta’lim tizimi, turlari va shakllari

6-modda. Ta’lim tizimi

Ta’lim tizimi:

davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablarini, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini;

davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablari va o‘quv dasturlarini amalga oshiruvchi ta’lim tashkilotlarini;

ta’lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlarni;

ta’lim tizimining faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni;

ta’lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlarni o‘z ichiga oladi.

Ta’lim tizimi yagona va uzluksizdir.

7-modda. Ta’lim turlari

Ta’lim turlari quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta’lim va tarbiya;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim;

professional ta’lim;

oliy ta’lim;

oliy ta’limdan keyingi ta’lim;

kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

maktabdan tashqari ta’lim.

8-modda. Maktabgacha ta'lim va tarbiya

Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi **Qonuni** bilan belgilanadi.

15-modda. Ta'lim olish shakllari

Ta'lim olish shakllari quyidagilardan iborat:

ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi);

ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);

dual ta'lim;

oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish;

katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish;

inklyuziv ta'lim;

eksternat tartibidagi ta'lim;

mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

5-bob. Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi

44-modda. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi

Tegishli ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo'lgan va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega. Magistraturani tamomlagan shaxslar va diplomli mutaxassislar o'z mutaxassisligi bo'yicha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, pedagogik oliy ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslarga qayta tayyorlash kurslaridan

o'tganidan keyin ta'lim tashkilotlarida (bundan oliy ta'lim tashkilotlari mustasno) pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi beriladi.

Ishlab chiqarish ta'limi ustalari qayta tayyorlash kurslaridan o'tmasdan professional ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishga haqli.

Zarurat bo'lganda professional ta'lim tashkilotlari ishlab chiqarish ta'limi ustalarini, shuningdek tegishli bilim hamda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan, oliy ma'lumoti bo'lmagan boshqa mutaxassislarni amaliy va qo'shimcha mashg'ulotlarni olib borish uchun jalb etishi mumkin.

45-modda. Pedagog xodimlarning maqomi va ular faoliyatining kafolatlari

Pedagog xodimlarning maqomi jamiyat va davlat tomonidan tan olinadi. Pedagog xodimlar ijtimoiy qo'llab-quvvatlanadi, o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi, ularning ijtimoiy maqomi va obro'sini oshirish uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi, shuningdek o'z huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun kafolatlar beriladi.

Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqlari, sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'ladi.

Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kasbiy faoliyatiga aralashishga, ta'lim oluvchilarning bilimlarini to'g'ri va xolis baholashga ta'sir ko'rsatishga, shuningdek ushbu pedagog xodimlarning xizmat majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Pedagog xodimlar quyidagi huquqlarga ega:

o'z sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini himoya qilish;

o'quv dasturlari doirasida mualliflik dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish, o'qitish uslubiyotini ishlab chiqish, shuningdek tegishli o'quv fanlari, kurslari, modullaridan foydalanish, ijodiy faollik ko'rsatish;

zamonaviy pedagogik shakllarni, o'qitish va tarbiya vositalarini, usullarini erkin tanlash hamda ulardan foydalanish;

kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun ularga zarur shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish;

o'quv, ilmiy va uslubiy yo'nalishlardagi axborot-resurs markazlarining xizmatlaridan bepul foydalanish;

davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablarini, malaka talablarini, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

ilmiy, ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatni amalga oshirish, eksperimental faoliyatda ishtirok etish, innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish;

ta'lim tashkilotini boshqarishda, shuningdek ta'lim tashkilotining faoliyati bilan bog'liq masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;

kasaba uyushmalari va nodavlat notijorat tashkilotlari a'zosi bo'lish, xodimlarining vakillari bo'lish, fuqarolik jamiyati boshqa institutlari faoliyatida qatnashish;

o'z kasbiy huquqlarini va umumiy manfaatlarni ifoda etish hamda himoya qilish uchun pedagog xodimlarning jamoat birlashmalariga birlashish;

o'z kasbiy faoliyatiga aralashuvdan himoyalani;

davlat sog'liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy ko'rikdan o'tish (davlat ta'lim muassasalari va tashkilotlari uchun);

ta'lim oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etish.

Pedagog xodimlar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Pedagog xodimlarni ularning lavozim majburiyatlari bilan bog'liq bo'lmagan har qanday boshqa ishga jalb qilish taqiqlanadi.

46-modda. Pedagog xodimlarning majburiyatlari

Pedagog xodimlar:

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi;

o'quv mashg'ulotlarini sifatli o'tkazishi;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi;

ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratishi;

voyaga yetmagan ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi;

ta'lim tashkilotining ustaviga va (yoki) boshqa ta'sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etishi;

o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o'tishi;

tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi shart.

Pedagog xodimlarning zimmasida qonun hujjatlariga, shuningdek ta'lim oluvchi va ta'lim tashkiloti o'rtasida tuziladigan shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Pedagog xodimlarga pedagogik faoliyatni amalga oshirishda axloq va etika normalariga zid harakatlar sodir etish taqiqlanadi.

Pedagog xodimlarning kiyim-boshiga doir talablar ta'lim tashkilotlari tomonidan belgilanadi.

Ta'lim oluvchilarning xam xuquq va majburiyatlari berilgan. Xorijda o'qish va uning asoslari ham mukammal yoritilgan.

Umumiy o'rta ta'lim o'n bir yillik majburiy ta'lim, hamda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidan iborat. Umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich ta'limni ham qamrab oladi. Mazkur bosqichda o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari, ularda bilim olish ehtiyojining yuzaga kelishi, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni o'zlashtirishlari, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlar, mehnat, ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish, shuningdek, kasb tanlash ko'nikmalarining shakllanishi uchun pedagogik shart-sharoit yaratiladi

Akademik litsey o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda, ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlariga muvofiq, o'rta maxsus ta'lim beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasidir. Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlab

olgan ta'lim yo'nalishi (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bo'yicha bilim saviyalarini oshirish hamda o'zlarida fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsadida tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir. Kasb-hunar kollejlari yangi tipdagi ta'lim muassasalari bo'lib, ularning jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning puxta tanlanganligi, shuningdek, o'quv jarayonining zamonaviy texnika va texnologiyalar yordamida tashkil etilishi alohida e'tiborga loyiq.

Oliy ta'lim o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanib, ikki bosqichda (bakalavriat hamda magistratura) tashkil etilib, mutaxassislar yo'nalishlari bo'yicha xalq xo'jaligining turli sohalariga oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlaydi. Oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik-shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Bakalavriat- mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim olish muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim. Bakalavr darajasiga ega bo'lgan shaxs oliy ta'lim tizimi yo'nalishidagi o'zi tanlagan soha bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassis hisoblanadi va davlat klassifikatorida belgilangan lavozimda ishlash huquqiga ega bo'ladi. Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizidagi ta'lim bo'lib, magistraturadagi tahsil yakuniy klassifikatsion davlat attestatsiyasiga muvofiq olib boriladi

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta'lim, kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida aspirantura, adyunktura va doktoranturada ta'lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladi. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim nomzodlik yoki doktorlik dissertatsiyalarining himoyasi bilan yakunlanadi

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayonida asosiy e'tibor mutaxassislarning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratiladi. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ana shu yo'nalishda faoliyat yurituvchi ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Bu muassasa tinglovchilari o'qish natijalariga ko'ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikatga ega bo'ladilar.

Maktabdan tashqari ta'lim- maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida davlat organlari, jamoat tashkilotlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda yo'lga qo'yilib, bolalar hamda o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarni qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish maqsadida olib boriladi.

Savol va topshiriqlar;

1. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirishning kontseptual asoslari haqida nimalarni bilib oldingiz.
 2. O'zbekiston ta'lim tizimi haqida umumiy tushunchalaringizni tushunchalar tahlili metodi orqali ifodalang .
 3. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning mohiyati va qabul qilinish jarayonlarini xronologik asosda bayon qiling.
 4. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari nima?
 5. Ta'lim olish huquqi nima va kimlar qanday foydalanadi?
 6. Ta'lim sohasidagi mustaqillik yillarida yurtimizdagi ijobiy islohatlar va yutuqlarni texnologiyalar asosida ifodalang (qnday, charxpalak, zinama-zina metodlari orqali)
 7. Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi. Kimlar Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega?
 8. Ta'lim tamoyillari haqida nima deya olasiz?
 9. Rivojlangan xorijiy davlatlar ta'lim tizimi bilan taqqoslang, yutuq va kamchiliklar haqida mulohaza qiling.
 10. Maktabgacha ta'lim tizimi rivojlanishidagi isloxlarni xronologik jadvalini tuzing.
 11. O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lur,
Bilim qayda bo'lsa, buyuklik bo'lur.
- Yusuf Xos Hojib hikmatli so'zlarini qanday tushundingiz, yana misollar keltiring
12. Ilmdan yaxshiroq xazina bo'lmas,
Qo'lingdan kelgancha tera olsang, bas.

Abu Abdullo Rudakiyning xikmatli soʻzlarini qanday talqin qilasiz, misollar keltiring.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2017.
2. Xodjayev B.X.Choriyev, A.Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. – T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018.
3. Roʻziyeva D.I., Tolipov Oʻ.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019.
4. Mutalipova M.J. Xodjayev, B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU, 2015
5. Asqarova Oʻgʻiloy, Mahmudjon Nishonov, Zarifa Kurbanova, Dilafroʻz Muminova “PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA FANLARINI OʻQITISH METODIKASI” darslik. Toshkent-2019 yil.
6. www. Ziyonet. uz

2-MARUZA. PEDAGOGIKA SHAXS TARBIYASI VA RIVOJLANISHI TOʻGʻRISIDAGI FAN. PEDAGOGIKANING ILMIY-PEDAGOGIK TADQIQOTLAR METADOLOGIYASI VA METODLARI

Reja:

1. Pedagogika ijtimoiy fan sifatida. Uning asosiy kategoriyalari va tushunchalari (tarbiya, oʻqitish, maʼlumot).
2. Pedagogika fanining metodologik asoslari.
3. Pedagogika fanining tarmoqlari. Fanlar tizimida pedagogikaning oʻrni va ahamiyati.
4. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.

Mavzuning maqsadi:

Pedagogika fanining maqsad va vazifalari, kategoriyalari, metodologik asoslari, tarmoqlari va uning ilmiy-tadqiqot metodlari haqida maʼlumot berish hamda pedagogika faniga qiziqishni uygʻotish.

Mavzuning vazifalari:

Pedagogika fanining ijtimoiy ahamiyati, maqsadini yoritish; pedagogika fanining metodologik asoslarini koʻrsatish; pedagogika fanining boshqa fanlar bilan

aloqalarini asoslash; pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlarining vazifalarini belgilash va hokazo.


Tayanch ibora va atamalar: pedagogika, tarbiya, ta'lim, ma'rifat, ma'naviyat, madaniyat, ta'limning milliy modeli, ma'lumot berish, o'qitish, bilim, pedagogikaning asosiy funktsiyasi, didaktika, xususiy didaktika, pedagogika tarixi, pedagogika nazariyasi, maktabshunoslik, oila pedagogikasi, maktab ta'limi pedagogikasi, umumiy pedagogika, maxsus pedagogika, oliy ta'lim pedagogikasi, xususiy pedagogika, defektologiya, qiyosiy pedagogika, milliy pedagogika.

1. Pedagogika ijtimoiy fan sifatida. Uning asosiy kategoriyalari va tushunchalari (tarbiya, o'qitish, ma'lumot)

Pedagogika — tarbiyaning umumiy qonuniyatlari haqidagi fandır. Pedagogika — yunoncha, pais — bola, agogos — yetaklash - bola yetaklovchi ma'nosini anglatadi. Insonlarning ma'rifiy va ma'naviy barkamollikka munosabatlarining o'zgarib borishi natijasida pedagogika (bolani to'g'ri hayotga boshlash san'ati) fani xalq orasida o'z mavqeyiga ega bo'ldi. Shu tariqa insonni tarbiyalovchi fan sifatida pedagogika dunyoviy fanlar tizimi qatoridan alohida o'rin egalladi. Uning bosh muammosi tarbiyadir.

Inson tarbiyasi haqidagi fikrlar, g'oyalar, qarashlar, qoidalar, qonunlar dastlab qissalarda, pandnomalarda, qadriyatnomalarda, yozma yodgorliklarda, xalq og'zaki ijodida, ilohiy va muqaddas kitoblarda asoslab berilgan bo'lsa, keyinchalik mustaqil fan tarzida o'z mavqeyini mustahkamladi. Pedagogika fani ta'riflari to'g'risida har xil qarashlar mavjud. «Pedagogika - tarbiya haqidagi ta'limot, tarbiyalash san'ati, tarbiya insonni shakllantirishga qaratilgan muayyan tizimli faoliyat hamda ta'lim-tarbiyaning mazmuni, shakli va metodlari haqidagi fan. Pedagogika tarbiya va ta'lim sohasiga tegishii bilimlar yig'indisi»; Unda yosh avlodni va kattalarni tarbiyalash haqida baxs yotadi. Ta'riflarni umumlashtirib, pedagogika tushunchasini quyidagicha ifodalash mumkin (2.1.1-shaklga qarang).

1.«Tarbiya - shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; inson-ning jamiyatda yashashi uchun zarur boigan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi».



2.1.1-shakl. «Pedagogika»da ta'lim-tarbiya va ma'lumot hosil qilinishi.

Demak, tarbiya - ijtimoiy hodisa bo'lib, insonning shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy ma'naviy qadri-yatdir. Tarbiya insoniyat bilan birga paydo bo'lib, usiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham faoliyat ko'rsata olmaydi. Chunki, tarbiya inson va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyat bo'lib, u avloddan avlodga o'tib boraveradi. Tarbiya yordamida inson shaxsining ma'naviy jihatlarini qaror toptirish ko'zda tutiladi. Dunyoqarash, e'tiqod, ezgulik, go'zallik, yaxshilik, adolatga nisbatan qarash va ko'nikmalarning shaxs sifatiga aylantirilishi tarbiya yordamida amalga oshiriladi.

2. Ta'lim — ta'lim oluvchiga maxsus tayyorlangan mutaxassislar yordamida bilim berish va ulardagi ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishdagi ikki yoqlama (ya'ni, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati) jarayon bo'lib, u kishini shaxs sifatida hayotga va mehnatga ongli ravishda tayyorlash vositasi.

2.1. «Ta'limning milliy modeli — O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini yangilangan sog'lom pedagogik tafakkur asosida tubdan isloh qilish, ta'lim-tarbiya muassasalarida tayyorlanadigan kadrlarni intellektual, ma'naviy va axloqiy saviyasiga ko'ra rivojlangan mamlakatlardagi darajaga yetkazish bo'yicha belgilangan nazariy-metodologik, amaliy pedagogik yondashuvlar majmuyi.

3. Ma'lumot berish —bu o'rganilayotgan obyekt (ta'lim-tarbiya jarayoni, ta'lim-tarbiya oluvchi va h.k.)ning muhim xususiyatlari va xossalari haqidagi ma'lumotlarni ifodalash jarayoni bo'lib, unda obyekt to'g'risida sonli va sifatli ma'lumotlar aks ettirilgan bo'ladi. Ma'lumot berish - bunda nafaqat o'qitish, balki o'ziga mustaqil bilim olish, ommaviy axborotlar ta'sirida bo'lish bilan birga, inson-ning ilmiy tizimni egallashi, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ko'zda tutiladi. Ma'lumot — ta'lim-tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarashlar majmuyi. Bilimlar - odamlarning ijtimoiy-tarixiy amaliyot jarayonida to'plangan va umumlashgan tajribasi.

Buyuk davlat arbobi va ilm-fan homiysi, olim va o'z davri ta'lim tizimining bosh islohotchisi, ma'rifatparvar inson, dunyoda birinchi hisoblash markazining tashkilotchisi Mirzo Ulug'bekning hayoti va faoliyatida ham dunyoviy ilmlar o'qitilishiga katta e'tibor berilgan. Ulug'bek maktab va madrasalarda berilgan nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etish maqsadida mudarrislar, talabalar bilan rasad-xonada amaliy mashg'ulotlar o'tkazishni talab etib, bu ishlarga bevo-sita o'zi rahbarlik qilgan. Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning ta'lim-tarbiya sohasida o'sha zamonlarda, hattoki hozirda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan fikrlari pedagogika fani metodologik asoslarini tavsiflashda nihoyat-da muhimdir. Ya'ni, u ta'lim berish jarayonida quyidagilarga e'tibor berish lozim, deb ta'kidlaydi: ta'lim oluvchini zeriktirmaslik kerak; talabalarga bilim berishda bir xil narsa va ma'lumotlarni doimo bir xil usulda o'rgatavermaslik kerak; uzviylik va izchillik asosida mavzularni qiziqarli qilib o'rgatish yo'larini kashf etib borish lozim;

Pedagogikada ta'lim va tarbiya jarayonlarining turli jihatlarini o'rganishdan kelib chiqadigan bir qancha soha va bo'limlar mavjud. Ular:

1. Didaktika - bu o'qitishning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, usullari bilan shug'ullanadigan soha. Didaktika pedagogikaning ta'lim jarayonidagi umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi qismidir. Didaktika yunoncha so'z bo'lib, «didasko» - o'qitish, «didaskol» -o'rgatuvchi, degan so'zlardan kelib chiqqan. Muayyan bir fanga tadbiq etilgan didaktik qonuniyatlar, o'sha o'quv predmetining umumiy jihatlarini muayyanlashtiradi va ularda o'qitishning umumiy jihatlarini namoyon bo'ladi.

2. Pedagogikada tarbiya nazariyasi va amaliyoti tarmog'i- bunda shaxsning axloqiy sifatlarini tarkib toptirish, unda e'tiqod, dunyoqarash, axloq singari ma'naviy jihatlarini shakllantirish masalalarining yechimi qaraladi.

3. Pedagogika tarixi - bu jahon yoki milliy tarbiya nazariyasi, didaktika fani va amaliyotining jamiyat taraqqiyoti turli davrlarida

qanday mazmun-mohiyatga egaligi, ularning qanday shaklda ifodalanganligi, qaysi usul, vosita, uslubiyat va shakllardan foydalanib faoliyat ko'rsatganligi, qanday natijalarga erishganligi kabi masalalarni o'rganadi.

4. Pedagogikaning maktabshunoslik sohasi — bunda ta'lim-tarbiyani tashkil qilish, uyushtirish va uni boshqarishga oid bo'lgan tashkiliy-pedagogik qonuniyatlar o'rganiladi va ularga mos qonuniyatlar tadqiq etiladi.

Mazkur soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishda, albatta, ta'lim oluvchilar va tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlari e'tiborga olinadi. Bu, shuningdek, muammo yechimidagi natijalarning hayotiyligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Defektologiya - bu jismoniy yoki ruhiy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishining ruhiy-jismoniy xususiyatlarini, ularni tarbiyalash, o'qitish va shakllantirishdagi o'ziga xosliklarni hisobga olib ish ko'radigan pedagogika fani tarmog'i.

Pedagogikafanining dolzarb muammolari:

1. Pedagogika fanini milliy pedagogika sifatida tarkib toptirish va uni jahon fanlari tizimida yuqori darajaga ko'tarish.

2. Pedagogika fani milliy mafkura, kadrlar tayyorlash milliy modeli, taraqqiyotning «o'zbek modeli» talablari va ilg'or rivojlangan davlatlar ta'lim standartlari asosida innovatsion yondashuvlar bilan o'z metodologiyasi va yo'nalishlarini tubdan isloh qilish.

3. Pedagogika fanidagi tadqiqot saviyasi va uning metodologiyasiga innovatsion tus berish, ulardagi sifat o'zgarishlari va samaradorlikni muntazam rayishda baholab borishga erishish.

4. Pedagogik tadqiqotlarni olib borishda boshqa fanlarning ilg'or yutuqlaridan foydalanishga erishish, shaxsni bir butunlikda o'rganish va uni shakllantirish metodologiyasini yaratish.

5. «Pedagogika fanlari tizim va tarkibini takomillashtirish, ijtimoiy pedagogika sohasida oila pedagogikasi, ma'naviyat-ma'rifat pedagogikasi alohida fan sifatida tarkib topishi. Professional pedagogikada iqtidorli bolalarni tanlash va ularni o'qitish, maktab, litsey, kollej, malaka oshirish, oliy va xususiy o'quv yurtlari ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish nazariyasi va amaliyotini takomillashtirish. Pedagogika nazariyasi va amaliyotining o'zaro bog'liqligi, pedagoglar ommasining erkin ijodkorligiga sharoit yaratish tajribalarini o'rganish va ommalashtirish tizimini tarkib toptirish».

7. Uzluksiz ta'lim tizimida bola tarbiyasi rivojining uzviyligi va

uzluksizligini ta'minlash konsepsiyasini ishlab chiqish hamda bar-kamol avlodni shakllantirishga zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishga erishish. Pedagogik diagnostika va prognoztika yo'nalishida ilmiy-tadqiqot ishlarini davr talabiga mos rivojlantirish. Bunda ilm-fan va texnika-texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlaridan samarali foydalanishga erishish.

8. Ta'lim-tarbiya tizimida modeli, modulli ta'lim texnologiyalariga keng o'rin ajratish va ular asosida kompyuter uchun muloqotli ishchi dasturlar tayyorlab, kompyuterli tizimlar yaratishga erishish va ulardan ta'lim-tarbiyaning innovatsion xususiyatlarini vujudga keltirishda keng foydalanish.

9. Ta'lim-tarbiya jarayonida reyting-nazorat tizimiga katta e'tibor berish va bu jarayonlarni boshqarishni zamonaviy kompyuterlar zim-masiga yuklashga harakat qilish.

10. Uzluksiz ta'lim tizimidagi ta'lim-tarbiya tizimining maqsadi, vazifasi va mazmunini zamonaviy davr talablari asosida tubdan isloh qilishga erishish.

11. Ta'lim-tarbiya tizimi metodologiyasini tubdan isloh qilish konsepsiyasini, komil inson modelini ishlab chiqish texnologiyasini yaratish.

12. Ta'lim-tarbiya jarayoniga bir butunlikda qarab, unga «tizimiy yondashuv» tadqiqot usulini qo'llashga erishish.

13. Tarbiyaning umumiy metodlarini takomillashtirish, sharq xalqlarining tarbiya borasidagi tajribalarini qo'llash metodikasini yaratish, tarbiya mazmuni va metodini insoniylashtirish; istiqloq mafkurasi asosida yoshlarning milliy dunyoqarashini shakllantirish, o'quv fanlarining aqliy kamolot imkoniyatini oshirish, sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya ishlarining o'quvchilar dunyoqarashini tarkib toptirish darajasini oshirish; ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunini takomillashtirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitish. Axloqiy tarbiyada sharqona namuna metodini qo'llash texnologiyasini yaratish».

15. Kasbiy va mehnat tarbiyasining jamiyat, ishlab chiqarish, ilm-fan, texnika-texnologiyalar asosida rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish.

16. Iqtisodiy va ekologik ta'lim-tarbiyani rivojlantirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanishga erishish va bunda ilm-fan yutuqlaridan muntazam foydalanib borish mexanizmini yaratish.

17. Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani yanada jonlantirish va yoshlari-

miz g'oyaviy ongida bo'shliq hosil bo'lishga yo'l qo'ymaslik metodologiyasini yaratish.

18. Aqidaparastlik va terrorizm ta'siridan yoshlarimizni asrashda kasbiy-kompyuterli o'yinlardan keng foydalanishga erishish, ayniqsa, kiberterrorizmdan yoshlarimizni asrash mexanizmini barpo etishga keng imkoniyatlar yaratish.

19. Ijtimoiy va kasbiy pedagogikaning barcha sohalarini muntazam ravishda davr bilan mos holda takomillashtirib borishga erishish.

20. Ta'lim-tarbiya sohasidagi barcha xatt-harakatlarimizni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, boshqa shu kabi davlat me'yoriy hujjatlari asosida olib borishga erishish va hokazo. Ushbu muammolar qatorini yana davom ettirish mumkin.

Ushbu ma'noda pedagogika fanining vazifalari quyidagilardir:

- Sharq va G'arb xalqlari yaratgan, xalq og'zaki ijodiyotiga asoslangan pedagogikani, mutafakkir, ma'rifatparvar, pedagog va olimlarning tarbiyashunoslikka doir ilg'or g'oyalarini o'rganib, tahlil qilib, barkamol shaxsni shakllantirishning qonun-qoidalari va zaruriy sifatlarini aniqlash;

- Pedagogika — tarbiyashunoslikdagi ta'lim-tarbiya nazariyasini hozirgi davr xususiy metodikasi bilan uzviylik muammosini ishlab chiqish va zamonaviy pedagogik texnologiyalar talablariga amal qilish;

- ta'lim-tarbiya nazariyasidagi qoida, qonun, tamoyil, metod va uslublarni maktab amaliy hayoti bilan bog'lab bo'lajak o'qituvchilarga o'rgatish;

- xalq ta'limini boshqarish va unga fahbarlik masalalarini chuqur o'rganib, bo'ijak o'qituvchilarni qanday tayyorlash muammolarini hal etish.

Fanlar tizimida pedagogikaning o'rni va ahamiyati

Pedagogika fani tarbiya nazariyasi va dialektikaning uyg'unligi asosida insonda bozor munosabatlarini shakllantirish, milliy-ma'naviy meros, an'analar, urf-odatlar milliy va umuminsoniy qadriyatlarining boy manbalari bo'lgan tarbiya va ta'lim berish haqidagi tushuncha, bilim, ko'nikma va malaka hosil qilishda boshqa fanlar qatori o'z o'rni va aloqadorligi bor. Pedagogika falsafa, psixologiya, odam ana-tomiyasi va fiziologiyasi, sinergetika va informatika kabi fanlar bilan mushtarak holda rivojlanib kelgan

Pedagogik fanlarning boshqa fanlar bilan aloqasi. Pedagogika fani inson tarbiyasi bilan shug'ullanganligi sababli, unga hamma fanlar ko'maklashishi tabiiydir. Inson tarbiyasining qaysi sohasini olib ko'rsangiz, u qaysidir fan bilan

aloqadorlikda amalga oshiriladi, o'sha fanning qonun-qoidalariga suyanadi. Pedagogikaning metodologik asosi bilan nazariyasi va tarbiyadagi qonun-qoidalari bevosita falsafa fanining ta'sirida amalga oshiriladi. Abu Nasr Forobiy «Tal-xisu navomisi Aflotun» (Aflotun qonunlarining mohiyati) asarida inson kamolotining falsafa fanining ta'sirida rivojlanishini shundayko'rsatgan edi: «Yaxshi fazilatga ega bo'lgan shahar aholisi eng baxtiyor odam bo'lishi, qonunlarga ixtiyoriy bo'ysunishini ta'minlash uchun qonunlarni takomillashtirish, ulardagi qoidalarni mustahkam-lash zarurdir».

2.4. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.

Metod haqida tushuncha. Metod tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot deb tarjima qilinadi. Ilmiy tushuncha sifatida «metod» so'zi keng ma'noda muayyan maqsadga erishish yo'lini, tor ma'noda tabiat va ijtimoiy hayot hodisalari va qonuniyatlarini bilish maqsadida qandaydir vazifani hal etish usulini bildiradi. Obyektiv dunyoni bilish, nazariyada nimani o'rganish kerak, kimni va qanday tarbiyalash lozim degan masalalar mavjud bo'lib, ular o'zaro uzviy bog'liqdir.

Mavjud metod (usul)lar asosan quyidagilardir:

- adabiyotlarni o'rganish metodi;
- kuzatish metodi;
- suhbat metodi;
- bolalar ijodini o'rganish usuli;
- maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi;
- eksperiment — tajriba, sinov usuli;
- test sinovlari metodi;
- statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usuli;
- matematik va kibernetik usullar;
- sotsiologik tadqiqot metodi.

Adabiyotlarni o'rganish metodi - pedagogik adabiyotlarni o'rganish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiruvchi, mutafakkir va ma'rifatparvar pedagog olimlarning asarlari, mus-taqil O'zbekistonning iqtisodiyotiga, mafkurasiga va ma'naviyatiga doir adabiyotlar, O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev asarlari, tadqiqot mavzusiga doir darsliklar, monografiyalar, risolalar va maqolalar, tadqiqot mavzusiga doir pedagogik-psixologik tadqiqotlar, dissertatsiyalar o'rganiladi, umumlashtiriladi, xulosa chiqariladi.

Kuzatish metodlari - kuzatish adabiyotlarni o'rganishdan boshlanadi. Kuzatishni tadqiqotchi biror maqsadni ko'zda tutib tashkil etadi. Kuzatish rejalashtiriladi, uning dasturi tuziladi. Bunda kuzatish tezligi, soni, manzili, vaqti, vaziyatni kuzatish, materiallarni qayd qilish muddati belgilanadi. Kuzatish,

muddatiga ko‘ra, ikki turga ajraladi: qisqa va uzoq muddatli kuzatish. Qisqa kuzatish — obyektning kundalik faoliyatidagi o‘zgarishlaridan ma’lum xulosaga kelish.

Suhbat metodi — tadqiqot mavzusining biror tomoni yoki hodisalari haqida bilib olish maqsadida maxsus shaxslar bilan og‘zaki savollar berilib, ulardan axborot olish jarayonidir. So‘roqlar mavzu doirasida mantiqan mazmunli, tartibli, aniq ifodaga ega bo‘lishi lozim va uni to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligiga qarab, tuzib, natijasi aniqlanadi. Suhbat metodi jarayonida intervyu olish ham mumkin.

Pedagogik eksperiment — har qanday pedagogik tadqiqot-ning asosidir. Pedagogik eksperiment yordamida ilmiy farazlarning ishonchliligi tekshiriladi, pedagogik jarayonlarning ayrim elementlari o‘rtasidagi bog‘liqlik va munosabatlar aniqlanadi. Pedagogik eksperiment ikki turga bo‘linadi: qayd qiluvchi va shakllantiruvchi.

1. Tekshiruvchilar soni va tajribalar miqdorining aniq bo‘lishi.
2. Tadqiqot medodlarining ishonchliligi.
3. Farqlarning statistik jihatdan ahamiyatliligini hisobga olish. Turli metodlarning o‘zaro qo‘shib olib borilishi pedagogik tadqiqotlarning samaradorligini va sifatini oshirishga imkon beradi. Bunga matematik metodlarning hamda hisoblash-yechish qurilmalari yordamidagi eksperiment natijalarining pedagogikaga kirib kelishi ham yordam beradi.

Maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi - pedagogik hodisalar va faktlarni tekshirishda maktab hujjatlarini mukammal va chuqur o‘rganmoq lozim. Maktab hujjatlarini tahlil qilishda ta’lim qonuniga amal qilinmog‘i kerak. Maktab hujjatlarini tahlil qilishda, o‘quvchilarning ijodiy faolligi va mustaqilligini, uning iqtidorini hamda ilg‘or pedagogik tajribalarning umumlashtirilishi va joriy etilishini ko‘rsatgan taqdirdagina to‘liq qiymatga ega bo‘ladi.

Bolalar ijodini o‘rganish metodi - maktab o‘quvchilari ijodini hamda ularning turli-tuman ishlarini o‘rganish va tahlil qilish pedagogik tadqiqotning samarali metodlaridan biridir. Iqtidorli o‘quvchilar aqliy qobiliyatlari, olijanob axloqiy qiyofalari, estetik didlari, sinchkovliklari va qiziquvchanliklari bilan ajralib turadi. Pedagogika fani bolalar ijodining manbalari va omillarini chuqur bilishga hamda ularni yanada taraqqiy ettirish va takomillashtirishning to‘g‘ri yo‘llarini ko‘rsatib berishga qaratilgan.

Statistik ma’lumotlarni analiz va sintez qilish metodi - pedagogik tadqiqotning kerakli statistik ma’lumotlarini ma’lum bir maqsad bilan tizimli o‘rganish, mustaqil O‘zbekistonda fan, madaniyat, ta’lim-tarbiyaning taraqqiy etishiga salmoqli hissa qo‘shadi. Xalq ta’limi sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag‘larning doimiy o‘sib borishi, darslik va o‘quv qo‘llanmalari, ko‘rgazmali

qurollar, o'qituvchi kadrlar tayyorlash, maktab qurilishi, xo'jalik shartnomalari va ulardan tushadigan mablag'lar statistika usuli orqali aniqlanadi.

Anketalar metodi- o'quvchilardan so'rash usuli bo'lib, u o'quvchilar jamoasining bilimlari to'g'risidagi kerakli ma'lumotlarni olish, ularning fikrlari va qarashlarini aniqlash hamda kasbga yo'llashni belgilash uchun maxsus shaklda ishlangan bo'lmog'i lozim. Anketada ko'zlangan maqsadga muvofiq savollar bo'lib, ularning javoblaridan pedagogik natijalar kelib chiqishi ko'zda tutiladi. Yozma javoblarni ommaviy ravishda yig'ib olish metodi anketa metodi deb ataladi.

Hisoblash matematikasi va kibernetika metodlari - hozirgi zamon ishlab chiqarishi, fan va texnikasining talab hamda manfaatlari turmushda sinalgan texnika vositalari, hisoblash matematikasi va kibernetika usullari maktab ichida va pedagogikada qo'llanishini talab qiladi.

Sotsiologik tadqiqot metodi - anketa savollari kiritiladi. Bundan maqsad talaba-yoshlarning kasb-hunarga bo'lgan munosabatlarini, talabalar orasidagi do'stlik munosabatlarini aniqlash, o'zi ta'lim-tarbiya olayotgan oliy o'quv yurtidagi shart-sharoitlarni bilish, yutuq va kamchiliklarni, yoshlar orasidagi munosabatlarni, dinga (xususan, tasavvufga) bo'lgan qiziqishlarini aniqlash, talabalarning ma'naviy sifatleri darajasini, bilim olishga ishtiyoqi, adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi, ilmiy va kasbiy mahoratlarni oshirishdagi mashg'ulotlar turi, stepindiyalar miqdori, ota-onalarning moddiy yordami, ularning ma'lumoti, ish joyi, talabalarning yashash joyi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda ta'sir etuvchi omillar, ularning onglilik darajasi jarayoni, ma'naviy sifatlar, komillikka erishish uchun tez-roq qutilish kerak bo'lgan salbiy sifatleri aniqlashdir.

Muammoni izlash va tanlashda quyidagilarga e'tibor berish lozim: qo'yilgan muammoni yechmasdan, belgilangan yo'nalishda metodni, metodologiyani, texnologiyani va texnikani yanada rivojlantirish va takomillashtirish mumkinligiga ishchi farazni shakllantira olishlik; rejalashtirilgan tadqiqot ilm-fanga va ta'lim tarbiyani rivojlantirishga muayyan nima berishini aniqlash; rejalashtirilgan tadqiqot natijalari asosida olinadigan yangi qonuniyat nimasi bilan usul, vosita va ilm-fan hamda texnika-texnologiyalardagi oldin mavjudlaridan yangi va ko'proq amaliy bahoga ega ekanligini aniqlash.

Xususiy muammolarni qo'yish. Yuqorida qayd etilganidek, muammoni to'g'ri va aniq qo'yish, tadqiqot maqsadi va vazifalarini to'g'ri aniqlash, tadqiqot ko'lamini belgilash va ular asosida tadqiqot manbayini aniqlash ilmiy-tadqiqot ishining muhim bosqichlaridir.

Ta'lim texnologiyasi - aniq bir o'quv predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan qonun-qoida, metod va usullaridan iborat bo'lib, u ta'limda ko'zlangan

maqsadga erishish bosqichlarini o'zida aks ettirgan va ta'lim jarayonini maqsadga muvofiq boshqarishga erishish imkonini beruvchi jarayondir. ham nazariy, ham amaliy fikrlash tadqiqotchida rivojlangan bo'lishi kerak.

Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. *Pedagogika fani nima haqida bahs yuritadi?*
2. *Pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqasini aytib bering.*
3. *Pedagogika fanining bo'limlari deganda nimani tushunasiz?*
4. *Pedagogika fanining dolzarb muammolarini aytib bering.*
5. *Pedagogika fanining vazifalari nimadan iborat?*

3-MA'RUZA: SHAXSNING RIVOJLANISHI, TARBIYASI VA IJTIMOIYLASHUVI

Reja.

1. Inson rivojlanish jarayoni.
2. Shakllanish va rivojlanish. Rivojlanish shartlari va omillari. Irsiyat va rivojlanish. Muhitni rivojlanishga tasiri.
3. Rivojlanish va tarbiya.
4. Faoliyat rivojlanish omili.
5. Rivojlanishning yosh va o'ziga hos xususiyatlari. Yosh davrlarga bo'lib o'rganish.

Tayanch so'z va iboralar: shaxs rivojlanishi, tarbiya, rivojlanish omillari, muhit, faoliyat, yosh davrlari.

1. Inson rivojlanish jarayoni.

Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha. Individ, shaxs, individuallik. Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak.

«Individ» nima? Bola ma'lum yoshga qadar «individ» sanaladi. Individ (lotincha «individium» so'zidan olingan bo'lib, «bo'linmas», «alohida shaxs», «yagona» ma'nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli tefleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir.

Individuallik esa shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, uning namoyon bo'lishi tarbiya jarayonini amalga oshirishda bola shaxsini puxta o'rganish, uning yashash sharoitlaridan yetarli darajada xabardor bo'lish va ularning hisobga olinishini taqozo etadi.

Individual yondashuv o'quvchilarning aqliy qobiliyatlari, bilishga bo'lgan qiziqish hamda iste'dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega.

Bola harakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllana boradi.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiymuhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanishning o'zi nima?

Rivoilanish shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ifodalaydi. Rivojlanishning manbayi qarama-qarshiliklarning o'rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiv mavjudotdir degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiiv qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi.

Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol to'ib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin esallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi.

Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

2. Shaklanish va rivojlanish. Rivojlanish shartlari va omillari. Irsiyat va rivojlanish. Muxitni rivojlanishga tasiri.

Shaxsni shakllantirish - uning o'sishi, qandaydir yangi xususiyat va fazilatlarga ega bo'lish jarayonida. "Shakllantirish" tushunchasi "tarbiyalash" tushunchasiga nisbatan kengroq bo'lib, u shaxs va jamoaning tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadigan hamma narsani, shu jumladan, maqsadga muvofiq jarayonlar (o'qitish, tarbiyalash, ta'lim berish)ni ham, maqsadga nomuvofiq jarayonlar (shaxs va jamoaning o'z ichki tabiati, atrofdagi kishilar, narsalar, tabiat hadisalari va hokazolarning ta'siri)ni ham o'z ichiga oladi. "Shakllantirish" va "tarbiyalash" tushunchalari jiddiy chegaralansa, insonni tabiat hadisalari tarbiyalaydi, deb bo'lmaydi. Insonni faqat kishilar tarbiyalaydi, tabiat hodisalari shaxsni shakllantirishi mumkin, ammo

uni tarbiyalay olmaydi.

Fanda, odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va iitimoiv omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda

Shaxs shakllanishi — inson bioijtimoiy mavjudot bo‘lganligi tufayli, biologik rivoji bilan bir qatorda u ijtimoiy rivojlanib ham boradi va kamolotning ma’lum bir bosqichida shaxsga aylanadi. Kishida bir qator ijtimoiy sifatlar tarkib topib, ilmiy asoslangan mustaqil fikr shakllanadi. Ijtimoiy taraqqiyot tashqi va ichki, boshqariladigan va bosh qarilmaydigan omillar bilan kishiga ijobiy ta’sir etish, ya’ni shaxsning shakllanish jarayoni. Insonning ijtimoiy taraqqiyotida maqsadga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya etakchi o‘rinni egallaydi. Pedagogik faoliyat jamiyatning ta’lim- tarbiyaga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida umuminsoniy sifatlar va fazilatlarni shakllantirishni ilmiy asoslangan reja-dasturga muvofiq amalga oshirish, ya’ni avlodni hayotga tayyorlaydigan ijtimoiy zarur faoliyat turi.

Pedagogik jarayon — o‘qituvchi yoki tarbiyachi, o‘quvchi yoki tarbiyalanuvchi orasidagi bilim berish va bilim olish, o‘rgatish o‘rganish, tarbiyalash maylida kechadigan munosabatlar tizimi.

Pedagogik tamoyil (prinsiplar) — o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi

Shaxs shakllanishi — inson bioijtimoiy mavjudot bo‘lganligi tufayli, biologik rivoji bilan bir qatorda u ijtimoiy rivojlanib ham boradi va kamolotning ma’lum bir bosqichida shaxsga aylanadi. Kishida bir qator ijtimoiy sifatlar tarkib topib, ilmiy asoslangan mustaqil fikr shakllanadi. Ijtimoiy taraqqiyot tashqi va ichki, boshqariladigan va bosh qarilmaydigan omillar bilan kishiga ijobiy ta’sir etish, ya’ni shaxsning shakllanish jarayoni. Insonning ijtimoiy taraqqiyotida maqsadga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya etakchi o‘rinni egallaydi. Pedagogik faoliyat jamiyatning ta’lim- tarbiyaga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida umuminsoniy sifatlar va fazilatlarni shakllantirishni ilmiy asoslangan reja-dasturga muvofiq amalga oshirish, ya’ni avlodni hayotga tayyorlaydigan ijtimoiy zarur faoliyat turi.

Pedagogik jarayon — o‘qituvchi yoki tarbiyachi, o‘quvchi yoki tarbiyalanuvchi orasidagi bilim berish va bilim olish, o‘rgatish o‘rganish, tarbiyalash maylida kechadigan munosabatlar tizimi.

Pedagogik tamoyil (prinsiplar) — o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabat orqali beriladigan bilim turi, hajmi va mazmuni, shuningdek, o‘quv qurollari va tarbiyalanuvchilarning ruhiy xususiyatlari o‘rtasidagi zaruriy bog‘liqliklardan kelib chiqqan qonuniyatga amal qilish.

Pedagogik tajriba — ta’lim-tarbiya beruvchi

Insonning shaxs sifatida, rivojlanishida ijtimoiy hodisalarning ta'siri kuchli bo‘ladimi? Yoki tabiiy omillar yetakchi o‘rin tutadimi? Balki, tarbiyaning ta'siri yuqoridir? Ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabat qanday?

Fanda biologik yo‘nalish deb nomlangan nuqtayi nazar yetakchi o‘rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy- biologik omillarni yuqori qo‘yadi. Ular tug‘ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o‘rnini belgilab bergan, deydilar.

XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va

tarbiyaning rolini inkor etadi.

Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim — bixeviorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo‘lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o‘tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta‘limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir.

Progmatizm oqimi va uning vakillari D.Dpyul, A.Kombe ham shaxs rivoilanishini biologik nuqtayi nazarda asoslaydilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o‘zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini aibsolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar.

Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog‘laydilar.

Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishni ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishini yashaydigan muhitga bog‘liq deb ko‘rsatadilar.

Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta‘sir tushuniladi. Shu nuqtayi nazardan tarbiya tufayli bolani o‘zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Ular ijtimoiy tnuhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs kamolga yetishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta‘sirini aniqlashda ilg‘or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta‘limotiga suyaniladi.

Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma‘naviy boyligi uning munosabatlariga bog‘liq, deb hisoblaydilar.

Haqiqatdan ham, shaxs mehnat faoliyati zaminida rivojlanadi, kamolga yetadi. Inson sharoitni, sharoit esa odamni yaratadi. Bu esa o‘z navbatida inson faolligini namoyon etadi. Zero, shaxs ma‘lum ijtimoiy tuzum mahsulidir. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi yoki yo‘q qilishi mumkin.

Faylasuflar shaxsni tabiatning bir bo‘lagi deb baholaydilar. Bu insondagi layoqat kurtaklari bo‘lib, uning rivojlanishi uchun tarbiya kerak, degan g‘oyani ifodalaydi.

Jamivat taraqqivoti shaxs rivojlanishi uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Demak, shaxs bilan jamiyat o‘rtasida ham uzviy aloqa mavjud.

Shunday qilib, odam shaxsining jamiyatdagi rivojlanishi tabiat, muhit, inson o‘rtasidagi murakkab aloqa ta‘sir ostida ro‘y beradi, inson ularga faol ta‘sir etadi va shu yo‘l bilan hayoti va o‘z tabiatini o‘zgartiradi.

Shaxsga ijtimoiy muhitning ta‘siri ham muhim. Bu tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi. Ya‘ni,

Birinchidan, tarbiya ta‘sirida muhit bera olmagan bilim, ma‘lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog‘liq ko‘nikma va malakalar hosil bo‘ladi.

Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug‘ma kamchiliklar ham o‘zgartirilib, shaxs

kamolga yetadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin.

To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bu tarbiya doimiy va uzluksizdir.

Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

3. Rivojlanish va tarbiya.

Tarbiya va rivojlanishning o'zaro bog'liqligi to'g'risidagi muammo qatortadqiqotchilar, jumladan A.I.Leontbev., L.V.Zankov, CH.S.Kostyuk va boshqalarizlanishlarining asosiy mavzusi hisoblanadi.

Biologik jihatdan rivojlanish nerv faoliyati bilan insonni o'rab turgan borliqning o'zaro ta'siri natijasidir. Miya va butun nerv sistemasi bizni o'rab turgan muhitning uzluksiz ta'sirida rivojlanib boradi.

Lekin ularning rivojlanishida tarbiya to'laligicha hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Psixik rivojlanish nerv sistemasining rivojlanishi bilan mustahkam bog'liq. Ayniqsa, katta miya yarim sharlari tarbiya jarayonida rivojlanadi va xatto rivojitezlashadi.

P.Pavlovning fikricha: "Inson va hayvonning xatti-harakati faqat nerv sistemasining tug'ma xususiyatlari bilangina chegaralanmaydi, balki organizmning ayrim yashash davrida unga ko'rsatilgan va doimo ko'rsatib turiladigan ta'sir bilan ham belgilanadi, ya'ni keng ma'noda aytganda, inson va hayvonning xatti-harakati doimiy tarbiyaga va o'rgatishga bog'liq" (II.T. 269-bet).

Agar tarbiya va ta'lim bolaning ichki rivojlanish qonuniyatlariga mos bo'lsa, tarbiya ko'zlangan maqsadga erishadi. O'sayotgan inson doimiy murakkablashib borayotgan talablar ta'sirida rivojlanadi. Bu bilan bola tarbiyaviy ta'sirni shundayligicha qabul qilmaydi, balki o'zida uni qayta ishlaydi.

Tarbiya bilan rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik, ayniqsa, ta'lim jarayonidayanada yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ayniqsa, bu o'rinda rus tadqiqotchisi L.S.Vigotskiy ta'limoti e'tiborga loyiqdir. Uning konsepsiyasiga ko'ra, bolaning aqliy rivojlanishida ikkita bosqich katta o'rinni egallaydi.

Birinchi, bola ma'lum topshiriqlarni mustaqil bajaradi. Buni bola psixik funksiyalarining rivojlanish bosqichi deb yoki muhim rivojlanish bosqichi, deb aytish ham mumkin. Bola taqlid orqali kattalar rahbarligida ko'proq narsani tushunib bajarishga kirishadi. Bu endi aqliy rivojlanishning ikkinchi bosqichidir. Ikkinchi va birinchi bosqich o'rtasidagi farq bolaning yaqin rivojlanish zonasini belgilab beradi.

Bola bugun kattalar yordamida qilgan narsalarini ertaga o'zi mustaqil bajaradi. Bu esa bolaning keyingi kunini, uning dinamik rivojlanish holatini aniqlab olish imkonini beradi.

Rivojlanishning sifat o'zgarishi shaxs psixik faoliyatining sifat o'zgarishibilan bog'liq.

Bu o'rinda har qanday faoliyatning asosi bo'lgan motivlar masalasiga e'tiborni qaratmoq kerak. Motivlar qanchalik chuqurlashtirilsa (xoh ijtimoiy, xoh shaxsiy bo'lsin), faoliyat samarasi, ya'ni ta'lim-tarbiya natijasi shunchalik yuqori bo'ladi. Demak, tarbiyachi tarbiyalanuvchi ehtiyojini yanada oshirmoqchi, qiziqishini kuchaytirmoqchi, uning kuchli xohishini uyg'otmoqchi bo'lsa, belgilangan maqsadni ixtiyoriy, bevosita faoliyatga (bola tomonidan) aylantirishni istasa, demak, uning (faoliyat, maqsad) motivlarini, bola ehtiyojiga juda yaqin yoki bevosita xohishi darajasida kuchaytirishi kerak.

Uning aksicha yo'lga qo'yilgan faoliyat hissiz, majburiy tarzda, hech qanday xohishsiz bajariladi.

Bu esa bola rivojlanishiga aks ta'sir ko'rsatadi.

4. Faoliyat rivojlanish omili.

Shaxs rivojlanishida faoliyatning o'rni. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya bilan bir qatorda inson faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu degani inson qanchalik mehnat qilsa, uning rivojlanishi shunchalik yuqori bo'ladi.

Faoliyat o'zi nima? Faoliyat shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi. Insonning qobiliyati va yoshi u tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga ko'ra belgilanadi.

Faoliyat jarayonida inson shaxsi, har tomonlama va bir butun, yaxlit holda rivojlanadi. Lekin faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirishi uchun uni to'g'ri tashkil etish lozim. Lekin ko'p holatlarda shaxsning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratilmaydi, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatlari cheklangan bo'ladi.

O'smir va o'spirinlar faoliyatining asosiy turlariga o'yin, o'qish va mehnat kiradi. Ular yo'nalishiga ko'ra bilishga doir, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik hamda shaxsiy qiziqishga ko'ra tanlangan sohalardan iborat. Faoliyatning asosiy turi muloqotdir.

Faoliyat faol va passiv bo'lishi mumkin. O'smir faoliyati muhit va tarbiya ta'sirida faollashishi yoki susayishi mumkin. Inson shaxsining rivojlanishida uning butun vujudi bilan sevib, o'z imkoniyatlarini namoyon etib, mehnat qilish, o'zini shaxs sifatida ko'rsata olishi unda o'z faoliyatidan qoniqish hosil qiladi. Uning ijtimoiy mehnatdagi ishtirokida faollik ko'zga tashlanadi.

Ta'lim jarayonidagi faollik o'quvchiga bilimlarni chuqur va mustahkam egallashga, o'z qobiliyatini namoyon etishga yo'llaydi. Bijishga bo'lgan faollik o'quvchining intellektual rivojlanishini ta'minlaydi.

Faollik ko'rsatishning asosini esa hamma vaqt ehtiyoj tashkil etadi. Ehtiyojlarning xilima-xilligi faoliyatning ham turlarini kengaytiradi. Shunga ko'ra, o'quvchining turli yosh davrlarida faoliyati turlicha bo'ladi. Ta'lim muassasasida, hamma vaqt bir xil talab shaxs rivojlanishida ijobiy natija beravermaydi. Turli yosh davrlarida faoliyatning turlari va mohiyati o'zgarib turishi kerak.

Insonning ijtimoiy faolligi, qobiliyati barcha muvaffaqiyatlarining garovidir.

Chunki har bir inson o‘z mehnati, g‘ayrati, intilishi bilangina faollashadi. O‘qituvchi qanchalik yaxshi o‘qitmasin yoki tarbiya bermasin, tarbiyalanuvchining o‘zi harakat qilmasa, rivojlanish muvaffaqiyatli kechmaydi. Zero, barcha ma'naviy-axloqiy kamchiliklarning asosiy sababi ham insonning o‘z faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ymaganligidadir.

Shuning uchun ham inson faoliyati uning rivojlanishi natijasi hamdir. Demak, shaxs faolligi asosida ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik xislatlarini shakllantirish — uning shaxslik imkoniyatlarini namoyon etishi orqali faoliyatini rivojlantirish muhim sanaladi.

5. Rivojlanishning yosh va o‘ziga hos xususiyatlari. Yosh davrlarga bo‘lib o‘rganish.

Muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta‘lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta‘siri kuchli bo‘ladi.

Bolalarning tarbiyasiga to‘g‘ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o‘qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o‘sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo‘ladi. Abu Ali ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniyalar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o‘tganlar.

Bolaning o‘ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo‘lishi mumkin.

Masalan, ko‘rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust flki yuriltishi, hovliqma yoki vazminligi, serga' yoki kamga'ligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chnla Ulilnydigan, yig'inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta‘siri bo‘lib, o‘qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual — o‘ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o‘ziga xos xususiyatini o‘rganish. metodikasini bilish muhim. Temperament (lot. «temperamentum» «qismlarning bir-biriga munosabati» ma'nosini anglatib, nlmxunlng individual psixologik xususiyatlari majmuidir.

Shuningdek, turli yosh davrlarining o‘ziga xos rivojlanish qominvatlilul ham mavjud Masalan, 5-sinf o‘quvchilari bilan 10-sinf o‘quvt in tenglashtirib bo‘lamaydi. Shuning uchun bolaning jismoniy va psixik kamolot quyidagi davrlarga bo‘linadi:

1. Go‘daklik davri - chaqaloqlik (1 oy) davri tugagandan to bir yoshgacha bo‘lgan davr.
2. Bog'chagacha bo‘lgan yosh davri — 1 yoshdan 3 yoshgacha.
3. Maktabgacha bo‘lgan yosh davri — 3 yoshdan 7 yoshgacha.
4. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar (bolalar)—7 yoshdan 11,12 yoshgacha.
5. O‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilar (o‘smirlar) — 14—15 yosh.

6. Katta yoshdagi maktab o'quvchilari (o'spirinlar) — 16—18 yosh.

Kichik maktab voshida o'yin faoliyatining o'rnini endi o'qish faoliyati egallaydi. Bu juda qiyin o'tish davri bo'lib, bolaning bo'yi, og'irligi jihatdan uning tashqi ko'rinishi kam farq qiladi. Suyaklari qotmagani tufayli tez shikastlanadi. Muskullari tez o'sishi tufayli serharakat bo'ladi. Bosh miyasi tez rivojlanadi.

Jismoniy o'sishiga xos bu xususiyatlar tarbiyachidan ehtiyotkorlikni talab etadi. Bu yoshda bola bilim olish va o'rganishga qiziquvchan bo'ladi.

Bolalar qiziqishini qanoatlantiruvchi qiziqarli uchrashuv, sayr va tomosha, ekskursiyalarni tashkil etish zarur. Mazkur yosh davri o'quvchilariga emotsionallik xos, ularning fikrlashi obrazli bo'ladi, his-tuyg'ulari mazmuni o'zgaradi. Ular odamlar bilan aloqa qilishga qiziqadilar.

O'rta maktab yoshi (o'smirlik 12—15 yosh). O'smirlikning murakkabligi anatomik-fiziologik va psixologik xususiyatdagi kuchli o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Bolaning o'sishi tezlashadi. Bu davrni o'tish davri ham deyiladi. Bu davrda jinsiy yetilish davri boshlanadi. Bu bolaning fepl-atvoriga ta'sir etadi. O'smir hayotida mehnat, o'yin, sport va jamoat ishlari katta rol o'ynaydi. Ba'zilarining o'zlashtirishi pasayadi, intizomi bo'shashadi.

Hozirgi davr o'smirlarining ruhiyatida quyidagi holatlar ko'zga tashlanadi:

Intellectual rivojlanish — tafakkur qobiliyati, aqliy faoliyatni yuqori saviyada tashkil etishni talab etadi, bilishga qiziqishi ortadi. Bu davrda to'garaklar, studiya, seksiya, turli tadbirlar o'tkazish katta ahamiyatga ega. Ularning kitob o'qishga qiziqishi ortadi.

O'z-o'zini anglash, baholash, tarbiyalash shakllanadi. U o'zini boshqalar bilan solishtira boshlaydi.

Ammo yuqoridagilar bilan bir qatorda, o'smir xarakterida murakkab qarama-qarshiliklar ham mavjud bo'ladi. Bu o'smir faoliyati, xulqida yangi xislatlar — yosh xususiyatning yangidan boshlanishi sanaladi.

Lekin o'smirlarning hammasida ham bilishga qiziqish darajasi yuqori emas, 38 foiz o'smir hech qaysi o'quv fanlarini o'qishga qiziqmaydi. Boshqalarining uchta yoki ikkita o'quv fani, aksariyat holatlarda esa bitta o'quv faniga qiziqishi aniqlangan. Kichik yoshdagi o'smirlar qiziqishi o'qituvchiga bog'liq. Lekin ularning qiziqishlari, shuningdek, kitob o'qishlari ham barqaror emas.

Turli to'garaklarga 21 foiz o'smir qatnashadi, qolganlari sport yoki musiqa bilan shug'ullanadi. 40 foiz o'quvchida, sinfdan tashqari ishlarda qatnashishda ham barqarorlik yo'q.

Eng muhim qiziqish — teleeshittirishlarga qaratilgan. TVni har kuni 88 foiz o'smir tomosha qiladi.

Ular oddiy kunni o'z ixtiyorlari bilan qanday o'tkazadilar, degan savolga javob topish uchun o'tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagilarni qayd etdi: 85 foiz o'smir vaqtini o'z holicha o'tkazadi, 70 foizi kino yoki televizor ko'radi, 50 foizi sport bilan shug'ullanadi, 45 foizi uxlabyoki yotib dam oladi. Shuningdek, yomon baho olmaslik uchun maktabga boradigan o'smirlarning soni 15 foizni tashkil etadi.

O'smirlarda biror narsaga erishishga nisbatan talab rivojlanadi. Ular

tomonidan ijtimoiy talablarning bajarilishi asab tizimining rivojlanishiga ta'sir etadi. Shuning uchun maktab hayoti «qiyin» vazifalarga to'liq bo'ladi.

Bu yoshda o'smirlar kattalar oldida o'zining erkinligini namoyish etishga harakat qiladi. O'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan talab o'sadi. «Dangasa», «qo'pol», «bee'tibor», «qobiliyatsiz» degan kattalarning baholarini ular og'rinib qabul qiladilar.

O'smir yoshida, o'g'il va qiz bolalar o'rtasida farq kuchayadi. VII sinfdan intellektual malakalar pasayadi. Shuning uchun bu davrda bolalar rivojlanishiga katta e'tibor berish lozim.

O'z-o'zini tarbiyalash natijasida o'g'il bolalar kuchli, erkin, eptiborli, jasur; qizlar esa — o'ta ko'nikuvchan, kamtar va jiddiy bo'la boshlaydilar.

Shuning uchun o'smiringa o'z vaqtini rejalashtirishda yordam berish zarur. 13—14 yoshgacha o'smirda burch hissi, maspuliyatni his etish, vazminlik paydo bo'la boshlaydi. Muhimi, o'smir shaxsini hurmat qilish, kamsitmaslik, katta bo'lib qolganligini tan olish zarur.

Katta maktab yoshi— kollej, litsey o'quvchilari (o'spirinlik davri 15—18 yosh). Bu davr o'spirinlarning ilk balog'atga yetgan davridir. Mazkur davrda jinsiy yetilish tugaydi. Ularda mustaqillik sezila boshlaydi. O'spirin yoshlar hayotga kelajak nuqtayi nazaridan qaray boshlaydilar. Madaniy darajasini orttirishga intilish kuchaya boradi, his-tuyg'ularida ham o'zgarish yuz beradi. O'z-o'zini tarbiyalashga kirishadilar. Ideal tanlash va unga ergashish kuchayadi. Bu davrda, ular o'rtasida munozaralar o'tkazish yaxshi natija beradi. O'spirinlar o'z guruhiga intiladi. Shuning uchun ham o'spirinning barcha intilishlari ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Ularda o'quv Fanlarini tanlashga nisbatan ehtiyoj kuchaya boradi.

O'spirinlik bu aqliy faoliyatning ham rivojlanish davri sanaladi. Ular o'z fikrlarini mustaqil ifodalashga harakat qilib, shaxslik xislatlarini namoyish eta boshlaydilar. Shunda o'qituvchilar va katta yoshlilar ularning hali g'o'r fikrlari va dunyoqarashlarini to'g'ri yo'naltirishlari muhim. Zero, bu davrda o'z-o'zini anglash, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy xislatlari tez shakllanadi.

Bunga uning faoliyati, jamoada va jamoat joylarida o'zini tutishi, odamlar bilan tez muloqotga kirishishi ham turtki bo'ladi. O'zinikattalardek his etish, o'ziga xosligini namoyon etish, boshqalarning diqqatini o'ziga qaratishga harakat qiladi. Axloqiy muammolarni o'z qarashlari nuqtayi nazaridan hal eta boshlaydi. Hayot mohiyati, baxt, burch, shaxs erkinligini o'z qiziqishlari bilan o'lchaydilar. Shu bois ularga katta yoshlilarning beg'araz, to'g'ri yo'nalish berishlari o'ta muhim.

Mazkur davrda yoshlar xulqi ham tarkib to'a boshlaydi. Bunda shaxsning jamoadagi mavqeyi, jamoa shaxslari bilan muomala-muloqoti muhimdir.

Albatta, bu borada, ta'lim muassasasida faoliyat ko'rsatayotgan yoshlar ijtimoiy harakati ta'siri katta ahamiyatga ega. Chunki o'spirin- yoshlar mustaqil hayot ostonasida bo'lib, ularning bu hayotga to'g'ri qadam qo'yishi uning jamiyatning faol fuqarosi bo'lishining muhim shartidir.

Shaxsning ijtimoiylashuvi. Shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadi. Chunki, ta'lim jarayonida bolalarga jamiyatda birga yashash bilan

bog'liq bo'lgan holat va hodisalar o'rgatiladi. Bu jarayonda o'quvchi jamiyatga «kirishadi» va u bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Ular ma'lum ijtimoiy tajriba (bilim, qadriyat, axloqiy qoida, ko'rsatma) orttiradilar, ya'ni, ijtimoiylashadilar.

Ijtimoiylashuv uzoq davom etadigan murakkab jaravon. Chunki, har qanday jamiyat rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, ideallar, axloqiy me'yorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqadi, har bir bola yuqoridagi qoidalarni qabul qilib, o'rganib mazkur jamiyatda yashash, uning a'zosi bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning uchun jamiyat u yoki bu shaklda shaxsga maqsadga muvofiq ta'sir etadi. Bu ta'sir ta'lim vositasida amalga oshadi. Ikkinchi tomondan, shaxsning shakllanishiga turli g'oyalar, ijtimoiy muhit ta'sir ko'rsatadi.

Odamlar ijtimoiy me'yorlar va axloqiy qoidalar bilan munosabatga kirishadilar va uni o'rganadilar.

Ijtimoiylashuv jaravoni ichki qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiylashgan inson jamiyat talablariga mos kelishi, unga «kirishib» ketishi, jamiyat rivojlanishidagi salbiy jihatlarga, shaxsning individual rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi hayotiy holatlarga qarshi turishi kerak. Lekin hayotda ba'zan aksi ham bo'ladi: to'liq ijtimoiylashgan, jamiyatga kirishib ketadigan, ammo muhitda ba'zi salbiy holatlarga qarshi kurashishda faollik ko'rsatmaydigan odamlar ham mavjud.

Bu holat ko'p jihatdan butun jamiyat, tarbiya muassasalari, o'qituvchilar hamda ota-onalarga ham taalluqli. Tarbiyada qarama- qarshilik insonparvarlik g'oyasi yordamidagina bartaraf etilishi mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. «Individ», «shaxs», «individuallik» tushunchalarini sharhlang.
2. Rivojlanish va shaxs rivojlanishini ta'riflang.
3. Shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar haqida nimalarni bilasiz?
4. Shaxs faoliyati haqida so'zlab bering.
5. O'quvchilarning yosh xususiyatlarini tavsiflang.
6. Shaxsning ijtimoiylashuvini qanday tushunasiz?

4-MAVZU:YAXLIT PEDAGOGIK JARAYON

Reja

1. Pedagogik jarayon tizim sifatida.
2. Yaxlit pedagogik jarayon haqida tushuncha.
3. Pedagogik jarayon qonuniyatlari
4. Yaxlit pedagogik jarayonni optimallashtirish.
5. Pedagogik jarayonni harakatlantiruvchi kuchlar.


Tayanch so'z va iboralar: Pedagogik jarayon, pedagogik tizim, tarbiya ob'ekti, jadallashtirish, optimallashtirish, tarbiyachi

1. Pedagogik jarayon tizim sifatida.

Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o‘zaro tashkiliy hamkorlikda faoliyat ko‘rsatuvchi barcha ko‘rinishdagi maktabgacha tarbiya, o‘rta umumiy ta‘lim maktablari, o‘rta maxsus o‘quv yurtlari, oliy o‘quv yurtlari, maktabdan tashqaritarbiya muassasalarining o‘zaro uzviylikdagi tizimi pedagogik tizim deyiladi.

Tizim (mustaqil tushuncha sifatida) o‘zaro bog‘langan ko‘plab elementlar (tarkibiy qismlar) o‘rtasidagi mustahkam birlik va o‘zaro yaxlitlikdir. Demak, ta‘lim yaxlit tizim sifatida ko‘plab o‘zaro bog‘liq quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi: ta‘lim maqsadi, o‘quv axborotlari, o‘qituvchi va o‘quvchilarning ta‘limiy faoliyatlari, uning shakllari, pedagogik muloqot vositalari, shuningdek, ta‘lim jarayonini boshqarish usullari.

Ta‘lim jarayoni yaxlit tizim sifatida quyidagicha namoyon bo‘ladi



Ta‘lim jarayoni tuzilishining andozasi(modeli)

Ushbu tizim sharoitida ta‘lim va tarbiya maqsadlarini amalga oshiruvchi jarayon pedagogik jarayon deyiladi.

Pedagogik jarayonning rivojlanish dinamikasi uning ichki harakati, tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar xarakteriga,

o‘zaro ta’sir kuchiga bog‘liq.

Pedagogik jarayonni tashkil etishning o‘ziga xosligi: tarbiya obhekti bir vaqtning o‘zida tarbiya Sub’ekti ham hisoblanadi. O‘zaro faollikka asoslangan pedagog va tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi hamkorlik pedagogik o‘zaro ta’sir tushunchasini to‘laroq aks ettiradi.

Sub’ekt bilan ob’ek to‘rtasida turli-tuman aloqalar mavjud:

1. Axborot xarakterida(o ‘zaro axborotlar almashinib turish).
2. Tashkiliy faoliyat aloqalari(o‘zaro birgalikdagi faoliyat).
3. Kommunikativ aloqalar (muomala, munosabat).
4. Boshqaruv va o‘z-o‘zini boshqaruv aloqalari.

Pedagogik jarayonning asosiy elementlari: maqsad, vazifa, vosita va natija. Vosita keng ma’noda mazmun, shakl va usullarni o‘z ichiga oladi. Pedagogik jarayonni harakatlantiruvchi kuchlar: qo‘yilgan talablar bilan tarbiyalanuvchi imkoniyatlari o‘rtasidagi ziddiyatlardir. Xuddi shu qarama-qarshilik rivojlanish uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Shaxs shakllanishi — inson bioijtimoiy mavjudot bo‘lganligi tufayli, biologik rivoji bilan bir qatorda u ijtimoiy rivojlanib ham boradi va kamolotning ma’lum bir bosqichida shaxsga aylanadi. Kishida bir qator ijtimoiy sifatlar tarkib topib, ilmiy asoslangan mustaqil fikr shakllanadi. Ijtimoiy taraqqiyot tashqi va ichki, boshqariladigan va bosh qarilmaydigan omillar bilan kishiga ijobiy ta’sir etish, ya’ni shaxsning shakllanish jarayoni. Insonning ijtimoiy taraqqiyotida maqsadga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya etakchi o‘rinni egallaydi. Pedagogik faoliyat jamiyatning ta’lim-tarbiyaga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida umuminsoniy sifatlar va fazilatlarni shakllantirishni ilmiy asoslangan reja-dasturga muvofiq amalga oshirish, ya’ni avlodni hayotga tayyorlaydigan ijtimoiy zarur faoliyat turi.

Pedagogik jarayon — o‘qituvchi yoki tarbiyachi, o‘quvchi yoki tarbiyalanuvchi orasidagi bilim berish va bilim olish, o‘rgatish o‘rganish, tarbiyalash maylida kechadigan munosabatlar tizimi.

Pedagogik tamoyil (prinsiplar) — o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabat orqali beriladigan bilim turi, hajmi va mazmuni, shuningdek, o‘quv qurollari va tarbiyalanuvchilarning ruhiy xususiyatlari o‘rtasidagi zaruriy bog‘liqliklardan kelib chiqqan qonuniyatga amal qilish.

Pedagogik tajriba — ta‘lim-tarbiya beruvchi tomonidan pedagogikaning tamoyillari va ta‘lim-tarbiya berishning muayyan usul va uslublarini to‘liq o‘zlashtirib hamda ularni amalda qo‘llashdagi real shart-sharoitlarni, bolalar jamoasi va har bir bolaning o‘ziga xosligini hisobga olgan holda amaliyotda tatbiq etish .

2 Yaxlit pedagogik jarayon haqida tushincha. Pedagogik jarayon qonuniyatlari

Ta‘lim-tarbiya tizimida barcha maqsad va vazifalarni, shuningdek, uning tarkibiy qismlarini kompleks hal etishga yo‘naltirilgan jarayon yaxlit pedagogik jarayon sifatida qabul qilingan.

Yaxlit pedagogik jarayonning tashqi qonuniyatlari:

Pedagogik jarayonning maqsadi nafaqat ta‘lim va tarbiya vazifalarini qamrab oladi, balki pedagogni ham, o‘quvchi shaxsini ham har tomonlama barkamol qilib rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Yaxlit pedagogik jarayon haqida tushincha. Pedagogik jarayon qonuniyatlari

Ta‘lim-tarbiya tizimida barcha maqsad va vazifalarni, shuningdek, uning tarkibiy qismlarini kompleks hal etishga yo‘naltirilgan jarayon yaxlit pedagogik jarayon sifatida qabul qilingan.

Yaxlit pedagogik jarayonning tashqi qonuniyatlari:

1. Pedagogik jarayonning maqsadi nafaqat ta‘lim va tarbiya vazifalarini qamrab oladi, balki pedagogni ham, o‘quvchi shaxsini ham har tomonlama barkamol qilib rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

2. Yaxlit pedagogik jarayon, uning maqsad-vazifalari, mazmuni, shakl va metodlari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlaridan kelib chiqadi va u jamiyatning mafkurasi va siyosatiga bog‘liq.

3. Pedagogik jarayonning maqsad va vazifalari nafaqat shaxs ehtiyojiga, balki uning imkoniyatlariga ham bog'liq bo'lib, bu uning tashqi belgilaridir.

Yaxlit pedagogik jarayonning ichki qonuniyatlari:

1. Ta'lim-tarbiya va rivojlanish o'rtasidagi o'zarobog'liqlik.
2. Tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash o'rtasidagi bog'liqlik.
3. Shaxs faoliyati bilan uning munosabati o'rtasidagi bog'liqlik.
4. Shaxs va jamoa o'rtasidagi bog'liqlik.
5. Shaxsning imkoniyatlari bilan pedagogik ta'sir o'rtasidagi bog'liqlik.
6. Vazifa, mazmun, shakl va metodlar o'rtasidagi bog'liqlik.

2. Yaxlit pedagogik jarayon bosqichlari.

Bilimlarni o'zlashtirish jarayonining tuzilishi. O'quvchilar o'quv idrok etish faoliyatlarini boshqarishga o'rganib olish uchun bilimlarni o'zlashtirish jarayoni tuzilishini yaxshi tasavvur etish, o'quvchilar tomonidan bilimlarning egallash bosqichlarini bilishi zarur: idrok etish, o'quv materialini anglab yetish, mustahkamlash, amaliy faoliyatida bilimlarini qo'llash.


Birinchi bosqich idrok etish hisoblanadi. Psixologiyadan ma'lumki, idrok etish aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni bo'lib, u tanlash xususiyatiga ega. Shuning uchun birinchi navbatda o'quvchilarga mavzuni, ya'ni, ularning nimani o'rganishlari (masalani qo'yish)ni tushuntirib berish kerak. Shu asosida o'quv materialini bilan dastlabki tanishish amalga oshiriladi. U haqiqiy mavjud yoki hayoliy predmet, hodisa, vaziyatlarni kuzatish, mumkin bo'lgan tajribalarni o'tkazishdan iborat bo'ladi. Birinchi bosqich o'quvchi qaysi hodisa va voqealarni, predmetlarni o'rganish haqida yetarlicha tasavvurga ega bo'lganida va o'quv masalasini tushunib yetganda yakunlanadi. Ikkinchi bosqich — o'quv materialini anglab yetish. U ma'lumotlarning nazariy jihatlarini ajratib olish va analiz qilishdan iborat. Bunda asosiy mazmuni to'lish, tushunchani ajratib olish, ularning belgilarini asoslab berish, tushuntirish materialining xususiyatini aniqlab olish, misollar va tushuntiruvchi dalillar to'plamini o'rganib

chiqish kerak. Bu vaziyatda bilimlar o'rtasidagi tizimlilik muhim ahamiyatga ega. Unda o'quvchi eng asosiy ikkinchi darajali hamda qo'shimcha, tushuntiruvchi elementlarni ajratib ko'rsatsin. O'quvchi o'quv masalasini yechish usulini tushunsa, bilimlar o'rtasidagi tizimni tushunib yetsa ushbu bosqich yakunlangan sanaladi.

Uchinchi bosqich — eslab qolish va mustahkamlash. Bu bosqich o'zlashtirilgan bilimlarini uzoq vaqt davomida saqlab qolishdan iborat. Unda idrok etish faoliyati ko'proq mashqlar, mustaqil reproduktiv va ijodiy masalalar xususiyatiga ega bo'ladi. Nazariy material, tushuncha, qoida, isbotlar turli xil mashqlarda takrorlanadi. O'qituvchi o'quvchilar topshiriqlarni tushunib bajarishlarini kuzatib borishi kerak. Ular matnlarni mexanik ko'chirib olishlari, topshiriqlarni bajarishlari, qoida va tushunchalarni chuqur anglab yetmay bajarishlari mumkin. Bosqich yakunida o'quvchilar nazariy materiallarni biladilar va ulardan mashqlarni bajarish, masalani yechish, teoremani isbotlashda foydalanishni biladilar. Ularda o'quv malakalari va ko'nikmalari shakllantirilgan bo'ladi.

To'rtinchi bosqich bilim. ko'nikma va malakalarni amaliy faolivatdafaollashdan iborat bo'ladi. Bilimlarini qo'llash o'rganilayotgan materialning mazmuniy xususiyatiga qarab, faoliyat turli shakllari va - ko'rinishlarida amalga oshirilishi mumkin. Bu o'quv mashqlari, laboratoriya ishlari, tadqiqot topshiriqlari, maktab yer maydonidagi ishlar bo'lishi mumkin. Bilimlarni egallab olish bosqichlari sxematik ko'rinishi quyidagichadir:

Bilimlarni egallash bosqichlari



3. Yaxlit pedagogik jarayonni jadalashtirish

Lotincha Intensio tushunchasi - kuchaytirish, tezlatish degan mahnoni anglatadi.

Yaxlit pedagogik jarayonni jadallashtirish - vaqtning har bir bo'lagi uchun ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish demakdir.

Yaxlit pedagogik jarayonni jadallashtirish shartlari:

1. Pedagogik jarayoning maqsadga yo'naltirilganligini kuchaytirish, o'quv-tarbiya tadbirlarida ilgari surilayotgan vazifalarning jiddiylikini oshirish bilan birga ularning shu sinfga, o'quvchilarga, jamoaga qulayligini ham hisobga olish kerak.

2. O'quvchilarning o'qish, ijtimoiy, mehnat va boshqa faoliyati asoslarini chuqurlashtirish.

3. Eng zarur axborotlarni saqlagan holda mazkur sinf o'quvchisiga yetkaziladigan axborot hajmini oshirish.

4. O'quv, ijtimoiy mehnat va boshqa faoliyatlar tezligini oshirish.

5. O'quvchilarning mustaqil bilish va ijtimoiy foydali faoliyatlarini aktivlashtiruvchi kompleks shakl va metodlarni joriy etish.

6. Axborot va ta'lim texnologiyalarini keng ko'llash.

7. O'quvchilarning mustaqil bilishini yo'lga qo'yish orqali o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'ziga ta'sir ko'rsatish, majburiyat olish, baho bera olish, o'z-o'ziga

hisob berishdan iborat usullardan unumli foydalanish ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishga kuchli yordam beradi.

4. Yaxlit pedagogik jarayonni optimallashtirish.

Yaxlit pedagogik jarayonni optimallashtirish (lotincha o'timus - eng ma'qul) - eng qulay, degan mahnoni bildirib, keng ma'noda olib qaralganda, ushbu sharoit uchun har qanday vazifalarni hal etishning eng qulay, eng mahqul, to'g'ri variantlarini tanlash demakdir.

Ma'lum mezonlar nuqtai nazaridan qaralganda, yaxlit pedagogik jarayonni o'timallashtirish ushbu sharoit uchun ta'lim-tarbiyaning eng maqbul vazifa, mazmun, shakl va metodlarini ilmiy asoslangan holda tanlash va amalga oshirish deganidir.

O'ptimallashtirishda boshlang'ich holatdan qaror qabul qilingungacha bo'lgan jarayon quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

1. Qo'yilgan vazifalarni hal etishning bir nechta variantlarini qarab chiqish.
2. Ushbu sharoit uchun tanlab olingan variantning asosliligini, zarurligini anglab yetish.
3. Ushbu vazifalarni hal etish uchun tavsiya etilgan usullarning samaradorligini qiyosiy tahlil etish orqali anglash.
4. Taqdim etilgan variantlarni eng maqbul ikkita variantgacha qisqartirish.
5. Ikkalasini vaqt va samara nuqtai nazaridan taqqoslash.
6. Eng mahqul variantni o'timallashtirish mezoni nuqtai nazardan tanlash.

Lekin eng maqbul variantni tanlash o'qituvchidan fikrlashning muammoli-tadqiqot usulidan foydalanishni taqozo etadi.

Ta'lim jarayonini o'timallashtirishda uning mezoni faoliyatni to'g'ribaholashga yordam beradi.

O'quvchi u yoki bu materialni o'zining maksimal darajadagi imkoniyati doirasida o'zlashtiradi (natijaga real erishish mumkin bo'lgan imkoniyat). Bu esa, o'z o'rnida, o'qitishni o'timallashtirish uchun o'quvchilarning real o'quv imkoniyatlarini o'rganishni talab etadi.

Real o'quv imkoniyatlari ichki (sog'liq, bilim darajasi, fikrlash qobiliyati, o'qishga munosabat, mashuliyat hissi) va tashqi (oila, tengdoshlar, jamiyat ta'siri) sharoitlarning o'zaro uzviyligida namoyon bo'ladi.

O'qituvchi bolaning bugungi real o'quv imkoniyatlarini bilishigina emas, shuningdek, yaqin rivojlanish zonasini, Ya'ni yaqin rivojlanish imkoniyatlarini anglab yetishi ham zarur bo'ladi.

Shunday qilib, optimallashtirishning birinchi mezoniga ko'ra, o'quvchi shunday o'zlashtirish darajasiga erishishi kerakki, ushbu daraja uning yaqin rivojlanish zonasidagi imkoniyatlariga to'g'ri kelsin.

Optimallashtirishning ikkinchi mezon shuki, o'quvchi va o'qituvchi dars va uy mashg'ulotlariga ajratilgan vaqtga qat'iy amal qilsinlar.

Tarbiyada birinchi mezon erishilgan natijaning qo'yilgan maqsad va vazifalarga to'g'ri kelishida ifodalanadi.

Ikkinchi mezon tarbiyachining tarbiyalanuvchi uchun ajratilgan mehyorlarga qathiy amal qilishida ko'rinadi.

O'qituvchi amaliy faoliyatidagi pedagogik jarayonlarning asosiy komponentlarini o'timallashtirish usullari tizimi quyidagicha:

1. Ta'lim-tarbiya jarayoni uchun eng mahqul (ratsional) vazifalar kompleksini tanlaydi.

2. Ushbu sinf xususiyatidan kelib chiqib, vazifalarni aniqlashtiradi.

3. Qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun zarur mazmun tanlaydi.

4. Ushbu mazmunni amalga oshirish uchun eng maqbul metod, shakl va vositalar tanlaydi.

5. Tezkor tarzda jarayonga o'zgartirishlar kiritadi va unga ko'ra metod, shakl va vositalarni o'zgartiradi.

6. Qilingan ishlar chuqur va har tomonlama tahlil etiladi (natija va vaqt nuqtai nazaridan).

Nazorat uchun savollar:

1. «Pedagogik tizm» tushunchasiga ta'rif bering.

2. Pedagogik jarayonining alohida asosiy elementlari nima?

3. Yaxlit pedagogik jarayonning ichki qonuniyatlari.

5 – MA'RUZA. Didaktika-pedagogik ta'lim nazariyasi. O'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida.

Reja:

1. Didaktika - ta'lim va o'qitish nazariyasi ekanligi.
2. Didaktikaning maqsad-vazifalari va asosiy tushunchalari.
3. Hozirgi davrdagi didaktika rivojining asosiy yo'nalishlari.
4. Ta'lim paradigmalari.

Mavzuning maqsadi: Ta'lim jarayonining ilmiy-nazariy, uslubiy va amaliy asoslar haqida bilim berish.

Mavzuning vazifalari:

Talabalarga didaktika haqida tushuncha berish.

Didaktika ta'lim nazariyasi ekanligi.

Didaktikaning maqsad-vazifalari.

Didaktikaning asosiy tushunchalari.

Uzluksiz ta'lim tizimi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi konsepsiyasi.

Hozirgi davr didaktikasi tizimlari.

Hozirgi davr pedagogikasida ta'lim paradigmalari: an'anaviy, konservativ, ilmiy, insonparvarlashtirilgan, ratsionalistik, texnologik, izoterik.

Tayanch ibora va atamalar: didaktika; o'qitish nazariyasi; umumiy didaktika; falsafa va sotsiologiya, siyosatshunoslik; pedagogik-psixologiya; odam fiziologiyasi; xususiy metodika; ta'lim; ta'lim jarayoni; ta'lim tamoyillari; didaktik tamoyillar; bilim, ko'nikma va malakalar; didaktik materiallar; tarqatma materiallar; didaktik qobiliyat; didakosentrik texnologiyalar; paradigma; ta'limni axborotlashti-rish; innovatsion ta'lim; modellashtirish.

4.1. Didaktika - ta'lim va o'qitish nazariyasi ekanligi

Didaktika - pedagogikaning mustaqil tarmog'i. Unda ta'lim-tarbiya nazariyasi, ya'ni maqsadlari, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillarini ishlab chiqish bilan shug'ullaniladi. Didaktika pedagogikada ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi qismdir.

Didaktika — yunoncha so'z bo'lib, «didasko» — o'qitish, «didaskol» - o'rgatuvchi degan so'zlardan kelib chiqqan. «Didaktika»ning so'zma-so'z tarjimasini ta'lim nazariyasini anglatadi. Bu atamani nemis pedagogi V. Ratke (1571-1635) ilmiy iste'molga kiritgan. «Didaktika» nomi ostida nazariy va metodologik asoslar-ni tadqiq qiladigan ilmiy fan tushuniladi. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari ilk bor Ya.A.Komenskiy (1592-1670) tomonidan ishlab chiqilgan. U 1657-yilda chex tilida «Buyuk didaktika» asarini yozdi. Didaktikani Komenskiy «Hammani harama narsaga o'rgatish san'ati», deb baholadi. Didaktika

fanining mohiyatini ishlab chiqishda G. Pestalotssi, I.Gerbart, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniy, Sadridin Ayniy, Hamza, Oqilxon Sharofiddinov va Qumri Abdullayevalar katta hissa qo'shdilar. Umuray didaktika o'z navbatida ayrim fanlarga oid usullar bilan juda mustahkam bog'langan bo'lib, ularga oid ma'umotlarga tayanib, o'qitishning umumiy qonuniyatlarini ochib beradi va ayni vaqtda har bir o'quv fanini o'qitish usullari uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Falsafa va sotsiologiya jamiyat va atrof-muhit rivojining umumiy qonuniyatlari haqidagi fanlar sifatida odamlarning hayoti va faoliya-ting ijtimoiy va boshqa o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishda didaktikaga yordam beradi.

Siyosatshunoslik ta'limdagi siyosiy hodisalar va jarayonlar bilan bog'liq didaktik masalalarni ochish uchun xizmat qiladi.

Etnologiya didaktikaga odamlarning milliy o'ziga xosliklarini to'g'ri hisobga olishda yordam beradi, qaysiki ta'limda milliy tajriba-lar o'ziga xos xususiyatga ega.

Pedagogik - psixologiya ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonining psixologik qonuniyatlari va tamoyillarini hisobga olishga imkoniyat beradi.

Odam fiziologiyasi ta'lim jarayonida odam tana tuzilishi va nerv tizimining ishlash qonuniyatlarining o'zigaxos xususiyatlari, ularning roll, ahamiyati va o'ziga xos vazifalarni ko'rsatishga yordam beradi.

Xususiy metodika alohida predmetlarni o'qitishda ta'limning turli shakl va vositalarini qo'llashning o'ziga xosliklarini aniq hisobga olishda didaktikaga yordam beradi.

4.2. Didaktikaning maqsad-vazifalari va asosiy tushunchalari

Didaktikaning asosiy vazifasi yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iborat. Bularning barchasi o'qituvchining ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirishida o'z aksini topmog'i lozim. Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'z ta'lim oluvchilariga qo'lga kiritilgan bilimlarni o'rgatadi

Ta'lim - ta'lim oluvchiga maxsus tayyorlangan mutaxassislar yordamida bilim berish va ulardagi ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish jarayoni bo'lib, kishining shaxs sifatida hayotga va mehnatga ongli ravishda tayyorlash vositasi. Ta'limning boshlang'ich (dastlabki) vazifasi ta'lim oluvchini o'qitishdan iborat.

Ta'lim berish — ta'lim oluvchining intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan pedagogik faoliyati bo'lib, insonning aqliy faoliyatini rivojlantirish jarayonidir. Ta'lim berish ta'lim oluvchilarning o'qish - o'qitish jarayonining mazmun-mohiyatini ongli ravishda anglab yetishlari orqali amalga oshiriladi. *Ta'lim dasturi* - o'quv fanlarining bakalavriat yo'nalishlari va magistratura

mutaxassisliklariga qo'yiladigan malaka talablarga muvofiq kadrlarning zaruriy va yetarli darajadagi tayyorgarligini ta'minlovchi bloklarga jamlangan ro'yxati.

Ta'lim maqsadi - har bir pedagogik texnologiyani yaratishga asos bo'lib hisoblanadi. Maqsadning zamonaviy ta'lim va tarbiya muammolarini yuqori samaradorlik bilan hal qilishga qaratilgan bo'lishi zarur asos hisoblanadi. Biror pedagogik texnologiyani yaratish uchun eng zarur shart shunday dolzarb maqsadni aniqlay olishdan iborat. Sunday maqsad zarur tadqiqotlar, ijodiy izlanishlar olib borish, o'zining va boshqa mutaxassislarning ish tajribalarini chuqur tahlil qilish orqali aniqlanadi

Ta'lim mazmuni — insonni o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi va xarakterini tashkil etadi. Ta'lim mazmuni belgilangan maqsadga muvofiq yo'nalish va hajmga ega bo'ladi. U tegishli me'yoriy hujjatlar: ta'lim standartlari, o'quv reja, dasturlar shaklida rasmiylashtirilib, o'rnatilgan tartibda tasdiqlanadi.

Ta'lim menejmenti va marketingi — bu pedagogik texnologiyaning zamonaviy ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa talablarga muvofiqligini aniqlagan holda uni loyihalash, ishlab chiqarish, amaliyotga tadbiiq qilish masalalarini hal qiluvchi soha.

Ta'lim metodi - bu ta'lim jarayonida o'qituvchi va talabalarning aniq maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatidir. Ta'lim metodi o'qituvchi bilan talabalarning o'qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yo'lidir. Ta'lim metodlari o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o'quv materiallarini nazariy va amaliy yo'naltirish yo'larini anglatadi.

Ta'lim monitoringi - pedagogik tizim faoliyati haqida axborotlar yig'ishni tashkil etish, saqlash, qayta ishlash va ularni sinflarga ajratish tizimidan iborat bo'lib, kuzatilayotgan obyekt holatini va kelgusida uning rivojlanishi dinamikasini oldindan bashorat qilish jarayoni.

Ta'lim sifati - bu ta'lim jarayonining turli qatnashchilarini o'quv muassasasi tomonidan ko'rsatilgan ta'lim xizmatlaridan qoniqish darajasi yoki ta'limda qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishganlik darajasi. Sifat kategoriyasi insonning obyektiv reallikni bilishdagi ma'lum bosqichini ifodalaydi. Bilish jarayonining dastlabki bosqichida obyekt subyekt oldida o'zining ayrim yoki bir necha xossasi bilan namoyon bo'ladi

Maxsus ma'noda «Ta'lim oluvchi - ta'lim beruvchi» darajasida ta'lim sifati - bu muntazam ravishdagi o'lchamlar asosida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning o'zaro munosabatini, ta'lim oluvchilar faoliyati, ta'lim natijalarining ta'lim tarbiyasiga mosligini bel-gilovchi darajadir.

Umumiy ma'noda «Ta'lim oluvchi - ta'lim muassasasi» darajasida ta'lim sifati - bu tizimli va kvalimetrik ko'rishlarda muntazam o'lchamlar asosida aniqlanadigan ta'lim-tarbiya natijalarining moslik darajasidir.

Ta'lim standard - bu standart tekshirish usullariga muvofiq keladigan va o'qitish sifatining standart ko'rsatkichlari bilan ifodalangan mazkur ta'lim turida ta'lim oluvchini o'qitish va tarbiyalashda qo'yiladigan talablar ko'rsatkichlarining mazmuni.

Ta'lim tamoyillari- bu o'qituvchining faoliyatini va ta'lim oluvchining bilish faoliyati xususiyatini belgilovchi asosdir. Ta'lim tamoyillari ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining muhim ichki tomonlarini aks ettiradi hamda turli shaklda, turli mazmunda va har xil yo'sinda tashkil etiladigan ta'limning samaradorligini belgilaydi.

Didaktik tamoyillar — bu ta'lim jarayoni qonuniyatlari, mazmuni va metodlarini belgilab beruvchi o'qitish tamoyillaridir. Shuning uchun ham o'qituvchining pedagogik mahorati va ta'lim oluvchining o'rganuvchanlik faoliyatini bir qolipga solib, belgilangan maqsadga erishishni ta'minlaydigan qoidalar majmuasi ta'lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik tamoyillar mohiyatini tashkil etadi.

Ta'lim vositalari- o'quv jarayonining tashkil etilishi va o'tib bori-shini ta'minlaydigan xilma-xil o'quv jihozlari, o'quv qo'llanmalari va boshqalar.

Bilim - bu o'quvchilar ongida muayyan tartibda mustahkamlangan, ularning shaxsiy mulkini tashkil etadigan va bundan ular zaruratga ko'ra foydalana oladigan faktlar, ma'lumotlar, ilmiy nazariyalar, qonunlar, tushunchalardir. U borliqni bilish jarayonining amaliyotda tasdiqlangan natijasi. Obyektiv reallikning inson ongida adekvat aks ettirilishi (tasavvur, tushuncha, mulohaza, nazariyalar). U kundalik, ilmiy, empirik, nazariy bilimlarga ajraladi.

Kundalik bilim sog'lom fikrga va kundalik amaliy faoliyat shakllariga asoslanadi va insonning atrof-muhitga moslashuvchi, uning xatti-harakatlari va oldindan ko'ra bilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Uning vazifasi ta'lim-tarbiya jarayonini nazorat qilishga ko'maklashish. Ta'lim-tarbiyani uyushtirishda nazariy, empirik va ilmiy bilimlar roli va o'rni beqiyos.

Ilmiy bilim ta'lim-tarbiyani takomillashtirish muammolarining yechimlarini topishda qoi keladi va u tizimli, asosli narsa-hodisalar mohiyatiga chuqur kirib boradigan bo'ladi. U empirik va nazariy darajada bo'ladi. Bilimdan empirik va nazariy bilimlarni shakllantirishda foydalaniladi.

Nazariy bilim - empirik holatlarni tushuntirish, ya'ni narsa va hodisalar mohiyatini bilish imkonini beradigan qonuniyatlarni ochishni nazarda tutadi. Bilim bilishni amalga oshiruvchi asosiy omil bo'lib, dunyoni bilish-ning negizini tashkil etadi va u tufayli ilm, fan, texnika-texnologiyalar rivojlanishi ta'minlanadi

Ilmiy bilimlar, obyektiv olamni ancha to'g'ri (batafsil) ifodalaydi. Ular doimiy emas, ular o'zgarib, rivojlanib, takomillashib boradi va natijada doimiy iste'moldagi bilimga aylanadi, ya'ni tadrijiy (evolu-tsion) tarzda rivojlanib turadi.

Bilimlar banki - bu ma'lumotlar majmualarini bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi o'quv rejasidagi fanlar bloklari bo'yicha tizimlarga ajratib, ular asosida shakllantirilgan bilimlar majmuyi.

Bilimlar bazasi - muayyan bir soha (yo'nalish, fan, bob, bo'lim, mavzu, tushuncha va shu kabilar) bo'yicha to'plangan bilimlar va ularning kompyuter xotirasida mujassamlashtirilishi va qayta ishlangan axborotlarni saqlashga mo'ljallangan bilimlar majmuyi.

Ko'nikma - bu o'zlashtirib olingan bilimlar asosida amalga oshiriladigan va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq harakatlarga tayyorlikda ifodalangan ongli faoliyat. U malakaning tarkibiy qismi bo'lib, harakatning ayrim qismlarini nihoyatda tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda o'z-o'zidan bajarilish qobiliyatini ifodalaydi va u talabalarda ko'p marta takrorlanadigan mashqlar natijasida yuzaga kela-di»

Malaka — avtomatlashgan, o'rganib qolingan, muayyan usul bilan bexato bajariladigan harakatdir. U shaxs harakatining amalga oshirilishi va boshqarilishining avtomatlashgan shaklidir. Shaxsning mala-kalari shu bilan xarakterlanadiki, uning harakatlari oson, tez, go'yo o'z-o'zidan bajarilayotgandek bo'ladi.

O'qitish - o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurol-lantirish hamda ularning bilish faoliyati natijasida bu bilim, ko'nikma va malakalarni egallab olishga doir maxsus tashkil etilgan va biror maqsadga qaratilgan faoliyatdir. U insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini o'zlashtirishga qaratilgan ongli faoliyat ifodasidir.

O'qish - bilim, ko'nikma va malakalarni egallab olishning murakkab jarayoni bo'lib, o'quvchining intellektual, irodaviy va jismoniy kuch-g'ayratini talab etadi hamda ularning rivojlanishini rag'batlantiradi.

O'qish jarayonining asosiy g'oyalari:

- o'qish — bevosita bajariladigan jarayon bo'lib, uning yordamida odamlar butun hayotlari davomida yangi axborotlar oladi;

- o'qish oddiy o'rganish fani emas, balki fikrlash va dunyoni bilish qurolidir;

- o'qish va o'qiganda javoban ta'sirlanish tanqidiy tahlilning asosiy yo'lidir;

- har xil fanlarni o'rganish, odatda ta'lim oluvchidan juda ko'p mustaqil o'qishni talab qiladi, shuning uchun o'qish jarayonini

tushunish aniq fan bo'yicha o'qilganni o'zlashtirishni va tahlil qilishni yaxshilash mumkin;

•o'qish va yozish orasida chambarchas aloqa bor. Bu aloqani tushunish o'qitish jarayonini boyitadi va rag'batlantiradi.

O'rgatish — ta'lim maqsadini amalga oshirish bo'yicha peda-gogning tartiblangan faoliyati. U axborotdan foydalanish va turli harakatlarni bajarish ko'nikmalarining ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishini turli vosita va usullarni qo'llab tushuntirish, ko'rsatish va mashqlarni amalga oshirish jarayoni.

O'rganish - anglash, mashq qilish va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o'zgaradi.

O'qitish - qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan o'quvchilarning tartiblangan o'zaro harakati.

Maqsad (o'quv, ta'limiy) - o'qitish nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida nimaga safarbar etilishi. U qo'yilgan muammo (maqsad) yechimiga intilishi, yo'nalishi va bu boradagi harakatlar natijasi.

Mazmun (o'qitish, ta'lim)-o'quvchilar o'qitish jaarayonida egallashi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malakalar, faoliyat va fikrlash usullari tizimi.

Tashkil etish — qo'yilgan maqsadni yaxshi amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon.

Shakl — o'quv jarayonining mavjudlik usuli, uning ichki mohiyati, mantiqi, mazmuni uchun qobiq.

Metod - o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo'li. Metod (yunoncha - aynan nimagadir yo'l) maqsadga erishish yo'lini bildiradi. Muayyan ma'noda tartibga solinadigan faoliyat.

Metodika - bu metodikaga tegishli, qat'iy ketma-ketlikka (algo-ritmik xarakterga), ilgari o'rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilishdir. U biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmuasi.

Vosita — o'quv jarayonini predmetli qo'llab-qo'vvatlanishi. Vosi-talarga o'kituvchining jonli nutqi, keng ma'noda uning mahorati, darsliklar, sinf jihozlari va boshqalar.

Natija - dars mashg'ulotlari jarayonida rejalashtirilgan xulosaga kelingan vata'limning ma'lum muayyan jarayonidan olingan yakuniy natijasidir. Natija (mahsul)lar - o'quv jarayonining so'nggi natijasi, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi.

Didaktik vositalar va tarqatma materiallar — bu fanni o'qitishda zarur bo'lgan jihozlar, kompyuterli vositalar, modellar va maketlar, ko'rgazmalar va texnik vositalar, asbob-uskunalar va mahsulotlardir. Shuningdek, o'qitish

jarayonida o'qituvchi tomonidan qo'laniladigan tarqatma materiallar. Ular: kartochkalar, savolnomalar, yo'riqnomalar, qiziqarli savol va topshiriqlar, amaliy ishni tashkil etish bo'yicha texnologik xaritalar va hokazolardan iborat bo'ladi. Professor B.Ziyomhammadovning ijod mahsulida didaktik materiallar - pedagog tomonidan har bir darsga alohida tayyorlangan, dars mazmunini to'la ifodalash va o'quvchi-talabalar dars mazmuniga yaxshi tushunib yetishlari uchun xizmat qiladi, deb qayd etiladi. Bularga turli ko'rgazmali qurollar, turli muammoli vaziyatlarni yaratuvchi moslamalar, o'yinlar va hokazolar kiradi.

Didaktik qobiliyat- o'quv materiali, ko'rgazmali qurollar va vositalarini tayyorlab qo'yish, o'quv materialini aniq, ifodali va izchil bayon qilish, o'rganishga bo'lgan qiziqish hamda ma'naviy, his-siy istakiarni rag'batlantirish, o'quv bilimni oshirish, faollashtirish mahoratlari majmuyidan iboratdir.

4.3. Hozirgi davrdagi didaktika rivojining asosiy yo'nalishlari

Uzluksiz ta'lim konsepsiyasi - kadrlar tayyorlash tizimining-asosi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi shaxsning jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha.

Uzluksiz ta'lim — milliy modelning asosiy qismi bo'lib, quyidagi turlarni o'z ichiga oladi: maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim; oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta'lim.

Uzluksiz ta'lim — malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlari, DTSni, kadrlar tayyorlash tuzilmasini va uning faoliyat ko'rsatish tizimini o'z ichiga oladi. O'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimi.

4.4. Ta'lim paradigmalari

Paradigma - (yunoncha *paradigma* - *namuna*, *o'rnak* ma'nolarini anglatadi) - ilmiy muammolarni hal etish namunasi sifatida qabul qilingan nazariya. Masalan, tug'ilish nazariyasiga tegishli muammolarni aksariyat hollarda differensial tenglamalar nazariyasi yutuqlari orqali hal qilinadi yoki talaba-yoshlarni mustaqillik fuhida tarbiyalash milliy g'oyalar asosida hal etiladi va hokazo.

Paradigma guruhli talabalarning o'quv faoliyati doirasida o'z-o'zini anglash, talabalarning ilk vaqtlarini samarali o'tkazish, qayta aloqa sifati va sonini orttirish, didaktik materiallar sifatini yaxshilash, talabalarning o'z-o'zini boshqarish tizimini kengaytirish, rivojlangan ta'lim tizimini joriy etish, yangi kurslarni loyihalash, o'quv rejasi mazmunini

Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Zamonaviy didaktikaga ta'rif bering va uning yo'nalishlarini aniqlang hamda ularni ilmiy-nazariy jihatdan asoslab bering.
2. Uzlüksiz ta'lim tizimining har bir tarkibiy qismidagi mos didaktikalarni integratsiyalashni amalga oshirish haqidagi mulohazalaringizni yozib chiqing.
3. Ta'lim rivojlanishida paradigmalarning ahamiyati bor deb o'ylaysizmi?
4. Agar bor bo'lsa, ulardan amaliyotda foydalanishni qanday tasavvur qilasiz?

6-MA'RUZA. TA'LIM MAZMUNI

Reja:

1. Ta'lim mazmuni haqida tushuncha

2. Davlat ta'lim standartlarining vazifalari

3. Ta'lim mazmunida darsliklarning o'rni

Tayanch so'zlar: Talim mazmuni, ta'lim jarayoni, DTS, darslik, o'quv jarayoni, fan dastur, o'quv reja, ishchi dastur.

Ta'limning mazmuni uning vazifalaridan kelib chiqadi. Ta'limning mazmuni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimidir. O'quvchi ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonida aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantiradi, dunyoqarashi, ahloqi shakllanadi, hayotga, mehnatga tayyorlanadi. Ta'lim mazmuniga insoniyat to'plagan barcha ijtimoiy tajribalar kiradi. Uning mazmuni, xajmi, ijtimoiy tuzumning iqtisodiy talab va ehtiyojlari, fan-texnika taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ya'ni uning mazmuniga tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkuri haqidagi bilimlar, hozirgi zamon fani, texnikasi, madaniyati, ishlab-chiqarishdagi yangiliklar kiritiladi. Ta'limning mazmuni O'zgaruvchan, u doimo yangilanib turadi.

Bugungi kunda ta'limning mazmuni O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonunida belgilangan vazifalardan kelib chiqadi, Ta'lim mazmuni jamiyat umumiy o'rta talim oldiga qo'yayotgan talab-buyurtma asosida belgilanishi kerak. Ya'ni shakllanayotgan inson nimani bilishi, o'rganishi, qanday insoniy fazilatlariga ega bo'lishi haqidagi savollarga javob berishi kerak.

Ta'lim jarayoni o'quvchilarda: bilimdonlik, mustaqil fikrlash, ijodkorlik, tirishqoqlik, tashabbuskorlik, ziyraklik, intizomlilik, qiziquvchanlik kabi xislatlarni shakllantiradi. Tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkuriga munosabati ham ta'lim mazmunini belgilashga, ta'lim olishga yordam beradi. O'quvchi o'zida shakllangan munosabatlarga asoslanib tevarak-atrofdagi narsalarni, voqealarni baholaydi; oq-qorani ajratadi, ilmiy va g'ayriilmiy hodisalarning farqiga boradi.

Ta'lim mazmuniga kiritilgan o'quv materiali yuqori ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi, talim jarayonining imkoniyatlariga mos bo'lishi (ta'limni tashkiliy shakllari, qonuniyatlar, tamoyillari, usullari, o'quvchilarning umumiy rivojlanishi darajalariga. maktabning o'quv-metodik hamda moddiy holati hisobga olinishi) lozim.

Shuningdek, ta'lim mazmunini belgilashda maktabda o'qitiladigan barcha fanlarning o'ziga xos xususiyatlari va fanlararo aloqasi hisobga olinishi shart.

Ta'lim mazmuni ilmiy asoslagan DTS, o'quv rejalari, dasturiari va darsliklarida ifodalanadi. Xususiy metodika nuqtai nazari bo'yicha «ta'lim» aynan bir o'quv fani asosida o'qitish va o'qish faoliyatlarini birgalikda amalga oshirishni anglatadi.

Pedagogika fani nuqtai nazaridan qaralganda esa «ta'lim» o'qituvchi va o'quvchi ta'sirining majmui bo'lib, uning natijasida o'quvchining aqliy salohiyati (intellekti), ruxiyatini rivojlantirish ma'nosini bildiradi.

Bilim-tabiatda jamiyatda, inson ongida amal qilinadigan qonuniyatlarning turli belgilar (masalan, yozuv) vositasida moddiylashtirilgan ko'rinishdir. Bilimlar qarash g'oya, ta'rif, qoida, aniqlik, aksioma, teorema, omil va boshqa shakllarda beriladi;

Ta'lim jaroyoni tarkibiga ko'ra, o'ta murakkab didaktik hodisadir. Agar bujarayonga o'qituvchi faoliyati nuqtai nazaridan yondoshsak. «o'qitish jarayoni», o'quvchilar faoliyati nuqtai nazardan, esa «o'quv jarayoni» iboralari ishlatiladi

O'qitish eng qadimiy faoliyat turlaridan biridir. U mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi natijasida alohida kasb sifatida ajralib chiqqan. Kishilar o'qituvchilik kasbiga maxsus tayyorlanadi.

Ta'lim ma'lumbosqichlar asosida amalga oshiriladi: o'rganiladigan narsa-hodisalarni bevosita yoki bilvosita idrok etish: oldin o'rganilgan bilimlarni xotiraga, ya'ni esga tushirish; bilimlarni amalda qo'llash, fikrlash, ularning umumiy va xususiy alomatlarini ajratish.

Hozirgi an'anaviy maktabda asosiy e'tibor bilimlarni o'zlashtirishga ko'nikma va malakalami shakllantirishga qaratiladi. Bu o'quv- tarbiya jarayonini tashkil etish tajribasining eng zaif tomonidir. Ma'lumot mazmunining barcha elementlariga rioya qilib, ta'lim jarayonini tashkil etish yo'li bilangina har tomonlama rivojlangan yoshlarni yetishtirib chiqarish mumkin Ta'limning asosiy mazmunini uning vazifalari oydinlashtirib beradi. Asosiy vazifalarga aqliy tarbiya bilan bog'lik bo'lgan vazifalar kiradi. Bu vazifalar ichiga ilmiy vama'anviy bilimlar, hamda ular bilan bog'liq bo'lgan malaka va ko'nikmalar bilanqurollantirish, ajdodlarimiz qoldirgan tarixiy va madaniy qadriyatlarda hayotning ma'nosi jamiyatda insoning tutgan o'rni, ta'lim-tarbiyasi, odob - axloqi haqidagi hikmatli fikrlar borki, bular bugungi xalq ta'limi taraqqiyoti uchun va milliy maktab yaratishi borasida yoshlarimizda insonparvarlik, poklik, imon-e'liqod, muruvvat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, millatlararo do'stlik munosabatlari, qaxramonlik, mardlik singari tuyg'ularini tarbiyalaydi.

Ta'limni standartlashtirish-insoniyatning ijtimoiy ongida ro'y bergan tubo'zgarishlar tufayli kelib chiqqan zaruratdir. Chunki, axborotlar almashinuvimaksimal chegaraga yetgan davrimizda dunyoning bir burchagida yashayotgan kishi ikkinchi qutbda sodir bo'layotgan voqealarni bilibgina qolmay, ularning ne boisdan aynan shu tarzda ro'y berganini anglashi va his qilishi zarurdir. Bir sayyorada birvaqtda yashab turib, bir-birini tushunmaslik ba'zan insonlar o'rtasidagi munosabatlarni boshi berk ko'chaga kiritib qo'yishi mumkin. Shuning

uchun ham iqtisodiy axloqiy va taraqqiyot darajasi turlicha bo'lgan davlatlarda yashovchi barcha kishilarning fikrlash darajasini iloji boricha bir xil holatga keltirish extiyoji paydo bo'ladi. Bu holat ta'lim standartlari deb atalish tushunchani yuzaga chiqardi.

Standart-ta'limda yaratilgan me'yoriy reja, dastur, darsliklarni o'zlashtirish ekvivalenti, ya'ni ta'lim mazmunini o'zlashtirish darajasidir. Standartni ishlabchiqishda o'quvchini haddan tashqari zo'riqtirib yubormaslik talablariga rioya qilish, yani u o'quvchi yoshiga mos, uni o'zlashtirishga qurbi etadigan darajada bo'lishi kerak. Bunda albatta, ta'lim oluvchining qiziqishi, xoxishi, extiyoji hisobga olinishi kerak. Ta'lim standartlarini o'zlashtirishda shaxsga muhim ahamiyat berilishi, unga yakka tartibda yondashilishi maqsadga muvofiqdir. Standartlarni o'quv jarayoniga tatbiq etishdan oldin o'ta puxtalik bilan tajriba-snovdan o'tkaziladi va shu asosda bosqichmama-bosqich o'quv jarayoniga kiritib boriladi.

Davlat va jamiyat ta'lim muassasalari oldiga muayyan ijtimoiy buyurtmalar qo'yayotgan ekan, o'sha muassasalar tomonidan tayyorlanadigan kadr egallashi lozim bo'lgan ijtimoiy sifatlarining minimal chegarasini ham ko'rsatib berishi tabiiydir. Tarbiyalanuvchi yoki ta'lim oluvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka yoxud ma'naviy sifatlarining eng quyi miqdori ilmiy asoslarda belgilab berilgan rasmiy pedagogik hujjat-davlat ta'lim standart hisoblanadi. Standartlarda belgilangan natijalarga erishilmasa, yo o'sha ko'rsatkichlarni egallay olmagan bola, yoxud yoshlarda muayyan miqdordagi bilim, ko'nikma, malaka va ma'naviy sifatlarini shakllantira olmagan pedagogikani mukammal deb bo'lmaydi.

Bundan ko'rinib turibdiki, davlat ta'lim standarti (dts) nazorat vositasi, ayni vaqtda. Ta'lim muassasalarida ko'zlangan ko'rsatkichlarni qo'lga kiritish uchun zarur bo'lgan sharoitni belgilab olchovi hamdir. Davlat ta'lim standartlarining ko'rsatkichlari qo'lga kiritish uchun zarur bo'lgan sharoitni belgilashi o'lchovi hamdir. Davlat ta'lim standartlarining ko'rsatkichlari amaldagi mavjud ta'lim mazmunidan emas, balki shakllantirilayotgan o'quvchiga singdirilishi lozim bo'lgan sifatlarining jahon bo'yicha zarur deb hisoblangan miqdoridan kelib chiqadi.

Davlat ta'lim standartlarining ikki asosiy vazifasini alohida ta'kidlab ko'rsatish lozim. Bunday standartlar umumiy o'rta maktabda o'quvchilarga beriladigan ta'lim mazmuining majburiy minimumini hamda bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar majmuasini belgilab beradi. Ta'lim mazmunining majburiy minimumi o'quv dasturlari va darsliklarda to'liq o'z ifodasini topishi shart bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga ko'ra o'quvchi muayyan bosqichda egallashi shart bo'lgan bilim ko'nikma va malakalarning minimal miqdori belgilanadi.

Talim-tarbiya jarayoniga DTSni joriy etish talablari rivojlangan g'arb mamlakatlari tajribasiga asoslanadi. Ammo, shuni ham aytish kerakki, hali dunyodagi birorta jamiyatda ta'limni standartlashtirish keng ko'lamda amalga oshirilayotgani yo'q. Chunonchi, mazkur yumushga birinchi bo'lib qo'l urgan fransiyada bu ish hanuzgacha sinov darajasida, aqshda esa dts yaratishga endigina

kirishilmoqda. Yaponiya va Germaniya ta'lim muassasalarida mazkur muammoni hal etish rejalashtirish bosqichida turibdi. O'zbekistonda ta'lim standartlari masalasiga davlat miqyosida yondashildi va uni ilmiy yo'sinda hal etishdan tashqari, ta'lim-tarbiya amaliyotiga joriy qilish maqsadida uzoq vaqt izlanishlar olib borildi, tajriba-sinovlar amalga oshirildi.

O'quv rejasi - davlat hujjatidir. Unga barcha umumta'lim maktablari so'zsiz amal qiladi. Bu hujjatda sinflar bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv fanlari va shu fanlar uchun ajratilgan o'quv soatlari ko'rsatiladi bu hujjat maktabning yagona o'quv rejasi hisoblanib, u halq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Alohida aniq bir fanning o'quv rejasi - shu fanni o'qitish uchun ajratilgan soatlar va o'quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatidir.

O'quv fan dasturi - har bir alohida fan uchun o'quv dasturi tuziladi. Dastur o'quv rejasiga asoslanadi. Fanning maqsadidan, o'quv rejasi bo'yicha ajratilgan soat va bilim hajmi uning tizimi mavjud jamiyatning g'oyaviy-siyosiy yo'nalishini o'zida aks ettiradigan davlat hujjatidir.

O'quv dasturida bir sinfda alohida fanlar bo'yicha o'quvchilarga beriladigan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarning hajmi belgilab beriladi. Dasturda fanning mazmuni, mavzu ketma-ketligi ikkinchi mavzu birinchini to'ldirishi, izchillik bilan yoritiladi va ma'lum mavzular orqali ko'rsatiladi. O'quv dasturida shu fan bo'yicha o'quvchilarga berilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar kichik mavzularda ifodalanib, mavzu maqsadi qisqacha izohlanadi.

Fanning maqsadi va vazifasidan kelib chiqqan holda boblarga bo'linadi. Boblar katta-katta mavzularga, katta mavzular esa kichik mavzularga bo'linib, shu mavzu yuzasidan o'quvchi qanaqa bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashirishi lozim bo'lsa. Uning mazmuni qisqacha ifodalanib beriladi. O'quv dasturining o'zini amal qilinishi kerak bo'lgan printsiplari mavjud,

1. Dasturning aniq bir g'oyaga asoslanganligi.

Mustaqil jamiyatimiz taraqqiyotining tamoyillariga asoslangan holda isloh qilingan har bir sohadagi fan, texnika, ishlab chiqarish, ijtimoiy nuinosabatlarda erishilgan yutuqlar darajasini ilmiy asosda aks ettirishi lozim

2. Dastur ilmiylik printsiptiga asoslanadi.

Har bir ta'lim va tarbiya g'oyalari, ilmiy jihatdan tekshirilgan, ishonchli dalillarkuzatishlar, manbalar va materiallar asosida kiritiladi.

3. o'quv dasturi- aniq mazmun va mantiqiy g'oyalarni o'zida aks ettirishi lozim

Dasturda fanning maqsad va vazifalari undagi bilim asoslari misollar va masalalar orqali o'rgatiladi. Aks holda o'rgatilayotgan bilim asoslarini nazariy jihatdan tushunish qiyin bo'ladi.

4. Nazariya bilan amaliyotning birligi printsipti. Talabalar olgan nazariy biliinlarini, amalda qo'llay olishi ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutiladi.

5. O'quv dasturini tuzishda fanning tarixiy saboqlari inobatga olinadi.

Vaqt o'tishi bilan fan olamida yangi-yangi kashfiyotlar, ma'lum bir ilmiy qonun-qoidalar paydo bo'lib, fan takomillashib boradi. Dastur fanning kelajakdagi istiqbolini o'zida qisqacha ifodalaydi.

6. O'quv dasturi davlat tomonidan tasdiqlangan reja asosida bakalavr, magistr, litsey, gimnaziya, kollejlarga alohida-alohida tuziladi.

Darslik.

Darslik o'quv jarayonining asosi. Darslik o'quvchining uydagi muallimi, har bir fanning mazmuni, maqsadi, vazifasi darslikda yoritiladi. Darslik, ya'ni fan obektiv borliq o'rtasidagi muhim qonuniyatli bog'lanishlarini aks etiradi, darslikdagi bilimlar tizimi o'zaro ichki, mantiqiy bog'lanishlarga ega bo'lib, ular didaktika talabiga muvofiq ravishda bayon qilingan. darslik quyidagi talablarga amal qilgan holda yaraliladi:

1. Har bir o'quv fani uchun yaraliladigan darslikda ilmiy bilimlar tizimi va uning hajmi dastur talablariga sinf oquvchilarining yoshi xususiyatlariga mos kelishi kerak.

2. Darslikda bayon qilmagan ilmiy bilimlarning nazariy asoslari, g'oyaviy yo'nalishlari tizimli va izchil bo'lishi talab qilinadi. Ular hayotdan olingan, ishonarli bo'lishi lozim. Keltirilgan fakt va dalillarning ishonchli bo'lishi, ular to'g'ri taxlil, aniq ta'rif etilishi tegishli xulosalar chiqarilishi lozim. Shu holdagina o'quvchilardagi ilmiy dunyoqarash, eng yaxshi insoniy fazilatlar tarkib toptiriladi.

3. Nazariy bilimlar ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'langan bo'lishi kerak.

4. Darslikda mavzu sodda, ravon tilda yozilishi, hamda tegishli qoida va ta'riflari berilishi kerak. Darslik ichidagi va muqovasidagi chizilgan rasmlar va bezatilishi o'quvchining yoshiga mos, fanning harakteriga monand bo'lmog'i zarur.

5. Mavzulardagi fikrlar aniq va qisqa bo'lishi, ilmiylikka asoslanishi kerak.

Mamlakatimizda pedagogika ilmi ham, amaliyoti ham yangilanib bormoqda.

Ma'lumki har qanday millatning yangilanishi yoshlar tarbiyasidan boshlanadi.

Pedagogika o'quvchilarning ruhiy, jismoniy, genetik vamintaqaviy o'ziga xosliklarini to'liq hisobga olgandagina yuqori samaradorlikka erishishi mumkin.

Hozirgi davrda yaratilayotgan darsliklarning asosiy kamchiligi millatimiz bolalarining psixologik o'ziga xosliklarini, fikrlash tarzini to'liq hisobga olishga erisha olinmayotganida, deb bilamiz. Bizning mutaxassislarimiz didaktik vositalar orqali o'quvchilarga hamma gapni aytib berishga odatlanib qolishgan. Holbuki o'quvchini o'qitish kerak emas, uni o'zini o'qiydigan holatga olib kelish lozim. Toki bolaning o'zi izlanmas ekan, ta'limda vutuqqa erishish mumkin emas. Demak, yaratilayotgan didaktik vositalar jumboqli harakterga ega bo'lishi, o'quvchilarni o'ylanishga, izlanishga, sinab ko'rishga da'vat qiladigan tarzda tuzilishi lozim.

O'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish

Bunda muayyan fanning o'quv adabiyotlari mazkur ta'lim turida o'qitiladigau bosliqa fanlar bilan bog'liqligini va boshqa ta'lim turlarida ushbu fanning o'quv

dasturlaridagi uzviylikni ta'minlash lozim. O'quv adabiyotlari belgilangan tartibda har tomonlama ekspertizadan o'tkaziladi.

Har bir ta'lim tun uchun varatilayotgan o'quv adabiyotlariga psixologik-pedagogik, uslubiy-didaktik, sanitariya-gigiyenik va boshqa talablar alohidabelgilab qo'yiladi.

Uzluksiz ta'lim tizimining barcha turlarida fundamental bilimlardan iborat bo'lgan umumta'lim fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlari asosan an'anaviy bosmashaklda tayyorlanadi

Elektron o'quv adabiyotlari bilim oluvchilarning tasavvurini kengaytmasiga dastlabki bilimlarini rivojlantirishga va chuqurlashtirishga, qo'shimcha ma'lumotlar bilan ta'minlashga mo'ljallangan bo'lib, ko'proq chuqurlashtirib o'qitiladigan fanlar bo'yicha yaratiladi. Uzluksiz ta'lim tizimida fan va texnologiyalarning rivojlanishi sari mazmuni tez o'zgaruvchan, chuqurlashtirib o'qitiradigan, umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha asosan kam adadli elektron o'quv adabiyotlari tayyorlanadi.

O'quv adabiyotlarining mazmuni bilim oluvchilarda mustaqil va erkin fikrlash, olingan bilimlarni bosqichma-bosqich boyitish, mukammallashtiribborish, mustaqil ta'lim olish, yangi bilimlarni o'quv adabiyotlaridan izlab topish ko'nikmalarini hosil qilishni ta'minlashi kerak.

O'quv adabiyotlarining shakllari

O'quv adabiyotlari - muayyan ta'lim turi (yo'nalishi yoki mutaxassisligi)o'quv rejasida qayd etilgan fanlar bo'yicha tegishli o'quv dasturlari asosida zarur bilimlar majmuasi keltirilgan, o'zlashtirish uslublari va didaktikasi yoritilgan (shulumlardan, xorijiy tarjimalar) manba bo lib, ikki xil shakida tavyorlanadi:

-an'anaviy (bosma) o'quv adabiyotlar - ta'lim oluvchilarning yoshi va psixofizologik xususiyatlari, ma'lumotlar hajmi, shriftlari, qog'oz sifati, muqova turi va boshqa ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda qog'ozda chop etiladigan manba;

- elektron o'quv adabiyotlar - zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlariga ega bo'lgan manba.

O'quv adabiyotlarining turlari

-uzluksiz ta'lim tizimi o'quv tarbivaviy jaravonida o'quv adabiyotlarining quyidagi turlari qo'llaniladi: darslik, o'quv qo'llanma, lug'at, izohli lug'at, ma lumotlar to'plami, leksiyalar kursi, leksiyalar to'plami, metodik ko'rsatmalar, metodik qo'llamnalar, ma'lumotlar banki, dayjest, sharh va boshqalar.

Darslik - davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi uslubiyati va didaktikalablari asosida belgilangan, milliy istiqloq g'oyasi singdirilgan, muayyan o'quvlimning mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammallashtirilishiga qaratilgan hamda turdosh ta'lim yo'nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr.

GLOSSARIY

Ta'limning mazmuni Ta'limning mazmuni uning vazifalaridan kelib chiqadi.

Ta'limning mazmuni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimidir. O'quvchi ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonida aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantiradi, dunyoqarashi, ahloqi shakllanadi, hayotga, mehnatga tayyorlanadi. Ta'lim mazmuniga insoniyat to'plagan barcha ijtimoiy tajribalar kiradi. Uning mazmuni, xajmi, ijtimoiy tuzumning iqtisodiy talab va ehtiyojlari, fan-texnika ixtiroqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Yani uning mazmuniga tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkuri haqidagi bilimlar, hozirgi zamon fani, texnikasi, madaniyati, ishlab-chiqarishdagi yangiliklar kiritiladi.

Standart Ta'limda yaratilgan me'yoriy reja, dastur, darsliklarni o'zlashtirish ekvivalenti, ya'ni ta'lim mazmunini o'zlashtirish darajasidir. Standartni ishlab chiqishda o'quvchini haddan tashqari zo'riqtirib yubormaslik talablariga rioya qilish, yani u o'quvchi yoshiga mos, uni o'zlashtirishga qurbi etadigan darajada bo'lishi kerak. Bunda albatta, ta'lim oluvchining qiziqishi, xoxishi, ehtiyoji hisobga olinishi kerak. Ta'lim standartlarini o'zlashtirishda shaxsga muhim ahamiyat berilishi, unga yakka tartibda yondashilishi maqsadga muvofiqdir. Standartlarni o'quv jarayoniga tatbiq etishdan oldin o'ta puxtalik bilan tajriba-sinovdan o'tkaziladi va shu asosda bosqichmama-bosqich o'quv jarayoniga kiritib boriladi.

O'quv rejasi - davlat hujjatidir. Unga barcha umumta'lim maktablari so'zsiz amal qiladi. Bu hujjatda sinflar bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv fanlari va shu fanlar uchun ajratilgan o'quv soatlari ko'rsatiladi bu hujjat maktabning yagona o'quv rejasi hisoblanib, u halq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Alohida aniq bir fanning o'quv rejasi - shu fanni o'qitish uchun ajratilgan soatlar va o'quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatidir.

O'quv fan dasturi - har bir alohida fan uchun o'quv dasturi tuziladi. Dastur o'quv rejasiga asoslanadi. Fanning maqsadidan, o'quv rejasi bo'yicha ajratilgan soat va bilim hajmi uning tizimi mavjud jamiyatning g'oyaviy-siyosiy yo'nalishini o'zida aks ettiradigan davlat hujjatidir.

Dastur ilmiylik printsipligiga asoslanadi. Har bir ta'lim va tarbiya g'oyalari, ilmiy jihatdan tekshirilgan, ishonchli dalillarni kuzatishlar, manbalar va materiallar asosida kiritiladi.

Nazariya bilan amaliyotning birligi printsipli. Talabalar olgan nazariy bilimlarini, amalda qo'llay olishi ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutiladi.

Darslik-o'quv jarayonining asosi. Darslik o'quvchining uydagi muallimi, har bir fanning mazmuni, maqsadi, vazifasi darslikda yoritiladi. Darslik, ya'ni fan obektiv borliq o'rtasidagi muhim qonuniyatli bog'lanishlarini aks etliradi, darslikdagi bilimlar tizimi o'zaro ichki, mantiqiy bog'lanishlarga ega bo'lib, ular didaktika talabiga muvofiq ravishda bayon qilinadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Ta'lim mazmuni deganda nimani tushindingiz?
2. Talim mazzmuni vazifasi nimadan iborat?
3. DTS nima, vazifasi haqida gapiring?
4. Darsliklarning o'quvchi yoshiga mosligi va ularni o'rni nimalarda namoyon bo'ladi?

7-Ma'ruza. Ta'lim metodlari va vositalari (2 soat)

Reja

1. Ta'lim metodlari va usullari tushunchalari.
2. Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar.
3. Ta'lim metodlarining mohiyati.
4. Ta'lim metodlarini tanlab olish shartlari.
5. Ta'lim vositalari va ulaming funktsiyalari.

Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo'llanilayotgan metodlar samaradorligiga bog'liq bo'lib, u ta'lim nazariyasida asosiy o'rinlardan birini egallaydi.

«**Metod**» — yunoncha «metodos» - «yoi» degan so'zdan paydo bo'lib, u, tadqiq qilish ma'nosini anglatadi. Ta'lim metodi ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qara-tilgan birgalikdagi faoliyatdir.

Ta'lim metodlari - o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o'quv materialini nazariy va amaliy yo'naltirish yo'llarini anglatadi.

O'qitish metodlari ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining qanday bo'lishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda ta'lim oluvchilar qanday ish-harakatlarini bajarishlari kerakligini belgilab beradi. Shuningdek, ta'lim metodi o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning o'qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yolidir.

Ta'lim metodlari tevarak-atrofdagi dunyoni bilishning umumiy qonuniyatlarini tushunishga bog'liqdir, ya'ni ular falsafiy metodologik asosga ega va ta'lim jarayonidagi qarama-qarshiliklarni, ta'lim jarayonining mohiyatini va

tamoyillarini to'g'ri anglash natijasidir. Ta'lim materiali ta'lim mazmunida ifodalangan ilmiy fikr mantig'iga bog'liq. **Pedagogik qarashlarda** nazariya qancha kam ifodalangan bo'lsa, ta'lim metodlari bu nazariyaga shuncha kam bog'liq bo'ladi. Pedagogika fani maktablar va ta'lim beruvchilarning ilg'or ish tajribalarini umumlashtiradi, an'anaviy ta'limning ilmiy asoslarini ko'rsatib beradi, o'qitishning **zamonaviy, samarali metodlarini** ijodiy ravishda izlab topishga yordam beradi.

Shu sababli ham ta'lim metodlari oldiga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

1. O'quv materialini o'rganish yo'li fikr yuritishning didaktik-materialistik usullarini, milliy mafkuraga hamda milliy qadriyatlarga asoslangan axloq, xulq-atvorning irodaviy sifatlarini shakllantirishga olib kelishi kerak.
2. Ta'lim metodi ilmiy dalillar bilan ravshanva aniq asoslangan bo'lishi lozim.
3. Ta'lim metodlarining tizimliliği ularning samaradorlik darajasini belgilaydi.
4. Ta'lim metodlari oldiga muqarrar sur'atda qo'yiladigan yana bir talab - ularning tushunarli bo'lishi.
5. Bolani sezgi organlari orqali bilishga o'rgatish va o'quv jarayonida ko'rsatmali qurollardan iloji boricha ko'proq foydalanish.
6. Ta'lim metodlari oldiga qo'yiladigan talablardan yana biri - bu bilimlarning asosli va puxta bo'lishi. Ta'lim metodlari yaxshi natija beradigan bo'lishi lozim. Ta'lim beruvchining tushuntirish va ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish usuli rejalashtirilgan yoki mo'ljallangan natijani berishi kerak.

Metodlar bir qancha asosiy guruhlardan iborat bo'lib, ularning har biri o'z navbatida kichik guruhlar va ularga kiruvchi alohida metodlarga bo'linadi. O'quv-biluv faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayonining o'zi esa axborot uzatish, qabul qilish, anglash va o'quv axborotlarini esda saqlashni hamda olinadigan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olishni nazarda tutishni hisobga olsak, **birinchi guruh** metodlariga **so'z orqali** axborotni uzatish va eshitish orqali qabul qilish metodlari og'zaki metodlar; hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar; **ikkinchi guruh** metodlariga o'quv axborotlarini **ko'rgazmali uzatish** va ko'rish orqali qabul qilish metodlari — ko'rgazmali metodlar: tasviriy, namoyish qilish va boshqalar; **uchunchi guruh** metodlariga o'quv axborotini **amaliy mehnat** harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya tajribalari, mehnat harakatlari va boshqalar) kiradi.

O'quv materialini og'zaki bayon qilish metodi bayon qilinayotgan ma'lumotlarning to'g'ridan to'g'ri ta'lim beruvchining jonli nutqi orqali idrok qilinishi bilan tavsiflanadi va ana shu xususiyatiga ko'ra ta'limning boshqa metodlaridan farq qiladi.

Ta'limning ko'rgazmalilik metodidan amaliy faoliyatda foydalanishda namoyish etish, tasvirlash va ekskursiya metodi bilan ish ko'rishda ta'lim oluvchilarni turli mavzularda tasviriy materiallar bilan ishlashga jalb etish muhim didaktik ahamiyatga ega.

Amaliy mashg'ulotlar metodi, asosan o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni mustahkamlash va uni amalda qo'llay olish, tegishli ko'nikma va malakalarga ega bo'lishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Mashq qildirish metodi o'quv predmetlarining mazmuni va tavsifiga qarab turlicha olib borilishi mumkin. Ta'lim oluvchilarning o'zlashtirgan ko'nikma va malakalarini mustahkamlash va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mashq qildirish lozim.

Laboratoriya metodi. Bu ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarga atrofni o'rab turgan obyektiv borliqdagi narsa va hodisalar, ularning shakli, hajmi, tarkibi, tuzilishi, o'zgarishi va rivojlanishi qobiliyatlari haqida yangi-yangi bilimlar berish, o'zlashtirayotgan ilmiy bilimlarni mustahkamlash hamda tegishli ko'nikma va malakalar bilan qurollan-tirishda muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim vositalari. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan vositalar ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. **O'qitishning asosiy vositalari** - bu asosiy o'quv mazmuniga ega bo'lgan rejalar, o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalari. **O'qitishning qo'shimcha vositalari** - bu ta'lim oluvchilardagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi masalalar, mashqlar to'plami, ma'lumotnomalari; tarqatma materiallar, ko'rsatmali va ko'rgazmali vositalar, disketlar, EHM va boshqalar. **O'qitishni takomillashtiruvchi dastur vositalari** — bu mutaxassislar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan va predmetdagi tegishli mavzular bo'yicha dars jarayonini takomillashtirishga imkon beruvchi intellektuallashtirilgan dasturlar va uni amaliyotga joriy etishga sharoit yaratuvchi dasturiy-texnik vositalar.

Sharq mutafakkirlarining ta'lim metodlari haqidagi fikrlari

Sharq mutafakkirlarining didaktik qarashlarida ham ta'lim metodlari masalasiga jiddiy e'tibor qaratilgan. Buni al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning turli ta'lim metodlari haqidagi fikrlari, qarashlari, amal qilgan ta'lim yo'nalishlarida yaqqol sezish mumkin. **Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy** o'zigacha bo'lgan ta'lim metodlarini sintezlashtirishga harakat qilgan. Barcha mutafakkirlar kabi u ham ko'rgazma-tajriba metodlari, savol-javob metodlari, mala-ka va ko'nikmalarai shakllantirish metodlari, bilimlarni sinash metodlaridan keng foydalanilgan. Al-Xorazmiy matematika fanining amaliy ahamiyatini yuksak cho'qqilarga ko'tara oldi. Uning buyuk ixtirolaridan biri - «0» (nol) sonini yaratishi va bu orqali uning fanga kiritgan buyuk kashfiyoti o'nli pozitsion sanoq sistemasining iste'molga kiritilishidir.

Abu Nasr Forobiy ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa, tarbiyada ma'naviy-axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb o'qtiradi. Bular tarbiyachilar va murabbiylar tomonidan turli metodlar yordamida amalga oshiriladi. Forobiy ta'lim-tarbiya ishlarini nazariy yo'l bilan amalga oshirishga ko'proq e'tibor beradi. Shuning bilan birga u ta'lim-tarbiyada rag'batlantirish, odatlantirish va vaqti kelganda majbur etish metodlaridan foydalanish g'oyalarini ham ilgari surgan. U matematika, mantiq, tibbiyot, ilmi nujum, musiqa, huquq, tilshunoslik, poetika kabi sohalar bilan shug'ullangan, turli tillarni o'rgangan. Manbalarda yozilishicha, u 70 dan ortiq tilni bilgan.

Abu Rayhon Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. Uning fikricha, ta'lim oluvchilarga ta'lim berishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- ta'lim oluvchilarni zeriktirmaslik;
- bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik kerak - bu dars jadvaliga qo'yilgan talablardan biri;
- uzviylik va izchillik;
- tahlil qilish va taqqoslash;
- takrorlash;
- materialni ko'rgazmali bayon etish va shu kabilar.

Abu Ali ibn Sino ta'lim oluvchilarni jamoa qilib o'qitishni ta'kidlaydi. U ta'lim oluvchilarni o'qitishda ularni birdaniga kitob bilan band qilib qo'yimaslik kerak, deb o'qtiradi. Shuningdek, olimning fikricha, olib boriladigan o'quv mashg'ulotlarning mazmun-mohiyati ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlariga ham mos kelishi va unda turli xil ta'lim metodlari va shakllaridan foydalanish zarur. Bu orqali ta'lim oluvchilaridagi zerikishning oldi olinadi. Ibn Sino ta'limoti bo'yicha bilishda qaysi metodlardan foydalanil-masin-u og'zaki ifodalash, bilimlarni tushuntirish, turli ko'rinishdagi suhbatni tashkil etish, tajribalarni uyushtirish bo'ladimi; baribir, ta'lim oluvchida haqiqiy bilim hosil qilish, mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarni amaliyotga tadbiiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsad boigan.

Turli yosh guruhlarida ta'lim metodlarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari. Ta'lim metodlarini faollashtirish yo'llari. Mustaqil ish va uning turlari

Ta'lim metodi psixologik asosga ega. Bolaning o'quv materialini o'zlashtirishdagi yosh imkoniyatlari va uning yetuklik darajasi o'qitish va o'qish usullariga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim oluvchilarning fikrlash faoliyatini va shaxsiy xususiyatlarini yaxshi bilish o'qitishning samaraliroq usullarini topish imkoniyatini beradi. Mutaxassislar tayyorlashning shaxsiy faoliyati konsepsiyasi bo'yicha ta'lim jarayonida individual ta'lim jarayonini individual-ijodiy shaxsni shakllantirish jarayoni sifatida qarashga, shuningdek, o'qitishni nafaqat o'qitiladigan fan mantiqiga, balki shaxsning rivojlanishi mantiqiga muvofiq holda tashkil etishga imkon beradi, deb qaraladi. Ta'lim oluvchining yaratuvchilik (ijodiy potension) qobiliyati, uning muloqot qila olish qobiliyatini, ta'lim olish madaniyatini, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida samaradorlik va sifatni oshirishda axborotlashgan jamiyat qurish orqali ijtimoiy jamiyat buyurtmasi-ni bajarish (axborot texnologiyalari sohasi, axborot ta'lim hujjatlari, foydalanuvchilar)ini va shu kabi jarayonlarni rivojlantirishdagi optimal variantlarni tanlashda istiqbolli natijalarni qoiga kiritishni kafolatlaydi. Bunda faol ta'lim jarayonini amalga oshiriladi.

Faol ta'lim - bu ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining ongli va faol ishtiroki, mustaqilligi hamda ijodiy qobiliyatlarini ta'minlovchi tizimli pedagogik jarayondan iborat. Faol ta'lim sharoitida o'zlashtirilgan bilim va harakat usullari mazmunan mukammal tizimli, mantiqan tugal va turli ishlab chiqa-rish vaziyatlarida qo'llanishga yaroqli bo'ladi. Bunda asosan quyidagi ta'lim metodlaridan foydalaniladi: bahs-rnunuzara; fikrlashga jalb qilish; doskada mustahkamlash; turli ta'limiy-kasbiy o'yinlarni arna-liyotga joriy etish va hokazo.

Ta'lim metodlarini faollashtirish quyidagi ta'lim qonunlariga e'tiborni kuchaytirishni taqozo etadi.

• Ta'limda intellektual sohani rivojlantirish qonuni.

Bu qonun bo'yicha ta'lim oluvchining fikrlashini (bilishini, ijodini), xotirasini, diqqatini, aql sifatlarini (teranlik, qayishuvchanlik, tejamkorlik, mustaqillik), fikrlash ko'nikmalarini (ajratish, qo'shish, tahlil qilish va h.k.), bilishini (ta'lim oluvchilarni qarama-qarshilik muammolarni qurish, savollar qo'ygan farazlarni ilgari surish va h.k.), o'rganishini bilishini rivojlantirish, predmetga oid bilim, o'quv va ko'nikmalarni shakllantirishning istiqbolli usullari ishlab chiqiladi va ulardan amaliyotda foydalanish shakllari yaratiladi;

• Ta'limda iroda sohasini rivojlantirish qonuni.

Bu qonun bo'yicha ta'lim oluvchidagi maqsadga intilishni shakllantirish jarayoni e'tiborga olinadi. Unda, asosan, asab va muskullarning zo'riqishini yenga olish, tashabbuskorlik, o'z kuchiga ishonish, o'zini boshqara olishni rivojlantirish, bilimlarni o'qitish, faoliyatni rivojlantirish, uni qanday amalga oshirish va nazoratni tashqi ko'nikmasiz olib borish kabi qobiliyatlar hisobga olinadi;

• Ta'limda ematsion sohani rivojlantirish qonuni.

Bu qonun ta'lim oluvchiga o'z hissiyotini va ruhiy holatini boshqarish bo'yicha zaruriy ko'nikmalarini shakllantirish jarayonidan iborat bo'lib, unda ortiqcha havotirni yengish va o'zini holisona baholash ko'nikmasiga ega bo'lishni tarbiyalash muhim hisoblanadi;

• Ta'limni axborotlashtirish qonuni.

Bu qonun bo'yicha axborotlashtirilgan jamiyat sharoitida ta'lim oluvchilarning jamoatchilik va kasbiy faoliyatida to'laqonliroq samarali qatnashishiga tayyorlash maqsadida ta'lim tizimining barcha komponentlari kompyuterli va axborotli texnologiyalar yordamida yaxshilanadi.

Ta'limni axborotlashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'quv-uslubiy ishlarni qayta tashkil etish;
- ta'lim beruvchi va uning rolini o'zgartirishga qo'yilgan talablar orttiriladi;
- ta'lim oluvchi shaxsning va uni individuallashtirish xususiyati rolining ortishi;
- ta'lim muassasasi rolining zamonaviylashuvi, o'zgarishi va uning ta'lim oluvchilar tarkibi joylashgan joylarga ta'sirini e'tiborga olish;
- axborot resurslarining mumkin bo'lgan hajmining to'satdan ortishini hisobga olish;
- zamonaviy axborot xizmati ko'rsatishga bo'lgan talabning muntazam ravishda ortib borishi asosidagi axborotlashtirishning ahamiyati o'sishi, ayniqsa, bashoratli, ta'limiy va ilmiy xarakterdagi yo'nalishning rivojlanishini hisobga olish;
- beshta muhim masalalarni hal qilishni kafolatlash. Ular: ta'lim sifatini oshirish; ta'lim jarayonini qulay holga keltirish asosida ta'lim olishni engillashtirish; aholi savodxonligi oshishini ta'minlash;

- mamlakatning iqtisodiy imkoniyati (quvvati) o'sishini ta'minlash;
- milliy ta'limning jahon ta'limi tizimiga integratsiyalashuvini ta'minlash;

• **Ta'limda mustaqillik qonuni.**

Bu qonun bo'yicha ta'lim oluvchilarning bilimlarini hayotga qo'llay olish uchun ta'lim berish jarayonini faol fikrlash jarayoniga aylantirish asosida ularda ijodiy

tashabbuskorlik va **mustaqil** tafakkur, nutq, madaniyati va ilmiy dunyoqarash, e'tiqodni tarkib toptirishning optimal variantlarini ishlab chiqiladi. Professorlar R.X. Jo'rayev va S.T. Turg'unovlarning qayd eti-shicha **mustaqil ta'lim** - bu insonning o'zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida ajdodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o'rganishga yo'naltirilgan shaxsiy harakatlar jarayoni. Bunda insonning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari, **mustaqil fikrlash** qobiliyati aso-siy rol o'ynaydi.

Mustaqil fikrlashga o'rgatish. Har qanday o'quv fani bo'yicha darsliklarning asosiy didaktik ashyosi matnlar, savol-topshiriqlar, mashqlar yoki misol-masalalar hisoblanadi. Ta'lim oluvchini mustaqil fikrlashga o'rgatishda darslik, o'quv qo'llanmalar va ta'lim beruvchining alohida-alohida ahamiyatini ta'kidlash shart emas, balki uni mavzudagi ilg'or fikrlar, ilmiy xulosalar, amaliy haqiqatlar, voqea-hodisa yoki inson shaxsiga o'z munosabatini bildirishga yo'naltirish kerak bo'ladi. Muayyan fanlar bo'yicha ta'lim oluvchini mustaqil fikrlashga o'rgatishga darsliklardan o'rin olgan, ilm ahliga, darslik muallifi va ta'lim beruvchiga avval ma'lum bo'lgan ilmiy va hayotiy haqiqatlar-ni har bir ta'lim oluvchi o'zining imkoniyati doirasida o'z yo'li bilan anglatadi. Darslik yoki o'quv qo'llanmalardagi yoki ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan savol-topshiriqlar ta'lim oluvchini matn maz-munini hikoya qilishga (ayrim hollarda yodlab olishga) majburlamasligi kerak. Demak, **mustaqil ta'lim** — bu olingan bilim ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot yoki materiallarni mustaqil o'rganish maqsadidagi o'quv shaklidir.

O'qituvchilarning pedagogik mahorat tajribasida ta'lim metodlari samaradorligini oshirish yo'llari.

Pedagogik mahorat — ta'lim beruvchining ustoz-murabbiylik fazilatlarini, o'qituvchilik kasbining sirlarini chuqur egallaganligi, insoniylik va iste'dodi hamda intellektual salohiyati va shu kabilar asosida undagi kasbiy ta'lim, tushuncha, ko'nikma va malakalarning mukammal shakllangan kasbiy faoliyati.

Pedagogik mahoratdan ko'zlangan **maqsad** darsning sifati va samaradorligini oshirishdan iborat bo'lib, u ta'lim beruvchining kasbiy-ijodiy faoliyatidir. Bunda ta'lim beruvchining mahorati ta'lim oluvchilar ichida kimga nimadir tushunarsiz bo'lganligini tezda (o'z vaqtida) ilg'ay olish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Pedagogik mahoratga ega o'qituvchida kamida quyidagi qobili-yatlar mujassam bo'lmog'i lozim:

- o'qituvchi dars materialini aniq va ravshan bayon qila olishi kerak;
- o'qituvchi o'z ta'lim oluvchilarini iloji boricha o'rganilayotgan mavzu bo'yicha bir xil fikrga keltira olishi kerak;
- o'qituvchi mavzu mohiyatini to'liq ochib bera olishi kerak va

zarur bo'lganda ularga bu mavzuning o'z kasbiy faoliyatidagi o'rnini va roli haqida tushuncha bera olishi kerak;

- dars davomida befarq holda qatnashayotgan ta'lim oluvchini tez da dars mazmunini o'rganishga jalb qila olishi kerak;

- o'qituvchining darsni yana davom ettirishini xohlovchi ta'lim oluvchilar soni auditoriyadagi jami ta'lim oluvchilarning qancha qismini tashkil etishini baholab berish va bu orqali o'z dars o'tish texnologiyasini takomillashtirib borish imkoniyatiga ega bo'lish;

- o'qituvchining dars maqsadiga erishganligini baholay bilishi va xulosalash qobiliyati va shu kabilar.

Bunga sabab ta'limda mavzuning mazmuni, mavjud ko'rgazmali vositalarning xarakteri va ta'lim oluvchilar tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib, har bir ta'lim jarayonning holatiga mos ular uyg'unligidan oqilona foydalanish dars samaradorligini ta'minlashga imkoniyat yaratadi:

Ta'lim tamoyillari.

Bu o'qish va o'qitish jarayonida obyektiv mavjud bo'lgan va uni bir butun qilib turgan qismlari orasidagi zaruriy bog'liqlikdan kelib chiqib, odamlar tomonidan ishlab chiqilgan vata'lim jarayonida amal qilishga tavsiya etilgan harakatlar tarkibidir. Pedagogik yondashuv bu ta'lim-tarbiyadagi o'zaro bog'liqlik. Tarkibiy va tashkiliy jihatdan bir butun bo'lgan jarayon va hodisalarni o'rganuvchi pedagogik faoliyatdir. Pedagogik yondashuvlar turlari ular qo'llanilayotgan manbaga mos holda turlicha bo'ladi. Ular ichidan pedagogik texnologiyalarning ta'lim-tarbiyada keng qo'llanilishi bilan texnologik yondashuvga e'tibor kuchaymoqda.

Texnologik yondashuv - bu ta'limning aniq kutilgan natijalariga ega bo'lgan uzluksiz jarayondir. Uning komponentlari quyidagilardan iborat: tizimli yondashuv asosida o'quv jarayonini loyihalash; o'quv maqsadini mumkin qadar aniqlashtirish; ta'lim oluvchilarni ularning xatti-harakatlari asosida o'qitish; teskari (qaytma) aloqa; bilim, ko'nikma va malakalarning to'la o'zlashtirilishi rejalashtirilgan maqsadlarga erishishini kafolatlash; o'qitishning samaradorligi-ga erishish.

Pedagogik qobiliyat - bu o'qituvchining pedagogik faoliyatga xos bo'lgan zaruriy xususiyatlari majmuasidan iborat bo'lib, unda shu xususiyatlar negizida pedagogik faoliyat bilan mohirona shug'ullana olish layoqatining shakllanganligini ko'rsatuvchi muayyan darajadir.

Mavzu yuzasidan test savollari

1. Ta'lim metodining tarkibiy qismi, uning muhim unsuri, metodni joriy qilishdagi alohida qadam qanday nomlanadi?

- a) ta'limni tashkil etish shartlari;
- b) ta'lim g'oyalari;
- c) ta'lim usullari;

d) ta'lim funktsiyalari.

2. Namoyish, masalani o'rganish, topshiriq berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish. Ular - ...

a) ta'lim usullarini qo'llash shartlari;

b) ta'lim usullarining g'oyalari;

c) ta'lim usullarining turlari;

d) ta'lim usullarining funktsiyalari.

3. Didaktik maqsad, ta'lim mazmuni, talabalarning o'quv ko'nikmalarini egallash va rivojlanish darajasi, o'qituvchining tajribasi va kasbiy tayyorgarlik darajasi. Ular - ...

a) ta'lim metodlarini qo'llash shartlari;

b) ta'lim metodlarini tanlash mezonlari;

c) ta'lim metodlarini ifodalash g'oyalari;

d) ta'lim metodlari samaradorligini baholash mezonlari.

4 ...– savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi.

a) ma'ruza;

b) tushuntirish;

c) hikoya;

d) suhbat.

5. Mazmuniga ko'ra suhbatlar nechta turga bo'linadi?

a) ikkita turga;

b) uchta turga;

c) to'rtta turga;

d) beshta turga.

6. Mazmuniga ko'ra suhbatlarning turlari qaysilar?

a) monolog, dialog, polilog;

b) kirish suhbat, yakuniy suhbat, qisqa bayonli suhbat, evristik suhbat;

c) kirish suhbat, davomli suhbat, binar suhbat, yakuniy suhbat;

d) tanishuv suhbat, yakuniy suhbat, qisqa bayonli suhbat, evristik suhbat.

6. Shaxslarning jalb etilishiga ko'ra suhbatlarnechta turga ajratiladi?

a) ikkita turga;

b) uchta turga;

c) to'rtta turga;

d) beshta turga.

7. Shaxslarning jalb etilishiga ko'ra suhbatlarning turlari qaysilar?

a) individual suhbat, guruhli suhbat, jamoaviy suhbat, ommaviy suhbat;

b) individual suhbat, guruhli suhbat, jufluk suhbat, jamoaviy suhbat;

c) guruhli suhbat, jamoaviy suhbat, ommaviy suhbat, umumiy suhbat;

d) individual suhbat, guruhli suhbat, umumiy suhbat, ommaviy suhbat.

8. Ko'rgazmali metodlar nechta turga bo'linadi?

a) ikkita turga;

b) uchta turga;

c) to'rtta turga;

d) beshta turga.

9. Ko'rgazmali metodlarning turlari qaysilar?

- a) modellashtirish, tasvirlash, ekskursiya;
- b) namoyish, tasvirlash, ekskursiya;
- c) namoyish, tasvirlash, taqdimot;
- d) namoyish, konstruktsiyalash, ekskursiya.

10. O'rganilayotgan obyekt harakat dinamikasini ochib berishda qo'l keladigan, predmetning tashqi ko'rinishi va ichki tuzilishi haqida to'laqonli ma'lumot beradigan metod – bu ...

- a) tasvirlash metodi;
- b) namoyish metodi;
- c) ekskursiya metodi;
- d) konstruktsiyalash metodi.

Adabiyotlar:

1. Pedagogika. / M.Toxtaxodjayeveaning umumiy tahriri ostida. – T.: Iqtisod-Moliya, 2008.
2. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika. – T.: Fan, 2006.
3. Podlasiy I.P. Pedagogika. – M.: Vissheye obrazovaniye, 2008.
4. Pedagogika / Pod.red. P.I.Pidkasistogo. – M.: Vissheye obrazovaniye, 2008.
5. Xodjayev B. O'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish yo'llari. – T.: TDPU, 2008.

8-MA'RUZA. TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI VA TURLARI

REJA:

- 1. Ta'lim turlari (illyustrativ, muammoli, dasturlashtirilgan).**
- 2. Ta'limni tashkil etish haqida tushuncha, uning xilma-xil turlari.**
- 3. Ta'limni tashkil etish shakllari va ularning didaktikada rivojlanishi.**
- 4. Ma'ruza va seminar mashg'ulotlari.**

Mavzuning maqsadi: ta'lim oluvchilarga ta'limni tashkil etishning mazmun-mohiyati turlari va shakllari haqida bilim va ko'nikmalar berish.

Mavzuning vazifalari:

1. Ta'lim turlari (illyustrativ, muammoli, dasturlashtirilgan ta'lim) ning mazmun-mohiyatini bayon qilish.
2. Ta'limni tashkil etishning xilma-xil turlarini va ulardagi umumiylik va xususiylik haqida bilim berish.
3. Hozirgi zamon darslari va ularga mos ta'limni modernizatsiya qilish asoslarini talabalar ongiga singdirish.
4. Ta'limni tashkil etishning an'anaviy va zamonaviy shakllari haqida bilimlar majmuyini hosil qilish.
5. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar hamda ularning mazmun-mohiyatini ta'lim oluvchilar ongida shakllantirish.

6. Darsdan tashqari mashg'ulotlar va ularning mazmun-mohiyatini yoritish.

7. Turli o'quv ishlarida o'qituvchi faoliyatini yoritish.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar: Ta'lim turi, illyustrativ, muammoli, dasturlashtirilgan ta'lim, pedagogik tizim, arxiolik, qadim-gi, avestit, yunon, o'rta asr, yangi, dogmatik, sxolastik, internet. «Avesto», Suqrotona suhbat, yordamchi savollar, dogmatik o'qitish, pedagogik konsepsiya, haqiqiy g'oyalar va bilimlar, dasturlashtirilgan ta'lim, kompyuterli o'qitish, muammoli o'qitish, dastur, innovatsion ta'lim, masofaviy ta'lim, ta'limni modernizatsiya qilish, ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, uy vazifalar, darsdan tashqari mashg'ulotlar, individual dars, individual-guruhli dars, sinf-dars, ma'ruza-seminar, auditoriyadan va sinfdan hamda maktabdan tashqari dars, dolton-reja, loyihali ta'lim.

Ta'lim turlari (illyustrativ, muammoli, dasturlashtirilgan ta'lim) va shakllarining tavsifi.

Didaktik g'oyalar jamiyat taraqqiyoti jarayonida yangi g'oyalar bilan boyib, takomillashib boraveradi va ular o'ziga xos tizimlar ko'rinishida shakllanadi. Shu sababli ham ta'lim turlari o'quv jarayonini tashkil etish va uni amalga oshirishga nisbatan turlicha yondashuvlar asosida shakllantiriladi.

Dogmatik o'qitish - bu jamoa asosida idrok etish faoliyatining ilk turi bo'lib, u o'rta asrlarda keng tarqalgan. O'rta asrlarda G'arbiy Yevropada ularning ilk ko'rinishlari iste'molda bo'lib, unda lotin tili, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa arab tili yetakchi o'rin tutgan. Bu borada **musulmon pedagogik konsepsiyasi** sezilarli darajadagi ma'naviyatlilik va intellektuallik xususiyatlariga hamda mazmun-mohiyatga ega bo'lgan. Ularning g'oyalari bo'yicha o'z faoliyatlarida bilimlardan faol va ijodiy foydalana oladigan odamgina komillikka erishish mumkin, degan hukmiy fikr shakllangan. «**Haqiqiy g'oyalar**» deb nom olgan pedagogik tizimning asosiy tayanch nuqtasi **haqiqiy bilimlarni** o'zlashtirishdan iborat bo'lgan.

Muammoli o'qitishning afzalliklari: shaxsiy ijodiy faoliyatni tashkil etish asosida bilimlarni mustahkam egallash, o'qishga qiziqishni uyg'otish, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish, o'qitishning mustahkam va amaliy natijalariga erishish.

Kamchiliklari: ta'lim oluvchilarning idrok etish faoliyatlarini boshqarishning qiyinligi, muammoni qo'yish va hal etish uchun ko'p vaqt

sariianishi, muammoli vaziyatni yaratish va mustaqil hal qilish imkoniyatini har bir ta'lim oluvchiga taqdim etishning qiyinchiligi bilan belgilanadi.

Dasturiy ta'lim (dasturlashtirilgan ta'lim) harakat (operatsiya) lar ketma-ketligi tizimini ifodalovchi, ularni bajarish oldindan rejalashtirilgan natijaga olib keJuvchi «dastur» terminidan keiib chiqadi.

Dastur - bajariladigan ish yoki biror faoliyat rejasi bo'lib, uning yordamida ta'lim oluvchilarga ta'lim-tarbiya berishda o'quv rejasi va dasturlarini og'ishmay amalga oshirilishida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Dasturiy ta'limning asosiy xususiyatiari quyidagilardan iborat:

O'quv materialining alohida qismlarga ajratilishi; o'quv jarayonining bilimlarini o'zlashtirish bo'yicha bilimlarning muayyan miqdorlari (bo'laklari) va fikrlash (mantiqiy) amallaridan iborat bo'lgan ketma-ket bosqichlardan iborat bo'lishi; har bir bosqichning nazorat bilan yakunlanishi; nazorat topshiriqlarini to'g'ri bajargan ta'lim oluvchining yangi materialini o'zlashtirish uchun olish imkoniyati va navbatdagi bosqichni bajarishga kirisha olish; to'g'ri javobni topishda ta'lim oluvchining yordamchi va qo'shimcha tushuntirishlarni olishi; har bir ta'lim oluvchining mustaqil ishlashi, intellektual salohiyati yetarli bo'lgan mavzular bo'yicha o'quv materiallarini o'zlashtirishi; natijalar monitoringi, ya'ni barcha nazorat topshiriqlarining bajarilish natijalarining qayd etilishi; ta'lim jarayonida ta'lim beruvchining ta'lim tashkilotchisi va lozim topilganda mazkur jarayonda maslahatchi (boshqaruvchi) sifatida ishtirok etishi va individual yondashuvni amalga oshirishi;

Kompyuterli ta'lim.

Ma'lumki, o'qitish sohasida jahon didaktikasining muhim tajribasi natijasida shaxsiy EHM rivojlanishi negizida kompyuterlashtirilgan ta'lim vujudga keldi. Kompyuter — (ing. «computer» - hisoblayman) - oldindan berilgan dastur bo'yicha ishiaydigan avtomatik qurilma. Ta'lim-tarbiya

Ta'limni tashkil etish haqida tushuncha, uning xilma-xil turlari

Dunyoda shunday ta'lim tizimi yuzaga kelganki, uning xilma-xil turlari mavjud bo'lib, ularni ko'pchilik «qo'llab turuvchi, ta'minlovchi, yordamchi o'qitish» deb ataydilar

Innovatsion ta'lim - bu bolajak mutaxassislarni joylarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo'lib, u avval olgan bilimlar asosida ta'limni takomillashtirish va samarali yangicha yondashuv qilishdan iborat.

- ilg'or pedagogik texnologiyalar va yangi axborot texnologiya larini joriy etish uchun o'rta umumta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy o'quv yurtlarida eksperimental maydonchalar tashkil etish orqali ilmiy-tadqiqot natijalarini o'quv-tarbiya jarayoniga o'z vaqtida joriy etish mexanizmlarini ro'yobga chiqarishga erishiladi;

- ta'lim jarayonining istiqbolini oldindan ko'ra bilish, ya'ni ta'lim beruvchining avvalgi va hozirgi tajribasi asosida o'qitish emas, balki ta'lim oluvchini uzoq kelajakni mo'ljallashga (istiqbolli reja tuzish-ga) o'rgatishdan iborat bo'lib, unda ta'lim oluvchi ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatda tashxislash, bashoratlash, modellashtirish va loyiha-lashtirishni amalga oshira olishi zarur;

- ta'lim oluvchining hamkorlikda ta'lim olish va optimal qarorlar-ni qabul qilish (lokal va xususiyydan tortib dunyoni, madaniyat, sivilizatsiya rivojlanishini hisobga olishdan global muammolarni hal etish) da faol ishtirok etishni ta'minlash.

Keyingi yillarda **masofaviy ta'lim** (lotincha **distantia** - masofa) uzluksiz ta'lim tizimida keng qo'llanilmoqda.

- **Masofaviy ta'lim** - bu masofadan turib o'qitishning usullariga asoslangan holda aholining keng qatlamlariga taqdim etiluvchi zamonaviy ta'lim texnologiyasidir. U o'quv adabiyotlarining almashinish vositalari (Yer sun'iy yo'ldoshi, televideniye, radio, kompyuter aloqa va boshqalar)ga tayanib, ixtisoslashtirilgan axborot muhiti yordamida masofadan mamlakat aholisining keng qatlamiga va xorijiy davlatlar-ga taqdim etiladigan ta'lim xizmatlari majmuyidan iborat.

Ta'limni tashkil etish shakllari va ularning didaktikada rivojlanishi

Jahon pedagogika fani va amaliyotida ta'limni tashkil etishning turli shakllari bor. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta'limni tashkil etishga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Individual ta'limning kamchiliklari: vaqtning tejamli emasligi; ta'lim beruvchi ta'sirining cheklanganligi (bunda ta'lim beruvchining vazifasi ta'lim beruvchiga topshiriq berish va uni tekshirishdan iborat bo'ladi); boshqa ta'lim oluvchilar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi (bu ta'lim oluvchining yoki ta'limning ijtimoiylashishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi); jamoada ishlash tajribasini shakllanmasligi va shu kabilardan iboratdir. Qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etish natijasida XVI asrdan boshlab ta'limning individual-guruhli shakli paydo bo'ldi. Bu ta'lim turidan XVI asrga kelib Yevropada keng foydalana boshlandi. Markaziy Osiyo davlatlarida bu ta'lim turidan qadim

davrlarda ham foydalanganlar. Bunga Avesto davri misol bo'la oladi. Avesto davri jamiyatidagi maktablarda individual o'qitish jamoaviy o'qitish bilan birga olib borilar edi. XI asrdayoq Abu Ali ibn Sino o'zining «Tadbiri manzil» nomli ilmiy asarining maxsus «Amuzish va parvarishi modrasas farzand» («Bolalarni maktabda o'qitish va tarbiyalash») bo'limida ta'lim oluvchilarga jamoaviy o'qitish haqida o'z fikrini bayon etgan.

Sinf- dars tizimi: XV-XVI asrlar davomida Yevropada ishlab chiqarishning rivojlanishi kuzatildi va uning natijasida ta'lim berishning ommaviy shakli yuzaga keldi. Ulardan biri ta'lim oluvchilarni o'qitishning guruhli (jamoaviy) turi deb ataladi. Ular G'arbiy Rossiya (hozirg Belorus va Ukrainaning g'arbiy qismlari)dagi birodarlik maktablarida ilk bor qoilanilgan va undagi o'qish sinf-dars shaklining asosi bo'lgan. Bu tizimlar XVII asrda Yan Amos Komenskiy tomonidan «Buyuk didaktika» asarida nazariy jihatdan asoslab berildi va ommalashtirildi. Olim pedagogikaga o'quv yili, o'quv kuni, dars mashg'ulotlari orasidagi tanaffus, o'quv ta'tillari kabi tushun-chalarini kiritgan. Sinf-dars tizimi garchi 350 yil avval asoslangan bo'lsada, bugungi kunda ham keng ko'lamda iste'molda foydalanib kelinmoqda. Uning asosiy mazmuni o'quv ishlarini tashkil etishning o'ziga xos shakli sifatida quyidagilardan iborat bo'adi:

* bir xil yoshdagi va taxminan bir xildagi tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan ta'lim oluvchilar (o'quvchilar) sinfni tashkil etadi.

Bu sinf maktabda o'qishning umumiy davriga asosan doimiy tartibini saqlab qoladi;

- sinf faoliyati yagona yillik reja va dastur asosida doimiy dars jadvali bo'yicha tashkil etiladi, buning natijasida bolalar maktabga yilning bir vaqti va oldindan belgilangan kun soatlarida kelishlari kerak bo'ladi;

- mashg'ulotlarning asosiy birligi dars hisoblanadi; dars odatda bir fan yoki mavzuga bag'ishlangan bo'ladi, shu bois, ta'lim oluvchilar sinfda bitta material ustida ishlaydilar;

- darsda ta'lim oluvchilarning ishiga (faoliyatiga) ta'lim beruvchi rahbarlik qiladi, u o'z fani bo'yicha o'qish natijalarini, har bir ta'lim oluvchining alohida bilimni baholaydi. O'quv yili oxirida pedagogik jamoa, ya'ni ta'lim beruvchilar xulosalari bo'yicha ta'lim oluvchini keyingi sinfga o'tishi haqida qaror qabul qilinadi.

Sinf - dars tizimi atoqli olim K.D.Ushinskiy tomonidan yanada rivojlantirildi. U bu shaklning hamma ustunliklarini ilmiy asoslab berdi. Dars,

ayniqsa, uning tashkiliy qurilishi (tuzilishi) va tipologiyasining ixcham nazariyasini yaratdi. K.D.Ushinskiy har bir darsning bir-biri bilan ketma-ket bog'langan quyidagi uchta qismini ajratib ko'rsatdi:

1. Ilgari o'rganilgan bilimlar asosida yangi bilimlarni anglashni amalga oshirish va ta'lim oluvchilarda materialni jadal qabul qilishga maqsadli ko'rsatmani yaratishga qaratilgan qism. K.D.Ushinskiyning fikricha, darsning bu qismi darsga go'yoki «eshik» hisoblanadi.

2. Asosiy masalani hal etishga yo'naltirilgan qism. Bu qism darsning muhim markaziy qismi hisoblanadi.

3. Amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasash va bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlashga qaratilgan qism. Bu qism darsning xulosalash va umumlash tirish qismi bo'lib hisoblanadi.

Darsni tashkil etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishga yana bir ulug' olim A.Disterveg ham katta hissa qo'shdi. U ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning faoliyatiga taalluqli o'qitish tamoyillari va qoidalari tizimini ishlab chiqdi hamda ta'lim oluvchilarning yosh imko-niyatlarini hisobga olishni zarurligini asoslab beradi. Alohida o'quv fanlarini o'qitish metodikasi va didaktikasiga oid asarlarda ta'limning sinf-dars tizimining afzalliklari va kamchiliklari ko'rsatilib beriladi. Quyida ular to'g'risida to'xtalamiz.

I. Afzalliklari:

- yaxlit o'quv-tarbiyaviy jarayonning tartibli (tizimli) ketishini ta'minlovchi aniq tashkiliy tizim;
- jarayonlarning oddiy boshqarilishi;
- muammoning jamoa bo'lib muhokama qilinishi, masalaning yechimini birgalikda izlash jarayonida ta'lim oluvchilar o'rtasida o'zaro munosabatlarning shakllanish imkoniyati;
- ta'lim beruvchining ta'lim oluvchilar va ularning tarbiyasiga doimiy emotsional ta'sir ko'rsatishi;
- ta'limning emotsionalligi (zero, ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida ta'lim oluvchilarning katta guruhi bilan ish olib boradi), o'quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini kiritish uchun sharoitning yaratilishi, bilimsizlikdan bilimlarni o'zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va izchilligi.

II. Kamchiliklari:

- Tizimning bilimlarni asosan o'rta darajada o'zlashtiruvchi ta'lim

oluvchilar uchun mo'ljallanganligi, bo'sh o'zlashtiruvchi ta'lim oluvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va kuchli o'zlashtiruvchi ta'lim oluvchilarning qobiliyatlarining rivojlanish sur'atining ortga surilishi;

- ta'lim beruvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish sur'atlari hamda metodlari bo'yicha individual ishlarni tashkil etish, shuningdek, ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishda qiyinchiliklarni yuzaga kelishi;

- katta va kichik yoshli ta'lim oluvchilar o'rtasidagi munosabatlarning qaror topmasligi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida aqliy rivojlanishda farq bo'lgan ta'lim oluvchilarni o'qitishda individuallashtirishga e'tibor qaratish masalasi ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shunga mos ravishda ta'limning tanlab o'qitishshakli yuzaga keldi. Bu AQShda Batov va Yevropada Manncheyms tizimlarida yaqqol seziladi. XX asr boshida Yevropa va AQShda ta'lim oluvchilarning individual, faol, mustaqil o'quv ishlarini ta'minlashga qaratilgan ko'plab ta'lim tizimlarining samaradorligi sinab ko'rilgan. Ular orasida 1905-yili Massachusetts shtatining Dalton shahrida o'qituvchi Yelena Park Xerst tomonidan birinchi bor qo'llanilgan ta'limning individuallashtirilgan tizimie'tirof etilgan. Bu tizim dalton-rejanomi bilan pedagogikaga va maktab tarixiga kirdi. Bu ba'zan laboratoriya yoki ustaxonalar tizimideb ham ataladi. Bu tizimning mazmun-mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:


- o'quv faoliyatining muvoffaqiyati maktabda ishlash sur'atining har bir ta'lim oluvchining imkoniyatlari, ularning qobiliyatlariga moslashtirilishiga bog'liq;

- ta'lim faoliyati uchun ustun turadigan o'qishni an'anaviy tashkil etish ta'lim oluvchining mustaqil o'quv faoliyatining markazi hisoblanishi;

- ta'lim beruvchi o'z vazifasini odob bilan bajarishi;

- sinf laboratoriyalarining ustaxonalar bilan almashtirilishi, o'qituvchining yangi materialni tushuntirmasligi, balki uni ta'lim oluvchining o'zi laboratoriya yoki ustaxonalarda ta'lim beruvchidan olingan topshiriq asosida mustaqil shug'ullanishlari va zarur bo'lgan paytlarda ta'lim beruvchidan yordam so'rashlari asosida o'zlashtirishi va shu kabilar. XX asrning 20-yillarida maktab ishlari ilmiy-tadqiqot instituti ta'limning loyihali tiziminitarg'ib qila boshladi. Uni amerikalik U.Kelpatrik ishlab chiqqan. Ta'limning bu tizimining mazmuni ta'lim oluvchilarning o'zlari loyiha ishlari mazmunini tanlab olishlaridan iborat. U mavjud haqiqiy hayot bilan bog'langan bo'lishi va o'quv guruhi iqtisoslashlariga qarab (yo'nalishlari) ijtimoiy-siyosiy, xo'jalik ishlab chiqarish yoki madaniy turmush tomonlarini aks ettirishi kerak bo'lgan. XX asrning 60-yillarida **Trank rejasi** juda mashhur bo'lib ketdi. Uni amerikalik professor pedagog Lyuyd Trank ishlab chiqqan. O'qitishning tashkil

etishning bu shakli katta auditoriyalarda (100-150 odam) umumiy mashg'ulotlarni, 10-15 kishilik guruhlarda esa amaliy mashg'ulotlarni vata'lim oluvchilarning individual ishlarini ham bir-galikda olib borishni taklif etadi. Bunda turli xildagi texnik vositalar-dan foydalanib, umumiy ma'ruzalarni olib borishga o'quv vaqtining 40 foizi ajratiladi. Shuningdek, kichik guruhlardagi mashg'ulotlarga (amaliy mashg'ulotlar) esa o'quv vaqtining 20 foizini va kabinet yoki laboratoriyalarda individual mustaqil ishlarni bajarishga o'quv vaqtining 40 foizi ajratiladi. XX asrning 70-yillarida o'qishni tashkil etishning noan'anaviy shakllarini izlash davom ettirildi. Tajriba va sinov maktablarini izlash birinchi navbatda **sinf-dars** tizimini modernizatsiyalashtirish fikri bilan bog'liq boigan. Izlanishlarning asosiy masalasi - o'qishni individuallashtirishdan iborat edi. Birinchi universitetlar paydo bo'lishi bilan **ta'limning ma'ruza-seminar shakli yuzaga** kela boshlaydi. U yaratilgan paytdan beri mazkur tizim deyarli o'zgarmagan. Ma'ruza, seminar va laboratoriya ishlari, konsultatsiya va tanlagan kasbi bo'yicha amaliyot hozirgacha ma'ruza-seminar tizimi sifatida o'qishning asosiy shakllaridan biri bo'lib kelmoqda. Ma'ruza-seminar tizimi o'zining sof ko'rinishida oliy va oliy maktabdan keyingi ta'lim amaliyotida qo'llaniladi. O'zbekistonda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tadbiiq etilishi bilan ma'ruza-seminar tizimidan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda ham ulardan foydalana boshlandi. Oxirgi paytlarda ma'ruza-seminar tizimi elementlaridan o'rta maktablarning katta sinf-larida ham qo'llanila boshlandi. Demak, qadim zamonlardan oq jamiyatning yetuk kishilari o'qitish ishini tashkil qilishning ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlariga javob beradigan shakllarini topishga uringanlar. Hozirgi vaqtda respublika ta'lim muassasalarida o'qitishning 1-shakldagidek ko'rinishlaridan foydalanilmoqda.



1-shakl. Ta'limni tashkil etish shakllari.

Bugungi kunda darslarni tashkil etishga nisbatan quyidagi didaktik talablar qo'yilmoqda:

1. Darsning maqsadi va vazifalarining aniqligi hamda pedagogik jihatdan to'g'riligi.
2. Darsning ta'limiy, tarbiyaviy va shaxsni rivojlantiruvchanlik vazifalarining birligi va uzviyligi.
3. O'qitishning yaxlit dars va uning ma'lum qismlari, vazifalari hamda mazmuniga muvafiq keladigan ta'lim oluvchilarning bilish faolliklari va mustaqil faoliyatlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi maqbul metodlarni tanlash.
4. Mashg'ulotlarning turli shakllari: jamoa, guruhli va yakka tartibdagi shakllarini maqbul ravishda qo'shib olib borish.
5. Ta'lim beruvchining rahbarlik vazifasi bilan ta'lim oluvchining faol bilish faoliyatini birga olib borish.
6. Darslarning o'zaro uzviy va dialektik xususiyatga ega bo'lishiga erishish.
7. Ta'lim oluvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish.
8. Darsda ta'lim oluvchilarni o'qitish va tarbiyalash uchun qulay shart-sharoit yaratish.
9. Darslarni demokratik tamoyillar asosida tashkil etish.
10. Darsda ta'lim oluvchilar erkinligini ta'minlash.

Ma'ruza va seminar mashg'ulotlari (konsultatsiyalar, ekskursiyalar, praktikumlar)

Darsda bilimlarning o'zlashtirilishi, malaka va ko'nikmalarning hosil qilinishi murakkab dinamik jarayondir. O'quv materialini o'rganishning turli vazifalari, yo'llari, usullari va vositalari vujudga keladi. Buning natijasida darsning juda ko'p turlari, uning har xil vari-antrlari paydo bo'ladi.

Ayni vaqtda ta'lim tizimida eng ko'p qo'llaniladigan dars turlari quyidagilardir:

1. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
2. O'tilgan materialni mustahkamlash darsi.
3. Ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish darsi;
4. Takroriy-umumlashtiruvchi dars.
5. Aralash dars.

Muayyan dars turi asosida olib boriladigan mashg'ulotlarda ikkinchi, uchinchi bir dars running qismlari bo'lishi mumkin. Misol uchun ta'lim muassasalarida eng qo'llaniladigan dars turlaridan biri yangi bilimlarni bayon qilish darsida quyidagi holatlar amalga oshiri-lishi mumkin:

- yangi bilimlarni bayon qilish;
- yangi bilimlarni mustahkamlash;
- yangi bilimlar ustida mashq o'tkazish;
- yangi bilimlarga bog'liq holda uyga vazifalarini topshirish va hokazo.

Demak, dars umumiy jarayon davomida bir dars turi asosida tashkil etilmaydi. Shunga qaramay darsning maqsadi ta'lim oluvchilarga yangi bilim berishga qaratilgan bo'lsa, butun didaktik usullar ana shunga bo'ysundiriladi. Shu sababli ham bunday dars yangi bilim berish darsi deb ataladi. Muayyan dars turi bilan ish ko'rilayotganda boshqa bir dars turi unsurlarining asosiy dars tuzilishini tashkil qilishi mumkin. Didaktik usullar ta'lim metodi bilan baholangandagina dars tuzilishining o'zgarishiga, ta'lim metodlarining o'zgarishi ham dars tuzilishining o'zgarishiga olib keladi. Dars jarayonining muayyan qismida dars shakli hamda metodlarining o'zgarishi darsning yangi bosqichini boshlaganligini anglatadi. Demak, dars tuzilishining biridan ikkinchisiga o'tishi va shu orqa-li darsning shakl va metodlarining o'zgarishi dars bosqichi deb yuri-tiladi. Bu boradaxulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, turli darsning shakl va metodlari hamda ular negizidagi dars tuzilishlariga bevosita bog'liqdir.

Umumlashtiruvchi dars — bu o'quv dasturining ma'lum bir qismi (bob, boim yoki ayrim mavzu) o'tib bo'lganidan keyin o'tiladigan dars mashg'uloti.

Umumiy o'rta **ta'lim** maktablarining yuqori sinflarida ba'zi o'quv materiallarining ma'lum qismi yoki yirik mavzuni boshlashdan avval kirish dars ham olib boriladi. Bunday darslar, odatda, ijtimoiy fanlar bo'yicha o'tkaziladi.

Ma'ruza. Bugungi kunda zamonaviy o'quv muassasalari faoliyatida o'qitish shakllaridan biri bo'lish ma'ruzadan foydalanish keng tarqalgan. Maktab amaliyotida ma'ruzaning quyidagi turlaridan keng foydalanilmoqda:

- ma'ruza-hikoya;
- ma'ruza-suhbat;
- ma'ruza-munozara;
- ommaviy ma'ruza.



Fakultativ mashg'ulotlar — bu ta'lim oluvchining qiziqish va xohishlariga ko'ra muayyan fan, predmet yuzasidan beriladigan ilmiy-nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida tashkil etiladigan ta'lim shaklidir. Fakultativ mashg'ulotlar ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashini oshirishga va ijtimoiy faoliyatini faollashtirishga, aqliy qobiliyatlarini takomillashtirishga xizmat qiladigan maxsus dastur asosida o'tkaziladi.

Seminar mashg'ulotlari. Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishidagi predmetlar bo'yicha seminar mashg'ulotlarini tashkil qilish keng qo'llaniladi. Seminar mashg'ulotlarini tashkil etishdan asosiy maqsad ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlarini yanada rivojlantirish, ayrim mavzular yuzasidan keng va chuqur ma'lumot bera oladigan manbalar ustida ishlay olishlari hamda shu asosda kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida zarur adabiyotlardan foydalana olish ko'nikma va malakalariga ega qilishdan iboratdir. Seminar mashg'uloti ta'lim beruvchi rahbarligida o'tkaziladi.

Ekskursiyalar. Noan'anaviy dars shakllaridan biri hisoblangan ekskursiyalar sinf-dars tizimi, shuningdek, amaliy mashg'ulotlardan tubdan farq qiladi. Bu farqlar quyidagilardan iborat bo'ladi:


- ta'lim oluvchi rejalashtirilgan va o'tkaziladigan barcha ekskursiyalarga rahbarlik qilsa ham, u ekskursiya obyektlarining barcha detallarini yaxshi bilmasligi mumkin, bunday hollarda maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan ekskursiyovod ish olib boradi;

- ekskursiya muddati turlicha bo'lib, unda doimiy o'quv jadvali


talablariga amal qilish mas'uliyati mavjud;

• ta'lim beruvchi yoki ekskursovodning rahbarlik usuli va ta'lim oluvchilar faoliyati turlicha bo'lishi mumkin.

Ekskursiyalar quyidagidek to'rt yo'nalishda uyushtiriladi (2-shakl).



2-shakl. Ekskursiyani uyushtirish yo'nalishlari. Ekskursiya jarayonlari quyidagi tarkibiy tuzilishlarga ega (3-shakl).



3-shakl. Ekskursiyaning tarkibiy tuzilishi.

Ekskursiya davomida ta'lim oluvchilardan intizomga qat'iy rioya qilish talab etiladi. Ta'limning noan'anaviy shakli sifatida tashkil etiladigan bahsmunozara, davra suhbat, matbuot konferensiyasi, telekonferensiyalar muayyan

predmet (yo'nalish)ning muhim mavzulari yuzasidan tashkil etilib, ular ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, o'z fikrini ilgari surish, uni asoslash hamda himoya qilish qobiliyatini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Bu kabi darslarning tashkil etilishida maqsadning aniqligi, shuningdek, ta'lim oluvchining faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. «Viktorina», «Mo'jizalar maydoni», «Zakovat» va shu kabi shaklda o'tkazilayotgan darslar bellashuv xususiyatiga ega bo'lib, ular ta'lim oluvchilarni faollikka undaydi.

Yuqoridagi bildirilgan fikr-mulohazalarga asoslanib quyidagi xulosani keltirish mumkin:

- ta'limning shakli muayyan maqsadga muvofiq ma'lum rejimda tashkil etiladigan faoliyatning tashqi ifodasi bo'lib, ta'lim jarayonida yetakchi o'rin tutadi;

- ta'lim jarayonini samarasini ta'minlash uchun ta'lim metodlaridan o'rinli va unumli foydalanishga bog'liq;

- ta'lim metodi ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning aniq maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlarning usullari hisoblanadi;

- ta'lim vositalari ta'lim metodlarining ta'limiy ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Illyustrativ ta'lim turining mazmun-mohiyati qanday didaktik asoslarga tayanadi?

2. Muammoli ta'limning asosiy maqsadi nimalardan iborat?

3. Dasturlashtirilgan ta'limning asoschisi kim?

4. Ta'lim qaysi asoslarga tayanib tashkil etiladi?

5. Ma'ruzadan ko'zlangan maqsad nima?

6. Seminarining maqsadi nimani ko'zlaydi?

O'quv topshiriqlari:

1. "Blits-so'rov" metodi yordamida ta'limning tashkiliy shakllariga oid bilimlarni mustahkamlash.

1-guruh

1. Sinf-dars tizim –

2. Ma'ruza-seminar tizimi –


3. Noan'anaviy ta'lim –

2-guruh

1. Ta'limning individualta'lim –
2. Ta'limning individual-guruhli shakli–
3. Ta'limning guruhli(jamoaviy) shakli –

“Ta’limni tashkil etish shakllari” mavzusidagi krossvorni yechish.
Talabalarga quyidagi krossvord tavsiya etiladi:

Krossvord savollari:



Eniga:

1. Ta’limning individual o’qitish shakli.
2. Muayyan fan yoki sohaga oid savol-javobga asoslanuvchi o‘yinli mashg‘ulot.
3. Bilimlar asosida ko‘nikma va malakalarni hosil qiluvchi mashg‘ulot.
4. O‘quv yoki ilmiy masalalar yuzasidan tortishuvga asoslangan mashg‘ulot.
5. O‘quv maqsadiga ko‘ra muzey, tabiat va ishlab chiqarish ob’ektlariga uyushtiriladigan mashg‘ulot.
6. O‘quvchi va talaba tomonidan mavzularni qanchalik o‘zlashtirganligini aniqlovchi mashg‘ulot.

Bo‘yiga:

7. O‘quv masalalarini muhokama va hal qiluvchi yig‘ilish shaklidagi mashg‘ulot.
8. Ta’limning o‘quv muassasalarida tashkil etiladigan ommaviy shakli.
9. O‘qituvchi tomonidan o‘quv mavzusi bo‘yicha o‘quvchi oldida so‘zlaydigan monologik nutqiga asoslanuvchi mashg‘ulot.

9-MA'RUZA : O'QUVCHILARNING BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARINI TASHXIS ETISH

REJA :

1. Diagnostika va nazorat
2. O'zlashtirishning asosiy nazorat ko'rinishlari
3. Nazoratning asosiy bosqichlari va zvenolari
4. O'zlashtirish va rivojlantirishni test yordamida nazorat qilish
5. O'zlashtirishni diagnostika qilish

Tayanch so'z va iboralar: bilim, ko'nikma, malaka, diagnostika, nazorat, ozlashtirish

1. Diagnostika va nazorat

Tashxisning mohiyati haqida ga'irishdan oldin tashxisni umumiy yondashuv hamda tashxislashni amaliy pedagogik faoliyat jarayoni sifatida farqlab olaylik.

Diagnostika (tashxis)—bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demak. Tashxisiz didaktik jarayonni samarali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas.

Ta'lim olganlikni tashxislash orqali erishilgan natijalar va ta'lim olganlik ajratib olinadi. Shuningdek, ta'lim olganlik tashxislash vaqtida belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi sifatida ham qaraladi. Didaktik tashxislashning maqsadi o'quv jarayonida kechadigan barcha jihatlarni uning mahsuli bilan bog'liq holda, o'z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, tashxis ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini an'anaviy tekshirishga nisbatan kengroq va chuqurroq ma'no kasb etadi. Ta'limni baholash yoki tekshirish faqat natijalarni qayd etadi, biroq ularning kelib chiqishini izohlamaydi. Tashxis natijalarni ularga erishish yo'llari va vositalari, usullari bilan aloqadorlikda baholaydi, ta'lim mahsulining shakllanish jarayonlari va bosqichlarni aniqlaydi. Tashxislash nazorat, tekshirish, baholash, statistik ma'lumotlar to'plash, ularni tahlil qilish, dinamika, tendensiyalarni aniqlash, voqealarning keyingi rivojini taxminlashni o'z ichiga oladi.

Tashxislash	
Nazorat	Ma'lumotlarni tahlil qilish
Tekshirish	Dinamika
Baholash	Tendensiyalarni aniqlash
Statistik ma'lumotlarni to'plash	Voqelikning keyingi rivojini taxmin qilish

17-chizma. Tashxislashning asosiy tarkibiy qismlari

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish, baholash tashxislashning zaruriy tarkibiy qismlari sanaladi. Ular pedagogik texnologiyaning ancha qadimiy usullaridir. Nazorat va baholash maktab amaliyoti rivojining doimiy hamrohi bo'lib kelgan. Shunga qaramay, bugun ham baholashning mazmuni, texnologiyalari haqida qizg'in munozaralar davom etmoqda. Avval bo'lgani kabi pedagoglar baho nimani qayd etishi lozimligini aniqlashga urinmoqdalar. Ular baho nimani ko'rsatishi lozimligi: ta'lim oluvchi o'zlashtirishning qat'iy belgilovchisi sifat ko'rsatkichi bo'lishi kerakmi, yo aksincha, u yoki bu ta'lim tizimining ustunligi va kamchiliklarining ko'rsatkichi bo'lishi kerakmi degan masalada bahslashib kelmoqda.

Ta'limni baholashda ziddiyatli qarashlarning tug'ilishini buyuk , pedagog Ya.A.Komenskiy ham ta'kidlab o'tgan edi. U pedagoglarni o'zlari ega bo'lgan baholash huquqidan aql bilan foydalanishga chaqirgan. Ta'lim oluvchilarga nisbatan nazoratning obyektiv bo'lishiga erishish didaktik tizimlarning asosida yotadi.

Olimlarning ta'kidlashicha, demokratlashgan ta'lim tizimida yuzaki (formal) nazorat bo'lmasligi lozim. Didaktik nazorat o'qitishning o'ziga xos metodi sifatida aniq ifodalangan ta'lim beruvchi, rivojlantiruvchi yo'nalganlikga ega bo'lishi, o'z-o'zini nazorat qilish bilan birlashishi, eng avvalo, ta'lim oluvchining o'zi uchun zarur va foydali bo'lishi lozim.

Ta'lim tizimini demokratlashtirish bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat va baholashdan emas, balki baho yordamida o'qishga undashning eskirgan shakllaridan voz kechishni talab qiladi. O'quvchilarning o'quv mehnatini rag'batlantirishning yangi usullarini izlash, ta'lim va tarbiya sohasida kuch to'plab borayotgan shaxsiy foyda tamoyili yangicha yondashuvlarni belgilab beradi. Tashxislash tizimida baho rag'batlantirish vositasi sifatida bir qator afzalliklarga ega bo'ladi. Birinchi navbatda, baholovchi fikrlar (ballar) qo'llanishi mumkin bo'lgan tashxislash natijalari shaxsning o'z darajasini belgilashga ko'maklashadi, bu esa raqobatli ta'lim sharoitlarini yaratishda muhim omil sanaladi. Ta'lim (shuningdek, nazorat)ning ixtiyoriyligi tamoyili bilan boyitilgan baho o'tmishda ko'plab o'quvchilar uchun majburiy ta'limning zaruriy vositasidan shaxsiy reyting insonning jamiyatdagi mavqei ko'rsatkichini tadrijiy aniqlash usuliga aylanadi.

Bilimlar, asosan, yakka tartibda va kichik jamoalarda, ustoz-shogird maktablarida mutolaa, mushoira, muzokara tariqasida amalga oshirilgan. O'sha davrda ham talabalarni baholovchi mezonlar bo'lgan. Jumladan, talaba berilgan vazifalarni bajarib, o'z fikrini ongli ravishda bayon qila olsa, ustoz talabalar oldida unga "tashakkur" yoki "tasanno" deyish orqali baholagan. Agar talaba berilgan vazifalarni yuqori darajada bajarib, to'la o'zlashtirib, talabalar orasida yorqin, ravon bayon qilib ayta olsa, ustoz uni "barakallo" deb rag'batlantirgan. Agar talaba berilgan vazifa va topshiriqlarni a'lo darajada bajarib, amaliyotda uni bemalol qo'llay olsa, unga yuqori baho berib, "ofarin" deb rag'batlantirgan.

Bularning zamirida nozik ruhiy qo'llash, o'ziga ishonch hissini uyg'otish, unda ichki motivatsiyani vujudga keltirish orqali yangi bilimlarni egallash sari

yetaklangan. Agar talaba vazifalarni yaxshi o'zlashtirmay kelsa, unga qayta mutolaa qilish zarurligi haqida tanbeh berilgan.

Yuqorida keltirilgan baholash tizimida rag'batlantirishning har bir turi o'quvchi qay darajada o'zlashtirganligiga mezon vazifani bajargan. Bunday rag'batlantirish talabani mutolaa qilishga bo'lgan zavqini oshirib, yangi bilimlarni egallash sari chorlagan.

Pedagogik diagnostikani ilmiy asosda tahlil etish va yo'lga qo'yish XX asr boshlarida amalga oshirilgan. O'sha davrlardayoq, pedagogik diagnostika bilimlarni o'zlashtirish asosidir deyishgan.

O'tgan asrlarda u o'quvchi bilimni baholash orqali amalga oshirilganini kuzatamiz. Unga 1864-yilda AQSH olimlari D.Fisher va R.Reeslar asos solganlar. 1908-yildan boshlab, olim T.Stoun arifmetikadan test orqali o'quvchi bilimining sog'lom tizimini tadbiq etgan. Nemis olimi Linner "test shaxsning turli holatlarini, shaxsiy xususiyat, imkoniyat va qobiliyatlarini aniqlovchi ilmiy metoddir" deb ta'riflaydi.

Alabama davlat maktablarida sinf 12 ta o'quvchidan iborat guruhlarda kasblar bo'yicha tarmoqlar va muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan asosiy ish ko'nikmalarini ilmiy-asoslangan chora-tadbirlar ACT Work Keys baholariga birinchi marta muhokama qilindi. Ular ish qidiruvchilar, xodimlarning, ish beruvchilar, talabalar, o'qituvchilar, rahbarlar ishlab chiquvchilar tomonidan ko'proq, e'tiborga olingan. ACT Work Keys baholash kadrlarga bo'lgan ehtiyoji uchun zarur bilim va kognitiv ko'nikmalarini o'lchash.

O'zlashtirishning asosiy nazorat ko'rinishlari

Ta'lim jarayonida nazorat va hisobga olish, ularning vazifalari.

Ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri — nazorat va hisobga olishdir. Bu tushunchalar o'ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. O'qituvchi nazorat va hisobga olishni to'g'ri tashkil etsa, ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchining o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlab borishi lozim.

Nazorat (ta'lim jarayonida) ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o'lchash *esa tekshirish deb* ataladi.

Tekshirish— nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didaktik vazifasi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida aks aloqani ta'minlash, pedagog tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish haqida obyektiv axborot olinishi hamda bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlashdir. Tekshirishning maqsadi nafaqat o'quvchining bilim darajasi, sifati, balki uning o'quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat.

O'quvchilarning bilim va malakalarini tekshirish quyida ko'rsatilgan mantiqiy ketma-ketlikda olib borilishi kerak:

Tekshirish tizimidagi *birinchi bo'g'in* ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oldindan aniqlash hisoblanadi. Odatda, u o'quv yili boshida o'quvchilar tomonidan avvalgi o'quv yilida o'zlashtirilgan bilimlari darajasini aniqlash

maqsadida o'tkaziladi. Bu kabi tekshirish, shuningdek, o'quv yilining o'rtasida yangi bo'lim (kurs)ni o'rganishga kirishilganda ham o'tkazilishi mumkin va o'rinli bo'ladi.

Bilimlarni tekshirishning *ikkinchi bo'g'ini* har bir mavzuni o'zlashtirish jarayonidagi joriy tekshirishdir. Joriy tekshirish ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan ayrim alohida elementlarni o'zlashtirish darajasini tashxislash imkonini beradi. Mazkur tekshirishning asosiy vazifasi o'rgatishdir. Bunday tekshirishning shakl va metodlari turlicha bo'lib, ular o'quv material mazmuni, murakkabligi, o'quvchilarning yoshi tayyorgarligi, ta'lim bosqichi va maqsadlari, muayyan pedagogik sharoitlarga bog'liq bo'ladi.

Takroriy tekshirish bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirishning uchinchi bo'g'ini sanalib, joriy tekshirish kabi mavzuli bo'lishi mumkin. Yangi mavzuni o'rganish bilan birga o'quvchilar avval o'rganilganlarni takrorlaydilar. Takroriy tekshirish bilimlarni mustahkamlashga ko'maklashadi, biroq o'quv ishlari bosqichini tavsiflash, bilimlarni o'zlashtirish mustahkamligi darajasini tashxislash imkonini bermaydi. Ushbu tekshirish tashxisning boshqa turlari va metodlari bilan birga qo'llanilsagina kutilgan samarani beradi.

Tizimning *to'rtinchi bo'g'ini* o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini yaxlit bo'lim yoki kursning alohida mavzusi bo'yicha davriy tekshirish hisoblanadi. Mazkur tekshirishning maqsadi — kursning turli qismlarida o'rganilgan o'quv materialining strukturaviy elementlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'zlashtirish sifatini tashxislash. Davriy tekshirishning asosiy vazifasi — tizimlashtirish va umumlashtirish.

Tekshirishni tashkil etishda *beshinchi bo'g'in* ta'lim oluvchilarning, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini yakuniy tekshirish va hisobga olishdir. O'zlashtirishning yakuniy hisobi har bir chorak va o'quv yili oxirida o'tkaziladi. U olingan baholarni qo'shib, o'rtacha arifmetik ballni mexanik tarzda chiqarishdangina iborat bo'lmasligi lozim. Bu, avvalo, mazkur bosqichda belgilangan maqsadga muvofiq tarzda amaldagi ta'lim olganlik darajasi (sifati)ni tashxislashdir.

Tekshirishdan tashqari nazorat o'z ichiga baholashni (jarayon sifatida) va bahoni (natija sifatida) ham *oladi*. **Baholash** deb bilim, ko'nikma va malakalarni o'quv dasturida ko'rsatilgan etalon (ko'rstakich, qolip, o'lchagich)lar bilan solishtirishni aytamiz. Baho deb baholashning ball shaklida ko'rsatilgan son jihatdan o'lchamiga aytiladi. O'zlashtirish tabellari, sinf, guruh jurnallari, reyting daftarchalari va shu kabilarda baholar shartli belgilar, kod signallari, xotiralash belgilari va hokazolar baho ko'rinishida qayd etiladi. O'quvchining o'zlashtirish darajasini baholash uchun nazorat yakunlari (natijalari) asos bo'ladi. Bunda o'quvchilar ishining ham sifat, ham miqdor ko'rsatkichlari hisobga olinadi. Miqdor ko'rsatkichlari ko'proq ballar yoki foizlarda, sifat ko'rsatkichlari esa a'lo, yaxshi, qoniqarli va hokazo baholovchi fikrlar yordamida qayd etiladi. Har bir baholovchi fikrga oldindan kelishilgan (belgilangan) ball, ko'rsatkich (masalan, o'rin — 1, 2,

3, 4 va hokazo) tayinlanadi. Bunda baho o'lchash va hisoblashlar natijasida olinadigan son emas, balki baholovchi fikrga yuklangan ma'no ekanini unutmazlik

muhim. Baholarni son sifatida qo'llashga berilib ketishning oldini olish uchun bir qator mamlakatlarda baholar harfli (A, V, S, D va hokazo) ifodaga ega.

Bahoni amalda egallangan bilim, ko'nikma va malakalar bilan davlat ta'lim standartiga ko'ra o'zlashtirilishi belgilangan bilim, ko'nikma va malakalar umumiy hajmi o'rtasidagi nisbat sifatida tushunish (ta'riflash)dan ta'lim darajasining miqdoriy mazmuni kelib chiqadi.

O'zlashtirish (ta'lim samaradorligi) ko'rsatkichi $B-AT*100\%$ nisbat asosida hisoblanadi. Bunda:

B — o'zlashtirish (ta'lim samaradorligi) bahosi;

A— amalda o'zlashtirilgan bilim va malakalarning hajmi;

T— o'zlashtirish uchun taklif etilgan bilim va malakalarning to'liq hajmi.

Ko'rinib turibdiki, o'zlashtirish ko'rsatkichi (baho) bu o'rinda 100% — axborotni to'liq o'zlashtirish va 0% - uning umuman mavjud emasligi o'rtasida bo'ladi. Ma'lumki, baholash funksiyasi ta'lim darajasini qayd etish bilangina cheklanmaydi. Baho — pedagog ixtiyoridagi o'qishni, ijobiy motivatsiyani rag'batlantirishning va shaxsga ta'sir ko'rsatishning yagona vositasi. Aynan xolis (obyektiv) baholash ta'sirida, o'quvchilarda adekvat o'z-o'zini baholash, shaxsiy muvaffaqiyatlaiga tanqidiy munosabat yuzaga keladi. Shu bois bahoning ahamiyati, vazifalarining xilma-xilligi o'quvchilar o'quv faoliyatining barcha jihatlarini aks ettiradigan va ularni aniqlashni ta'minlaydigan ko'rsatkichlarni izlab to'ishni talab etadi.

O'qituvchi o'qitish bilan bir vaqtda o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzuni qandayqilib idrok etishini, esda saqlashga harakat qilishini va uni amalda qo'llash malakalarini egallashini hisobga olib borishi *kerakHisobga olish*—bu o'qitishning muayyan bir davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalash.

Hisobga olish natijasida o'qituvchi ham, o'quvchi ham o'zlarining keyingi bajaradigan ishlarining shaklini va mazmunini belgilaydi. O'zlashtirishni hisobga olish o'quvchilarning bilish faoliyatini rag'batlantirib, ma'lum bir harakatlarni bajarish uchun uning irodasini tarbiyalaydi. Shuningdek, o'zlashtirishni hisobga olish o'qituvchining faoliyatini ham tashkil etadi. O'qitish metodlari va shakllarining tobora takomillashuvi natijasida baho o'qituvchining pedagogik mahorati ko'rsatkichiga aylanmoqda va o'qituvchining o'z malakasini oshirib borishida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

To'g'ri tashkil etilgan hisobga olish natijasida o'qituvchi o'quvchilarning o'zlashtirishini aniq baholay oladi, ularning o'z bilimlarini takomillashtirishga intilishini yuzaga keltiradi, aqliy va ahloqiy rivojlanishiga ta'sir etadi.

O'quvchilarning o'zlashtirish natijalarini hisobga olishda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim:

1) o'quv dasturi asosida mavzu va bo'limni o'rganishda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini har tomonlama nazorat qilish;

2) har bir yakunlangan mavzu bo'yicha o'quvchilarning faoliyati to'g'risida to'liq xulosa chiqarish;

3) o'rtacha arifmetik ma'lumotlarga tayanibgina o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholamaslik;

4) o'quvchilarning mavjud bilimlariga aniq, batafsil ma'lumot (tavsif) berish uchun ularning bir necha o'quv yilidagi statistik o'zlashtirish ma'lumotlarga asoslanib tahlil etish.

Demak, o'zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olish nazorat, o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini bajaradi.

Nazorat qilish vazifasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash va baholashdan iborat. Bu o'quv materiallarini o'rganishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini aniqlashtiradi hamda o'qituvchining o'quv metodlarini va usullarini to'g'ri tanlaganini nazorat qiladi. Nazorat qilish vazifasi o'quv materiallarini o'rganishning maqbul yo'llarini topish bilan bog'liqdir.

O'qitish vazifasi o'quvchilarning bilimini tekshirishda aniq ko'rinadi. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida yoki uy vazifalarini tekshirishda o'quvchilarning o'tilgan mavzuni takrorlashga, ular uchun tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlarni bilib olishlariga imkon tug'iladi. Chunki guruhdagi boshqa o'quvchilar javob berayotgan o'quvchining fikrlarini diqqat bilan tinglashadi va avval egallangan bilimlarni mustahkamlab, qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitishadi. O'rtoqlarining javoblariga qo'shimcha qilishga yoki yechilmay qolgan savollarga javob berishga shaylanish orqali o'rganilgan mavzuni aniqlashtirishga harakat qiladi.

Nazoratning tarbiyalash vazifasi shundan iboratki, o'quvchilar tekshirishga tayyor bo'lish uchun darslarni o'z vaqtida tayyorlaydilar, bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishga harakat qiladilar, intizomga o'rganadilar.

Shuningdek, tekshirish va baholash o'quvchining o'z bilimlari va qobiliyatlarini o'zi mustaqil aniqlashiga ham yordam beradi. O'zidagi kamchiliklarni ko'ra olishga va uni tugatish yo'llarini izlashga ko'maklashadi. Lekin o'quvchining bilimini baholashda o'qituvchi nohaqlikka yo'l qo'ysa, o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida ziddiyat kelib chiqadi. Uy vazifalarining esa haddan ziyod ko'p bo'lishi ham o'quvchilarning yuzaki dars tayyorlashiga olib keladi.

Eng asosiysi, o'zlashtirishni hisobga olish, shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirish, yaxshi o'qishga xohish uyg'otish, o'quv ishlariga vijdonan yondashish, javob berishga tayyorlanishda mustaqil bo'lish hamda bilish faoliyatini chuqurlashtirishga qaratilmog'i lozim.

Agar nazoratning o'qitish va tarbiyalash vazifalari to'g'ri amalga oshirilsa, shaxsning tafakkurini rivojlantirishga, xis-tuyg'ulari va axloqiy sifatlarini tarbiyalashga imkon tug'iladi. Bu esa o'z-o'zidan nazoratning **rivojlantiruvchi vazifasi** sanaladi.

Ta'lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillari.

Pedagogikada o'quvchilarning ta'lim olganligini tashxislash va nazorat qilish tamoyillarining tizimi ishlab chiqilgan. Ulardan eng muhimlari xolislik (obyektivlik), tizimlilik (sistemalilik), ko'rgazmalilik (oshkoralik) sanaladi. **Xolislik (obyektivlik) tashxistestlari** (to'shriqlari, savollari), tashxis jarayoni mazmunining ilmiy asoslanganligi, pedagogning barcha ta'lim oluvchilarga do'stona munosabati hamda bilim, malakalarni baholashning aniq ko'rinishda

belgilangan mezonlaridan iborat. Amalda tashxisning xolisligi qo'yilgan baholar nazorat metodlari va vositalaridan, tashxis o'tkazgan o'qituvchidan qat'iy nazar hamma vaqt mos kelishini anglatadi.

Tizimlilik (sistemalilik) tamoyilining talabi shundan iboratki, tashxislash nazoratini ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida — bilimlarni boshlang'ich idrok etishdan to amalda qo'llashgacha bo'lgan bosqichlarida olib borish kerak. Tizimlilik barcha ta'lim oluvchilar o'quv muassasasida bo'lgan birinchi kundan boshlab oxirigacha muntazam tashxisga jalb etilishini anglatadi. Ta'lim oluvchining bilimi va egallashi lozim bo'lgan barcha jihatlarni ishonchli tekshirish uchun ta'lim nazoratini tez-tez o'tkazish kerak. Tizimlilik tamoyili tashxis o'tkazishga bir butun yondashuvni talab etadi-ki, bunda nazorat, tekshirish, baholashning turli shakllari, metodlari, vositalari uzviy o'zaro bog'liqlikda va birlikda qo'llaniladi, bir maqsadga xizmat qiladi. Bu kabi yondashuv tashxisning ayrim metodlari va vositalarini mutlaqlashtirishga yo'l qo'ymaydi.

Ko'rgazmalilik (oshkoralik) tamoyili avvalo, barcha ta'lim oluvchilarni aynan bir xil mezonlar bo'yicha ochiq sinovdan o'tkazishni anglatadi. Tashxis jarayonida belgilanadigan har bir o'quvchi reytingi ko'rgazmali, qiyosiy xarakterga ega. Oshkoralik tamoyili, shuningdek, baholarni e'lon qilish va motivatsiyalashni talab etadi. Baho mo'ljal (orientir) bo'lib, ta'lim oluvchilar unga muvofiq o'zlariga qo'yiladigan talablar va pedagogning xolisligi haqida fikr yuritadi. Tamoyilni amalga oshirishning zarur sharti tashxislash natijalarini eplon qilish, ularni manfaatdor shaxslar ishtirokida muhokama va tahlil qilish, nuqsonlarni tugatishning istiqbolli rejalarini tuzish hisoblanadi.

2. O'zlashtirishning asosiy bosqichlari va zvenolari

O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish turlari, shakl va metodlari.

Hozirgi davr pedagogik amaliyotida o'quvchilar o'quv faoliyatini nazorat qilishning quyidagi *turlaridan* foydalaniladi:

- joriy nazorat;
- oraliq nazorat;
- yakuniy nazorat.

Joriy nazorat o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning har bir o'quv ishini muntazam nazorat qilishni hamda ularning o'rganilgan mavzularni o'zlashtirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini tekshirishni o'z ichiga oladi. Bilim darajasini tekshirish fanning har bir mavzusi bo'yicha kundalik ballar qo'yib borishni nazarda tutadi. Joriy nazorat o'qituvchini har bir o'quvchining o'quv faoliyati bo'yicha tezkor ma'lumotlar bilan ta'minlaydi, o'qitish jarayonini boshqarishda yaxshi natija beradi, o'zlashtirmagan o'quvchilarni o'z vaqtida aniqlaydi, o'zlashtirmaslikni bartaraf etish bo'yicha choralar belgilaydi.

Oraliq nazorat— bu o'quvchilar tomonidan mazkur fanning muayyan bob yoki bo'limlarining o'zlashtirilganini tekshirish. Oraliq nazoratni o'qituvchi dars jadvali asosida darsda o'quv materialining o'ziga xos xususiyatini hisobga olgan xolda o'tkazadi.

Oraliq nazorat o'tkazishdan oldin o'quvchilar ogohlantiriladi. Har bir oraliq tekshirish alohida-alohida shkala asosida baholanadi.

Yakuniy nazorat— choraklik, yarim yillik, yillik va davlat attestatsiyasi sinovlari singari turlarga bo‘linadi. Yakuniy nazorat og‘zaki, yozma, test hamda amaliy topshiriqlarni bajarish metodlari asosida o‘tkaziladi.

Nazoratning shakli o‘quv ishini tashkil etish shakliga bog‘liq bo‘ladi. O‘qituvchi uni mavzudan kelib chiqib tanlaydi. Nazoratning asosiy besh shakli mavjud:

- nazoratning ommaviy (frontal) shaklida o‘qituvchi o‘quvchilarga materialning ma‘lum bir hajmi bo‘yicha savol beradi, o‘quvchilar unga qisqa javob qaytaradi. Mazkur so‘rash ko‘pchilik o‘quvchini nazorat qilishni ta‘minlaydi va butun guruhni faollashtiradi. Ammo bu nazoratni o‘quvchilarning bilim darajasini har tomonlama aniqlash uchun qo‘llab bo‘lmaydi;

- nazoratning guruhli shaklida o‘quvchilarning ma‘lum bir qismi nazorat qilinadi. O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilar guruhiga vazifa beriladi va uni shu guruh bajaradi. Lekin masalani hal qilishda boshqa o‘quvchilar ham qatnashishi mumkin. Guruh ishlayotgan paytda qolgan o‘quvchilar bo‘sh qolmaydi, ular o‘rtoqlarining bajargan ishlarini baholash uchun o‘z ustilarida ishlab o‘tiradi;

- nazoratning individual shaklidan har bir o‘quvchining bilim, ko‘nikma va malakasi bilan mukammal tanishish uchun foydalaniladi. Nazoratning bu shaklida, odatda o‘quvchilar javob berish uchun sinf taxtasi oldiga chaqiriladi;

- nazoratning kombinatsiyalangan (biriktirilgan)shakli individual nazoratni ommaviy va guruhli shakllar bilan birlashtirishni taqozo etadi. Bu nazoratdan hajmi katta mavzularni barcha o‘quvchilardan so‘rash kerak bo‘lgan vaqtda foydalanadi. Har bir o‘quvchiga alohida topshiriq beriladi va bir vaqtda bir necha o‘quvchini tekshirish mumkin bo‘ladi;

- o‘z-o‘zini nazorat qilish shakli ta‘lim jarayonida ichki aks aloqaning bo‘lishini ta‘minlaydi. Nazoratning bu shakli psixologik mezonlarga asoslangdi. Uning samaradorligi o‘qituvchining kasbiy mahoratiga bog‘liq ifo‘ladi;

O‘quvchilarning o‘quv faoliyatini nazorat qilish metodlari quyidagilar: og‘zaki tekshirish, yozma tekshirish, amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish, uy vazifalarini tekshirish.

Og‘zaki tekshirish. Bu metod bilimlarni nazorat qilish va baholashning ancha keng tarqalgan an’anaviy usullaridan biridir.

Og‘zaki tekshirishning mohiyati shunda ko‘rinadiki, o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘rganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, savollar beradi va ularni javob berishga undaydi. Ana shu tarzda ularning o‘zlashtirish darajasini aniqlaydi. Og‘zaki tekshirish o‘quvchilarning bilimlarini tekshirishni savol-javob usuli asosida amalga oshiriladi. Ushbu usul ayrim hollarda suhbat usuli deb ham ataladi. Og‘zaki tekshirishda o‘qituvchi o‘rganilayotgan mavzuni alohida qismlarga ajratadi va ularni har biridan o‘quvchilarga savollar beradi. Biroq o‘quvchilarning nutqini o‘stirish hamda ularning chuqur va mustahkam bilimga ega bo‘lishlari uchun ulardan shu yoki oldingi mavzuni butunlay esga tushirishni talab qilish mumkin.

Yozma tekshirish—o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri bo‘lib, ularning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi. Mazkur usulning mohiyati shundaki,

o'qituvchi alohida mavzu yoki o'quv dasturining ma'lum bo'limini o'tib bo'lganidan so'ng oz vaqtning ichida

barcha o'quvchilarni tekshirishi mumkin. Yozma tekshirish nazorat ishi, insho, bayon, diktant va boshqalar yordamida olib boriladi. Ammo o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida bevosita aloqaning yo'qligi sababli uning fikrlashini kuzatish imkoni bo'lmaydi.

Amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish. Bajarilayotgan amaliy harakatlar (sport, mehnat harakatlari)ning to'g'riligini kuzatish yoki olingan natijalarga tayanishdan iborat bo'lishi mumkin. Amaliy tekshirish tabiiy-matematik sikldagi fanlardan o'quvchilarning o'zlashtirishini hisobga olishda keng foydalaniladi. Bu usul yordamida o'quvchilarning olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish malakasi aniqlanadi.

Uy vazifalarini tekshirish. O'quvchilarning o'zlashtirishini nazorat qilish uchun ularning uyga berilgan vazifalarni bajarishini tekshirish katta ahamiyatga ega. Uy vazifalarini tekshirish o'qituvchiga o'quvchilarning o'quv ishiga bo'lgan munosabatini, o'rganilgan materialni qanchalik egallaganligini, uy vazifalarini bajarishdagi mustaqillik darajasini aniqlashga imkon beradi.

Ma'lumki, bugun ta'lim tizimida reyting nazoratidan keng foydalanilmoqda. Reyting deganda baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash, bironta hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash tushuniladi. Reyting nazorati o'quvchining ma'lum bir fandan reytingini aniqlaydi.

Shkalalash— aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish.

Reyting nazoratida o'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilishning yuqorida keltirilgan metodlari bilan birga test usulidan ham samarali foydalanilmoqda. Test so'rovidan nafaqat o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, balki 1993-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida abituriyentlarni oliy o'quv yurtlariga tanlov asosida qabul qilish jarayonida ham samarali foydalanib kelinmoqda.

3. O'zlashtirish va rivojlantirishni test yordamida nazorat qilish

Test — aniq maqsad asosida, muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

Pedagogik amaliyotda testning bir qator afzalliklari ko'zga tashlanadi. Ular quyidagilardir:

- 1) nazorat uchun vaqtning kam sarflanishi;
- 2) nazariy va amaliy bilim darajasini obyektiv sharoitda aniqlash imkonining mavjudligi;
- 3) bir vaqtning o'zida ko'p sonli o'quvchilar bilan nazoratni tashkil etish mumkinligi;
- 4) bilim natijalarining o'qituvchi tomonidan qisqa muddatda tekshirilishi;
- 5) barcha o'quvchilarga bir xil murakkablikdagi savollar berilib, ular uchun bir xil sharoitning yaratilishi.

Ta'lim tizimi uzluksiz ravishda islohotlarni amalga oshirishni talab etadigan sohadir.

Ta'lim tizimida isloxlarni amalga oshirish jarayonida o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash ham yangicha mazmun kasb etdi. Davlat ta'lim standartlarining ishlab chiqilganligi, yangi o'quv dasturining amaliyotga joriy etilganligi, erkin va mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashga nisbatan yuqori talabning qo'yilayotganligi, ta'lim amaliyotiga pedagogik texnologiyalar olib kirilayotganligi, o'quvchilarni kasbga muvaffaqiyatli yo'ltash maqsadida psixologik va pedagogik diagnostika barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng ko'lamda amalga oshirilayotganligi kabi holatlar ko'zga tashlanayotgan bir vaqtda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini eng samarali shakl, metod va vositalar yordamida nazorat qilish hamda baholash muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilar bilimni baholashning besh balli tizimining eskirganligi va zamon talablariga javob bera olmagan uchun uni reyting tizimi asosida baholash uslubi bilan almashtirish davr taqozasiga aylandi. Shu o'rinda «qanday sabablarga ko'ra besh balli baholash mezoni o'zini oqlamadi?» degan savolga javob berish o'rinlidir:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ta'limni dekmokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida rivojlantirishni nazarda tutadi. Besh balli baholash tizimi qattiqo'llikni, o'qituvchining mustabidligi hamda uning ta'lim jarayonida yakka hukmronligini ta'minlashga xizmat qilib kelgan.

Demak, ushbu jarayonda talab va amaldagi holat bir-biriga muvofiq kelmaydi.

Ikkinchidan, baholash mezoni o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ixtiloflarni keltirib chiqarishga emas, aksincha, o'zaro faol hamkorlik, bir-birini tushuna olishlari uchun xizmat qilishi lozim.

Uchinchidan, baholash mezoni faqatgina o'quvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilish darajasini nazorat qilish uchungina emas, balki ta'limni tashxis etishning faol ko'makchisiga aylanishi zarur.

Baholashning besh balli tizimi birdan beshgacha farqlanuvchi dastlabki baholar qo'yish tartibini bildirib, mohiyati esa baholarning o'rtasidan kelib chiqqan holda choraklik (yillik) o'zlashtirish natijalarini aniqlash tartibidan iborat.

Masalan, o'quvchi biror o'quv fanidan uchta nazorat ishini 3, 4 va 5 ga bajargan, joriy nazorat bo'yicha ham shunday natijalarni qayd etgan bo'lsa, unga chorak uchun «4» baho qo'yiladi. Bu esa joriy, oraliq va yakuniy nazorat paytida yaxshi tayyorgarlik ko'rgan o'quvchining ijobiy baholanishi o'rniga, chorak yoki yil oxirida muayyan mavzudan «5» bahoga berilgan javoblarining mutlaqo inobatga olmasligiga sabab bo'ladi..


Reyting tizimida o'zlashtirish natijasi nazoratning ko'rsatilgan barcha shakllardan o'tish jarayonida to'plangan ballarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi. Har bir nazorat turi uchun 10 balldan taqsimlanganda (o'quv fani uchun 100 ball hisobida) unga 7, 5, 8, 7 ball qo'yilsa, o'quvchining chorak yoki yarim yillik uchun to'plagan bali 27 ballni tashkil etadi, bu esa 55 foizdan kam, shuning uchun u yetarlicha reyting balini to'plamaguncha va barcha nazorat shaklidan o'tmaguncha attestatsiya qilinmaydi. Demak, reyting tizimi olingan baho bilan

egallangan bilim o'rtasida tafovut kelib chiqishining oldini oladi.

Reyting tizimi yana bir qator afzalliklarga ega, chunonchi:

- ta'lim jarayonida baholash tizimi imkoniyatlarini kengaytirish;
- o'quvchi bilimni eng adolatli mezonlar yordamida aniqlash;
- ta'limni standartlashtirish jarayoni uchun zarur imkoniyatlarni ochib berish;
- ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan o'quv dasturiga kirgan majburiy ixtiyoriy mavzularning to'raligicha o'zlashtirilishi;
- o'quvchilarda o'z ustida mustaqil ishlashga intilish, erkin fikr yuritish, bilimlarni egallashga nisbatan izchil yondashuv yuzaga keladi;
- o'quvchilarda yomon baho olishga bo'lgan qo'rquv yo'qolib, uning o'rniga bilimlarni ixtiyoriy o'zlashtirish, mavjud kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish yo'lida mustaqil ishlash imkoniyati yaratiladi. Boshqacha aytganda, qo'rquv o'rniga intilish, rejalashtirish, harakat qilishga ehtiyoj tug'iladi, o'rganishga nisbatan qiziqish ortadi.

4. O'zlashtirishni diagnostika qilish



O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari hamma vaqt bahstalab mavzu bo'lib kelgan. Chunki u turli adabiyotlarda turlicha yoritilgan. Biroq mavjud qarashlarni umumlashtirib aytish mumkinki, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari har bir fanning maqsad va vazifalariga, shuningdek, sinf (guruh)dagi o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga tayangan holda belgilanadi. Shuningdek, baholash mezonlarini ishlab chiqishda o'quvchilarning og'zaki javob berishlari, ko'nikma va malakalariga alohida-alohida yondashiladi. Masalan, ximiya darsidan baholash mezonlariga o'quvchilarning og'zaki javoblari, amaliy to'shiriqlarni bajara olishlari va amalda mavjud bilimlarini namoyish eta olishlari inobatga

olinadi. Buni «4» baho misolida aniqlashtiramiz. *Og'zaki javob berishda «4» baho qo'yiladi, agar:* a) o'rganilayotgan mavzu yuzasidan to'g'ri javoblar bersa; b) material mantiqiy ketma-ketlikda aniq bayon etilsa; d) o'qituvchi talabi bilan tuzatilgan ikki-uchta unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan xatolarga yoki ba'zi to'liq bo'lmagan javoblarga yo'l qo'ysa.

Yozma topshiriqni bajarishda «4» baho qo'yiladi, agar: a) masalani yechishda va izohlashda muhim xato bo'lmasa; b) to'shiriqni bajarish va izohlashda muhim ahamiyatga ega bo'lmagan bir-ikki xatoga yo'l qo'yilsa yoki bitta izohning mohiyati ochib berilmagan bo'lsa.

Amaliy bilimlarni namoyish etishda «4» baho qo'yiladi, agar: a) ishni to'liq, muhim xatolarsiz bajarsa, natija chiqara olsa; b) ishni bajarishda, tajribani tugallashda ikki-uch muhim bo'lmagan xatolarga yo'l qo'ysa.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa chiqarish mumkin:

«5»baho qo'yiladi, agar:a) o'quvchi dasturdagi materialni to'liq o'zlashtirib olgan bo'lsa; b) o'rganilgan mavzu bo'yicha asosiy fikrlarni ochib bera olsa; e) egallangan bilimlarni amalda erkin qo'llay olsa;

g) o'rganilgan mavzuni bayon qilishda, yozma ishlarda xatolarga yo'l qo'ymasdan, ma'lumotlarni tushuntirib bera olsa.

«4»baho qo'yiladi, agar: a) o'quvchi o'rganilgan mavzuning mohiyatini bilsa;

b) o'qituvchining savollariga qiynalmasdan javob bera olsa; e) egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olsa; g) og'zaki javob berishda jiddiy xatolarga yo'l qo'ymasdan, o'qituvchining qo'shimcha savollari bilan xatolarini to'g'rilay olsa hamda yozma ishda uncha jiddiy bo'lmagan xatoga yo'l qo'ysa.

«3»baho qo'yiladi, agar: a) o'quvchi o'rganilgan mavzuni o'zlashtirgan, lekin mustaqil tushuntirib berishda o'qituvchining aniqlashtiruvchi savollariga ehtiyoj sezsa; b) savollarning mantiqiy tuzilishini o'zgartirib berganda, javob berishga qiynalsa; e) yozma ishda xatolari bor bo'lsa.

«2» baho qo'yiladi, agar: a) o'quvchi o'rganilgan mavzu haqida tushunchaga ega, biroq mavzuni o'zlashtirmagan, b) yozma ishda qo'pol xatolarga yo'l qo'ysa.

Nazorat uchun savollar:

1. Ta'lim olganlikni tashxis etish nima? Uning mohiyati haqida gapirib bering.
2. Ta'limni baholash yoki tekshirishdan tashxisning o'rtasidagi farq nimalarda ko'rinadi?
3. Nazorat va tekshirish tushunchalarini izohlab bering.
4. Tekshirish tizimi qanday bo'g' inlardan tashkil topadi?
5. Nazorat tekshirishdan tashqari o'z ichiga qanday tushunchalarni oladi? Ular haqida ma'lumot bering.
6. O'quvchlarning o'zlashtirish natijalarini hisobga olishda nimalarga e'tibor berish lozim?
7. Ta'lim jarayonida nazorat qilish va hisobga olishning vazifalari nimalardan iborat?
8. Ta'lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillariga ta'rif bering?

9. O‘quv faoliyati natijalarini nazorat qilishning qanday turlari mavjud.
10. Nazoratning shakllari haqida ayting
11. O‘quvchilar faoliyatini nazorat qilishning qanday metodlarini bilasiz?
Ularning har biri haqida ma’lumot bering.
12. Reyting tizimi nima? U qanday afzalliklarga ega?
13. Qaysi sabablarga ko‘ra besh balli baholash mezonini o‘zini oqlamadi?
14. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash mezonlarini tushuntirib bering.

O‘quv topshiriqlari:

1. Quyidagi ish qog‘ozi asosida “Tizimlashtirish” metodi yordamida talabalarning bilim, ko‘nikma, malakalari (BKM)ni tashxislashga doir tushunchalarni ifodalang.

Ish qog‘ozi

Talabalarning BKMni tashxislash			
<i>Tushunchalar</i>	<i>Tushunchalar</i>	<i>Tushunchalar</i>	<i>Tushunchalar</i>

2. Quyidagi ish qog‘ozi asosida “Ikki sahifali kundalik” metodi yordamida talabalarning bilim, ko‘nikma, malakalari (BKM)ni tashxislashga doir tushunchalarni ifodalang.


Ish qog‘ozi

Talabalarning BKMni tashxislash

<i>Tushunchalar</i>	<i>Ularning ta'rifi</i>
---------------------	-------------------------

3. Quyidagi ish qog‘ozi asosida “Klaster” metodi yordamida talabalarning BKMni tashxislashga doir klasterni yakuniga yetkazing.

Ish qog'oz



10- MA'RUZA. TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI VA MAZMUNI. TARBIYA QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI

REJA:

1. Tarbiya maqsadi.
2. Tarbiya jarayoning mohiyati. Tarbiya vazifalari.
3. Tarbiya jarayonining mazmuni.
4. Tarbiya jarayonining diyalektikasi va uning qonuniyatlari.

Tayanch soʻz va iboralar: tarbiya, tarbiyaning maqsadi, mazmuni, vazifalari, tarbiya jarayoni diyalektikasi, ibrat

1. Tarbiya maqsadi.

Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining bir qismi boʻlib, tarbiya jarayonining mazmuni, metodlari va tashkil etilishi masalalarini oʻrgatadi. Hayotga yangicha siyosiy va iqtisodiy nuqtai nazardan yondashish oʻsib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bogʻliq jarayon mazmunini ham qaytadan koʻrib chiqishni taqozo etmoqda.

Tarbiya nazariyasi Markaziy Osiyo mutafakkirlari va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya nazariyasi oʻz qoidalarini asoslash uchun falsafa, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya kabi fanlar maʼlumotlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning boshqa boʻlimlari: pedagogikaning umumiy asoslari, taʼlim nazariyasi hamda maktabshunoslik bilan uzviy bogʻliq.

Tarbiya jarayoni shaxsning muayyan maqsad asosida ijtimoiy hayotga tayyorlovchi tarixiy-ijtimoiy tajribaga suyangan holda olib boruvchi faoliyat jarayonidir. Tarbiya xususida taniqli oʻzbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday deydi: « Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir». Ushbu fikrlardan xulosa chiqarsak, shaxs tarbiyasi xususiy emas, balki ijtimoiy-milliy ilmga doir. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli boʻlishi avlodlar tarbiyasiga koʻp jihatdan bogʻliq.

Oʻzbekiston Respublikasining «Taʼlim toʻgʻrisida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning qator asar va nutqlarida, chunonchi, «Barkamol avlod - Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori», «Oʻzbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli asarlarida mustaqil respublikada ijtimoiy tarbiyani yoʻlga qoʻyish maqsadi va vazifalari belgilab berilgan.

Tarbiya - shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon boʻlib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli taʼsir etish imkonini beradi.

Tarbiya - shaxsda muayyan jismoniy, ruxiy, axloqiy, maʼnaviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur boʻlgan hissiyotlarga ega boʻlishini tahminlash yoʻlida koʻriladigan chora-tadbirlar yigʻindisi.

Demak, tarbiya ijtimoiy hodisa bo'lib, insoning shaxs bo'lib shakllanishini tahminlaydigan eng qadimiy va abadiy ma'naviy qadriyatdir.

Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan ikki faoliyatni - o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o'quvchining ongi shakllanib boradi. His-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan va ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi. Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirlarga nisbatan mahlum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoj va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh salbiy, xoh ijobiy) ta'siri bolaning ularga munosabati, bog'liqligini ko'rsatadi. Bola faoliyatini uyushtirish emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan qanday anglashni baholashi, his qilishni anglashi e'tiborga molikdir. Ulardan o'zi uchun nimalarni maqsad qilib olayotganligini bilishi zarur. Bularning barchasi turli kishilar bilan aloqa qilish, jamoadagi munosabatlar jarayonida murakkablashib boradi. Tarbiya jarayoni o'quvchining ongini emas, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borishi, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan huquqiy malaka va odatlarni hosil qilishi lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga, hissiyotiga va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o'qituvchi rahbarlik qiladi. U o'quvchilar faoliyatini belgilaydi, ularni ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi.

Tarbiyani samarali yo'lga qo'yish uchun uning harakatlantiruvchi kuchini - tarbiya jarayonining manbasini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir. Tarbiya jarayonida ichki va tashqi qarama-qarshiliklar mavjud bo'lib, u bevosita tarbiyalanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Tarbiyada o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Bu jihat unutilsa, qarama-qarshiliklar kuchayadi.

Tarbiya jarayonida uning maqsadi, shakli, vositalari, shaxsning o'zini-o'zi tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim o'rin tutadi. Tarbiya mazmuni ijtimoiy tuzum buyurtmasi asosida belgilanib, uning amalga oshishi uchun mahlum shart-sharoitlarning mavjudligi talab etiladi. Ushbu g'oyalar yaxlit tarzda quyidagicha aks etadi.

2. Tarbiya jarayonining mohiyati.

Tarbiya jarayonining mohiyatini tarbiyaga har tomonlama yondashish bilan muvaffaqiyatli tarzda ilmiy tahlil qilish mumkin. SHaxsning xislatlari bir-biridan ajratilgan emas, balki o'zaro mustahkam bog'langan. Tarbiya jarayonidabolaning shaxsiyati ayrim-ayrim emas, balki yaxlit tarzda rivojlanadi. Bola o'sib va rivojlanib borgan sari tarbiya vazifalari murakkablashib, chuqurlashib, tabaqalashib boradi.

Ijtimoiy tarbiyani tashkil etish jarayonida bir qator vazifalar ijtimoiy tarbiya maqsadidan kelib chiqib belgilanadi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ayni vaqtda yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishga qaratilgan jarayonda quyidagi vazifalarnihal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda:

a) yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashish, reja va amal birligi hissini uyg'otish;

b) o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlardan ogoh etish, chuqur bilimga, tafakkurga ega yoshlarni tarbiyalash, malakalarni tobora boyitish;

d) umuminsoniy axloq mehyorlarini anglashni (odamiylik, kamtarlik, o'zaro yordam, mehr-muhabbat, muruvvat, adolatni yoqlash, axloqsizlikka qarshi nafrat va h.k.), muomala odobi, yuksak madaniyatni o'quvchilarda qaror toptirishga erishish;

e) huquqiy va axloqiy mehyorlarga hurmat ruhida yondashish, o'quvchilarda fuqaroliktuyg'usini, ijtimoiy burchga mashullikni qaror toptirish;

f) tarbiyani muhofaza qilish, mexnat muvozanatni yuzaga keltirish borasidagi mashuliyatni tarkib toptirish;

g) vatanparvarlik va baynalminallik tuyg'usini shakllantirish, o'zga millat va xalqlar qarashlariga hurmatni, huquq va burchlarni kamsitmaslik tuyg'usini qaror toptirish;

h) mustaqil davlat - O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va xolisona baho berishga o'rgatish;

j) insonni oliy qadriyat sifatida qadrlash, uning shahni, or-nomusi, qadr-qimmatini, huquq va burchlarini himoya qilishga o'rgatish va boshqalar.

1. Tarbiya jarayonining O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-siyosiy mustaqilligining dastlabki yillaridayoq respublikada amalga oshirilishi ko'zda tutilgan bo'lib, tarbiya maqsada aniq belgilab olingan edi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni g'oyalariga ko'ra ijtimoiy tarbiyaning asosiy maqsadi erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo'lgan komil insonni tarbiyalab, voyaga yetkazishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish yo'lidagi asosiy vosita - bu shaxsda umumiy madaniyatni tarkib toptirishga doir, yahni shaxsning aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, mexnat, huquqiy, mafkuraviy hamda mehnat madaniyatini tarbiyalash tarbiyaning bosh maqsadini amalga oshirish imkoniyatini yaratish ko'zda tutiladi.

Tarbiya mazmunida oldinga qo'yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar shaxs xulq-atvori hamda sifatlarning mohiyatini aks ettiradi. Tarbiya mazmuni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, kishilik munosabatlari mohiyati va darajasi, shuningdek, jamiyat mafkurasi va g'oyalaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Zamonaviy tarbiya mazmunida quyidagi g'oyalar yotadi:

2. Bolalar va kattalarning birgalikdagi faoliyati. O'qituvchining bolalar bilan ma'naviy madaniyatining eng yaxshi namunasini izlashi, shu asosida tarbiyachi insonning hayotiy mehyor va qadriyatlarini ishlab chiqishi, o'quvchining tarbiya jarayonida faolligini tahminlashga olib keladi. Dunyoqarashi hali to'la-to'kis shakllanmagan bolalar uchun kattalarning hayotiy tajribalari hamda ularning shaxsiy namunalari katta tarbiyaviy ta'sirga ega.

3. O'z-o'zini anglash. Tarbiya insonda e'tiqod, demokratik qarashlar va hayotiy pozitsiyaning shakllanishiga olib keladi. Tarbiya mazmunining eng muhim jihatlaridan biri - bu insonning hayotida o'z-o'zini anglashi, inson o'z shaxsiy

hayoti va baxtining subyektivi sifatida e'tirof etilishi bilan tavsiflanadi. Inson kamolotda fuqarolik, kasbiy va axloqiy o'z-o'zini anglash g'oyalari tayanib tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

Odam ijtimoiy rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch deb, kishi ehtiyojlari ta'sirida yuz beradigan ob'ektiv omillarni, odamlarning oddiy, biologik va jismoniy (moddiy) ehtiyojlaridan boshlab, oliy (ma'naviy va ruhiy) ehtiyojlariga qadar bo'lgan ehtiyojlar majmui hamda ularni qondirish imkoniyatlari orasidagi munosabatlarga aytiladi.

Ehtiyojlar u yoki bu faoliyatning sabablarini vujudga keltiradi. O'zining ehtiyojlarini qondirish uchun kishi vosita va manbalar qidiradi. Ehtiyojni qondirish imkoniyatlari mavjud bo'lganda, kishi o'zini baxtiyor his etadi. Aks holda, o'zini baxtsiz deb bilib, unda harakatlantiruvchi kuch paydo bo'ladi.

Agar odamning axloqiy tarbiyasi to'g'ri bo'lsa, u ijtimoiy rivojlanadi. Axloqiy tarbiyasi nosoz odamning ijtimoiy sifatlari nuray boshlaydi va ijtimoiy illat (o'g'rilik, nashavandlik, yolg'on so'z, firibgarlik va hokazo) larga duchor bo'ladi. Axloqiy tarbiyasi yaxshi odam ehtiyojini qondirishning to'g'ri yo'llarini izlaydi hamda odamlar bilan muloqotda bo'lib, yaxshi ijtimoiy sifatlari takomillashib boradi. Bunday o'zaro ta'sirlardan paydo bo'lgan kuchdan samarali foydalanish uchun yo'naltirilgan tarbiyaviy ta'sirning egallaydi.

4. Tarbiyaning yo'naltiruvchanligi. Mazkur g'oya maktab (ta'lim muassasalari) amaliyotining markaziy nuqtasida tarbiyaviy ishlar dasturi, tadbirlari, shakl, metod va vositalari emas, balki o'quvchi turganligini anglatishga xizmat qiladi. Tarbiya jarayonida uning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, o'ziga xos tavsifi o'z qadr-qimmatini anglash tuyg'ulari rivojlantirib borishi zarur.


5. Ixtiyoriylik. Tarbiyalanuvchilarning iroda erkinligisiz tarbiya g'oyalari mohiyatini qaror toptirish mumkin emas. Tarbiya jarayoni, agar u oqilona tashkil etilsa, bir vaqtning o'zida ham o'qituvchi va o'quvchi ma'naviyatining boyitilishiga xizmat qiladi. Agar tarbiyachi (o'qituvchi) o'quvchining qiziqishi, faoliyati, o'rtoqlik va fuqarolik burchini anglashi, mustaqillikka intilish tuyg'ularini ko'rib va anglay olsagina uning shaxsiga ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilgan faoliyatda samaraga erishadi.

6. Jamoat yo'nalishi. Tarbiyaviy ishlar mazmunida jamoaga nisbatan ijobiy munosabatni qaror toptirish yotadi. Jamoa yordamida shaxsning har tomonlama taraqqiyoti, unda dunyoni anglash va uni to'laqonli talqin etish, insonparvarlik va hamkorlik tuyg'ularining yuzaga kelishi va rivojlanib borishi amalga oshiriladi.

Zamonaviy pedagogik jarayonda tarbiyalanuvchiga aqliy, estetik, axloqiy, jismoniy, siyosiy, iqtisodiy, mehnat hamda diniy tarbiya olish lozimligini

uqtirishning o‘zi ham samara beradi. Zamonaviy tarbiya mazmuni, g‘oyalari yaxlit tarzda quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Tarbiya maqsadining aniqligi. Tarbiyaning yo‘naltirilganligi



Ixtiyoriylik. O‘z-o‘zini anglash

Tarbiya jarayoni ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, unga tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi (subhektiv va obhektiv) omillar ko‘zgatashlanadi. Subhektiv omillar shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlarini anglashga yordam bersa, obhektiv omillar shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarni ijobiy hal etish uchun sharoit yaratadi. Tarbiya faoliyatining mazmuni, yo‘nalishi va shakli obhektiv sharoitlar bilan qanchalik mutanosib kelsa, shaxsni shakllantirish borasida shunchalik muvaffaqiyatga erishiladi. Tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishida nafaqat o‘qituvchi faoliyati, balki o‘quvchining yosh va psixologik xususiyatlari, o‘y-fikrlari, hayotiy qarashlari ham muhim o‘rin tutadi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez suratda yaqqol ko‘zga tashlanmaydi. O‘zida insoniy sifatlarni namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati o‘zining uzluksizligi sanaladi. Tarbiya jarayoni - bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari jarayonidir. O‘quvchilarda ijobiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo‘naltirilgan, bir-birini to‘ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi g‘oyalar alohida ahamiyat kasb etadi. SHu bois, oila, ta‘lim muassasalari, jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning uzluksiz o‘tkazilishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati - bu uning yaxlit tarzda tizimli tashkil etilishidir. Yaxlitlik shundan iboratki, tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, vazifalari va metodlarining birligi shaxsni shakllantirish g‘oyasini amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Bizga mahlumki, shaxs sifatlari navbatma- navbat emas, balki yaxlit tarzda o‘zlashtirila boriladi, shu bois pedagogik ta‘sir ham yaxlitlik, tizimlilik tavsifiga ega bo‘lishi lozim.

Tarbiya jarayonining yaxlitlik, tizimlilik xususiyati bir qator muhim pedagogik talablarga amal qilishi, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni ehtiyotkorlik bilan qaror toptirishni talab etadi.

4. Tarbiya jarayonining dialektikasi va qonuniyatlari

Tarbiya jarayoni, boshqa jarayonlar kabi, dialektik xarakterga ega. Bola o'zini o'rab turgan borliq dunyo bilan turli munosabatlarga kirishadi. Real tarbiya jarayonida ushbu holat tarbiyachiga ixcham-egiluvchanlik, harakatchanlik, o'zgaruvchanlik, tezkorlikni aytib turadi. Hech qaysi tarbiya tizimi doimiy emas, chunki bola turli ijtimoiy munosabatlarga, aloqalarga kirishar ekan, o'zi ham o'zgarib boradi, tarbiya jarayonining ijtimoiy funksiyasi ham ortib va murakkablashib boradi, shu bilan birga rivojlanishda bo'lgan yosh avlodga talablar ham ortib boradi.

Shaxs shakllanishi — inson bioijtimoiy mavjudot bo'lganligi tufayli, biologik rivoji bilan bir qatorda u ijtimoiy rivojlanib ham boradi va kamolotning ma'lum bir bosqichida shaxsga aylanadi. Kishida bir qator ijtimoiy sifatlar tarkib topib, ilmiy asoslangan mustaqil fikr shakllanadi. Ijtimoiy taraqqiyot tashqi va ichki, boshqariladigan va bosh qarilmaydigan omillar bilan kishiga ijobiy ta'sir etish, ya'ni shaxsning shakllanish jarayoni. Insonning ijtimoiy taraqqiyotida maqsadga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya etakchi o'rinni egallaydi.

Pedagogik faoliyat jamiyatning ta'lim-tarbiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida umuminsoniy sifatlar va fazilatlarni shakllantirishni ilmiy asoslangan reja- dasturga muvofiq amalga oshirish, ya'ni avlodni hayotga tayyorlaydigan ijtimoiy zarur faoliyat turi.

Pedagogik jarayon — o'qituvchi yoki tarbiyachi, o'quvchi yoki tarbiyalanuvchi orasidagi bilim berish va bilim olish, o'rgatish o'rganish, tarbiyalash maylida kechadigan munosabatlar tizimi.

Pedagogik tamoyil (prinsiplar) — o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat orqali beriladigan bilim turi, hajmi va mazmuni, shuningdek, o'quv qurollari va tarbiyalanuvchilarning ruhiy xususiyatlari o'rtasidagi zaruriy bog'liqliklardan kelib chiqqan qonuniyatga amal qilish.

Pedagogik tajriba — ta'lim-tarbiya beruvchi tomonidan pedagogikaning tamoyillari va ta'lim-tarbiya berishning muayyan usul va uslublarini to'liq o'zlashtirib hamda ularni amalda qo'llashdagi real shart-sharoitlarni, bolalar jamoasi va har bir bolaning o'ziga xosligini hisobga olgan holda amaliyotda tatbiq etish.

Ichki qarama-qarshiliklar har qanday rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Lekin ular rivojlanish mazmuni va yo'nalishini tashqi sharoitlar yetarli bo'lgan taqdirdagina belgilab bera oladi, xolos. Ichki qarama-qarshilikka o'quvchining intilishi va uning imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatni keltirib o'tish mumkin.

Insonning shaxs bo'lib shakllanishidagi asosiy manbalardan biri ehtiyojlar

bilan uni qondirish usullari (sharoitlari) o'rtasidagi ziddiyatdir. Bilamizki, ehtiyoj doimo tez va to'liq tarzda birdaniga amalga oshmaydi. Lekin har qanday qarama-qarshiliklar bartaraf etilishi kerak yoki bu qarama-qarshilik o'z kuchini yo'qotguncha kutish zarur.

Odotsizlik esa, butun insoniyat yoki bir millat qadriyat deb qabul qilgan narsa va hodisalarga behurmatlik ko'rsatish, muayyan jamiyatda urf bo'lgan axloq va odob normalariga rioya qilmay, ularni mensimay, oyoq osti qilishdir. Masalan, umuminsoniy qadriyat hisoblangan mehnat qilishni inkor etib, beish yurish yoki ish bo'lganda ham, dangasalik qilib ishlamaslik katta odobsizlik hisoblanadi. YOki bilim egallash umuminsoniy qadriyat. Sharoiti bo'la turib, ota- onasi va boshqalarning: «Ey inson, o'qisangchi, bilim olsangchi», — deganiga qaramay bilim olmasligi benihoya odobsizlikdir.

Odotsizlikning kechirib bo'lmaydigan va eng vahshiy ko'rinishi, sevishganlarni g'ayrilik qilib, ularga qarshilik ko'rsatish yoki undan ham jirkanchlisi, ularni badnom qilib, bebro' qilishga urinishdir. Bilim olaman degan odamga qarshilik ko'rsatish, islomga nisbatan isyon bo'libgina qolmay, inson huquqini poymol qilish hamdir. Kattalarga behurmatlik, yosh bolalar va ayollarni hafa qilish ham o'ta odobsizlik bo'lib, insoniyat tomonidan hech bir vaziyatda kechirilmaydi. SHunga o'xshash milliy qadriyat, urf odat va an'analarni behurmat qilish millatga nisbatan odobsizlikdir.

Odatda, inson qarama-qarshiliklarni yenga borib, o'z rivojlanishida yuqori bosqichga ko'tariladi va keyingi bosqichda undan ham murakkabroq qarama-qarshiliklarni yengishga qodir mukammal faoliyat usullarini egallaydi.

Ichki qarama-qarshiliklardan yana biri, tashqi narsa va hodisalar ta'siri va shaxs intilishi o'rtasidagi ziddiyat hisoblanadi.

Tashqi qarama-qarshilik tarbiya jarayoni uchun katta qiyinchilik tug'diradi. Masalan, maktab qo'yayotgan talablar bilan oila tomonidan ilgari surilayotgan talablarning (bahzan tushunmay, bahzan ataylab) bir-biriga mos tushmasligi oqibatida ziddiyat kelib chiqadi.

Shuningdek, tarbiya jarayonini murakkablashtiruvchi yana bir qarama-qarshilik, bu tashkiliy, maqsadli ta'sir bilan, tashqi stixiyali ta'sir o'rtasidagi nomuvofiqlik. O'qituvchilar tomonidan bolalarga talablarning bir xilda qo'yilmasligi ham tarbiya jarayonida mahlum ziddiyatni keltirib chiqaradi.

Tarbiya yaxlit pedagogik jarayonning bir tizimi sifatida mahlum qonuniyatlarga bo'ysunadi.

1. Tarbiyalanuvchilarning faoliyati qanchalik o'ylab, puxta tashkil etilgan bo'lsa, ularning muomala, munosabatlari, umuman olganda, tarbiya jarayoni shunchalik samarali kechadi.

2. Tarbiya jarayoni shaxs ichki tomonlariga (ruhiyati, hissiyotiga) qanchalik to'g'ri, samarali ta'sir ko'rsatsa, uning natijasi shunchalik yuqori bo'ladi.

3. Tarbiya jarayoni o'zining kompleks tizimida shaxsning verbal, sensor va harakat jarayonlariga ta'sirini qanchalik ko'p, maqsadga muvofiq tarzda uzviy o'tkaza olsa, barkamol shaxs tarbiyasi shunchalik mukammal amalga oshadi.

Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Tarbiya deganda nimani tushunasiz?
2. Tarbiya jarayonining asosiy qonuniyatlarini aytib bering.
3. Tarbiya jarayonining tamoyillari deganda nimani tushunasiz?
4. Tarbiya izchillik va tizimlilik deganda nimani tushunasiz?
5. Komil inson tarbiyasi deganda nimani tushunasiz?
6. Zamonaviy tarbiya deganda nima nazarda tutiladi?
7. Tarbiya jarayoniga ta'sir etadigan ichki va tashqi omillarni izohlang.

11-MA'RUZA. Jamoa tarbiya obyektini va subyektini sifatida (2 soat)

Reja:

1. Jamoa haqida tushuncha, uning xususiyatlari va vazifalari.
2. Jamoaning tarkibi va rivojlanish bosqichlari.
3. O'quvchi-yoshlar jamoasiga pedagogik rahbarlik.

Mavzuning maqsadi: o'quvchilar jamoasi, uning turlari va vazifalari, o'quvchilar va yoshlar jamoasining tuzilishi va tarkibi topish mexanizmi bosqichlari haqida ilmiy tushuncha berish orqali o'quvchi-yoshlar jamoasiga pedagogik rahbarlikni o'rgatish.

Mavzuning vazifalari:

-jamoaga va uning rivojlanish bosqichlarini yoritish;
-jamoaning pedagogik vazifalari va funksiyalarini belgilash;
-jamoaga turlari haqida tushuncha berish va o'quvchilar jamoasiga pedagogik rahbarlikni uyushtirish va boshqalar.

Tayanch ibora va atamalar: barkamol shaxs tarbiyasi, barkamol avlod tarbiyasini amalga oshirish bosqichlari, bakalavriyat, magistratura, aspirantura, doktorantura, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim, kadrlar tayyorlash milliy modeli, jamoaga, o'quvchilar jamoasi.

Jamoaga haqida tushuncha, uning xususiyatlari va vazifalari

«Jamoaga» so'zi lotincha «kollektivus» so'zining tarjimasini bo'lib, yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh ma'nolarini anglatadi. Aniqroq aytiladigan bo'lsa, jamoaga bu - kishilardan iborat guruh demakdir. Zamonaviy talqinda «jamoaga» tushunchasi ikki xil ma'noda ishlatiladi. Birinchidan, jamoaga deganda kishilarning istalgan tashkiliy guruhi tushuniladi (masalan, ishlab chiqarish jamoasi, zavod jamoasi, xo'jalik jamoasi va h.k.). Ikkinchidan, jamoaga deganda yuqori darajada uyushtirilgan guruh tushuniladi. Chunonchi, tarbiyalanuvchilarning birlashmasi o'ziga xos muhim belgilariga egadir. Quyida jamoaga va uning xususiyatlari (belgilar) borasida so'z yuritamiz.


Shu bois, jamoa hayotning bir (yagona) maqsadga qaratilganligi va ijtimoiy-g'oyaviy yo'naliganligi uning yetakchi belgisi sanaladi. Har bir jamoa boshqa bir jamoalar bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Uning har bir a'zosi jamiyat ijtimoiy faoliyatini tashkil etish jarayonida o'z jamoasi bilan birgalikda ishtirok etadi. Jamoani tushunish, uni his etish hamda shaxsni shakllantirishdagi o'rni va rolini baholay olish, umumiy va xususiy (shaxsiy) maqsadning qiziqishi, ehtiyoj va faoliyatning birligini namoyon etadi hamda bo'linishiga yo'l qo'ymaydi. Har bir jamoa o'z-o'zini boshqarish organiga ega va umummilliy jamoaning uzviy qismi sanaladi. Shuningdek, u maqsadning birligi va tashkil qilish xususiyatlari orqali umummilliy jamoa bilan bog'lanadi. Ijtimoiy jamiyatning ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyat jamoaning navbatdagi muhim xususiyatidir. Jamoa faoliyatining ijtimoiy-g'oyaviy yo'nalishi ham jamoaning faoliyati mazmunida o'z aksini topishi muhim ahamiyatga ega. Jamoa xususiyatini aniqlash kishilar guruhning yagona ijtimoiy tizimini o'rnata olishdagi usuli, ya'ni jamoani tashkil qilish usuli ham muhim hisoblanadi. Pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etilgan jamoa faoliyati natijasida jamoa a'zolari o'rtasida ishchanlik, bir-biri uchun g'amho'rlik, o'zaro yordam, jamoa manfaati uchun javobgarlik hissi qaror topadi. Birgalikdagi faoliyat umumjamiyat ishi uchun mas'uliyat hissini uyg'ota borib, jamoa a'zolarini bir-biriga yaqinlashtiradi, jamoaga hurmat hissining paydo bo'lishiga ko'maklashadi, jamoa bilan munosabatda bo'lish ehtiyojini oshiradi, jamoa a'zolari o'rtasida o'zaro ruhiy yaqinlik, hissiy birlik (bir-birini yoqtirish), sispatiya yuzaga keladi. Ushbu munosabat, ko'pincha, o'z-o'zidan paydo bo'ladi hamda ular pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun qo'l keladi. Ruhiy va hissiy birlik jamoa a'zolarining birgalikdagi faoliyatining mazmuniga, ular orasidagi hosil bo'lgan ishchanlik faoliyatining xarakteriga bevosita bog'liqdir. Jamoaning rasmiy (ishchanlik) va norasmiy (hissiy) tuzilishini birbiridan farqlash lozim. Jamoaning rasmiy tuzilishi deganda jamoa faoliyatining turli ko'rinishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan tashkiliy jihatlari ko'zda tutiladi. Mazkur tuzilma, birtomondan, jamoa a'zolari qo'yilgan ishchanlik munosabatlarini ifoda etsa, ikkinchi tomondan, rahbarlik vazifasini bajaruvchi tarbiyachilar hamda jamoa a'zolari o'rtasidagi mavjud boshqarish munosabatlari mazmunini ifoda etadi. Norasmiy tuzilma jamoaning barcha a'zolari o'rtasidagi shaxslararo ma'naviy, psixologik munosabatlarning umumiy tizimi va mikroguruhni tashkil etuvchi ayrim a'zolar o'rtasidagi tanlash munosabatlari mazmunini ifodalaydi. Jamoaning har bir a'zosi mavjud munosabatlar tizimida u yoki bu o'rinni egallaydi. Tarbiyalanuvchi shaxsning jamoadagi o'rni uning shakllanish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Maktab yoki sinfdagi rasmiy va norasmiy tuzilmalar bir-biriga muvofiq bo'lganda jamoaning rasmiy yetakchilari norasmiy munosabatlar tizimida ko'zga tashlangan o'rinni egallagan holdagina u china-kam jamoa bo'la oladi. Shuningdek,

norasmiy guruhlar (mikroguruhlar) umumjamoa ijtimoiy manfaatlari uchun kurashuvchi guruhlar bo'lganda jamoa o'zining chinakam jamoa tarzida namoyon etishi mumkin. Yashash joylarida o'zaro birikkan bolalar guruhlari qanchalik ahil va inoq munosabat zaminida tashkil topgan bo'lmasin, haqiqiy jamoa bo'la olmaydi. Chinakam jamoa ijtimoiy ahamiyatga moyillik faoliyatini tashkil eta olishi, jamoa a'zolari o'rtasida ijtimoiy ahamiyatli faoliyat, maqsad, ishchanlik xarakteridagi aloqa va munosabatlarni o'rnatish lozim. Jamoaning majburiylik belgisi unga pedagogik rahbarlikning bo'lishidir. Shunday qilib, jamoa kishilarning shunday muayyan guruhi bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan umumiy maqsad hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi. Ushbu guruh a'zolari o'zaro birlik, a'zolarning munosabatlar jarayonidagi tengligi asosida unga rahbarlik qilish va bir-biriga bo'ysinish, shuningdek, jamoa oldidagi javobgarligi asosida muayyan faoliyatni olib boradi. Jamoa va uni shakllantirish pedagogik faoliyatning maqsadi hisoblanadi. Namuna ko'rsatish uni shakllantirish vositasi bo'lib, uning yordamida jamoaning barcha yoki har bir a'zosini tarbiyalash yaxshi samara beradi. Demak, yuksak darajada o'stirilgan jamoa o'zida bir necha xususiyat belgilarini namoyon etadi.

Ular quyidagilardir:

1. Ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadning mavjudligi;
2. Birgalikdagi umumiy faoliyatning tashkil etilishi;
3. Majburiy mas'uliyatli munosabatning yo'lga qo'yilishi Saylangan umumiy rahbariy organga egalik.

Bir so'z bilan aytganda, jamoa bolalarning bir guruhi erias, balki maxsus tashkil etilgan munosabatlar tizimidir. Jamoa o'z-o'zini boshqarish va tartibga solish organlariga ega bo'lib, ular barcha bolalarning va jamiyatning manfaatlarini ifodalovchi vakillardir. Bolalar jamoasi metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilsa, katta tarbiyaviy kuch bo'lib qoladi. Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysinadigan uzoq muddatli, murakkab jarayondir. Jamoaning vujudga kelishi uchun to'rt bosqich zarur. Jamoaning shakllanish bosqichida dastlab pedagog butun bir guruhga talab qo'yadi, so'ngra jamoa faollari (aktivi) jamoa a'zolariga talab qo'yadi, butun jamoa alohida shaxsdan muayyan tarzda faoliyat olib borishni talab qiladi va nihoyat, shaxs o'z-o'ziga talab qo'yadi. Ushbu jarayonni sxema tarzida quyidagicha bayon etish mumkin (6.2.1-shakl).



6.2.1-shakl. Jamoaning shakllanish tamoyillari.

Qo'yilayotgan talablar mazmunidagi farq va jamoa rivojlanishi bosqichini aniqlovchi yorqin tashqi ko'rsatkich sanaladi. Jamoaning amaliy faoliyat mazmuni, jamoa a'zolarining jamoa oldidagi javobgarligi, ijodiy hamkorligi a'zolarining xulq-atvor, axloqiy kamolot darajasini ko'rsatuvchi muhim belgilar sifatida namoyon bo'ladi.

Bolalar jamoasi rivojlanishning birinchi bosqichi. Mazkur bosqichda talab faqat pedagoglar tomonidan qo'yiladi. Bu jamoa rivojlanishining boshlang'ich nuqtasidir. Ushbu davrdagi jamoa hali tarbiyalovchi jamoa bo'lmay, balki tashkil etuvchi birlik (sinf, guruh)dir. Tarbiyalanuvchilar talablarning qo'yilishiga e'tiborsiz qaraydilar. Jamoa a'zolarining uzluksiz ijodiy faoliyatini tashkil qilish va ularni muayyan (yagona) maqsad atrofida birlashtirishga erishish orqali jamoa qaror topadi. Tarbiyalanuvchilarning jamoa faoliyatida ishtirok etishi tufayli asta-sekin boyib boradigan tajriba, faoliyat natijasini birgalikda mlihokama qilish, qilinadigan ishlarni rejalashtirish jamoa a'zolarida mas'uliyat, javobgarlik, faoliyat birligi, shuningdek, ishchanlik munosabatining paydo bo'lishiga, tarbiyalanuvchilardan jamoa faoliyatiga nisbatan qiziqishning paydo bo'lishiga olib keladi.

Jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi. Ushbu bosqich jamoa faollarining pedagog talablarini qo'llab-quvvatlashi hamda o'z navbatida uning o'zi bu talablarni jamoa a'zolari zimmasiga qo'yishi bilan tavsiflanadi. Endilikda pedagogik jamoada paydo bo'lgan va u bilan bog'liq bo'lgan muammo, masalalarni yolg'iz o'zlari hal qilmaydilar. Jamoa faollari bilan maxsus tarbiyaviy ish olib borish orqali bu ishga ularni jalb etadi. Jamoa hayotini tashkil qilish usuli murakkablashib boradi, ya'ni jamoa o'z-o'zini boshqarishga o'tadi. Tarbiyalanuvchilar amaliy faoliyatining doimiy ravishda murakkablashib borishi mazkur davrning muhim xususiyati sanaladi. Ikkinchi bosqichda jamoaning muhim ishlarini o'quvchilar tomonidan muttasil rejalashtirishi, tadbirlarni o'tkazishga tayyorgarlik, uni o'tkazish hamda faoliyat natijalarni muhokama qilish jamoa faoliyatining ijodiy xususiyatini ko'rsatuvchi omillar sanaladi. Jamoaning ijobiy rivojlanishi uning a'zolarida faoliyat motivlari (rag'batlari)ning paydo bo'lishi, ijodiy hamkorlik va o'zaro yordam munosabatlarining tez sur'atlar bilan rivojlanishiga olib keladi. Bu o'rinda A.S.Makarenkoning jamoa faoliga nisbatan «Jamoa vijdoni» deya bergan ta'rifini eslab o'tish joizdir. Jamoa faollari birmuncha imtiyozlar (huquqlar)ga ega bo'lsada, ayni paytda uning o'ziga oshirilgan talablarning qo'yilishi maqsadga muvofiqdir. Jamoaning rivojlanishi bu bosqichda to'xtab qolishimomkinemas, chunki faoliyat ko'rsatayotgan kuch jamoaning bir

qismi xolos. Bu esa ikkinchi bosqichni jamoa shaxsni har tomonlama kamolga yetkazishning obyektiv shakli asosida boshlashini taqozo etadi. Bunda boshlang'ich davr bekor ketmaydi, faqat salbiy jo'shqinlikka emas, balki ijobiy jo'shqinlikka ham ega bo'ladi. Bir tomondan, u qiyinchiliklarga tayyorlanish imkonini beradi, bolada o'z-o'zini anglash va o'zini idora qilishga intilishni tarbiyalaydi. Ikkinchi tomondan, bu bosqichni amalga oshirish kishini har tomonlama ulg'ayishi uchun zarur bo'lgan amaliy va ma'naviy munosabatlar tizimi vujud-ga keladi.

Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichi jamoa faoliyatida anchagina sermahsul hisoblanadi. A.S.Makarenkoning aniqlashicha, bu davrda butun jamoa «ayrim o'zini chetga olib qoluvchi, injiq shaxs»larga talab qo'ya boshlaydi. Jamoaga endilikda faqat faollargina emas, balki uning butun a'zolari qiziqadi. Jamoa hayotidagi uchinchi bosqich, ijtimoiy fikr mavjudligi bilan ifodalanadi. Pedagog mazkur yo'nalishdagi ishni maqsadga muvofiq va izchil olib borgan sharoitda ijtimoiy fikrni shakllantirishga erishishi mumkin. Shu maqsadda u yoki bu tadbir rejasini jamoaning birgaitkdagi faoliyati yakuni uning a'zolari tomondan jamoa bo'lib muhokama qilinadi: turli mavzularda suhbatlar va ma'ruzalar uyushtiriladi, o'quvchilar o'rtasida samarali axborot vositalari yordamida ijtimoiy, g'oyaviy, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy, iqtisodiy va boshqa bilimlar targ'ibi tashkil etiladi

Jamoa rivojlanishining to'rtinchi bosqichi. Bu bosqich uchinchi bosqichning bevosita davomi bo'lib, uning barcha a'zolari jamoa oldida turgan talablar asosida o'z-o'zlariga talablar qo'ya olishlari bilan tavsiflanadi. Shuni aytish mumkinki, har bir bosqich jamoa a'zolarining o'ziga muayyan talablar qo'yishi bilan tavsiflanadi, ammo qo'yilgan har bir talab o'ziga xos yo'nalishi (masalan, o'yinda umuminsoniyat baxti uchun kurashishga intilish o'rtasidagi farq) bilan ajralib turadi. Xuddi shu jihatdan to'rtinchi bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo'ya olishlari bilan ahamiyatlidir. Jamoaning hayoti va faoliyati mazmuni jamoa a'zolarining har biri uchun shaxsiy ehtiyojiga aylanadi. Biroq, u ayrim shaxsning yanada rivojlanishida jamoaning tutgan o'rnini pasaytirmaydi. To'rtinchi bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar ancha murakkab va mas'uliyatlidir. Mazkur bosqichdajamoa oldidagi istiqboli, yuksak va murakkab'talablar qo'yish uchun qulay sharoit yaratiladi.

Bugungi kunda pedagog olimlar bolalar jamoasi rivojlanishi jara-yonini tahlil qilar ekan, uni quyidagi ikki bosqichga bo'ladi:

- jamoani dastlabki jipslashtirish;

jamoani shakllantirish - uning har bir a'zosini individual rivojlantirishning asosidir.

Jamoa hayotidagi har bir bosqichni ajratib ko'rsatish yuqorida bayon etilgan fikrlarga zid emas, balki shaxsning rivojlanishida jamoaning yetakchi ahamiyatini ta'kidlaydi. Rus pedagogi A.S.Makarenko jamoa munosabatlarining ichki jihatlariga katta ahamiyat bergan edi. U jamoada shakllangan quyidagi eng muhim belgilarni ajratib ko'rsatgan edi:

Doimiy tetiklik, tarbiyalanuvchilarning faoliyatga tayyorligi;

- 1.O'z jamoasi qadriyatlarining mohiyatini tushunish, uning uchun g'ururlanish asosida o'z qadrqiymatini anglash;
- 2.Uning a'zolari o'rtasidagi do'stona birlik;
- 3.Jamoaning har bir a'zosidagi do'stona birlik;
- 4.Tartibli, ishchan harakatga yo'llovchi faollik;
- 5.O'z hissiyot va so'zlarini boshqara olish ko'nikmasi.

O'quvchi yoshlar jamoasiga pedagogik rahbarlik

Jamoaning rivojlanishi - jamoa hayotining qonunidir. Xo'sh, bolalar jamoasining olg'a harakat qilib borishiga nima yordam beradi? Uning rivojlanishiga nima imkon beradi? Bunday kuch istiqboldir. Hayot shuni ko'rsatadiki, kishining kelajakka umid va ishonch bilan intilishi, hayotiy istiqbolini yurtimizning taqdiri bilan bog'lab, mustaqil diyorimizning bugungi jamiyat sharoitida ma'naviy va ma'rifiy qiyofasini yaratishda hissa qo'shgan kishi va jamoa tobora shakllanib, rivojlanib boradi. «Istiqbolning eng muhim pedagogik xususiyatlaridan biri shuki, degandi A.S.Makarenko, u oldinga qo'yilgan maqsad sifatida bolani istagan natijaga erishish imko-niyati bilan qiziqtiradi, unda kelajakni barpo etishda qatnashish istagini uyg'otadi. Quvnoq kayfiyat va olg'a intiluvchilikni vujud-ga keltiradi». Pedagogik nuqtai nazardan istiqbol deganda, shaxsning bolalar guruhini, umuman jamoani rivojlantirishning ichki ehtiyojlariga javob beruvchi, uning a'zolarini rivojlanish darajasiga, ularning yosh va individual xususiyatlariga hamda jamiyatimiz vazifalariga mos keladigan vazifalar, maqsadlar, ishlari tushuniladi. Jamoani vujudga keltirish va talaba yoshlarni tarbiyalash maqsadi bilan tashkil etiladigan istiqbollarni ularning hammasi uchun xarakterli bo'lgan ayrim umumiy xususiyatlarga ega bo'ladi:

- 1.Bevosita bolalarning qiziqishiga hamda vazifani bajarish uchun birgalikda jamoa bo'lib kurash olib borishning quvonchli manzarasiga asoslangan ishlarning maroqli bo'lishi;
- 2.Ishlarning ijtimoiy foydali qiymati va ularning butun xalqimiz olib borayotgan kurash bilan bog'liqligi;
- 3.Istiqbol uchun kurashning borishini aniq tashkil etish;
- 4.Talaba-yoshlarda aniq axloqiy sifatlarni tarbiyalashda pedagogik

maqsadga muvofiqlik.

Har xil istiqbollarni tashkil etishdagi asosiy metodik usul bolalarni birorta istiqbolga erishish uchun kurashga tayyorlashdan iboratdir. Bu ; tayyorgarlikka ish rejaları, loyihalar va boshqalarni muhokama qilish kiradi. So'ngra istiqbol sari harakat qilishga yordam beradigan amaliy ish bajarilishi lozim. Bu ish jamoani tashkil etish va jiplashtirish jara-yonidagi eng muhim bosqichlaridan biridir. Shunga erishish kerakki, barcha yoshlar umumiy faoliyatda ishtirok etsin va bu ishtirok etish faol, ijobiy xarakterga ega bo'lsin. Topshiriqlarni jamoaning barcha a'zolari o'rtasida to'g'ri taq-simlash bolalarni qiziqarli ishlarni bajarishga jalb qilishning asosiy yo'lidir. Bolalarning tayyorgarlikda jamoa maq-sadiga erishish jarayoniga jalb qilishning tarbiyaviy ahamiyati shu jihatdan kattaki, bu yo'l bilan bolalarni maqsadga qaratilgan jamoa axloqiy xulq-atvorini egallashga mashq qildirish uchun shart-sharoit yaratiladi. Jamoa hayotining me'yori umumiy maqsadga intilishga va qiziqarli ishlar bilan shug'ullanishga emas, balki jamoada bolalar o'rta-sidagi munosabatlar usuliga, ularning tevarak-atrofdagi vaziyatga boigan munosabatlariga, jamoadan tashqaridagi aloqalariga ham bog'liqdir.

Pedagoglar tomonidan qo'yiladigan talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natija beradi:

1. Qo'yilayotgan talablar ta'lim oluvchi shaxsini hurmat qilish bilan qo'shilishi kerak;
2. Qo'yilayotgan talablar muayyan o'quv muassasasidagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda qo'yilishi lozim;
3. Qo'yilayotgan talablar aniq bo'lishi kerak;
4. Talaba-yoshlarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga nisbatan qo'yilayotgan talablar ularda ma'naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart.

Xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan talablar bilan tanish-tirish mazkur talablar ustida mashq qildirish bilan qo'shib olib borilishi kerak. Xulq atvorni tarbiyalash ongni tarbiyalashga qaraganda ancha murakkab ish, o'quvchilar talablar mohiyatini yaxshi anglashi mumkin, biroq aksariyat hollarda rioya qilmaydilar. Shu bois, muntazam ravishda mashq qildirish madaniy xulq-atvorni odatga aylantiradi. Talablarning qo'yilish jarayonida ularga ta'lim oluvchilarning amal qilish ustidan nazorat o'rnatishi lozim. Nazorat qilib borish tur-li shakllar yordamida amalga oshiriladi. Nazorat haqqoniy va muntazam bo'lishi kerak. Uning natijalaridan talaba-yoshlarni ogoh etib borish lozim. Jamoani uyushtirish va jiplashtirish unda faollarni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liq. Jamoa faollarini shakllantirishda talabalarning jamoadagi obro'sini inobatga olish lozim. Jamoa faoli tarkibini bolalarning o'zlari, albatta, pedagog ishtirokida va rahbarligida tanlasa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Pedagog jamoa faoli bilan maslahatlashib, olib


boradi. Jamoa faolarining har bir a'zosi zimmasiga muayyan vazi-fa yuklash, ma'lum davrda a'zosi shu vazifalar yuzasidan hisobot berib borishlariga erishish lozim.

Talabalarning o'z-o'zini boshqarish - bu pedagoglar tomonidan tashkil qilinadigan jamoa ishini uyushtirish va boshqarishda talabalarni faol ishtirok etishidir. O'z-o'zini boshqarishning shakllari orasida jamoa a'zolarining yig'ilishi, konferensiyasi hamda turli komissiyalar faoliyati muhim o'rin tutadi. Talabalar jamoasini shakllantirishda an'analar muhim ahamiyat kasb etadi. Jamoa an'analari — bu barqarorlashgan odat bo'lib, ularni jamoa a'zolari birdek qo'llab-quvvatlaydilar. Jamoa an'analari mazmunida munosabatlar xususiyati hamda jamoaning ijtimoiy fikri yor-qin ifodalanadi.

Jamoa an'analari shartli ravishda ikkiga bo'linadi:

- 1)Kundalik faoliyat an'analari;
- 2)Bayram an'analari.

Kundalik faoliyat an'analari talabalarning o'quv faoliyati (o'zaro yordam) hamda mehnat faoliyati (ko'chatlar o'tkazish, hasharlar uyushtirish va boshqalar)ni o'z ichiga oladi. Bayram an'analari turli voqea-hodisalar bilan bog'liq sanalarni nishonlash, xususan, «Mustaqillik bayrami», «Navro'z bayrami», «Xotira va qadrlash kuni» va boshqalar kiradi. An'anaviy bayramlar o'quv muassasalarida turlicha o'tkaziladi. Talabalar an'analar mohiyatini anglasalar, ularga nisbatan ongli munosabatda bo'lsa, tadbirning ta'sir kuchi yuqori bo'ladi. An'analarni yuzaga kelishida talaba-yoshlarning unga nisbatan munosabati katta ahamiyatga ega. (6.3.1 -shakl).6.3.1-shakl. Shaxs va jamoa o'rtasidagi munosabatlar.



Yuqorida bildirilgan fikrlardan quyidagi xulosaga kelish mumkin:

1. Jamoa kishilarning shunday muayyan guruhi bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, umumiy maqsad hamda mazkur maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi. Jamoa o'zida bir necha xususiyat (belgilar)ni namoyon etadi.

2. Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysinadigan, uzoq muddatli, murakkab dinamik jarayon bo'lib, ko'pchilik pedagoglarning e'tirof etishlaricha, to'rt bosqichli jarayonda qaror topadi.

3. Jamoani shakllantirish o'ziga xos metodika asosida amalga oshiriladi. Ushbu metodika doirasida jamoaga nisbatan talablarning qo'yilishi jamoa faoli (aktivi)ni tarbiyalash masalasi alohida ahamiyatga egadir.

Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. «Jamoa» so'zining ma'nosini tushuntiring.
2. «Jamoa orqali tarbiyalash» deganda nimani tushunasiz?
3. Jamoaning tuzilishi necha qismdan iborat bo'ladi?
4. Jamoani tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
5. «Jamoaning rivojlanish bosqichi» deganda nimani tushunasiz?

12-MA'RUZA. O'QUVCHILARNING ILMIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH. AQLIY TARBIYA.

Reja:

1. Dunyoqarash va uning vazifalari.
2. O'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismlari.
3. Aqliy tarbiyaning maqsad va mazmuni.
4. Fikrlash va uning turlari.

Tayanch so'z va iboralar: dunyoqarash, bilim, ilmiy dunyoqarash, aqliy tarbiya, fikrlash, intellektual salohiyat

1. Dunyoqarash va uning vazifalari.

Talabalar dunyoqarashini kengaytirish uchun avvalo, ular ongida ilmiy izlanish haqidagi tushunchani paydo qilish lozim.

Ilmiy izlanish ilmiy-tadqiqotning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, yangilikni topishga qaratilgan faoliyatdan iborat.

Talaba-yoshlarga ilmiy izlanish haqida tushuncha berishda ularning intellektual salohiyatli bo'lishini (aqlli, ongli, ilmi, bilimli, ijodga intiluvchan, fikrlash doirasi kengligi, xulosalash qobiliyati yuksakligi, yangi fikrni qadrlashi, yangilikni ijodiy daraja sifatida seza olishi va h.k.) va ijodiy jasurligini hamda qathiyat bilan yangilikka intilishi lozimligini keng miqyosda tushuntirish lozim. Bunda ijodkor talaba o'z zamonasining ilg'or g'oyalari bilan qurollangan bo'lishi ham ilmiy izlanish samaradorligini oshirishda muhim asos bo'ladi.

Ilmiy izlanish jarayoni fan oldiga, ilm ahli oldiga, bashariyat oldiga ilmning ijtimoiy maqsadlari sari rivojlantirishga oid maqsad va vazifalarni qo'yadi. Quyida ularning bahzilarini keltiramiz:

- kishilik jamiyatida hayotni yaxshilash sari intilishdagi olovning va o'z navbatida unga mos gugurtning paydo bo'lishi;
- ish qurollarini takomillashtirishga bo'lgan zarurat orqali metallarga ishlov berish yo'nalishining paydo bo'lishi;
- ma'lumotlarni saqlash, to'plash va uzatish zarurati tufayli yozuvning paydo bo'lishi, qog'oz, kitob, bosmaxona va shu kabilarning vujudga kelishi;
- energiyaning bir turdan ikkinchi turga aylanishi muammosini hal qilish orqali ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi buyuk o'zgarishlarning yuzaga kelishi;
- atomning paydo bo'lishi, rivojlanishi va ulardan tinchlik maqsadlarida foydalanish;
- «uchar gilam» - aviatsiya orqali kishilarning uzog'ini tezkorlik bilan yaqin qilinishi;
- «oynai jahon» - televideniening kishilik jamiyatidagi turli jabhalarga keng kirib borishi;
- zamonaviy kompyuterlarning paydo bo'lishi orqali tezkor hisoblashlarga bo'lgan talablarning qondoirilishi;
- «inson — mashina» tizimining hayotimiz turli jabhalariga keng joriy etilishi va hokazo.

Bugungi kunda kibernetika va mantiq fanlari oldiga «sunhiy tafakkur»ni

shakllantirish muammolari qo'yilmoqda.

Talabalar ilmiy dunyoqarashini kengaytirish ishlarini ta'lim-tarbiya jarayonining turli jabhalarida amalga oshirish mumkin. Buning uchun har bir fan rivojlanishidagi ilmiy asarlarni qayd qilib o'tish va ilmiy izlanish jarayoniga talabalarning e'tiborini qaratish yetarli. Bularni talabalarga mustaqil topshiriq berish orqali birinchi kursdan boshlash kerak va ushbu jarayonning uzluksiz ketma-ketiigini quyidagicha amalga oshirgan mahqul: talabalarga o'rganiladigan bilim, tushuncha, ko'nikma va malaka yuzasidan ma'lumotlar to'plashni (ma'lumotlar bankini hosil qilishni) va ularni axborotlar ko'rinishiga keltirishni o'rgatish. Bunda kutubxonadagi kartoteka va ular asosida adabiyotlar ro'yxati tuziladi hamda o'rganilgan fanlar bo'yicha bilimlar, tushunchalar, qonunlar, qoidalar, ko'nikma va malaka tizimlari yaratiladi. Talabada undan intellektual salohiyatni kengaytirish, muntazam foydalanish uchun qulay holga keltirish imkoniyati bo'ladi. O'rganilishi kerak bo'lgan adabiyotlarning annotatsiyasi yoki referati haqida ma'lumot berish, buni fan o'qituvchilari o'z fanini o'rgatishning dastlabki bosqichida, yahni fanning maqsad va vazifalari hamda predmetlarini bayon qilish paytida amalga oshirsa bo'ladi, yoki bu jarayon ilmiy ijodiyot to'garaklarining bevosita vazifasidir; talabalarga aniq mavzu bo'yicha referat yozishni topshirish orqali ham amalga oshiriladi; ilmiy to'garaklarga ilmiy mavzular orqali qatnashish; talabalarning kurs ish (loyiha)larini tayyorlashga qatnashi-shi; muayyan fanga oid ilm-fan va texnika-texnologiyalarga bog'liq ilmiy qadriyatlarni yig'ish va ularni bir tizimga keltirish; ilmiy tushunchalar va fikr (g'oya)lar bilan ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarga qatnashish uchun mahruzalar tayyorlash; ilmiy seminarlar-ga faol qatnashish; ilmiy qadriyatlarining ijtimoiy-moddiy qadriyatlarga aylanishi monitoringini olib borish; bitiruv malakaviy ishni tayyorlashda qatnashish va hokazo.

Talabalar ilmiy dunyoqarashini kengaytirishning qayd etilgan uzluksizligida tegishli topshiriqlar berishda o'tiladigan fanlar mazmuniga ko'proq e'tibor berishga to'g'ri keladi, chunki oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ilmiy dunyoqarashi asosan o'qitiladigan fanlar mazmunlari va ularga tegishli ilmiy - texnika taraqqiyoti yutuqlari asosida shakllanadi.

Talabalar ilmiy dunyoqarashini kengaytirish ilm-fan, ta'lim-tarbiya va texnika-texnologiyalarning muntazam rivojlanish natijalari ta'siri ostida ro'y beradi. Bunday jarayonda texnika-texnologiyalar muntazam ravishda takomillashib, rivojlanib bormoqda va natijada shunga mos yetuk mutaxassislar tayyorlash zarurati ham tug'ilmoqda. Bunda talabalar ilmiy dunyoqarashi va uning axborot tahminotining tadqiqiy va texnikaviy yechimlaridan boshlab olingan natijalarni amaliyotda qo'llashgacha bo'lgan barcha bosqichlarni samarali amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy dunyoqarash dastavval bo'lajak mutaxassis tafakkurida fikr shaklida yuzaga keladi, keyin ular rivojlanib, takomillashib, qarash (kontsepsiya), g'oya, ta'limot ko'rinishiga o'tadi va ularga taalluqli masalalar yuzasidan izlanishlar boshlanadi. Izlanishlar olib borishda o'rganilayotgan tadqiqot ishigacha bo'lgan ishlanmalar tahliliy o'rganib chiqiladi, yahni tahlil va sintez, umumlashtirish, xulosalash, tajribada sinab ko'rish, kuzatishlar o'tkazish, mantiqiy xulosalar

chiqarish, ichki farazlarni ifodalab olish kabi ishlarni amalga oshiradi.

Bugungi kundagi ta'lim tizimi zamonaviy mutaxassislarga bo'lgan talab asosida yaratilgan yangi standartlar va dasturlar doirasidagi ta'lim jarayonini eskirgan uslubda olib borishga yo'l qo'ymaydi. SHu sababli hozirda pedagogik innovatsiyani yaxlit murakkab jarayon sifatida qaralib, uning interaktiv sifatlari, tarbiyaviy qismlari, funktsional tavsifi va uzviyligi izchil tadqiq qilinmoqda. Bunda talabalar ilmiy dunyoqarashini yuksaltirishning innovatsion ta'lim texnologiyalarini yaratish lozim bo'ladi va buning uchun dastlab ushbu muammo yechimini hal qilish maqsadida ma'lumotlar bazasini tayyorlash kerak. Bular orqali axborotli boshqaruv bloki tuziladi va uning tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

- maxsus o'quv-didaktik tahminot (axborotlar banki, ma'lumotlar bazasi, bilimlar banki);
- multimediali informatsion texnologiyalar.

Talabalar ilmiy dunyoqarashini yuksaltirishga yangi axborot texnologiyalarini joriy etishga keng imkoniyatlar yaratuvchi ko'makchi kompyuterli tizimni quyidagicha ifodalash maqsadga muvofiq (9 11-shakl).

Ushbu ko'makchi kompyuterli tizimning afzalligi shundaki, bunda bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda quyidagi imkoniyatlar kafolatlanadi:

- fanga oid ilmiy dunyoqarash va ular asosidagi aqliy tarbiyaga oid tushunchalarni umumiy dastur asosida kompyuter vositasida o'rganish imkoniyatining mavjudligi, bo'lajak mutaxassislarning mustaqil ishlashi uchun optimal variantlarni qo'lga kiritish imkonini beradi.

XULOSALAR

1. Maqsadga erishilmagan.
2. Maqsadga qisman erishilgan.
3. Maqsadga erishilgan.
4. Maqsadga yuqori saviyada erishilgan.

TAVSIYALAR

1. Talaba bilan qaytadan ishlash kerak.
2. Talabaga ko'rsatmalar berish kerak.
3. Talabadagi shu yo'nalishni kuchaytirish kerak.
4. Talabani ijodiy faoliyatga yo'llash kerak.

IZOH:

- ko'makchi kompyuterli tizim bilan muntazam shug'ullanish bo'lajak mutaxassislarning ilmiy dunyoqarash va aqliy tarbiyaga oid bilim, ko'nikma, malakalarini kompyuterlarda mustaqil shakllantirishlariga erishishlarini kafolatlaydi va bu o'z navbatida, ular bilan qo'shimcha qiziqarli mashg'ulotlar olib borishga imkoniyat yaratadi.

Ko'makchi kompyuterli tizimdan talabalarga «ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va o'quvchilarga aqliy tarbiya berish» bo'yicha bilim berishda bevosita foydalanish mumkin, shuningdek, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi fanlardan ham talabalar ilmiy dunyoqarashini yuksaltirishda foydalanish mumkin. Bu orqali ta'limda innovatsion texnologiyalar va kadrlar tayyorlashning jahon andozalari talablariga javob beradigan variant kafolatlanadi.

2.O'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismlari.

Talabalar dunyoqarashini kengaytirishda, shu jumladan ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda «O‘qing, qiziq», «Eng, eng, eng ...» kabi sarlavhalarda haftalik devoriy gazetalar tashkil qilishning o‘rni beqiyos bo‘lib, ulardagi ma’lumotlar ko‘proq kasbiy faoliyat sohasiga tegishli bo‘ladi.

«O‘qing, qiziq» sarlavhasiga tegishli ma’lumotlarni topishni talabalarning o‘ziga yukiash maqsadga muvofiq, chunki talaba bu orqali izlanishga o‘rganadi va shu sohadagi ko‘nikma va malakalari shakllanib boradi. Albatta, talaba bu sohadagi ishlarini samarali tashkil qilish uchun o‘qituvchi ko‘rsatma berishi lozim, aks holda talabada bu sohadagi ishtiyoq so‘nishi mumkin va ko‘rsatma berishda ko‘proq «U kim, bu nima» va shunga o‘xshash har xil ensiklopediyalar, gazetalarda «O‘qing, qiziq» va boshqa qiziqarli xabarlar, «Turfa olam» hamda «Fan va turmush» kabi jurnallarni tavsiya etgan mahqul. Bunda, albatta, ixtiyoriy ma’lumotlarni to‘playverish emas, yuqorida ta’kidlangandek, kasbiy faoliyatga yuksaltirish asosiy diqqat markazida bo‘lmog‘i lozim.

Dunyoqarashni kengaytirishga intellektual o‘yinlar («Zakovat», «Intellektual ring», «O‘yla, izla, top!» kabilari)ning o‘rni beqiyos.

Umuman olganda barcha darslarda talabalar dunyoqarashini kengaytirish mumkin. Unda faqat o‘qituvchidan pedagogik mahorat talab etiladi va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish yo‘llaridan xabardor bo‘lishi zarur. Bular muammoli ta’limga ko‘proq e’tibor berib, zamonaviy pedagogik texnologiyalardagi «Aqliy hujum», «Tahliliy fikr», «Tizimli tahlil» kabi yo‘nalishlardan samarali foydalanish zarur.

Tabiiyki, talabalar dunyoqarashini biror uslub yoki metodlarda emas, balki zamonaviy interaktiv usullar, turli o‘yinlardan «Zakovat», «Intellektual ring» kabilardan foydalanishsa, foydadan xoli bo‘lmaydi.

Bugungi kunning dolzarb masalalaridan yana biri barcha fanlarni o‘qilishda «Zakovat», «Intellektual ring» kabi o‘yinlardan foydalanishsa, talabalar ilmiy dunyoqarashi, salohiyatini oshirish, mutaxassislarni tayyorlash, ularning sifatini mukammallashtirish vazifasi osonlashadi. Talabalar dunyoqarashini shakllantirishni quyidagicha amalga oshirgan mahqul: birinchi kurs talabalari o‘rtasida «Zakovat» klubini ochish kerak. Bunda «Zakovat» o‘yin turlarini o‘tkazish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin. Bunda bo‘ljak yosh pedagoglarning o‘quv-tarbiyaviy jarayoni turli fanlar bo‘yicha bilimlari tekshiriladi, baholashning pedagogik tizimlari ishlab chiqiladi. O‘zlashtirgan materiallarini har xil ko‘rinishda, turli sharoitda, qay darajada qo‘llashlikni, qadriyatlarimizni, turli ko‘nikma, malaka, bilimlarini shakllantiradi, dunyoqarashini kengaytiradi.

Pedagogika oliygohi talabalari mashg‘ulot jarayonida ham ushbu o‘yinlardan foydalanilsa, o‘zlashtirish yuqori samara beradi. 1-kursda ushbu ta’lim texnologiyasi talabalar dunyoqarashini kengaytiradi, o‘zlashtirish 40 % gacha yaxshilanadi.

Ikkinchi kurs talabalarida o‘tkazilgan o‘yinda mustaqil ish-ning faol tashkil qilinishiga imkoniyat yaratiladi. Ilmiy dunyoqarashi oshib, kasbiy qobiliyati shakllanadi. O‘z ustida mustaqil ishlash faolligi oshadi. O‘quv materiallarini ijobiy

o'zlashtirishga yordam beradi. Bilim saviyasi 60 %gacha ko'tariladi.

Shu yo'sinda muntazam ravishda olib borilgan «Intellectual ring» o'yinlari yordamida talabalar bilim saviyasini uchinchi kursda 80 foizgacha va to'rtinchi kursda 100 %gacha ko'tarish mumkin.

Talabalarning «Zakovat» o'yini orqali ilmiy dunyoqarashlari shakllanishlari bilan birga, qalbida ma'naviy hislar tarbiyalanadi. SHuningdek, kelajakda O'zbekistonni yuksak malakali mutaxassislar bilan tahminlash imkoniyati paydo bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, «Zakovat» o'yini talabalarni kam vaqt ichida yuqori natijalarga ega bo'lishga undaydi.

3. Aqliy tarbiyaning maqsad va mazmuni.

Har qanday kishida muhim bir bezak bor, bu insondagi aql va unga mos odob go'zalligidoir. Ushbu go'zallik kishiga hayotda o'z o'rnini topishda muhim ma'naviy asos bo'ladi. Quyida ular bilan bog'liq ma'lumotlarni keltiramiz:

Aql - kishining o'z idroki, qalbi va fikri asosida dunyoviy, hayotiy haqiqatlarni anglash va ularga o'z faoliyatida ma'naviy-insoniy nuqtai nazardan amal qilish imkonini beruvchi nehmatdoir.

Aql - inson kamolotining harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, uning yordamida odam hayotda o'z o'rnini va nufuziga ega bo'ladi. Aqlning dalili - fikrdoir.

Aqliy tarbiya - tabiatan berilgan aqliy kuch, ruxiy holat, biluv-chanlik va faoliyat erkinligini rivojlantirish natijasida insonda mustaqil fikr yuritib, oldiga maqsad qo'ya olish hamda ko'zlagan maqsadiga yetish qobiliyatini shakllantirish.

Aqliy tarbiya shaxs intellektual salohiyatini yuksaltirishning asosiy negizini tashkil etadi. Bu borada xalq ta'limi quyidagi muhim bo'lgan uchta funktsiyani bajaradi:

1. Kishilarni zamonaviy ilm-fan asoslari bilan qurollantiradi.
2. Inson shaxsining intellektual salohiyatini taraqqiy ettiradi, uni aqliy, ma'naviy, axloqiy va badiiy jihatdan rivojlantiradi, har tomonlama barkamol inson bo'lib shakllanishiga yordam ko'rsatadi.
3. Mamlakat ish kuchini takror ishlab chiqaradi. Hozirgi zamonda cheklangan, noyob resurslar sharoitida mamlakat xalqining o'sib borayotgan ehtiyojlarini samarali qondoira borish muammosini hal etishda ham xalq ta'limi tizimi muhim rol o'ynaydi.

Yuqoridagi ma'lumotlarni e'tiborga olib aqliy tarbiyaning maqsadini quyidagicha ifodalash mumkin.

Talabalar aqliy tarbiyasidan asosiy maqsad inson shaxsining ma'naviy va intellektual salohiyati negizida ularning dunyoqarashini yuksaltirish, e'tiqodini mustahkamlash va ezgulik hamda aqliy go'zallik kabi ko'nikmalarini shaxs sifatiga aylantirishdan iboratdoir.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda bir qator muammolar yechimlarini belgilab olishga to'g'ri keladi, yahni aqliy tarbiya yordamida bajariladigan vazifalar aniqlanadi. Ular quyidagilar:

1. Shaxs tarbiyasidagi istehdodni yuksaltirishga e'tiborni qaratish.
2. Shaxs tarbiyasida ma'naviy qadriyatlardan foydalanishga erishish.
3. Aqliy tarbiyada intellektual salohiyatga e'tibor berish.

Aqliy ta'lim va tarbiya birligi asosida shaxsda tafakkur (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli) rivojlanadi. Aqliy tafakkurning mavjud darajasini belgilash bir qadar murakkab bo'lib, quyidagi belgilarga ko'ra aniqlanishi mumkin:

1. Ilmiy bilimlar tizimining mavjudligi.
 2. Mavjud ilmiy bilimlarni o'zlashtirib olish jarayoni.
 3. Fikrlash ko'nikmasiga egalik.
 4. Bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqish hamda ehtiyojning yuzaga kelganligi.
- Aqliy tafakkur uzoq muddat hamda tinimsiz izlanish natijasida yuzaga kelib, uning negizida ilmiy qarash va e'tiqod yotadi.

Ilmiy qarash (yunoncha "idea" - g'oya, tasavvur va tushunchalar yig'indisi) muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g'oya bo'lib, u shaxs tomonidan mavjud ilmiy bilimlar tizimi puxta o'zlashtirilganda, bilimlarni bir-biri bilan taqqoslash, solishtirish, predmet, hodisa yoki jarayon mohiyatini tahlil qilish natijasida yuzaga keladi. O'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish ularda ixtirochilik ko'nikmalarini shakllantirishga zamin yaratadi.

Aqli odam egallagan bilimlarga amal qilib qanday faoliyat yuritishni biladi. Dono odam nima qilmahslik kerak ekanligini ham biladi. Yahni, aqli odam muammoli vaziyatdan oson chiqib ketsa, dono odam bunday holatga umuman tushmaydi.

Aqli odam - bu buyuk yaratuvchilikka, olamni obod qilishga, kishilarning mushkulini oson qilishga, jamiyat va davlat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga, odamlar o'rtasidagi insonparvarlikni yuksaltirishga xizmat qilib, o'zini ham inson kamoloti bosqichlariga erishishga surunmay, to'qnashmay borishini tahminlay oladi va ular bugungi yoshlarimiz tarbiyasida ibrat-namuna bo'ladi.

Dono odam - bu aql-zakovatli bo'lishi bilan birga, oqil va donishmand inson.

4. Talaba-yoshlarga aqliy tarbiya berishda intellektual mulkka tegishli tushunchalardan foydalanishga e'tiborni qaratish.

Talaba-yoshlarga aqliy tarbiya berish ong, fikr, ilm, tafakkur, idrok qilish kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini bilishni talab qiladi va bular o'z navbatida talaba-yoshlarga aqliy tarbiya berishda-gi ma'lumotlartushunarli hamda ishonchli bo'lishiga imkoniyat yaratadi. SHu sababli ham bilish haqidagi tushunchalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida qisqacha ma'lumotlarni keltiramiz.

Mahlumki, fan - dunyo (tevarak, atrof-muhit) haqidagi obhektiv bilimlar majmuyi. Bilimlar esa o'qish, o'rganish va tajriba yoki amaliyot orqali shakllanadi.

Bilim tushunchasi keng qamrovli, shu sababli uning tahriflarini har xil ko'rinishda uchratish mumkin, ammo ularda ifodalanayotgan mazmun-mohiyat umumiydoir. Ulardan bahzilarini keltiramiz.

«Bilim - kishilarning tabiat va jamiyat hodisalari haqida hosil qilingan ma'lumotlaridoir va yana bilim obhektiv borliqning inson tafakkurida aks etishidoir».

«Bilim - ijtimoiy moddiy va ruhiy faoliyatning mahsuli: obektiv xususiyatlar va olamning tabiiy va insoniy aloqalarning belgisi shakldagi ideal ifodalanishi».

«Bilim - odamlarning predmetlar va jamiyatni bilish (tasavvur etish, tushunish) mahsuli».

«Bilim - tabiat, jamiyat va tafakkurning qonuniyatlari to'g'risidagi ilmiy tushunchalarning yaxlit va tizimlashtirilgan yig'indisidir».

Bu ta'rif umumnazariy qoidalar asosida ifodalangan ta'rifdir va uning yordamida ilmiy bilim haqida ham tushuncha hosil qilinadi.

Bilimlarga quyidagi talab qo'yiladi:

1. Bilimning tushunarligi - bu sifat ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlar o'rtasidagi aloqasini tushinishlarida, muhim va asosiy bo'lmagan aloqalarini ajrata bilishda, bilim olish usullari va tamoyillarini bilishda aks etadi.

2. Bilimni tushunish - bu o'zlashtirish va boshqa ko'rsatkichlarni sintez qiluvchi yakuniy natijalarni ifodalovchi birmuncha umumlashgan sifatdir. U bilimning chuqurligi, mukammalligi va tizimlanganligiga qarab bir bilimning o'zi turlicha tushunilishi, ifodalanishi va undan foydalanilishi mumkin.

3. Bilimning mukammalligi - buni aniqlash uchun tushunchaning barcha belgilari va ularning bir-biri bilan aloqasini ajratish kerak.

4. Bilimning teranligi - buning uchun u yoki bu tushunchalar va ular o'rtasidagi o'zaro aloqalarini hamda ulardagi muhim belgilar sonini aniqlash lozim.

5. Bilimning operativligi (tezkorligi) - bu o'rganilgan bilimlar o'zgarishi mumkin bo'lgan ko'p variantli vaziyatlarni taqdim etish bilan va ulardagi qarorlar qabul qilishni o'z vaqtida bajarish bilan aniqlanadi.

6. Bilimning ixchamligi - buni tekshirish topshiriqni hal qilishda bir necha usullarni uyushtirish yoki o'xshash masalalarni hal qilishda bir shaklda bo'lmagan yondashuvlar ichidan masalaga qulay va mosini tanlash orqali amalga oshiriladi.

7. Bilimning aniqligi va umumiyliigi — umumlashtirilgan bilimning aniq namoyon bo'lishini ochib berish mahorati, aniq bilimlarni umumlashtirish ostida yakunlash, xususiylikdan umumiylikka (induksiya) o'tkazish qobiliyatini aniqlash bilan tekshiriladi.

8. Bilimning tizimiyliigi — buni topshiriqlarni tushunchaning ierarxiyasini aniqlashdagi ularning izchilligi, o'zaro bog'liqligi tizimi bilan tekshiriladi.

Demak, bilimlar inson aqliy faoliyatining doimo rivojlanib, takomillashib boruvchi jarayoni bo'lib, insonni yaratuvchilikka, ijodkorlikka undaydi va natijada ularda ilmiy bilimlar tizimi yaratiladi. Kundalik hayotda «bilish», «bilim» kabi atamalar ko'plab uchraydi.

Umuman bilish deganda jarayonning harakatdagi bahzi holatini, muayyan predmetlardagi qandaydoir voqealarni amalga oshirishni, bahzi jarayonlarning kechishi va boshqa holatlarini tavsiflovchi inson faoliyati mahsuli tushuniladi.

«Bilish - ta'lim oluvchi ongida tashqi dunyo aks etishining mahlum shakliga tegishli ta'lim-tarbiya oluvchining xotirasida saqlanib qoladigan va uning amaliy faoliyatini tartibga solish va tashkil etishga yo'naltirilgan tasavvur va tushunchalar ko'rinishidagi ifodasidir».

Bilish tadqiqot usuli bo'lib, uning yordamida tabiat va jamiyat qonuniyatlari o'rgatiladi. Bu qonuniyatlar bilimning obektiv realikka bo'lgan munosabatlari asosida yaratiladi.

Bilish jarayonining bosqichlari, shakllari, usullari, vositalari, ishonchliligi, haqqoniylik shartlari va mezonlarini bilish nazariyasi tadqiq qiliadi.

Demak, bilish jarayoni keng tushuncha bo'lib, u bilish qonunlari va imkoniyatlarini hamda bilimning obektiv borliqqa munosabatlarini o'rganishdagi asosiy poydevordir. Shuning bilan birga, bilish jarayoni insoniyatning tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi fikr (g'oya, ta'limot, qarash, qonun, qonuniyat, usul, uslubiyat va h.k.)larini shakllantirishning mustahkam asosidir.

Fikrlash va uning turlari.

Talaba-yoshlarga aqliy tarbiya berishda ularning axloqiy jihatlari - muhim asoslardan biridir. Shu o'rinda talaba-yoshlarning ongli intizomi to'g'risidagi ma'lumotlarni keltirish lozim.

Ijtimoiy jamiyat hayotini tartibli kechishini tahminlash maqsadida axloqiy hamda huquqiy mehyorlar qabul qilingan. Ijtimoiy-axloqiy mehyorlar omma tomonidan yaratilgan boyib, unda muayyan millat (elat, qabilalar yoki etnik guruhlar) kishilarining turmush tarzi, hayotiy yondashuvlari, o'y-fikrlari, dunyoqarashlarini namoyon etuvchi talablar aks etadi. Ijtimoiy-axloqiy mehyorlar omma fikri asosida tartibga solinadi.

Jamiyat ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutuvchi ijtimoiy-huquqiy mehyorlar esa davlat tomonidan qabul qilinib, tegishli qonun aktlari asosida tartibga solinadi. Ijtimoiy-axloqiy mehyorlarga amal qilishda ixtiyoriylik tamoyilining ustunligi ko'zga tashlansa, ijtimoiy-huquqiy mehyorlarga amal qilish majburiylik xususiyatiga egadir.

Intizom - ijtimoiy-axloqiy va huquqiy mehyorlarga nisbatan ongli yondashuv, ularga to'la amal qilish demakdir. Boshqacha talqin etiladigan bo'lsa, intizom - shaxs faoliyatining ijtimoiy-axloqiy hamda ijtimoiy-huquqiy mehyorlari talablari asosida tashkiletilishko'rsatkichi sanaladi. Ongli intizom tushunchasi esa shaxs faoliyatining ijtimoiy-axloqiy hamda ijtimoiy-huquqiy mehyorlar talablari asosida aqliy quvvatga tayangan holda tashkil etilish ko'rsatkichidir. Ongli intizom tarbiyasi talaba-yoshlar tomonidan intizomning mohiyati, uning ijtimoiy jamiyat hamda shaxs hayotida tutgan o'rnini to'g'ri baholash, shuningdek, ijtimoiy-axloqiy va ijtimoiy-huquqiy mehyorlar talablariga ongli munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayondir. Talaba-yoshlar o'rtasida ongli intizom tarbiyasini tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- Ijtimoiy-axloqiy va ijtimoiy-huquqiy mehyorlar mohiyatini talabalar ongiga singdirish, ongli intizom tushunchasini qaror toptirish.
- Talabalar tomonidan ijtimoiy burch mohiyatining o'zlashtirilishiga erishish.
- Talabalarda ijtimoiy burchni ado etish jarayonida ongli va ixtiyoriy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni shakllantirish.
- Talabalarda kundalik hayotiy rejim asosida faoliyatni tashkil etish ko'nikmasini hosil qilish.
- Talabalarda mehnatni ilmiy asosda tashkil etish (mehnat va dam olish faoliyati,

aqliy va jismoniy mehnat faoliyati o'rtasida o'zaro mutanosiblikning qaror topishiga erishish) ko'nikma va malakalarini hosil qilishga erishish.

- Talabalarda ta'lim muassasasi ichki tartib-qoidalariga bo'ysunish hissini shakllantirish.
- Intizomsizlikning oldini olgan holda intizomsizlikka qarshi kurashishga yo'naltirilgan faoliyatni yo'lga qo'yish va boshqalar.

Ta'lim muassasalarining muhim vazifalaridan biri - yosh avlodni ongli intizom ruhida tarbiyalashdir.

Ta'lim muassasalarida o'rnatilgan intizom ta'lim muassasalari jamoasini jiplashtirish, ta'lim muassasasi ichki hayoti va faoliyatining mo'tadil kechishini tahminlaydi. Intizom talabalardan hamjihatlik asosida faoliyat olib borish, o'quv yurti manfaati uchun birgalikda kurashish, rahbariyat hamda vakolatli talabalar organlari, uning ahzolari talablarini to'g'ri talqin etish va ularning bajarilishini talab etadi.

O'quv yurtida qaror topgan ongli intizom talabalar faolligi va tashabbuskorligining o'sishiga yordam beradi. SHuningdek, ongli intizom talabalarning o'qish va mehnat faoliyatiga ongli munosabatda bo'lish, o'quv yurti ichki tartib-intizomiga bo'ysunish, jamoa tomonidan berilgan topshiriqni bajarishga vijdonan yondashgan holda xulq-atvor mehyorlariga qathiy rioya etish zarurligini tushunib olishlari va ularga o'z ixtiyorlari bilan itoat etish ko'nikmalarining hosil bo'lishiga sharoit yaratadi.

Ta'lim muassasalari talabalarida intizomlilik xislatining hosil bo'lishi uchun ta'lim-tarbiya ishlarining sifatini yaxshilash, ularning samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Ongli intizom jamoa yordamida olib borilgan tarbiyaviy ishlarning natijasi bo'lib qolmay, ayni vaqtda, tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Intizom ko'rsatkichi qanchalik yuksak darajaga ko'tarilsa, tarbiya vositasi sifatidagi ta'siri shuncha ortib boradi. Intizomli jamoa o'z ahzolarini ichki tartibga rioya qilishga, muayyan xulq mehyorlariga amal qilishga, talabalar topshiriqlarini bajarishga, o'z tengdoshlariga namuna ko'rsatishga, ijtimoiy burchni anglashga o'rgatadi. Bunday jamoada talaba noto'g'ri harakat qilsa, uning xatosi ko'rsatiladi, natijada talaba tomonidan o'z xatosini anglashi, to'g'rilashga bo'lgan urinish yuzaga keladi. Talaba va jamoa o'rtasida ongli intizomni qaror toptirish ikki tomonlama ta'sir kuchiga egadir. Talaba jamoa doirasida salbiy xususiyatlarini yo'qotish uchun kurashadi, jamoa esa talabadagi mavjud nuqsonlarni bartaraf etishga o'z ulushini qo'shadi.

Intizom o'quv ishlariga g'oyat katta ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilarning topshiriqlarni, jamoa qarorlarini bajarish, mashg'ulotlarga kechikmasdan yetib kelish hamda sababsiz dars qoldirmaslik, darsda tartib saqlash kabi holatlar ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini, shuningdek, talabalarning chuqur bilim olishlari uchun imkon yaratadi. Shunday ekan, qaysiki o'quv yurtida o'qituvchi va talabalar jamoasi intizom qoidalariga qattiq rioya qilsa, o'sha o'quv yurtida o'zlashtirish yuqori darajada bo'ladi, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda yuksak natijalar qo'lga kiritiladi.

Talabalarning ongli intizomini qaror toptirishda kundalik hayotiy rejim

hamda unga qathiy amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Qathiy dars jadvali, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni uyushtirish va ularni o'tkazish, kundalik faoliyatni aniq rejalashtirish talabning shaxsiy hayotini muayyan tartibga solishga xizmat qiladi.

Talabalarning kundalik hayotiy rejimini ishlab chiqishda maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari muayyan o'rin egallashi lozim. Oliy ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirayotganda ayditoriyaning tashqari ta'lim muassasalari tadbirlar rejasini, darsdan tashqari mashg'ulotlarda esa oliy o'quv yurtlarining tadbirlar rejasini mazmunini inobatga olishi lozim. SHuningdek, ular o'quv-tarbiyaviy tadbirlarni birgalikda o'tkazishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Talabalarning kundalik rejimini o'z tashabbuslari bilan tuzish va bajarishga o'rgatish muhimdir. U o'zining kundalik rejimini oliy ta'lim muassasasi va undan tashqari muassasalar ish rejasini bilan muvofiqlashtirishga erishishi maqsadga muvofiqdir. Kundalik rejimni tuzish, unga rioya qilish, faoliyat talablariga amal qilish kabilarga ajratiladigan vaqtni belgilashda, ota-onalar, jamoatchilik tashkilotlari va o'qituvchilar ularga yordamlashishlari yaxshi natija beradi.

Kundalik rejimga amal qilish faqat organizmning fiziologik quvvatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib qolmay, balki uning intellektual salohiyatini yuksaltirishni yuzaga keltiradi va intizom talablariga ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Ongli intizom tuyg'usini talabalarda shakllantirish quyidagi faoliyatni tashkil etish asosida kechadi:

- maqsadga muvofiq talablarning qo'yilishi hamda ularning talabalar tomonidan bajarilishini uzluksiz, doimiy nazorat qilib borish;
- ijtimoiy-axloqiy va ijtimoiy-huquqiy mehyorlar mohiyatini tushuntirish;
- ongli intizom mezonlaridan biri bo'lgan intizomli xulq, xarakter va iroda sifatlarini hosil qilish maqsadida mashq qilmoq va o'rgatish;
- rag'batlantirish va jazolash.

Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Aqliy tarbiya deganda nimani tushunasiz?
2. Aqliy tarbiyaning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
3. Bilimga qo'yiladigan talablar nimadan iborat?
4. Ilmiy bilim deganda nimani tushunasiz?
5. Aqliy tarbiyani amalga oshirish yoshlari va shakllarini tushuntirib bering.
6. Ongli intizom aqliy tarbiyaning tarkibiy qismi deganda nimani tushunasiz?
7. Talabalar dunyoqarashini shakllantirishning asosini nima tashkil etadi?
8. Ilmiy dunyoqarashning uzluksizligini izohlab bering.
9. Talabalar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning axborotli texnologiyasi deganda nimani tushunasiz?
10. Aqliy tarbiyada ibrat-namunali tarbiyaning rolini tushuntiring.

13-MA'RUZA. FUQAROLIK TARBIYASI

Reja:

1. Fuqarolik tarbiyasining maqsad va vazifalari. Fuqarolik tarbiyasi funktsiyalari.

2. O'quvchilarga fuqarolik tarbiyasini berish jarayonida davlat ramzlaridan foydalanish.
3. Vatanparvarlik va baynalmilallik tarbiyasi.
4. Vatanparvarlik va baynalmilallik-fuqarolik tarbiyasi asosida.
5. Xuquqiy tarbiya.
6. Yosh avlodning xuquqiy madaniyati va ongini shakllantirish-fuqarolik tarbiyasining tarkibiy qismi.

Tayanch so'z va iboralar: Fuqaro, fuqarolik tarbiyasi, Davlat ramzlari, Vatanparvarlik, baynalmilallik, xuquqiy madaniyat

1. Fuqarolik tarbiyasining maqsad va vazifalari. Fuqarolik funktsiyalari.

O'quvchilarga huquqlari borasidagi bilimlarni berish bilan birga fuqarolarning burchlari nimalardan iborat ekanligi haqida ma'lumot berish, bu xususida o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni hosil qilish ko'zlangan maqsadga erishishda muvaffaqiyat omili bo'ladi.

Fuqarolarning burchlari quyidagilardan iboratdir: fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarda ko'zda tutilgan talablarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni, qadr-qimmatini hurmat qilish; O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy- madaniy merosini avaylab asrash; fuqarolar tabiiy atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish; qonunlar bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lash;

Mustaqillikka erishilgandan so'ng pedagogikada fikrlashga toliq imkoniyatlar yuzaga kela boshladi. Natijada pedagogikada sog'lom aql, ijodiy muhit, milliy ruhiyat, fuqarolik madaniyati va anhanalar, marosimlar, urf-odatlariga mos tarzda ta'lim-tarbiya olib borish imkoniyati yaratildi.

Mustaqii O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan miiliiy mafkura fuqarolarni Respublika Konstitutsiyasida ehtirol etilgan insonparvarlik, demokratik davlat va huquqiy jamiyatni barpo etishdek ezgu maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi. Har bir fuqaroning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy faolligini yuzaga keltirish, fuqarolik madaniyatini qaror toptirish - fuqarolik jamiyatining asosiy talabi sanaladi.

Ushbu talab mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi huku-mati tomonidan qabul qilingan qator qonun va qarorlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlari mazmunida o'zining yorqin ifodasini topdi. Ijtimoiy tarbiyaning samarali, izchil tizimini yaratish, jamiyatda fuqarolik madaniyatini shakllantirish muammolarining ijobiy hal etilishi jamiyat ijtimoiy hayoti uchun muhim ahamiyatga egadir.

Fuqarolik madaniyatining shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirish quyidagilarni o'z ichiga oladi: bir tomondan. jamiyat manfaatlari uchun mos kelsa, ikkinchi tomondan, fuqaro manfaatlari, shuningdek, jamiyat hamda fuqaroning birgalikdagi manfaatlari uchun to'la mos keladi. Shu sababli respublika mustaqilligi sharoi-tida ijtimoiy ta'lim-tarbiyani tashkil etish mazmunini tubdan modernizatsiya qilish zaruriyati yuzaga keldi. Bo'lajak mutaxassislarning ijtimoiy tarbiyasini keng ko'lamda fuqarolik tarbiyasi bilan uyg'un holda tashkil etish

bugungi kunning da'vati va talabi bo'lib qolmoqda. Mazkur talabni ijobiy hal etish «Davlat-ta'lim muassasalari - jamiyat- jamoatchilik» uyg'unligini yaratish asosida amalga oshiriladi.

Fuqarolik tarbiyasining vazifalari:

1. Yosh avlodni doimiy ravishda jamiyatda ustuvor mavqega ega bo'lgan axloqiy va huquqiy mehyorlarga ongli ravishda rioya etishga o'rgatib borish;
2. Talaba-yoshlarga fuqarolik huquq va burchlari to'g'risida ma'lumotlar berib borish, ularda fuqarolik faoliyatini tashkil etish borasida ko'nikma va malakalar hosil qilish;
3. Vatanni himoya qilish borasida harbiy vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish;
4. Talaba-yoshlarda davlat ramzlariga hurmat va muhabbatni qaror toptirish, Respublika Birinchi Prezidenti shaxsini, or-nomusini himoya qilishga tayyorgarlik hissini shakllantirish;
5. Talaba-yoshlarda xalq o'tmishi, milliy qadriyatlarga nisbatan muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ularda g'ururlanish, faxrlanish va iftixor hislarini, shuningdek, adolatli, diyonatli, mehr-muruvvatli, ezgulikni himoya qiluvchi, va ahdga vafoli shaxslarni shakllantirishga erishish;
6. Vatan, xalq va millat ishiga sodiqlik, o'z manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtira olishga erishish, fidoyi fuqaroni tarbiyalab voyaga yetkazish;
7. Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi va yurt mustaqil-ligini e'zozlovchi, ardoqlovchi, uni himoya qilishga qodoir fidoyi fuqaroni tarbiyalash ishiga kengjamoatchilik e'tiborini jalb etish;
8. Umumxalq ma'qullagan Konstitutsiyani va shu kabi muhim davlat hujjatlarini hurmat qilish hissini shakllantirish;
9. Yoshlarda fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda shaxsning Konstitutsiyada ko'rsatilgan huquqlaridan foydalanish hamda burchlarini bajarilishi xususida ma'lumotlar berish, ularda ijtimoiy faoliyatni tashkil etishda huquqlardan foydalanish va burchlarini bajarish bo'yicha ko'nikma va malakalarni hosil qilish maqsadga muvofiqdir.

Fuqarolarning burchlari quyidagilardan iborat:

- Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, shuningdek, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, shahni, qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdoir;
- Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab - asrashga majburdirlar;
- Fuqarolar atrof, tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdoirlar;
- Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga majburdirlar;
- O'zbekiston Respublikasini har tomonlama himoya qilish - O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir.

Zamonaviy milliy pedagogikada millat ruhiyatining va fuqarolik madaniyatining nozik jihatlariga kirib borish va dunyo tarbiyashunosligidagi eng

so'nggi yutuqlarni ham hisobga olish imkoniyati yaratildi.

Fuqarolik madaniyati deganda har bir davlatning qonun asoslari, huquq mehyorlarining maviydligi, fuqarolarning mavjud qonunlarni bilishi va o'z faoliyatida ularga rioya etishi, huquqiy va demokratik davlat barpo etishning muhim sharti hamda fuqarolik jamiyatida kishilarning yetuk ma'naviyati, ularning huquqiy burch va mashuliyatlari tushuniladi. Ayni paytda, barcha pedagogik tadbirlarda yoshlar ta'lim-tarbiya jarayonining obykti emas, balki subhekti, yahni ijrochisi ekanligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu ta'lim-tarbiya oluvchilarning mustaqil va erkin fikrlashlarini ta'minlashga imkon bermoqda. Eng asosiysi yoshlarda tarbiyalanish va o'qishga ehtiyoj uyg'otishga yo'naltirilgan holda ta'lim-tarbiya ishlari olib borilmoqda.

O'z fuqarolariga ega bo'lish har bir davlatning zarur va muhim belgisi sanaladi. Fuqarolarning mavjudligi sababli davlat mavhum tushuncha bo'lmay, muayyan mexanizmga, jonli sifatda maydonga chiqadi. Huquqiy o'rni qonun yo'li bilan kafolatlangan shaxsning davlat ichkarisida yoki tashqarisida bo'lishi dan qathi nazar, ma'lum bir davlatga qarashlilik holatiga fuqarolik deyiladi.

Ya'ni, fuqarolik - bu shaxsning muayyan davlat qaramog'ida bo'lishi, shu davlatga mamlakat ichida ham, uning tashqarisida ham mansubligi, shu mansublikning huquqiy hujjatlar yordamida tasdiqlanganligi.

Shu o'rinda fuqaro va unga tegishli tushunchalarni talaba-yoshlar ongiga singdoirish ham o'ta muhim.

Fuqaro - huquqiy asoslar orqali mahlum davlatga mansub shaxs. SHaxs fuqaro hisoblansa, ma'lum huquq va erkinliklarga ega bo'ladi. Fuqaroning huquqiy holati tegishli mamlakatda fuqaroliksiz shaxslarning yoki xorijiy mamlakatlar fuqarolarining huquqiy holatidan farq qiladi. Masalan, siyosiy huquqlar faqat fuqarolarga taalluqli bo'ladi.

Fuqarolik mashuliyati - jamiyatning demokratik rivojlanishi jarayonida erishgan g'alaba, yutuq va muvaffaqiyatlarga fuqarolarning ongli munosabati, yutuqlarni yanada ko'paytirish va ulardan foydalanishda faol qatnashishi.

Fuqarolikni tan olish - bu fuqarolikka ega bo'lish usullaridan biri boyib, u davlatning o'z hududida doimiy yashab kelayotgan yoki tegishli qonunda belgilangan tartibda mazkur davlat fuqaroligiga qabul qilingan shaxslarning mavjud huquqiy holatini yuridik mustahkamlaydigan, o'z ixtiyoriga ko'ra amalga oshiriladigan xatti-harakati.

«O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasiga ko'ra, keiib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy holati dan, irqi va millatidan, jinsi, ma'lumoti, tili, siyosiy qarashlari, diniy e'tiqodi, mashg'ulotining turi, saviyasidan qathi nazar ushbu qonun kuchga kirgan vaqtda O'zbekiston Respublikasida yashab turgan, boshqa davlatlarning fuqarolari boimagan hamda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lish istagini bildirgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari deb tan olinadi.

Fuqaroliksiz shaxslar — biron-bir mamlakatga huquqiy mansub bo'lmagan shaxslardoir. Bunday shaxslar har qanday mamlakatda, jumladan, O'zbekistonda ham mavjud. Ular siyosiy huquqlardan foy-dalanmaydi, o'zlarining xohishi bilan O'zbekiston fuqaroligiga o'tishi mumkin. Fuqaroliksiz shaxslarning manfaati,

huquq-erkinliklar qonun bilan himoya qilinadi.

Xalq - konstitutsiyaviy huquq fanida odatda muayyan davlatning barcha aholisi tushunilib, u yagona ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy umu-miylikni vujudga keltiradi (garchi u bir necha milliy umumiylikka ega bo'lgan bolsada) Shu mahnoda, zamonaviy Konstitutsiyalarda xalq to'g'risidagi «suverenitet egasi» va «hokimiyatning birdan bir manbayi» degan iboralar ko'p ishlatiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbayidir (7-modda). Shuningdek, O'zbekiston xalqini millatidan qathi nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi.

O'zbekiston fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Respublika Oliy Majlisi qabul qilgan tegishli qoidalarda belgilangan huquqlardan foydalana oladi, qonunda ko'rsatib o'tilgan burchlarni bajaradi.

Fuqarolikning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilar:

- muayyan davlat ahzosi ekanligini his etish, shaxs taqdoiri davlat va jamiyat hayoti bilan uzviy chambarchas bog'liq ekanligini tushuib etish;
- xalq, davlat oldidagi fuqarolik huquq va burchlarini qonunchilik asosida bilish, ularga so'zsiz, qathiy amal qilish;
- o'z xalqi va davlatining o'tmishi va hoziriga hurmat tuyg'usini qaror toptirish, shaxsiy manfaatlaridan davlat manfaatlarini ustun qo'ya bilish, xalq farovonligi, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi istiqboli uchun kurashishga tayyor turish;
- davlat ramzlari (madhiya, gerb, bayroq)ga nisbatan cheksiz muhabbatni qaror toptirish, ular muhofazasi uchun tayyorgarlik, davlat ramzlarining millat, xalq ornomusi, shahni, qadr-qimmatini ekanligini anglash;
- ijtimoiy-siyosiy onglik ijtimoiy faollik, davlatning ichki va xalqaro siyosati qoidalarini tushunish va idrok qilish;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlariga sodiqlikni tarbiyalash;
- huquq mehyorlarining buzilishiga nisbatan murosasiz kurashish kabilar kiradi.

O'quvchilarga fuqarolik tarbiyasini berish jarayonida davlat ramzlaridan foydalanish.

Davlatimiz ramzlari - bu Konstitutsiyada belgilangan bo'lib (5-modda), bayroq, tamg'a, madhiya hisoblanadi va ular O'zbekiston xalqlarining shon-sharafi, g'ururi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Davlat ramzlari muayyan millat, elat etnopsixologik xususiyatlari, qarashlari, orzu-umidlari, intilishlari hamda maqsadini, hududiy, siyosiy ijtimoiy birlik mohiyatini ajratishga xizmat qiluvchi tasviriy belgilar majmuuidoir. Muayyan davlatning bayrog'i, gerb (tamg'asi) hamda madhiyasi davlat ramzlari majmuini ifodalaydi.

Davlat ramzlari o'zlarida chuqur siyosiy va ijtimoiy mazmun ifoda etadi. Davlat ramzlarida (bayroq, gerb) tasvirlangan ranglar, tasvirlar shu xalq, millat o'tmishi, qadim anhanalari, xalqning turmush tarzi, orzu-umidlari, maqsadi, g'oyalarini ifodalashga xizmat etadi. Davlat madhiyasida esa xalq, millat, davlat va jamiyatning yagona maqsadi, birligi, g'oyalari tarannum etiladi.

Davlat ramzlari davlat mavjudligini ko'rsatuvchi belgilardan sanaladi. Ramzlar - bu shartli belgilar bo'lib, ular qadim davrlardayoq turli xalqlarda u yoki bu hodisa, olam, mavjudot, odamlar tasvirini, ularning qarashlarini ifodalagan.

Respublikamizda davlat mustaqilligining ehlon qilinishi bilan mustaqillikni aks ettiruvchi ramzlarni ishlab chiqishni taqozo etdi. Shu munosabat bilan 1990-yil 30-martda «O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida»gi Qaror qabul qilindi va bu bora-da ishlar amalga oshirildi.

Madhiya - bu biror shaxs, voqea yoki narsaning maqtoviga bag‘ishlangan badiiy asar. Bahzan asarning bir qismi ham madhiyadan iborat bo‘lishi mumkin.

Arab, fors va o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixidagi anhanalarga ko‘ra, har bir uirik epik asarning bosh qismida maxsus maqtovlar berilgan. Ular odatda, asar yozilgan paytdagi hukmdor va qahramonlarga bag‘ishlangan. SHuningdek, shoirlarga o‘zlaridan avval o‘tgan buyuk shaxslarni maqtash, yahni maqtovlar bag‘ishlash ham odat bo‘lgan.

Davlat madhiyasi - har bir davlatning bosh va asosiy qo‘shig‘i hisoblanadi. Unda muayyan davlat, unda yashaydigan xalqning ruhiyati, o‘ziga xos tabiati, orzu-umidlari tarannum etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi - bu O‘zbekiston Respublikasining Davlat suverenitetining ramzi bo‘lib, Davlat madhiyasiga zo‘r ehtirom bilan qarash mamlakat har bir fuqarosining vatanparvarlik burchidir.

Madhiya musiqa va sher vositasida ifodalanadi hamda davlat organlari tomonidan o‘tkaziladigan tantanali marosimlar va boshqa tadbirlar vaqtida ijro etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasida jonajon mamlakatimiz O‘zbekistonning asosiy jihatlari, ajdodlarimizning mardona ruhi, bag‘ri kengligi, mustahkam imoni jo‘shqin misralarda kuylanadi. Yurtimizning kelajagiga umid va ishonch uyg‘otadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov ijodining gultoji, eng sara badiiyat namunasi bo‘lib, O‘zbekiston Oliy Majlisining 1992-yil 8-dekabrda bo‘lib o‘tgan XII sessiyasida O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi sifatida mahqullandi. Ushbu madhiyaga taniqli bas-takor Mutal Burhonov musiqa bastalagan. «Davlat madhiyasi haqi-da»gi Qonun 1992-yil 10-dekabrda qabul qilindi.

Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot,
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon,
Yashnagay to abad ilmu fan, ijod,
SHuhrating porlasin toki bor jahoni Naqorat:

Oltin bu vodiylar - jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon.
Olamni mahliyo ay lagan diyor!

Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas imoni,
Erkin yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,
Haqsevar ona yurt, mangu bo‘l obod!

Naqorat:

Oltin bu vodiylar-jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon.
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Davlat madhiyasi kabi uning bayrog‘i, gerbi (tamg‘asi) ham jahon miqyosida mavjud bo‘lgan muayyan davlatning o‘z xalqi, millati nomidan faoliyat yuritish imkoniyatiga ega ekanligini anglatadi.

Davlat bayrog‘i - bu davlat ramzlaridan biri bo‘lib, uni boshqa mamlakatlardan farqlovchi belgidir. U mamlakat hududida ilgari mavjud bo‘lgan g‘oyat qudratli saltanatlar bayrog‘iga xos bo‘lgan eng yaxshi anhanalarni davom yettirgan holda respublika tabiati xususiyatlarini, xalqining milliy va madaniy sohalaridagi o‘zligini aks ettiradi. Bayroq maxsus qonun bilan tasdiqlanadi va qaerda, qachon o‘rnatilib qo‘yilishi belgilanadi. Bayroqning ko‘rinishi, rangi, undagi belgilarning chuqur mah-nosi bor.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining bayrog‘i uch xil rangda bo‘lib, ko‘k, oq, yashil ranglardoir. Oq rang qizil rang bilan hoshiyalangan. Respublika bayrog‘ida yurt tarixi, o‘zbek xalqining milliy ruhi va yurt tabiati jamoli aks ettirilgan. Bayroqning chap tomoni yuqori qismida yarim oy va 12 yulduz tasviri tlishirilgan. Ko‘k rang va yulduzlar tasviri tiniq, moviy osmon belgisidoir. O‘rtada oq rang esa yorug‘ kun va pokiza oqko‘ngilli xalqimizning tilagi, qizil hoshiyalar esa tomirlarda oqayotgan qon kabi tiriklik va hayot ramzidir. Yashil rang esa qadim-qadimdan tabiat belgisi (yangi oy) tasvirining berilishi mustaqillik sharoitida hayot kechirish xalqimiz uchun o‘ziga xos yangi davr ekanligi ifodasidoir, yulduzlar sonining 12 taligi yil oylariga, muchal hisobiga nisbatidoir. Umuman, yulduzlar qadimdan abadiyat timsoli sifatida qadrlanib kelingan, XVIII asrdan boshlab esa buyuk intilish hamda ulug‘ g‘oyalarning ifodasi sifatida talqin etila boshlagan.

Milliy bayrog‘imizning huquqiy maqomi — O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni talabalarga yetkazish mustaqillik darslari soatlarida, shuningdek, tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazish chog‘ida amalga oshiriladi.

Bayroq mamlakatimizning o‘tmishi, buguni va kelajagining yorqin ramzidir. «O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i to‘g‘risida»gi Qonun 1991 - yil 18-noyabrda qabul qilingan. Bayroq Davlat mustaqilligining belgisigina bo‘lmay, u respublikamiz nomini xalqaro maydonda ramziy ifoda etish uchun xizmat qiladi. Davlat bayrog‘i Birinchi Prezidentlik apparati, Respublika Oliy Majlisi va hukumati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va hukumati, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari, O‘zbekistonning doimiy vakolatxonalari binolarida doim ko‘tariladi.

Davlat razmlarining yana biri — bu Davlat gerbidir. O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining qabul qilinishi «O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to‘g‘risida»gi Qonun g‘oyalari hamda xalqimizning ming yillik boy tajribasi asosida amalga oshirildi.

Davlat gerbi — bu Davlat ramzlaridan biri, davlatning tamg‘asi bo‘lib,

muhrlarda, turli hujjat nusxalarida, pul birligida aks ettirila-di. Uning ko‘rinishi maxsus qonun bilan belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbida tog‘lar, daryolar, bug‘-doy boshqalari (chap tomonda), ochilgan g‘o‘za shoxlarining (o‘ng tomonda) gulchambar holidagi tasviri aks ettirilgan. Gerb o‘rtasida serquyosh yurt ramzi bo‘lgan quyosh o‘zining zarrin nurlarini sochib turibdi. Gerbning yuqori qismida respublika mustaqilligining ramzi sifatida sakkiz burchak tasvirlangan bo‘lib, uning ichida yarim oy (yangi oy - yangi tuzum) va yulduzlar (abadiyat timsoli) joylashtirilgan. Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi bo‘lgan kumush rangli Humo qlishi qanotlarini yozib turgan holda tasvirlangan. Humo qlishi insonga baxt keltiruvchi, uni turli ofatlardan himoya qiluvchi, mehribon jonzot sifatida o‘zbek xalq og‘zaki ijodida keng talqin etilib kelingan. Gerbning pastki markaziy qismida Davlat bayrog‘i ranglaridagi chambar jiyak o‘zagida «O‘zbekiston» so‘zi yozilgan. Gerbda ifoda etilgan sakkiz qirrali burchak ijtimoiy hayotning barcha jihatlarini mahlum bir g‘oya, kuch birlashtiradi, degan mahnoni anglatishga xizmat qiladi. Paxta va bug‘doy boshqalarining tasviri rizqu ro‘zimiz nishonasidoir.

Davlat gerbining huquqiy maqomi ham maxsus qonun bilan qo‘riqlanadi. Davlat gerbidan foydalanish huquqi maxsus Davlat hoki-miyati va boshqaruvi idoralariga berilgan bo‘lib, ularga O‘zbekiston Birinchi Prezidenti Devoni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Davlat hokimiyati va boshqaruvning mahalliy idoralari, vazirliklar, Davlat qo‘mitalari, barcha toifadagi sudlar, prokuratura, diplomatik va kon-sullik vakolatxonalari kiradi.

Davlat gerbi tasviri tlishirilgan muhrlar, hujjatlarning blankalari, ulardan foydalanish va saqlash, yo‘qotish tartibi Respublika Vazirlar Mahkamasining maxsus hujjati asosida tartibga solinadi.

Davlat gerbi, shuningdek, fuqarolik pasportida, korxonalar, tashkilot, muassasalarning ish qog‘ozlarda o‘z ifodasini topgan. Inson shaxs sifatida o‘z shahni, or-nomusini qanchalik muqaddas bilsa, fuqaro sifatida Davlat ramzlarini shu qadar muqaddas bilishi, muhofaza qilish uchun o‘zida mashullik tuyg‘usini qaror toptirishi lozim. Fuqarolik tarbiyasini yo‘lga qo‘yish jarayonida Davlat ramzlaridan noqonuniy hamda axloqsiz ravishda foydalanayotgan kimsalarga nisbatan murosasiz bo‘lish maqsadga muvofiqdir.

Xuquqiy tarbiya. Yosh avlodning xuquqiy madaniyati va ongini shakllantirish.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish va mustahkamlash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, uning qonuniy zaminlari, huquqiy asoslarini takomillashtirish fuqarolarning siyosiyhuquqiy faolligiga, onglilik, bilimdonlik darajasiga uzviy aloqadorlikdadoir.

Buning uchun O‘zbekistonning har bir fuqarosi, eng avvalo, hayotimizning asosiy qonuni - O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, uning har bir moddasini puxta o‘rganishi lozim.

Boy o‘tmish merosimizga murojaat qilganimizda milliy-ma’naviy qadriyatlarga asoslanish zarur. Bunga sabab, talaba-yoshlarda bu orqali milliy g‘ururni yuksaltirish samarali kechadi va bu yoshlar fuqarolik madaniyatining

yuksalishiga olib keladi. Talaba-yoshlar fuqarolik ma'naviyatini yuksaltirish bo'yicha milliy-ma'naviy qadriyatlardan foydalanishni quyidagi ketma-ketlikda olib borgan mahqul:

• Qomusiy olimlar hayoti va ijodi milliy g'ururni yuksaltirishda muhim asos bo'yib, yoshlarning fuqarolik burchiga sadoqatni yuk-saltiradi. Bunda ko'proq al-Beruniy, al-Farg'oniy, al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Ismoil Jurjoniy, Qozizoda Rumi, al-Koshiy, Ali Qushchi kabi buyuk siymolar haqidagi ma'lumotlardan foydalanish maqsadga muvofiq;

Fuqarolik tarbiyasinegizidaxalqo'tmishi,tarixinio'rganish, milliy qadriyatlar mohiyatini anglashga yo'naltirilgan faoliyatga talaba-yoshlarni jalb etish pedagogika fani, tarbiyada ko'zlangan maqsadga eltuvchi yo'l sanaladi.

Talaba-yoshlarni haqiqiy fuqaro etib tarbiyalash, ularda fuqarolik tuyg'usini qaror toptirish, fidoyi fuqaro sifatida shakllantirish bilan yakunlanadi. Talaba-yoshlarda fuqarolik hissi va e'tiqodini tarbiya-lamay turib, ularda axloqiy, xulqiy odatlarni, malakalarni hosil qilib bo'lmaydi.

Fuqarolik tuyg'usini qaror toptirish murakkab jarayon. Shu sababli, ushbu sohadagi tarbiyaviy ishlarimizda talaba-yoshlar ongiga fuqarolik tuyg'usini shakllantirishga mos milliy-ma'naviy qadriyat-larni singdoirish lozim bo'ladi. Fuqarolik tarbiyasini tashkil etish uchun mahlum shart-sharoitlar taqozo etiladi.

Bular:

1. Oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayoni yuksak darajada uyushtirilishi kerak;
2. Fuqarolik tarbiyasi jarayonining muvaffaqiyati talabalar va o'qituvchilar jamoasining saviyasiga va undagi fuqarolik tuyg'usining nechog'liq yuksakligiga bog'liq bo'ladi;
3. Oila, maktab va mahallalarda o'zaro hamkorlik va hamjihatlik-ning yuzaga kelishi fuqarolik tarbiyasi muvaffaqiyatini tahminlaydi;
4. Talaba-yoshlarning axloqiy va huquqiy mehyorlarga hamda umumiy tartibga rioya qilishga o'rgatish va boshqalardoir.

Fuqarolik tarbiyasining tashkil etilishi natijasida kamol topgan fuqaro o'zida quyidagi sifatlarni namoyon eta olishi lozim:

- fuqarolik burch va mashuliyatiga egalik (o'z vatani, xalqi, ota-onasi oldidagi qarzini his eta olishi);
- milliy g'urur, Vatanga sodiqlik, ma'naviy yetuklik va ma'rifatparvarlik tuyg'usiga ega bo'lish;
- davlat Konstitutsiyasi, davlat hokimiyati organlari, mamlakat Birinchi Prezidenti hamda davlat ramzlari (gerb, bayroq va madhiya)ga nisba-tan hurmatda bo'lish;
- fidoyilik, yahni Vatan tuyg'usi, yurt tinchligi, xalq farovonli-gi, mamlakat taqdiri va istiqboli uchun javobgarlik, mashullik hissi-ni shakllanganligi;
- ijtimoiy-huquqiy hamda axloqiy mehyorlarga nisbatan hurmat va itoatda bo'lish;
- mamlakat milliy va ma'naviy boyliklariga nisbatan hurmat bilan qarash va ularni asrash borasidagi fuqarolik burchi nimalardan iborat ekanligini anglash;
- milliy davlat tili, madaniyati va anhanalariga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lish va ularni asrab, boyitib takomillashtirib borish-da jonbozlik ko'rsatish;
- ijtimoiy faollik, mamlakat taqdiri, taraqqiyotiga bog'liq har qan-day xatti-

harakatda j onbozlik ko 'rsatish;

- demokratik tamoyillarga amal qilish va fuqarolar tengligi hamda ularning o'zaro munosabatlari mazmundorligiga e'tiborli bo'lish;
- fuqarolarning huquq va burchlarini hurmat qilish va bu boradagi davlat hujjatlarini chuqur o'rganishga erishish;
- huquqiy ong va fuqarolik madaniyatiga ega bo'lishda huquqiy ong hamda burchlar to'g'risida mukammal bilimga ega bo'lish;
- o'z faoliyati va xatti-harakati borasida to'g'riso'z, adolatli, muruvvatli, mehribon bo'lish va boshqalar.

Milliy mafkuraning mazmun-mohiyatida «asosiy maqsad - demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyat qurish», deb bel-gilangan. Mustaqil O'zbekistonda fuqarolarning huquqiy bilimi va madaniyati hamda ma'naviyatini yuksaltirish g'oyat muhim va dol-zarb muammodir.

Fuqarolarning huquqiy bilimi, madaniyati va ma'naviyati qancha yuksak bo'lsa, huquqiy davlat shuncha kuchli bo'ladi, mustaqilligimiz mustahkamlanib, barqarorlashib boraveradi. Qonuniylik va huquqiy tartibot tantana qilmasa, xalq ommasi qonun-qoidalar va huquqiy mehyorlarga, qonuniy aktlarga, eng muhimi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ishonch-ixtiyor, ixlos, iymon-e'tiqodli munosabatda bo'lish va rioya qilishiga odatlanmasa, huquqiy davlatni tasav-vur etib bo'lmaydi.

Huquqiy davlat ommaning siyosiy ongliligi, uyushqoqligi, siyosiy hushyor va ziyrakligi, hayotimizda ro'y berib turadigan har bir nar-sa va hodisaga ko'r-ko'rona emas, balki aql-idrok, bilim va tafakkur, fahm-farosatli yondashganligi bilan kuchli. Huquqiy bilim va madaniyat millat o'zligi va inson barkamolligining eng muhim omillaridan biridir.

Fuqarolarning barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun asosiy e'tiborni nimalarga qaratish lozimligi haqidagi vazifalar Oliy Majlisning 1997-yil 29-avgustda tasdiqlangan «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturida» belgilab berilgan.

Huquqiy madaniyat umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismidir. U umumiy madaniyatning shunchaki bir qismi emas, balki uning o'zagi, negizi, asosidir.

Huquqiy madaniyat deganda, har bir davlatning qonun asoslari, huquq mehyorlarining mavjudligi, fuqarolarning mavjud qonun-larni bilishi va o'z faoliyatida ularga rioya etishi - huquqiy va demok-ratik davlat barpo etishning muhim sharti haqida fuqarolik jami-yatida kishilarning yetuk ma'naviyati, ularning huquqiy burch va mashuliyatlari tushuniladi.

Huquqiy madaniyat huquqiy bilim hamda moddiy, ma'naviy, axloqiy va boshqa mafkuraviy omillar asosida shakllanadi va rivojlanib boradi. Huquqiy madaniyat fuqarolarning yetukligi va ongliligini ko'rsatuvchi mehyordir. Huquqiy bilimlarga ega bo'lgan va ularni amaliyotda tadbqiq eta oladigan kishi huquqiy bilimli va madaniyatli hisoblanadi.

Huquqiy bilimlar va madaniyatning yuzaga kelishi va rivojlanishi dinamik jarayondir. Har qanday bilim va ma'rifat singari huquqiy bilim va madaniyat

ham jamiyat taraqqiyotiga mos paydo bo'lgan talab va ehtiyojlar, mavjud shart-sharoit va imkoniyatlar asosida yuzaga keladi va rivojlanadi.

Bolalarning qalbi va vujudiga go'daklik paytidan boshlab odob-axloq, huquqiy qonun-qoidalar haqida ilk tasavvur va tushunchalarni singdairishda oilaning roli va ahamiyati katta.

Shuning uchun Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas sanalgan. «Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli an'analar: halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharm-u hayo, mehr-u oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo oilada shakllanadi», - degan edi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining besh yilligiga bag'ishlangan tabrik so'zida.

Bolalarda huquqiy tasavvur va tushunchalar asosini ilk bor ildiz ota boshlashida, farzandlar qalbini mehr-muhabbat, nafasat, ezgulik nuri bilan munavvar etishda odamiylik, halollik, olijanoblik, mehr-oqibat singari asl insoniy fazilatlar kamolotida ota-onaning, oilaning o'rni beqiyos.

Huquqiy bilimga ega bo'lish, huquqiy jihatdan tarbiyalangan-lik, huquqiy madaniyat, ma'rifat va ma'naviyat sohibi bo'lish, qonunlarni muqaddas hisoblab, ularga shak keltirmasdan faoliyat ko'rsatishga odatlantirish - O'zbekistonda har bir fuqaroning qalbiga chuqur singib ketgan.

Bilim olish huquqi — O'zbekiston fuqarolarining konstitutsiyaviy huquqlaridan hisoblanadi. Unga asosan, har kim bilim olish huqu-qiga ega. O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim olish bepul, yahni umu-miy ta'lim olish uchun haq to'lanmaydi. Umumiy ta'lim bo'yicha ma'lumotga ega bo'lgan har bir kishi o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olish huquqiga ega. Bu ta'lim belgilangan sinovdan o'tganlar uchun bepul, qolgan shaxslar pul to'lash bilan bilim olishni davom ettirishlari mumkin. Bilim olish huquqi umumiy maktablar, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurt-laridagi faoliyatlar orqali tahminlanadi. Bundan tashqari, aspirantura va doktoranturada ham bilim olish mumkin (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasi).

Konstitutsiyaviy huquq - har bir mamlakatning huquq tizimida-gi yetakchi huquq. Uning yetakchiligi shundaki, boshqa har qanday huquqlar tartibga solinadigan huquqlar tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning asosi Konstitutsiyaviy huquqda belgilanadi (masa-lan, bilim olish huquqi, mehnat huquqi, fuqarolik huquqi, mahmuriy huquq va h.k.). Konstitutsiyaviy huquq ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tuzilishning asoslarini, saylov tizimini, insonning asosiy huquq, erkinliklarini va burchlarini o'rnatuvchi, tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisidir.

Milliy teng huquqlilik - shaxsning huquqiy holati tamoyillaridan. Barcha fuqarolar, millatidan qathi nazar, qonun oldida, davlatni boshqarishda va barcha huquqlardan foydalanishda tengdir. Bu masa-lalarda hech bir millatga imtiyoz berilmaydi. Ozchilikni tashkil etuvchi millatlarning madaniyati, tili, urf-odatlarini hurmat qilinadi va ular-ning rivojlanishiga imkoniyat yaratiladi.

Milliy g'urur - xalqni xalq, millatni millat qilib ko'rsatadi. O'zbekiston mustaqilligi tufayli o'zbek xalqning milliy g'urur tuyg'usi jahon bo'ylab qad

ko'tardi. Jahon xalqlari mehnatkash, shon-shuhrati yuksak bo'lgan o'zbek xalqini tan oldi. O'zbekiston fuqarolarining hayoti, erki, shahni, qadr-qimmatini muqaddas sanalib, ular davlat tomonidan himoyalanganadi.

Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi — insonning asosiy konstitutsiyaviy shaxsiy huquqlaridan biri bo'lib, shaxsiy va oilaviy sirlarni qonun bilan himoya qilishni anglatadi. Dunyodagi eng yaxshi konstitutsiyalar shaxsning shaxsiy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarni uning roziligisiz to'plash, saqlash, foydalanish va tarqatishni tahqiqib, bu qoidani shaxsiy hayot daxlsizligining kafolati sifatida belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-27-moddalari shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini mustahkamlaydi.

Qonun - mamlakat miqyosida oliy yuridik kuchga ega bo'lgan hujjat. Qonun O'zbekistonda mamlakatning oliy vakillik organi Oliy Majlis tomonidan qabul qilinadi va Senat tomonidan tasdiqlanadi. Qonunlar umumxalq ovozi - referendum yo'li bilan muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun konstitutsiyaviy va oddiy qonunlar shaklida qabul qilinadi. Uning aniq jarayon va tartiblari belgilangan.

Huquq - ushbu so'zning bir necha mahnosi bo'lib, birinchidan, u davlat tomonidan bajarilishi majbur qilingan yurish-turish qoidalarini, xatti-harakatlar yig'indisi. Ikkinchidan, huquq tushunchasi fuqarolarga berilgan imkoniyat. Huquq konstitutsiyaviy va oddiy huquqlarga bo'linadi. Konstitutsiyaviy huquqlar konstitutsiyaviy normalar bilan, oddiy huquqlar oddiy qonunlar bilan belgilanadi. Uchinchidan, huquq o'z navbatida tarmoqlarga bo'linadi. Ular: konstitutsiyaviy huquq; mahmuriy huquq; fuqarolik huquqi; jinoyat huquqi va boshqalar. Ular alohida hujjatlar bilan mustahkamlanib qo'yiladi.

Huquqiy davlat- davlat tuzilishi va faoliyatining huquqqa asoslanganligi huquqiy davlatda quyidagi shartlar, albatta, bo'lishi shart: xalq hokimiyatining amalga oshishi; shaxsning huquq va erkinliklarining hech kim, shu jumladan, davlat tomonidan ham hech qanday holda buzilmasligi; konstitutsiya va qonunning ustunligi; hokimiyatning bo'linish tamoyiliga amal qilish; sudlarning mustaqilligi. Davlat faqat huquq yaratib qolmay, o'zi ham ana shu huquq normalariga amal qilishi huquqiy davlatning asosiy xususiyatidir.

Huquqiy madaniyat - fuqarolarning yetukligi va ongilligini ko'rsatuvchi mezon. Huquqiy madaniyat tushunchasi huquqning rivojlanish darajasi, aholining huquq haqidagi tushunchasi, qonunlarning ahvoli, huquqni amalga oshirish ishlarini tashkil etish darajasi, huquqning obro'yi singari unsurlardan tashkil topadi. Huquqiy madaniyatga huquq fanining rivojlanish darajasi, huquqni tashviqot qilishning qanday yo'lga qo'yilganligi, madaniyatning umumiy darajasi ta'sir qiladi. Huquqiy madaniyat huquqiy ongning amaliyoti, ya'ni huquqni qo'llash, amaliyotga tadbiiq etishdir. SHaxs qanchalik huquqiy bilimga ega bo'lmasin, qonun va boshqa qoidalarga amal qilmasa, jamiyat uchun katta zarardir.

Huquqiy madaniyat - har bir davlatning qonun asoslari, huquq meyorlarining mavjudligi, fuqarolarning mavjud qonunlarni bilishi va o'z faoliyatida ularga rioya etishi. Huquqiy va demokratik davlat barpo etishning

muhim sharti hamda fuqarolik jamiyatida kishilarning yetuk ma'naviyati, huquqiy burch va mas'uliyatlari tushuniladi.

Huquqiy mehyor (norma)lar - huquqni belgilovchi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar. Ular turli ko'rinish va shaklda namoyon bo'ladi. Huquqiy normalar konstitutsiyada, qonunlarda va boshqa mehyoriy (normativ) hujjatlarda bayon qilinadi.

Huquqiy ong - kishilarning huquqqa, qonunga odil sudlovga bo'lgan munosabatlarini ifodalaydigan qarashlar yig'indisi. U hurmatda bo'lish yoki huquqni mensimaslikka ta'sir qiladi. Kishilarning huquqiy ongi qanchalik kuchli boisa, bu huquq normalarining ixtiyoriy bajarilishiga olib keladi.

Huquqiy tarbiya jarayonida yoshlarning huquqiy ongi shakllanadi. Yoshlarni jamiyat talablariga davlatning qonun-qoidalariga, milliy urf-odatlar va qadriyatlarga chuqur hurmat-ehtiroimli bo'lishga o'rgatish huquqiy ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biridir. Darhaqiqat, huquq asoslarini, konstitutsiya va qonunlar mazmun-mohiyatini, yangi qonuniy hujjatlar, huquqiy mehyorlarni kishilarning, birinchi navbatda, yoshlarning ongi, qalbiga singdirishda hech bir narsa o'z ahamiyatiga ko'ra huquqiy ta'lim-tarbiyaga tenglasha olmaydi.

Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Fuqarolik tarbiyasining mazmun-mohiyati nimadan iborat?
2. Fuqarolik madaniyatini izohlab bering.
3. Fuqarolik mas'uliyatini tushuntirib bering.
4. Fuqarolikning asosiy tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
5. Fuqarolik tarbiyasining vazifalari nimalardan iborat?
6. Fuqarolarning burchlarini tushuntirib bering.
7. «Davlat ramzlari» deganda nimani tushunasiz?
8. Huquqiy madaniyatning mahnosiga izoh bering.
9. «Bilim olish huquqi» deganda nimani tushunasiz?
10. Huquqiy ong tushunchasini izohlab bering.

14 –MA'RUZA. MA'NAVIIY - AXLOQIIY TARBIYA.

Reja:

1. Axloqiy tarbiyaning mohiyati va mazmuni.
2. O'quvchilarning axloqiy tarbiyalashning shakl, metod va vositalari.
3. Oilada bola tarbiyalashning asosiy shartlari.
4. Tarbiyada maktab yetakchi bo'g'in ekanligi.
5. Oila, maktab jamoatchilik hamkorlikning zaruriyati.

Tayanch so'z va iboralar: Ma'naviyat, axloq, axloqiy tarbiya, oila tarbiyasi, maktab va jamoatchilik tarbiyasi, munosabat

1. Axloqiy tarbiyaning mohiyati va mazmuni.

Axloq - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, uning mohiyati, shaxs xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. SHu bois, axloq ijtimoiy xodisa sifatida jamiyat ma'naviy-ruxiy hayotida o'ziga xos muhim ahamiyatga ega. Muayyan millat qiyofasi, uning kishiliktaraqqiyotidagi o'zni belgilanayotgan jarayon-da mazkur tushuncha asosiy mezonlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

«Axloq» tushunchasi omma fikri asosida tartibga soluvchi faoliyat tarzida kishilik jamiyatining ilk bosqichida shakllangan. Qadimdan ijtimoiy-falsafiy, psixologik, pedagogik, tarixiy, badiiy, etnografik va madaniyatshunoslikka oid asarlarda ushbu tushuncha turli ko'lamda ishlatilib kelingan.

Axloq (arabcha xulq-atvor demakdir) - ijtimoiy ong shakllaridan biri, ijtimoiy tartib-qoida bo'lib, bu tartib-qoida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kishilarning xatti-harakatini tartibga solish vazifasini bajaradi. Axloq omma faoliyatini tartibga solishning boshqa shakllari (o'quv, ishlab chiqarish, xalq anhanalari) da o'z talablarining asoslanishi, amalga oshirilishi va omma fikri asosida tartibga solinishi bilan farq qiladi. Axloq talablari barchaga taalluqli, biroq hech kim-ning ko'rsatmasi, hech qanday maxsus buyruq asosida bajarilmaydigan, ixtiyoriy amalga oshiriladigan burch shakliga kiradi. Axloq talab-larining bajarilishi faqat ma'naviy ta'sir ko'rsatish shakllari doirasida yuz beradi.

Axloq shaxs taraqqiyotining yuqori bosqichi bo'lgan ma'naviy komillik asosini, poydevorini tashkil etadi.

Bir so'z bilan aytganda axloq - jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq-odob normalari majmuidir.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish ijtimoiy tarbiyaning muvaffaqiyatini tahminlovchi eng muhim omil sanaladi. Ma'naviy-axloqiy ta'lim va tarbiya o'zaro bog'liqlik, uzviylik, aloqadorlik hamda dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxs ma'naviy-axloqiy kamo-lotini shakllantirish asosi hisoblanadi. Ma'naviy-axloqiy ta'lim o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy munosabatlar mohiyati to'g'risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda ma'naviy-axloqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish ma'naviy-axloqiy ongi-ni shakllantirish jarayoni bo'lib, izchil, uzluksiz, tizimli tarzda tashkil etilishi lozim. Ma'naviy ta'sir Ma'rifiy ta'sir Axloq kategoriyalari **MUNOSABATLAR** O'quvchilarning Vatanga munosabati O'quvchilarning jamiyatga munosabati O'quvchilarning o'z oilasiga o'z maskaniga munosabati:

1.O'quvchilarning o'z maskaniga munosabati

2.O'quvchilarning bir-biriga munosabatiburch; vijdon; nomus; muhabbat;

3.Insonda axloqning shakllanishi;

4.Xatti-harakatlari, mehnat -odobi

5.Axloqiy tarbiya tizimini tashkil etuvchi omillar

6.Adolat; ezgulik; sadoqat; ideal; e'tiqod; baxt

O'quvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etish aniq maq-sadga yo'naltirilgan yaxlit pedagogik jarayon bo'lib, Ushbu jarayonda quyidagi pedagogik vazifalar hal qilinadi:

1. O'quvchilarga ma'naviy-axloqiy mehyorlar hamda axloqiy munosabatlar

mohiyati va ularning ijtimoiy jamiyat hayotidagi ahamiyati to'g'risida ma'lumot beriladi.

2. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, ma'naviy-axloqiy ongni qaror toptirish.

3. O'quvchilarda ijobiy mazmundagi ma'naviy-axloqiy sifatlar (bilimlilik, mehnatsevarlik, kamtarlik, mehr-muhabbat, vatanga, xalqqa muhabbat, ota-ona va kattalarga hurmat, insonparvarlik, saxovat, burchga sadoqat va hokazo)larni qaror toptirish.

4. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy mazmundagi xulq-atvor, xarakter va irodani shakllantirish.

5. O'quvchilar ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish. O'quvchilar ma'naviy-axloqiy sifatlarining qaror topishi tarixiy-obyektiv sharoitda shaxs tomonidan jamiyat taraqqiyoti, insonlar-ning o'zaro hamkorlik, aloqa doiralari kengayishi takomillashuviga ko'rsatiladigan ta'sirning ijobiy, mo'tadil holatda bo'lishini tahminlashda ko'rinadi. Ma'naviy-axloqiy sifatlarining qaror topishi quyidagi umumiy mazmun asosida ro'y beradi:

- o'quvchining ma'naviy-axloqiylik darajasi ijtimoiy munosabatlar jarayonida, uning jamiyat, atrof-muhit va tabiatga bo'lgan yonda-shuvida namoyon bo'ladi;

- o'quvchining ma'naviy-axloqiylik darajasi jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyoti darajasiga bog'liq;

- o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy kamoloti obektiv va sub-ektiv shart-sharoitlarning o'zaro uyg'unlashuvi asosida tashkil etiladigan uzluksiz, tizimli ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi natijasida vujudga keladi;

- o'quvchining ma'naviy-axloqiy kamoloti ijtimoiy munosabatlarning yo'lga qo'yilishida ijobiy natijalarga olib keladi.

O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini amalga oshirish quyidagi tamoyillarga muvofiq yo'lga qo'yiladi:

1. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ijtimoiy-g'oyaviy asosga ega ekanligi.

2. Ma'naviy-axloqiy ta'lim va tarbiyaning izchil, tizimli, uzluksiz tashkil etilishi.

3. Ma'naviy-axloqiy ta'lim-tarbiya g'oyalari aniq maqsadga yo'naltirilganligi.

4. O'quvchilar ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishga har tomonlama (kompleks) yondashuv.

5. O'quvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etishda tarixiy voristik hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlar, ularda ilgari surilgan g'oyalarga tayanib ish ko'rish.

6. Ijtimoiy faoliyatning insonparvarlik va demokratik xususiyat-larga ega ekanligi.

7. Ma'naviy-axloqiy ong va faoliyat birligi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish - faoliyat jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayon nafaqat ijobiy xislatlarni shakllantirishni, balki salbiy sifat-larni bartaraf etishni, har qanday axloqsiz xatti-harakatlarga qarshi kurashga o'quvchilarni undashni ham ko'zda tutadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida o'quvchi (tarbiyalanuvchi)ning o'z-o'zini tarbiyalashni kuchaytirishi katta ahamiyatga ega.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida barkamol shaxs tarbiyalanib voyaga yetkaziladi.

2. O'quvchilarning axloqiy tarbiyalashning shakl, metod va vositalari.

SHaxsning ma'naviy-axloqiy madaniyatining shakllantirishga qo'yiladigan hozirgi zamon talablarini amalga oshirish muammolari dinamik xarakterga ega bo'lib, ijtimoiy tuzum taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Bu muammoni falsafa, etnografiya, etika, estetika fanlari tadqiq etadi.

«Madaniyat» - arabcha so'z bo'lib, u jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy hayotda va ma'naviyatda qo'lga kiritilgan yutuqlari majmuu'idir.

Demak, madaniyat- inson faoliyati mahsuli natijasi sifatida, insonlarning moddiy va ma'naviy faoliyatlari jarayonida vujudga keladi.

Moddiy va ma'naviy madaniyatning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'siri natijasida aqlan yetuk, axloqan yaxlit shakllangan shaxs tarkibi topadi.

Inson biron moddiy boylik yaratmay ekan, avvalo, uning qurilishi, ishlab chiqarish jarayoni va ta'lim-tarbiyaviy natijasining amaliy ahamiyatini oldindan ko'ra biladi.

Shaxs sifatida shakllanadigan o'quvchining ma'naviy kamolotida axloqiy madaniyatning ahamiyati katta. Axloqiy madaniyatga axloqiy bilimlar, malaka va ko'nikmalar, axloq qoidalari yordamida o'quvchining xulq-atvori, xatti-harakatlarini boshqarish tizimi kiradi. Axloqiy madaniyat o'quvchining ko'p qirrali faoliyat davomida shakllanib va takomillashib boradi.

Axloqiy madaniyatning ko'rinishlari, uning qirralari va namoyon bo'lish shakllari xilma-xildir. Insonparvarlik, halollik, tashabbuskorlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, erksevarlik, faollik, ijodkorlik, poklik va shu kabi qator muhim tushunchalar axloqiy madaniyat tushunchalaridir. Bu xislatlar faoliyat jarayonida ma'naviy madaniyatning boshqa madaniyat qirralari bilan birgalikda o'quvchi ongi va xulqiga ta'sir etadi.

Ma'naviy-axloqiy mazmundagi ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish ta'lim muassasasi pedagogik jamoa umumiy ishining tarkibiy qismi bo'lib, ularni o'tkazishda maktab rahbariyati, kasaba uyushmasi a'zolari, ota-onalar qo'mitasi, o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish organlari, shuningdek, jamoa tashkilotlari, xodimlari ham ishtirok etadi.

Ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyani yo'lga qo'yishning quyidagi turlari alohida ahamiyatga egadir: suhbatlar, uchrashuvlar, ertaliklar, haftaliklar, oyliklar, ko'riklar, konferensiya, bahs-munozara va boshqalar.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishda tarbiyaviy tadbirlar umumiy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etishda o'z o'rnini va ahamiyatiga ega.

Ma'naviy-axloqiy mazmundagi tadbirlarni o'tkazish ushbu tarbiyani tashkil etishdagi ko'zlangan asosiy maqsadga xizmat qilmog'i kerak.

O'zida yuksak fazilat ma'naviy-axloqiy poklik va insoniy kamolot kabi xislatlarni bir-biri bilan uyg'unlashtiradigan shaxs tarbiyasi ta'lim-tarbiya tizimining bosh masalasi hisoblanadi.

Bugungi yoshlarda zamonamizning eng mashhur (ijobiy mahnod) kishilarga o'xshashga harakat qilishlari, namunaning tarbiyaviy kuchi o'quvchilarning (bolalarning) taqlid qilishga moyilligiga asoslangandir. Yoshlar ko'pincha ota-onalariga, mahim bir ijobiy yutuqlarga erishgan qarindoshlariga,

o'qituvchilariga va mashhur qahramonlar-ga taqlid qiladilar.

Turli yoshdagi bolalarga taqlid qilishiga moyillik turlicha bo'ladi.

Bolalar ulg'ayib borgan sari tevarak-atrofidagi katta yoshdagi kishilarning xatti-harakatlariga tobora tanqidiy nazar bilan qaraydigan bo'ladi. Shu yoshdagi bolalar o'z nuqtai nazarlaridan taqlid qilishga arzigulik deb bilgan kishilarni o'zlari uchun namuna deb biladilar va ularga e'tiqod qo'yadilar.

Ma'lumki, tarbiya vositasi bo'lgan namuna mohiyat e'tibori bilan e'tiqodga yaqin turadi. E'tiqod tushunchasi yoshlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda muhim o'rin tutadi. Bunda tarbiyachi o'quvchilarning shaxsiy tajribasiga tayanib ularning ongiga, hissi-yotlariga ta'sir qiladi. Shu yo'l bilan yoshlarda ijobiy axloqiy sifat - lar tarkib topa boradi hamda mustahkamlanadi ulardagi salbiy xulq-odatlari yo'qotiladi.

O'quvchilarda e'tiqod hosil qilish jarayonida etikaga oid tushunchalar ham tarkib topib boradi.

E'tiqod tarbiyasini amalga oshirishda har bir o'quvchining qiziqish doirasini, maylini, fikr-o'yini diqqat bilan o'rganish talab etiladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya yoshlarning barkamol bo'lib shakllanishida mustahkam asosdir.

Ta'lim oluvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida o'ziga xos metodlar, shakllar va vositalar mavjud bo'yib, ular ushbu sohadagi faoliyat olib borishning samarasini belgilashda metodik asos bo'ladi. Yoshlar orasida olib boriladigan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning quyidagi-cha metod, shakl va vositalari bor. Ular haqida qisqacha ma'lumot beramiz.

Ma'naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlar: talabaniing muomala madaniyati; talabaniing ma'naviy qiyofasiga qo'yiladigan talablar; talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish - dolzarb vazifa; ma'naviyat tushunchasi; Vatan tuyg'usi - muqaddas tuyg'u; talabaniing tashqi ko'rinishi va uning ichki dunyosi; kitoblar - bilim va ma'naviyat manbai; talabalarda badiiy tafakkurni shakllantirish; mustaqillik nashidalari; yoshlar intellektual salohiyati - kelajak muvaffaqiyati; fidokor yoshlar qanday bo'lishi kerak?; ajdodlar merosi - ma'naviyatimiz sarchashmalari; zamonaviy urf-odatlarda madaniyat va ma'naviyat; Amir Temur yoshlar kamoloti haqida; Vatan qahramonlari va ularning jasoratlari; mustaqil O'zbekiston jahon nigohida; O'zbekistonning tashqi siyosati va uning ustuvor yo'nalishlari; yuksak madaniyat va ma'naviyat-jamiyat taraqqiyotining poydevori; tarix - millat ma'naviyatining negizi kabi darslarni uyushtirish. Bunda turli fanlar mavzularini o'tishda o'sha fanda tarbiyaga oid lavha va epizodlarni namoyish qilish amalga oshiriladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlar alohida ahamiyatga ega. Bunday suhbatlar mazmun jihatidan rang-barang bo'lishi mumkin.

Hikoya;

Tushuntirish;

Quyidagi mavzu va yo'nalishlarda mahruza va seminarlar tashkil etish va uyushtirish: ma'naviyatimizning buyuk timsollari; jadidchilik harakati namoyondalari; ma'naviy tarbiyada ommaviy axborot vositalarining roli va o'rni;

mehr va muruvvat - ulug' insoniy qadriyat; axloq kategoriyalari va barkamol avlod tarbiyasi; ezgulik va muqaddas kitoblar; ma'naviy-axloqiy tarbiya - kasbiy barkamollik asosidir va shu kabilar;

Namuna ko'rsatish. Bunda ustoz va murabbiylarning shaxsiy ibrat-namunasi e'tiborga olinadi hamda «ibrat-namuna - hayot dorilfununi» ruknida faoliyatni doimo yuritib turish lozim bo'ladi va bu jarayonni talabalar o'qiydigan o'quv muassasalaridagi ustoz-murabbiylar hayoti va faoliyatidan boshlagan ma'qul;

Ijobiy shaxsiy namuna - talabalar shaxsini shakllantirishda alohida o'rin egallashi mumkin bo'lgan metod bo'lib, shaxsga shaxs orqali ta'sir etishning eng obektiv yo'li hisoblanadi. Yoshlar balog'at yoshiga yetib, mustaqil hayotni boshlagunlariga qadar bilish, o'rganish jarayonida o'qituvchi-tarbiyachiga, otanonaga, qo'ni-qo'shniga, doston, drama yoki adabiy asarlar qahramonlariga taqlid qilishadi. Talabalar o'zlari yoqtiradigan odamga taqlid qilish natijasida o'zlarini mag'rur tutadilar, xatti-harakatlari xuddi kattalarnikidek tuyuladi. Ya.N.Komenskiyning fikricha, «Bola o'qishni o'rganishdan oldin taqlid qilishni o'rganadi». Taqlid qilish orqali yoshlarning o'z tajribasi qo'shilib ketib, ularda yangi shaxsiy xislatlar paydo bo'la boshlaydi.

Umuman, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi odobi, ahlo o'qiydigan talabalarni boshqalarga namuna qilib ko'rsatishi orqali ham tala-balarning tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin. Biroq, namuna qilib ko'rsatuvchi talabaning shaxsini haddan ziyod maqtamaslik va o'zgalarning shaxsiyatiga tegmaslikka alohida e'tibor berishi lozim. Kishi ijobiy xislat va fazilatlari insonning olijanoblighi ekanligiga ishontirish.

Ishontirish tarbiya metodi - talabalar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishdagi asosiy metodlaridan biri hisoblanadi. Ishontirish metodida o'qituvchi talabalar ongiga, ruhiga, oriyatiga, irodasi-ga ta'sir etish yo'li bilan ularning xarakteridagi axloqiy intellektual va boshqa ijobiy xislatlarini shakllantiradi, illatlarni kamaytiradi. Salbiy xislatlardan saqlaydi. Ishontirish shakllanayotgan shaxsga umuminso-niy qadriyatlarga, milliy udum va anhanalarga, falsafiy dunyoqarash-ga asoslanib, milliy mafkuraning asl mohiyatini chuqur tushuntirishga tayanadigan metod hisoblanadi.

Bahs-munozaralar uyushtirish. Bunda qutlug' sanalarni nishonlash bo'yicha, allomalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlari bo'yicha, kitob va kitob xosiyati haqida; kasb va hunar haqida; hamkorlik - taraqqiyot omili ekanligi xususida; «zukkolik va bilimdonlik-aql oynasi» ekanligi bo'yicha; giyohvandlik, terrorchilik va ularning barkamol avlod tarbiyasiga ta'sirlari to'g'risida, ma'naviy . yetuk va ma'naviy qashshoq insonlarning jamiyatdagi o'rni haqida; «mustaqillik va ilm-fan»; «mustaqillik va ta'lim-tarbiya», «mustaqil-lik va imkoniyat hamda mashuliyat» ruknlaridagi jarayonlar; halol-lik va fidoyilik va h.k. shu kabilar orqali tarbiyaviy tadbirlar amal-ga oshiriladi hamda bahs-munozarani boshqaruvchi mashg'ulotning ma'naviy-axloqiy jihati bo'yicha xulosalarni bayon qiladi.

Talaba-yoshlar ma'naviy-axloqiy kamolotini tahminlashda muno-zaralar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy-axloqiy mavzu-lardagi munozaralar talabalarda muayyan holat, hodisalarga nisba-tan to'g'ri baho berishga, bu borada

fikr yuritishga o'rgatish hamda e'tiqodni shakllantirishga xizmat qiladi. Munozara o'y-fikrlarni tar-tibga soladi, talabalarni mustaqil fikrlashga, bahs yuritishni tashkil etishga, o'rtog'ini tinglashga, o'z fikrini ilgari surish va uni obraz-li tarzda himoya qilishga, ayni chog'da o'z xatolarini tan olishga o'rgatadi.

Uchrashuvlar. Bunda quyidagi holatlarda tarbiyaviy tadbirlar o'tkazish maqsadga muvofiq: O'zbekiston Respublikasining mad-hiyasiga bag'ishlab «Adolat mezoni - yetuklik belgisi» mavzusida uchrashuv; «14-yanvar - Vatan himoyachilari kuni» munosabati bilan «Vatan - sajdagoh kabi muqaddasdoir» mavzusida O'zbekiston qurolli kuchlarining yetuk mutaxassislari bilan uchrashuv; «1-mart - giyohvandlik va giyohvand moddalar bilan savdo qilishga qarshi kurash kuni» bilan bog'liq uchrashuvlar; «1-oktabr-Xalqaro qariyalar kuni» va «1-oktabr - O'qituvchilar va murabbiylar kuni»ga oid uchrashuvlar; «5-oktabr - Xalqaro o'qituvchilar kuni» va «5-oktabr - Xalqaro shifokorlar kuni»ga bogliq uchrashuvlar; «24-oktabr - Xalqaro BMT kuni»ga oid uchrashuvlar; «4-noyabr - YuNESKO tashkil topgan kun»ga oid uchrashuvlar va hokazo.

Matbuot konferensiyasi.

Tanlovlar o'tkazish. Bunda ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid tadbirlar amalga oshiriladi va quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi: krossvord yechish bo'yicha; rebus tuzish bo'yicha; boshqotirmalar tayyorlash bo'yicha; «Tafakkuringizni sinab ko'ring» va «Intellektual ring» o'yinlari bo'yicha; «Bilimlar o'chog'i» va «Oltin toj» o'yinlari asosida; «SHaxs kamoloti o'quvi» va «Yangi fikr» to'garaklari mash-g'ulotlari asosida va hokazo.

Sahnaviy darslar o'tkazish.

Matbuot materiallari.

O'quv va yordamchi adabiyotlar bilan ishlash.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid multimediali tarbiya texnologiyalari. Bunda milliy g'oyani o'rganishga tayyorlangan axbo-rotlashtirilgan ta'lim texnologiyasi, milliy-ma'naviy qadriyatlarini o'rganishga oid «Qadriyatlar» nomli ko'makchili kompyuterli tizim, bunyodkor g'oyalarni o'rganishga oid «Bunyodkor» nomli axborot-lashtirilgan ta'lim texnologiyasi, talabalar dunyoqarashini yuksaltirishga oid «intellekt» nomli kompyuterli tizim, ma'naviy-axloqiy tarbiya berishni optimallashtirishga oid «Axloq» mavzusidagi axborotlashtirilgan intellektual tizim va shu kabilarga e'tibor qaratiladi.

Ma'naviy-axloqiy xulq, bu boradagi hayotiy tajribalarni hosil qilishga ko'maklashuvchi metodlar:

Rasmiy kasbiy o'yinlar. Bunda ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid ma'lumotlar to'planadi va ayniqsa, buyuk allomalarning faoliyati hamda qarashlari, asarlari asosidagi axloq kategoriyalari va ularning mazmun-mohiyatini ochib berishga oid o'yinlarni («Aql-zakovat», «Oltin toj», «O'yla, izla, top», «Yangi fikr», «Pedagog kim», «Tarbiyachilarmi yoki murabbiy» va shu kabi o'yinlarni uyushtirish. Ishchanlik o'yinlari. Bunda «Aqli odam bo'lish yaxshimi yoki dono», «Olim kimu fozil kim?» va hokazo ko'rinishdagi o'yinlar orqali talabalarga axloqiy tarbiya berish amalga oshiriladi.

«Aqliy hujum». Bunda talabalar ongida ezgulikni va adolatni shakllantirishga oid trening darslarini tashkil etish nazarda tutiladi.

Fikr va g'oyalarni tizimlashtirish. Bunda fikrlar va g'oyalar kurashi asosida jaholatga qarshi kurashda ma'rifatga va ma'naviyatga tayanish lozimligi ta'kidlanadi.

Bahs-munozara. Bunda «Oddiy haqiqatlar», «Siz intellektual salohiyatlimisiz?», «Barkamol avlod kim?», «Kamil inson kim?», «Donishmandlik qanday shaxslarga xos?» va shu kabi mavzular uyushtiriladi. Ularda talaba-yoshlarning axloq kategoriyalari haqidagi tasavvurlarini kengaytirish nazarda tutiladi.

Musobaqa. Bunda insonning individdan shaxs darajasiga yuksalishi, aqli odamning dono darajasigacha yuksalishi va hokazo insonning donishmand darajasigacha aqliy kamoloti bosqichlariga oid guruhlar orasidagi musobaqalar tashkil etiladi. Ulardan ko'zlangan maqsad talabalar ongida ma'naviy yetuk shaxs modelini yaratishdan iborat bo'ladi.

Devoriy gazeta. Bunda beriladigan ma'lumotlar talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga oid materiallardan iborat bo'ladi va ular iloji boricha darslik va o'quv qo'llanmalaridagi materiallarni boyitishga qaratilgan bo'lmog'i lozim.

Ma'naviy-axloqiy mavzularga oid albom va jurnal tayyorlash. Bunda ma'naviyatimiz buyuk timsollarining muayyan bir kishiga yoki bir yo'nalishdagi ulug' insonlar fikr, qarash, g'oya va tah limotlariga asoslangan holda jurnal va albomlar tayyorlash e'tiborga olinadi.

Axloqiy-muammoli vaziyatlar tahlili. Bunda bunyodkor va vayronkor g'oyalarning odamga, oilaga, jamoaga va davlatga turli xil ta'sirlari to'g'risidagi muammoli vaziyatlar talabalar ishtirokida tahlil etiladi va uning natijasida hosil bo'ladigan xulosalarning yoshlarga milliy-ma'naviy tarbiya berishdagi ahamiyati ham o'rganiladi.

Demak, ma'naviy-axloqiy tarbiya metodlari va vositalari ham da ulardan maqsadga muvofiq foydalanish barkamol avlodni shakllantirishda mustahkam asoslardan biri hisoblanadi.

Axloqiy tarbiya berish yo'llari

Axloqiy tarbiyaning mazmuni, avvalo, talabalarning amaliy faoliyatlarida, o'qish, mehnat, jamoatchilik ishlarida, ularning munosabatlari xarakterida, o'zaro ta'sir ko'rsatish usullari, xulq-atvor mehyorlarini o'zlashtirishlarida namoyon bo'ladi.

Axloqiy tarbiya tarbiyalanuvchining yoshi va uning to'g'ri yo'nalish olishi uchun hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan muhitni (oilaga, o'rtoqlar va do'stlar muhiti) ham hisobga olganda shaxsning butun hayotiy faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Axloqiy tarbiyaning yo'l va usullari talabalarga axloqiy saboq berish kabi maxsus ishni tashkil qilishda alohida xususiyatga ega. Axloqiy tasavurlar, qarash, mulohaza, baho berish kabi tushunchalarni shakllantirishga va shu asosida axloqiy e'tiqodni yuksaltirishga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni:

-talabalarni o'zlarining axloqiy tajribalarini mushohada qilishlari va boyitishlariga yordam beradi;

- turli manbaalarda axloq to'g'risida olingan bilimlarni sinaydi;

- shaxsning o'zini axloqiy tarbiyalashga zamin yaratadi.

Axloqiy bilim berishni tashkil qilishda ta'lim oluvchilarning yosh

xususiyatlarini, ularning shaxsiy axloqiy tajribalarini, axloqiy me'yorlar to'g'risidagi xabardorlik darajasini, axloq sohasidagi o'zlashtirgan bilimlarning axloqiy talablari bilan munosabatini hisobga olish zarur. Axloqiy bilim, asosan axloq to'g'risidagi suhbatlar, ma'ruzalar mavzui, kechalar, turli kasb namoyondalari bilan uchra-shuvlar, talabalar konferensiyalari va boshqa vositalar bilan amalga oshiriladi. O'quvchilarning axloqiy tarbiyalashning shakl, metod va vositalari.

Shaxsning ma'naviy-axloqiy madaniyatining shakllantirishga qo'yiladigan hozirgi zamon talablarini amalga oshirish muammolari dinamik xarakterga ega bo'lib, ijtimoiy tuzum taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Bu muammoni falsafa, etnografiya, etika, estetika fanlari tadqiq etadi.

«Madaniyat» - arabcha so'z bo'lib, u jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy hayotda va ma'naviyatda qo'lga kiritilgan yutuqlari majmuuidir.

Demak, madaniyat- inson faoliyati mahsuli natijasi sifatida, inson-larning moddiy va ma'naviy faoliyatlari jarayonida vujudga keladi.

Moddiy va ma'naviy madaniyatning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'siri natijasida aqlan yetuk, axloqan yaxlit shakllangan shaxs tarkib topadi.

Inson biron moddiy boylik yaratmay ekan, avvalo, uning qurilishi, ishlab chiqarish jarayoni va ta'lim-tarbiyaviy natijasining amaliy ahamiyatini oldindan ko'ra biladi.

Shaxs sifatida shakllanadigan o'quvchining ma'naviy kamolotida axloqiy madaniyatning ahamiyati katta. Axloqiy madaniyatga axloqiy bilimlar, malaka va ko'nikmalar, axloq qoidalari yordamida o'quvchining xulq-atvori, xatti-harakatlarini boshqarish tizimi kiradi. Axloqiy madaniyat o'quvchining ko'p qirrali faoliyat davomida shakllanib va takomillashib boradi.

Axloqiy madaniyatning ko'rinishlari, uning qirralari va namoyon bo'lish shakllari xilma-xildir. Insonparvarlik, halollik, tashabbuskorlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, erksevarlik, faollik, ijodkorlik, poklik va shu kabi qator muhim tushunchalar axloqiy madaniyat tushunchalaridir. Bu xislatlar faoliyat jarayonida ma'naviy madaniyatning boshqa madaniyat qirralari bilan birgalikda o'quvchi ongi va xulqiga ta'sir etadi.

Ma'naviy-axloqiy mazmundagi ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish ta'lim muassasasi pedagogik jamoa umumiy ishining tarkibiy qismi bo'lib, ularni o'tkazishda maktab rahbariyati, kasaba uyushmasi a'zolari, ota-onalar qo'mitasi, o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish organlari, shuningdek, jamoa tashkilotlari, xodimlari ham ishtirok etadi.

Ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyani yo'lga qo'yishning quyidagi turlari alohida ahamiyatga egadir: suhbatlar, uchrashuvlar, ertaliklar, haftaliklar, oyliklar, ko'riklar, konferensiya, bahs-munozara va boshqalar.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishda tarbiyaviy tadbirlar umumiy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etishda o'z o'rnini va ahamiyatiga ega.

Ma'naviy-axloqiy mazmundagi tadbirlarni o'tkazish ushbu tarbiyani tashkil etishdagi ko'zlangan asosiy maqsadga xizmat qilmog'i kerak.

O'zida yuksak fazilat ma'naviy-axloqiy poklik va insoniy kamolot kabi

xislatlarni bir-biri bilan uyg'unlashtiradigan shaxs tarbiyasi ta'lim-tarbiya tizimining bosh masalasi hisoblanadi.

Bugungi yoshlarda zamonamizning eng mashhur (ijobiy mahnod) kishilarga o'xshashga harakat qilishlari, namunaning tarbiyaviy kuchi o'quvchilarning (bolalarning) taqlid qilishga moyilligiga asoslangandir. Yoshlar ko'pincha ota-onalariga, mahhim bir ijobiy yutuqlarga erishgan qarindoshlariga, o'qituvchilariga va mashhur qahramonlarga taqlid qiladilar.

Turli yoshdagi bolalarga taqlid qilishiga moyillik turlicha bo'ladi. Bolalar ulg'ayib borgan sari tevarak-atrofidagi katta yoshdagi kishilarning xatti-harakatlariga tobora tanqidiy nazar bilan qaraydigan bo'ladi. Shu yoshdagi bolalar o'z nuqtai nazarlaridan taqlid qilishga arzigulik deb bilgan kishilarni o'zlari uchun namuna deb biadilar va ularga e'tiqod qo'yadilar.

Ma'lumki, tarbiya vositasi bo'lgan namuna mohiyat e'tibori bilan e'tiqodga yaqin turadi. E'tiqod tushunchasi yoshlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda muhim o'rin tutadi. Bunda tarbiyachi o'quvchilarning shaxsiy tajribasiga tayanib ularning ongiga, hissi-yotlariga ta'sir qiladi. Shu yo'l bilan yoshlarda ijobiy axloqiy sifatlarni tarkib topa boradi hamda mustahkamlanadi ulardagi salbiy xulq-odatlari yo'qotiladi.

O'quvchilarda e'tiqod hosil qilish jarayonida etikaga oid tushunchalar ham tarkib topib boradi.

E'tiqod tarbiyasini amalga oshirishda har bir o'quvchining qiziqish doirasini, maylini, fikr-o'yini diqqat bilan o'rganish talab etiladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya yoshlarning barkamol bo'lib shakllanishida mustahkam asosdir.

Ta'lim oluvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida o'zigaxos metodlar, shakllar va vositalar mavjud bo'yib, ular ushbu sohadagi faoliyat olib borishning samarasini belgilashda metodik asos bo'ladi. Yoshlar orasida olib boriladigan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning quyidagicha metod, shakl va vositalari bor. Ular haqida qisqacha ma'lumot beramiz.

Ma'naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlar: talabning muomala madaniyati; talabning ma'naviy qiyofasiga qo'yiladigan talablar; talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish - dolzarb vazifa; ma'naviyat tushunchasi; Vatan tuyg'usi - muqaddas tuyg'u; talabning tashqi ko'rinishi va uning ichki dunyosi; kitoblar - bilim va ma'naviyat manbai; talabalarda badiiy tafakkurni shakllantirish; mustaqillik nashidalari; yoshlar intellektual salohiyati - kelajak muvaffaqiyati; fidokor yoshlar qanday bo'lishi kerak?; ajdodlar merosi - ma'naviyatimiz sarchashmalari; zamonaviy urf-odatlarda madaniyat va ma'naviyat; Amir Temur yoshlar kamoloti haqida; Vatan qahramonlari va ularning jasoratlari; mustaqil O'zbekiston jahon nigohida; O'zbekistonning tashqi siyosati va uning ustuvor yo'nalishlari; yuksak madaniyat va ma'naviyat-jamiyat taraqqiyotining poydevori; tarix - millat ma'naviyatining negizi kabi darslarni uyushtirish. Bunda turli fanlar mavzularini o'tishda o'sha fanda tarbiyaga oid lavha va epizodlarni namoyish qilish amalga oshiriladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlar alohida ahamiyatga ega. Bunday suhbatlar mazmun jihatidan rang-barang bo'lishi

mumkin.

Ma'naviy-axloqiy xulq, bu boradagi hayotiy tajribalarni hosil qilishga ko'maklashuvchi metodlar:

Rasmiy kasbiy o'yinlar. Bunda ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid ma'lumotlar to'planadi va ayniqsa, buyuk allomalarning faoliyati hamda qarashlari, asarlari asosidagi axloq kategoriyalari va ularning mazmun-mohiyatini ochib berishga oid o'yinlarni («Aql-zakovat», «Oltin toj», «O'yla, izla, top», «Yangi fikr», «Pedagog kim», «Tarbiyachilarni yoki murabbiy» va shu kabi o'yinlarni uyushtirish.

Ishchanlik o'yinlari. Bunda «Aqlli odam bo'lish yaxshimi yoki dono», «Olim kimu fozil kim?» va hokazo ko'rinisdagi o'yinlar orqali talabalarga axloqiy tarbiya berish amalga oshiriladi.

«Aqliy hujum». Bunda talabalar ongida ezgulikni va adolatni shakllantirishga oid trening darslarini tashkil etish nazarda tutiladi.

Fikr va g'oyalarni tizimlashtirish. Bunda fikrlar va g'oyalar kurashi asosida jaholatga qarshi kurashda ma'rifatga va ma'naviyatga tayanish lozimligi ta'kidlanadi.

Bahs-munozara. Bunda «Oddiy haqiqatlar», «Siz intellektual salohiyatlimisiz?», «Barkamol avlod kim?», «Komil inson kim?», «Donishmandlik qanday shaxslarga xos?» va shu kabi mavzular uyushtiriladi. Ularda talaba-yoshlarning axloq kategoriyalari haqidagi tasavvurlarini kengaytirish nazarda tutiladi.

Musobaqa. Bunda insonning individdan shaxs darajasiga yuksalishi, aqlli odamning dono darajasigacha yuksalishi va hokazo insonning donishmand darajasigacha aqliy kamoloti bosqichlariga oid guruhlar orasidagi musobaqalar tashkil etiladi. Ulardan ko'zlangan maqsad talabalar ongida ma'naviy yetuk shaxs modelini yaratishdan iborat bo'ladi.

Devoriy gazeta. Bunda beriladigan ma'lumotlar talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga oid materiallardan iborat bo'ladi va ular iloji boricha darslik va o'quv qo'llanmalaridagi materiallarni boyitishga qaratilgan bo'lmog'i lozim.

Ma'naviy-axloqiy mavzularga oid albom va jurnal tayyorlash. Bunda ma'naviyatimiz buyuk timsollarining muayyan bir kishiga yoki bir yo'nalisdagi ulug' insonlar fikr, qarash, g'oya va tahlimotlariga asoslangan holda jurnal va albomlar tayyorlash e'tiborga olinadi.

Axloqiy-muammoli vaziyatlar tahlili. Bunda bunyodkor va vayronkor g'oyalarning odamga, oilaga, jamoaga va davlatga turli xil ta'sirlari to'g'risidagi muammoli vaziyatlar talabalar ishtirokida tahlil etiladi va uning natijasida hosil bo'ladigan xulosalarning yoshlarga milliy-ma'naviy tarbiya berishdagi ahamiyati ham o'rganiladi.

Demak, ma'naviy-axloqiy tarbiya metodlari va vositalari hamda ulardan maqsadga muvofiq foydalanish barkamol avlodni shakllantirishda mustahkam asoslardan biri hisoblanadi.

Axloqiy tarbiya berish yo'llari

Axloqiy tarbiyaning mazmuni, avvalo, talabalarning amaliy faoliyatlarida, o'qish, mehnat, jamoatchilik ishlarida, ularning munosabatlari xarakterida, o'zaro ta'sir ko'rsatish usullari, xulq-atvor mehyorlarini o'zlashtirishlarida namoyon

bo'ladi.

Axloqiy tarbiya tarbiyalanuvchining yoshi va uning to'g'ri yo'nalish olishi uchun hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan muhitni (oilada, o'rtoqlar va do'stlar muhiti) ham hisobga olganda shaxsning butun hayotiy faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Axloqiy tarbiyaning yo'l va usullari talabalarga axloqiy saboq berish kabi maxsus ishni tashkil qilishda alohida xususiyatga ega. Axloqiy tasawurlar, qarash, mulohaza, baho berish kabi tushunchalarni shakllantirishga va shu asosida axloqiy e'tiqodni yuksaltirishga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni:

- talabalarni o'zlarining axloqiy tajribalarini mushohada qilishlari va boyit ishlariga yordam beradi;

- turli manbaalarda axloq to'g'risida olingan bilimlarni sinaydi;

- shaxsning o'zini axloqiy tarbiyalashga zamin yaratadi.

Axloqiy bilim berishni tashkil qilishda ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlarini, ularning shaxsiy axloqiy tajribalarini, axloqiy me'yorlar to'g'risidagi xabardorlik darajasini, axloq sohasidagi o'zlashtirgan bilimlarning axloqiy talablari bilan munosabatini hisobga olish zarur. Axloqiy bilim, asosan axloq to'g'risidagi suhbatlar, mahruzalar mavzui, kechalar, turli kasb namoyondalari bilan uchra-shuvlar, talabalar konferensiyalari va boshqa vositalar bilan amalga oshiriladi.

Oilada bola tarbiyalashning asosiy shartlari

Ota-onalarning o'sayotgan yosh avlod rivojlanishiga, tarbiyasiga bevosita ta'siri ulkan ahamiyat kasb etadi. Chunki ularning ta'siri o'ziga xos va qaytarilmasdir. Shuningdek, bolaning o'ziga xos xususiyatlarini ota-onalargina yaxshi biladilar.

Pedagog buni hisobga olmasligi mumkin emas. Faqat ota-onadagi bolani bilishga xos tajribani hisobga olgandagina tarbiyachi o'z faoliyatida muvaffaqiyatga erishadi. Shuning uchun ham ota-onalar bilan pedagoglar o'rtasidagi yaqin hamkorlik tarbiya samaradorligini ta'minlaydi. Tarbiyachigina bolaga oilaning ta'sirini kuchaytirish yoki, aksincha, ularning ta'sirini chegaralash imkoniyatiga ega.

Oilada bolani tarbiyalash muammosi yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosi bilan uzviy olib boriladi. Uning yechimi oilada boshlanib, maktabda davom ettiriladi. Maktab o'quv rejasiga «Odobnoma» darslarining kiritilishi, fakulgtativ mashg'ulotlarda yuqori sinf o'quvchilari uchun «Oilada turmush etikasi va psixologiyasi»ning o'qitilishi ham shu muammo yechimida alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahon xalqlari pedagogikasida oiladagi bola tarbiyasiga oid juda ko'plab fikrlar ilgari surilgan bo'lib, ularda oilaning bola tarbiyasiga sog'lom ta'sirini belgilovchi muhim odatlar keltirilgan va ularni bugungi kunda nazariy aspektda o'rganish foydadan holi emas.

1. Bunday ta'sirning asosiy manbai oilaning xalq turmushi bilan ijtimoiy birligi, ota-onalarning insoniylik burchini anglab yetishi bilan belgilanadi. O'zining ishdagi, hayotdagi muvaffaqiyatlarini birga baham ko'rish, bolalar hayotining barcha sohalaridagi erishgan muvaffaqiyatlarini, quvonch va tashvishlarini birga muhokama qilish.

2. Oilada ota-onalar va bolalarning mehnat faoliyatida birgalikdagi ishtiroki, har bir oila a'zosini biron-bir mehnat turiga jalb etish, oilada kichiklar bilan kattalar, o'g'il va qizlar, ota-onalar o'rtasidagi mehnat taqsimotiga rioya etish.

3. Oila turmushini eng mayda-chuydasigacha hisobga olgan holda tashkil etish. Bu ayniqsa, oilaning iqtisodiy-maishiy tomoni uchun muhimdir.

- Oila xo'jaligida tartib, aniqlik va intizomga rioya qilish.
- Bola ishtirokida oila moliyaviy byudjetining taqsimoti.
- Oilada narsalarni saqlash tartibi.
- Oilada kundalik rejimga rioya qilish.
- Har bir oila a'zosining o'z ish joyiga ega bo'lishi.
- Oiladagi doimiy qoidaga amal qilishga o'rgatish. (Masalan, xarid qildingmi, qaytimini olib kel, ishga ketayotganda aytib ket, yoki yozib qo'y, ishdan kelgan zahoti ustiboshni almashtir va b.)

4. Oilada eng qulay, samimiy, do'stona, o'zaro ishonch, hurmatga asoslangan muhitni yaratish. Doimiy mikroiklim yuzaga kelishiga erishish.

5. Oilada bola tug'ilganidan voyaga yetgunicha uning o'sish dinamikasini, undagi barcha o'zgarishlarni, ayniqsa, o'g'il va qiz bolalar tarbiyasidagi, ularning shaxsiy gigienasidagi o'ziga xoslikni alohida hisobga olish zarur.

Oilaviy tarbiyada o'zbekona, qadimiy ajdodlar urf-odatlarini, milliy o'ziga xoslik, tartib-intizom va odob normalariga amal qilishda xalqimizning milliy tarbiya tizimini, samarali metod va vositalarini o'rganish va ulardan unumli foydalanishga alohida zhtibor berish kerak. Bu borada, o'zbek xalq pedagogikasining boy merosidan foydalanish, ko'plab oilalar tajribasini o'rganish va targ'ib qilishga e'tiborni qaratish zarur.

Tarbiyada maktab yetakchi bo'g'in ekanligi.

Maktab pedagogika va psixologiyani eng yangi yutuqlariga tayangan holda ota-onalar va jamoatchilik bilan birgalikda olib boriladigan ta'lim-tarbiyaning turli-tuman tashkiliy shakllaridan foydalanadi. Maktab ota-onalar qo'mitasi ishini tashkil etish; ota-onalar lektoriylari; mahruza-suhbatlar; ota-onalar yig'ilishlari; ota-onalarni maktabga taklif etish; oilalarga borish va suhbat o'tkazish; turli mavzularda mahruzalar o'tkazish; ota-onalar ishtirokida madaniy ekskursiyalar, ishlab chiqarishga sayohat uyushtirish; faol ota-onalarni tarbiyasi qiyin, o'zlashtirmayotgan bolalar bilan ishlashga jalb etish; sinf ota-onalar qo'mitalari; ota-onalarning pedagogik-psixologik bilimlarini oshirish maqsadida turli mavzularda o'qishlar tashkil etish; moddiy ahvoli qiyin bo'lgan ayrim oilalarga yordam uyushtirish ana shu tashkiliy shakllar jumlasiga kiradi.

Mazkur o'quv yurti rahbariyati sinfda dars beruvchi predmet o'qituvchilarini o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan ishlashga jalb etishi; otalar majlisi, onalar majlisi; ota-onalar bilan bolalar ishtirokidagi qo'shma majlis kabi tadbirlarni o'tkazishdan oldin shu sinf rahbari va o'qituvchilari bilan har bir masalani puxta kelishib olib, amalga oshiriladigan tadbirlar rejasini birgalikda keng muhokama qilgandan so'ng uni ota-onalar muhokamasiga olib chiqishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Oila, maktab jamoatchilik xamkorlikning zaruriyati.

Na oila, na maktab, na jamoat tashkilotlari, alohida olib qaralganda, shaxsga ta'sir etuvchi juda ko'plab salbiy ta'sirlarning oldini o'z vaqtida ololmaydi. Buning uchun ularning kuchlarini birlashtirish va yagona tizim asosida qator samarali hamkorlik metod va shakllaridan unumli foydalanish zarur. Oila, maktab, jamoatchilik aloqalarini tashkil etishda turli homiy tashkilotlar, idora va muassasalar tomonidan tuzilgan oila va maktabga yordam kengashlarining roli qimmatlidir. Ularning vazifalarini esa pedagoglar juda yaxshi bilishi kerak. O'zaro yordam kengashlariga tashkilot, korxonalar va turli ishlab chiqarishlarning rahbarlari, kasaba uyushmalari, yoshlar tashkilotlari va boshqa tashabbuskor guruhlar kirishi mumkin. Bunday kengashlar yig'ilishlarida yosh avlodning axloq madaniyatini oshirish, ko'plab oilalarning ilg'or tajribalarini targ'ib qilish, turli soha kishilari bilan uchrashuv va suhbatlar o'tkazish kabi tadbirlar va tarbiya masalalari bo'yicha vazifalar qarab chiqiladi.

Bu kengashlarning eng muhim o'ziga xos tomoni maktab bilan mustahkam aloqa o'rnatishdir. Ular otalik tashkilotlari orqali mazkur o'quv yurti moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun, ta'lim-tarbiyani amalga oshirish uchun yetarli sharoitlar yaratadi, turli oilalarga moddiy va ma'naviy yordamlar uyushtiradi. Bolalar bilan turli sayohatlar, dam olish, sport-sog'lomlashtirish, madaniy sohalarda tadbirlar tashkil etish va o'tkazishda maktablarga yaqindan yordam beradi. Maktab esa, o'z o'rnida, kengash a'zolarini bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining mazmuni, metodlari bilan tanishtiradi.

Shuningdek, bolalar tarbiyasi borasidagi hamkorlikni mahallalarda va turli yashash joylarida tashkil etilgan faxriylar va xotin-qizlar kengashlari, lektoriylar, markazlar faoliyati orqali yo'lga qo'yish mumkin.

Barkamol avlod tarbiyasini yo'lga qo'yishda turli jamoat tashkilotlari, ishlab chiqarish, o'quv jamoalari, yashash joylaridagi turli qo'mitalar, oila, ommaviy axborot vositalari, adabiyot, san'at va boshqalar alohida ahamiyat kasb etadi.

Lekin yuqorida sanab o'tilgan turli jamoalar, turli vositalar tizimida ta'lim-tarbiya masalalarining birgalikda hal etilishi, ular faoliyatining birlashtirilishi va to'g'ri maqsad sari yo'naltirilishi hozirgi kunning dolzarb muammosi bo'lib qoldi. Bu ishni birgalikda, hamkor tarzda yo'lga qo'yish uchun o'quv muassasalari, ulardagi katta kuch - pedagoglar jamoasini jalb etish kerak.

Maktab, barcha ko'rinishdagi o'quv yurtlari, oila va jamoatchilik faoliyatini bolalar, o'smirlar tarbiyasi bo'yicha muvofiqlashtirish quyidagicha tashkiliy ko'rinishda amalga oshiriladi:

1. O'quv yurtlari, jamoat tashkilotlari va boshqa ommaviy vositalarning har birining aniq vazifasi belgilangan holda tarbiyaviy ishlar rejasi muvofiqlashtiriladi.

2. Eng ilg'or o'qituvchilar yordamida ota-onalar va jamoatchilik vakillari hozirgi zamon pedagogikasidagi eng samarali yo'l va usullar bilan qurollantiriladi.

3. Tarbiyaviy ishlarning borishi va ularning natijalarini sinchkovlik bilan o'rganish hamda birgalikda muhokama qilish, paydo bo'layotgan kamchiliklarning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish uchun birgalikda chora-tadbirlar ko'riladi.

Demak, yaxshi va samarali tarbiya jarayoni uchta asosiy bo'g'in: maktab,

oila va jamoatchilik faoliyatini birlashtirishni taqozo etadi. Bu hamkorlikda yetakchi o‘rin maktabga tegishli hisoblanadi.

Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Ma'naviy-axloqiy metodlarni aytib bering va ularning vazifasini tushntiring.
2. Ma'naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlarning mazmun-mohiyati nimadan iborat?
3. Ma'naviy-axloqiy tarbiyada namuna ko'rsatish metodining mazmunini nima tashkil etadi?
4. «Bahs-munozara uyushtirish» deganda nimani tushunasiz?
5. Ma'naviy-axloqiy xulqning mazmuni nimadan iborat?
6. Ma'naviy-axloqiy xulqni hosil qilishda ko'maklashuvchi metodlarni tushuntirib bering.
7. «Ongli intizom» deganda nimani tushunasiz?
8. Ongli intizomni shakllantirishda qanday vazifalar amalga oshiriladi?
9. «Axloqiy tarbiya berish yo'llari» deganda nimani tushunasiz?
10. Axloqiy tarbiyaning vazifalarini tushuntirib bering.
11. «Mehnat tarbiyasi» deganda nimani tushunasiz?
12. Ijtimoiy foydali mehnatni izohlang.
13. Mehnat tarbiyasining mohiyati nimadan iborat?
14. Mehnat tarbiyasining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
15. Mehnat ta'limini tushuntirib bering.
16. «Ijtimoiy mehnat tarbiyasi» deganda nimani tushunasiz?
17. O'quvchilar mehnat faoliyatining turlarini aytib bering.
18. Maishiy mehnatning mazmunini nima tashkil etadi?
19. O'quv mehnatining mazmunini izohlang.
20. O'quv-ishlab chiqarish mehnatini tushuntirib bering.
21. O'quvchilar mehnat faoliyatini tashkil etishga qo'yiladigan talablar nimadan iborat?

15-MA'RUZA. Ma'naviy-axloqiy tarbiya. O'quvchilarning mehnat, jismoniy va estetik tarbiyasi

Reja:

1. O'quvchilarga mehnat tarbiyasini berish metodlari.
2. Jismoniy va estetik tarbiya, uning shakllari.
3. O'quvchilarda axborot istemoli madaniyatini shakllantirish.
4. Ta'lim muassasasi menejmenti.

Tayanch so'z va iboralar; mehnat, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya, estetik tarbiya, axborot, axborot is'te'moli, menejment.

Mehnat tarbiyasi - tarbiyaning muhim turi, shaxsni shakllantirishning zarur shartlaridan biri bo'lgan pedagogik jarayon. Mehnat tarbiyasi kishidan ijtimoiy foydali mehnatga ichki ehtiyoj, institutizom, batartiblik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ishchanlik, ishning ko'zini bilish singari sifatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Mehnat inson ehtiyojlarini qondirishning birinchi va asosiy vositasi bo'lganligi uchun ham Mehnat tarbiyasi tarbiyaning boshqa hamma turlaridan oldin paydo bo'lgan.

Mehnat tarbiyasi g'oyat keng falsafiy-pedagogik kategoriya bo'lib, "mehnat ta'limi", "kasbga yo'naltirish", "politexnik ta'lim", "kasb ta'limi" singari tushunchalarni o'z ichiga oladi. Mehnat tarbiyasi berish hamma zamonlarda ham jamiyat taraqqiyotining asosi, yoshlarni hayotga tayyorlashning eng muhim vositasi bo'lib kelgan. Shuning uchun ham barcha ilo-hiy kitoblar va hamma mutafakkirlar tomonidan yaratilgan bitiklarda Mehnat tarbiyasi ga katta e'tibor berilgan. Lekin ularga materialist (moddiyunchi)lardan farqli tarzda Mehnat tarbiyasi deyilganda faqat jismoniy mehnatga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirish ko'zda tutilmagan. Mehnat tarbiyasi, avvalo, oilada bola o'zini anglay boshlashi bilanoq amalga oshirila boradi. Jumladan, chaqaloklar go'daklik bosqichiga o'tishlari bilanoq, ularga dastlabki Mehnat tarbiyasi berila boshlanadi. Shunday qilinmasa, bola faqat iste'molchiga aylanib qoladi va natijada u noshud va yalqovgina emas, ma'naviyati kemptik shaxs ham bo'lib shakllanishi mumkin.

Bolalarga Mehnat tarbiyasi berishda bog'cha, maktab singari ijtimoiy pedagogik muassasalar katta o'rin tutadi. Chunki bu muassasalarda Mehnat tarbiyasi ilmiy asosda tegishli mutaxassislar tomonidan uyushtiriladi. Mehnat tarbiyasini tashkil etishdagi asosiy jihat shundaki, u bolalarning yosh xususiyatlari, ruhiy, akliy va jismoniy imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi lozim. Bolaning imkoniyatlaridan yengil Mehnat tarbiyasi ularni zeriktirgani kabi ularning imkoniyatlaridan og'ir topshiriqlar bolalarni bezdirishi mumkin. Mehnat tarbiyasini amalga oshirishda tizimlilik va institutizom bo'lishiga qat'iy amal

qilinishi joiz. Aks holda, har qanday qobiliyatli bola ham yetarlicha Mehnat tarbiyasi ololmasligi mumkin. Mehnat tarbiyasi uchun maktab davri eng qulay fursatdir. Birinchi navbatda, o'qish jarayonining o'zi og'ir akdiyjismoniy mehnatdir. Maktabga o'z vaqtida kelib-ketish, o'qish-yozishni o'rganish, berilgan bilimlarni egallash uchun o'quvchilarga Mehnat tarbiyasi berilgan bo'lishi kerak. Chunki o'quv topshiriqlarini bajarish, dars o'zlashtirish, o'tilganlarni takrorlash, yozma ishlar bajarish, kerakli matnlarni yodlash, ko'chirmalar olish, lu-g'atlar bilan ishlay olishi uchun o'quvchi muayyan institutizomga rioya etishi, tashkilotchilik qobiliyati va ishchanlik xususiyatiga ega bo'lishi, ishning ko'zini bilishi kerak. Mehnat tarbiyasida, avval aytilganidek, mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish jarayonlarining ham o'рни katta. Chunki bu jarayonlarda o'quvchilar bevosita tegishli mehnat ko'nikmalarini egallash va ularni mustaqil ravishda qo'llash bosqichini o'taydilar. Shuningdek, ular bu asnoda qaysi bir mehnat yo'nalishi o'ziga muvofiqroq ekanligini bilib oladilar. Shuning uchun ham mehnat ta'limi imkon qadar xilma-xil bo'lishi hamda o'quvchilarning aqliy, jismoniy imkoniyatlari va jinsiy xususiyatlariga muvofiq kelishi zarur.

Mehnat tarbiyasi. Mehnat tarbiyasining maqsadi o'quvchilarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirishdir. Mazkur maqsadga erishish yo'lida quyidagi vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiq: yosh avlodda mehnat qilish istagini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat yuritishga tayyorlash;

-o'quvchilarda umumjamiyat manfaati yo'lida mehnat qilish ehtiyojini hosil qilish;

- ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish;

-o'quvchilarning mavjud bilimlarini uzluksiz ravishda takomillashtirib borishlari uchun zarur shart-sharoit yaratish;

-ularda mehnat ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish;

o'quvchilar faoliyatida yuqori madaniyat, maqsadga intilish, tashkilotchilik, mehnat intizomi, tadbirkorlik, tejamkorlik, ishni sifatli bajarish, moddiy boyliklarga ehtiyotkorona mimosabatda bo'lish, hayotiy faoliyat yo'nalishini belgilash malakalarini shakllantirish;

o'quvchilarda davlat iqtisodiy siyosati mazmuniga tayangan holda ular yashab turgan hududlar ishlab chiqarish xususiyatlariga muvofiq kasblarni egallashga bo'lgan qiziqishni oshirish;

o'quvchilarni kasbga yo'llash, ularni mehnat faoliyatining barcha turlari, shuningdek, ular yashayotgan hududda ehtiyoj mavjud bo'lgan mutaxassisliklar bilan tanishtirish.

Mehnat tarbiyasini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari:

1. Bolalar mehnatining o'quv-tarbiyaviy vazifalar bilan bog'liqligi.
2. Ijtimoiy ahamiyatli mehnatni o'quvchilarning qiziqishlari bilan birga qo'shib olib borilishi.
3. Mehnat faoliyatining hamma bopligi va qo'ldan kela olishi.
4. Mehnat faoliyatining majburiyligi va vijdoniyligi.
5. Mehnat faoliyatini tashkil etishda jamoaviy va individual shakllarini birga qo'shib olib borish.

Mehnat faoliyatining asosiy turlari quyidagilardir:

O'quv mehnati o'quvchilarning ilmiy bilimlar hamda turli fanlar asoslarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyati turidir. Ijtimoiy-foydali mehnat shaxsni har tomonlama kamol toptirish hamda uning muayyan ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan hamda ijtimoiy mehnat xarakteridagi faoliyati turidir.

Hozirgi davrda ta'lim muassasalarida o'z-o'ziga xizmat keng yo'lga qo'yilmoqda. O'z-o'ziga xizmat o'quvchilarning ijtimoiy va o'quv ehtiyojlarini qondirish maqsadida ularning o'zlari tomonidan amalga oshiriluvchi mehnat faoliyati turidir. O'quvchilarning navbatchiligi o'z-o'ziga xizmat qilishni tarkib toptirishning muhim shaklidir. Ishlab chiqarish mehnati turlari xilma-xildir. Masalan, o'quvchilarning mehnat haftaligi, chorvaga yem-xashak tayyorlash va fermer xo'jaliklarida faoliyat yuritish va boshqalar. Unumli mehnat - o'quvchilar mehnatining eng ommaviy shakli sanaladi. Mehnat tarbiyasini tashkil etish shakllari: mehnat bayrami, o'quvchilar yasagan buyumlar ko'rgazmasi; hasharlar uyushtirish; qarovchisi yo'q, bemor, keksa va nogiron kishilarga ko'rsatiluvchi insonparvarlik yordami; ko'kalamzorlashtirish; ta'mirlash (maktab binosini); «Mohir qo'llar» to'garagi faoliyati. Jismoniy tarbiya deganda organizmning morfologik va funksional rivojlanishini jamiyat talablari darajasida amalga oshirish, jismoniy sifatlarni, qobiliyatlarni rivojlantirish, jismoniy madaniyat va sport sohasiga taaliuqli maxsus bilimlarni o'zlashtirib olish tushuniladi.

Jismoniy tarbiya - o'quvchilarning jismoniy va sportga oid faoliyatlarini maqsadga yo'naltirilgan, aniq tashkil etiladigan va rejali tarzda amalga oshirish tizimi.

Jismoniy tarbiyaning vazifalari xilma-xil bo'lib, pedagogikada qator tasniflar mavjud. Jumladan, V.A.Elastenin, I.F.Isaev, E.N.Shiyanovlar jismoniy tarbiyaning quyidagi vazifalarini ajratib ko'rsatishadi:

1) bolalarning jismoniy to'g'ri rivojlanishiga yordam berish - organizmning morfologik va funktsional rivojlanishini ta'minlovchi ishchanlik qobiliyatini oshirish, uning tashqi muhitning noqulay vaziyatlariga barqaror qarshi tura olishini mustahkamlash;

2) asosiy harakatlantiruvchi sifatlarni rivojlantirish - bolaning xilma-xil harakatga doir faoliyatga qobiliyatligi uning barcha jismoniy sifatlari - kuchlilik, chidamlilik, chaqqonlik va ephillikni yuksak uyg'unlikda rivojlanishini ta'minlaydi;

3) hayotiy muhim harakatga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish-bolada maxsus harakatga doir bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish. Harakatga doir tasavvurlarga tayangan holda bola turli sharoitlarda o'z xatti-harakatlarini boshqara olish imkoniyatiga ega boladi;

4) jismoniy madaniyatning tizimli mashg'ulotlariga barqaror qiziqish va ehtiyojlarni tarbiyalash. Sog'lom turmush tarzining asosida bolaning doimiy ravishda o'z-o'zini jismonan rivojlantirishga ichki tayyorligi yotadi. U muntazam jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish va bolalarning jismoniy mashg'ulotlarga faol munosabati natijasida yuzaga keladi;

5) jismoniy madaniyat va sport, tibbiy va gigiyena sohalariga oid minimum nazariy bilimlarni egailash zarurligi. Bolalar kun tartibi va shaxsiy gigiena haqida, jismoniy madaniyat va sportning salomatlikni mustahkamlashdagi ahamiyati haqida aniq tasavvurlarga ega bo'lishi zarur.

B.T.Lixachev jismoniy tarbiyaning quyidagi vazifalarini ajratib ko'rsatadi:

1) rivojlantiruvchi - bolalarning jismoniy kuchini va nerv tizimini takomillashtirish, o'zgaruvchan vaziyatlarga moslashuvini ta'minlash,

2) tarbiyaviy - bolalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarkib topishiga erishish. Boshqacha aytganda, «Sog'lom tanda - sog' aql»;

3) ta'limiy - bolalarning jismoniy madaniyatning nazariy asoslari bilan tanishtirish, uning inson hayotidagi ahamiyatini tushunib yetish;

4) sog'lomlashtiruvchi - bolalarda harakatga doir sifatlarni tarkib toptirish, ularning baquvvat va tetiklashuviga ko'maklashish;

5) umummadaniy - bo'sh vaqtni mazmunli va foydali o'tkazish.

I.P.Podlasiy tomonidan taklif etilgan jismoniy tarbiyaning vazifalari V.A.Slastenin, I.F. Isaev, E.N.Shiyanovlar tasnifiga mos kelib, shu bilan birga jismoniy tarbiyaning yana ikkita funksiyasi alohida ajratib ko'rsatilgan: 1) o'quvchilarda estetik sifatlarni tarbiyalash; 2) o'quvchilarda axloqiy sifatlarni tarbiyalash.

Jismoniy tarbiya vositalari. Jismoniy tarbiyani amalga oshirish vositalari xilma-xil bo'lib, ularni umumlashgan tarzda uch guruhga ajratish mumkin: tabiiy omillar, gigienik shart-sharoitlar va jasmoniy mashqlar.

Tabiiy omillar tabiat in'omlari (suv, havo, quyosh)ning sogliqni mustahkamlash, bolaning morfologik va jismoniy to'g'ri rivojlanishiga ko'maklashish imkoniyatlarini o'zida aks ettiradi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur holat «bola organizmini chiniqtirish» atamasi bilan tavsiflanadi. Bola organizmini chiniqtirish deganda, organizmni mustahkamlash, chidamlilik, zararli ta'sirlarga qarshilik ko'rsatish, hayotiy sharoitlarning o'zgarishiga tez moslashish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar tizimi tushuniladi.

Gigienik shart-sharoitlar. Bolalarning jismoniy to'g'ri rivojlanishi uchun gigiyenik shart-sharoitlar - uyqu, ovqatlanish va kiyinish, kun tartibi kabilarni hisobga olish zarur. Bolalarning jismoniy jihatdan tarbiyalashdagi muhim vazifa nerv tizimi gigiyenasidir. Bu vazifani hal etishda uyqu katta ahamiyatga ega. Uyqu miya yarim sharlarining normal ishlashi uchun zarur bo'lgan kuch-quvvatni tiklaydi. Chuqur va yaxshi, uzoq davom etadigan uyqu nerv tizimining, organizm charchashining oldini oluvchi asosiy vositadir. Agar bola yomon uxlasa, uyquga to'ymasa nerv tizimining buzilganidan dalolat beradi. Nerv tizimi qo'zg'aluvchan bolalarning aksariyati yomon uxlashadi. Bunday bolalarning uyqu tormozlanishi chuqur normal uyquni ta'minlay olmaydi. Kiyinish ham gigienik omil sifatida bolaning jismoniy rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Kiyim har doim bolani o'rab turgan havo temperaturasiga mos kelishi kerak. U yengil materialdan tayyorlanib, havoni, issiqlikni yaxshi o'tkazadigan bo'lishi, oson yuviladigan, yaxshi ho'llanadigan, namni shimadigan, elastik va badanni bezovta qilmaydigan bo'lishi lozim.

Bolalarning ovqatlanishi (nonushta, tushki ovqat, kech tushki ovqat va kechki ovqat) osoyishta vaziyalda o'tishi kerak. Bola stol atrofida yaxshi ishtaha bilan o'tirsa, uning organizmida ovqatning yaxshi hazm bo'lishiga yordam beruvchi shart-sharoit hosil qiladi. Yaxshi ishtaha bolalarda mustaqillik, madaniy-gigienik, stol atrofida o'zini to'g'ri tutib o'tirish malakalarini tarbiyalashga yordam beradi. Eng muhimi - bolalarning yoshligidan boshlab ularda yaxshi ishtaha bo'lishini

ta'minlash muhim ahamiyatga egadir Kun tartibi jismoniy tarbiyaning muhim shartidir. Kun tartibi xilma-xil faoliyat hamda dam olishning vaqt jihatdan maqsadga muvofiq taqsimlanishi, hayot tartibidir. Jismoniy mashqlar deganda, jismoniy tarbiya qonuniyatlari va vazifalari bilan bog'liqlikda maxsus tashkil etiluvchi hamda ongli ravishda bajarishga qaratilgan harakatlar yig'indisi tushuniladi. Jismoniy mashqlarni tasnif etishga doir xilma-xil yondashuvlar mavjud bo'lib, ko'proq umumlashgan tasnif o'zida gimnastika, o'yin, sayr kabilarni qamrab oladi. Pedagogik nuqtai nazardan gimnastika organizmga nafis ta'sir etish yoki uning alohida tizim va funksiyalarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Gimnastikaning asosiy, gigiyenik, sportga oid, badiiy, ishlab chiqarishga doir, tibbiy turlari mavjud.

O'yin bolaning jismoniy kuchini, qo'llarining qattiqligini, qaddi-qomatining tikligini, ishonchli ko'zlarni rivojlantirishga xizmat qilib, unda o'tkir zehn, topqirlik, tashabbuskorlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. O'yinning tarbiyaviy ahamiyati katta bo'lib, bolalarda g'amxo'rlik, o'z jamoasi uchun qayg'urish, birgalikdagi harakatlanishdan quvonish, do'stlik va o'rtoqlik hissini kuchaytiradi.

Sayr piyoda, qayiqda, chanada va velosipedda o'tkazilishi mumkin. Sayr bolalarning uzoq vaqt ochiq havoda bo'lib, ularning sog'ligi va jismoniy taraqqiyotiga har tomonlama ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Estetik tarbiya - o'quvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik ong va munosabatni shakllantirishga qaratilgan tarbiyaning alohida shakli. Estetik tarbiya - bu estetik jihatdan rivojlangan va ijodiy faol bo'lgan inson shaxsini shakllantirish jarayoni. Estetik tarbiya insonparvar mohiyatga, estetik orzuga mos keladigan voqelikni idrok etish, baholash va nafosat qonunlari asosida qayta yaratishga qodir bo'lgan inson shaxsini shakllantirishga mo'ljallangan tarbiya sohasidir.

Estetik tarbiyaning maqsadi: o'quvchilarda shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur bo'lgan axloqiy-estetik, insonparvarlik ideallarini, go'zallikni ko'ra olish, his qilish, tushunish va yaratish ko'nikmalarini shakllantirish.

Estetik tarbiyaning vazifalari:

- 1) o'quvchilarni san'atdagi, atrofimizdagi go'zallikni his qila olishga o'rgatish;
- 2) voqelikka estetik munosabatni qaror toptirish;
- 3) estetik didni, go'zallikni baholash qobiliyatini tarbiyalash.

Estetik madaniyatni shakllantirish - bu faqatgina badiiy dunyoqarashni o'stirish, o'qilgan kitoblar, ko'rilgan kinofilmlar, tinglangan musiqiy asarlar sonini ko'paytirishgina emas. Aksincha, bu insonning hissiyotiga ta'sir ko'rsatish, shaxs ma'naviyatini boyitish, xulq-atvorini boshqarish va tuzatishdir. Agar befarqlik, loqaydlik namoyon bo'lsa, inson o'zining antiestetikligini namoyon etadi. Agar o'quvchi go'zallikni his qilishning ijobiy odatlari, she'riyat, ijodiy mehnatni o'zlashtirgan bo'lsa, u holda uning estetik madaniyatini yuqori darajada ekanligi haqida bema'lol gapirish mumkin. Shunday odamlar borki, romanlar, she'rlar o'qishadi, ko'rgazma va konsertlarda ishtirok etadi, biroq ijtimoiy axloq me'yorlarini buzishadi. Bunday odamlar estetik madaniyatdan uzoq, chunki estetik qarashlar va estetik lazzatlanish ularning ichki dunyosiga kirib bormagan. Buning uchun shaxs estetik madaniyatini shakllantirishning muhim tarkibiy qismlari - estetik qiziqish, estetik ehtiyoj, estetik ong, estetik mulohaza, estetik did, estetik idealni tarkib toptirish, ularning psixologik-pedagogik jihatlarini asoslash lozim.

Estetik madaniyatning tarkibiy qismlari:

- Shaxsni voqelikni estetik jihatdan bilib olishga undovchi subyektiv omillar estetik ehtiyoj deb ataladi.
- Shaxsning estetik faoliyatiga, voqelik va san'at asarlarini estetik jihatdan o'zlashtirishga kirishishi estetik qiziqish deb ataladi.
- **Ijtimoiy voqelik, tabiat, san'at bilan bevosita muloqot jarayonida - nazariyalar, qarashlar, badiiy ta'lim va tarbiya natijasida shakllanadigan xususiyat estetik ong deb ataladi.**

Shaxsning aniq bir estetik hodisaga munosabatini ifoda etuvchi aqliy harakati estetik mulohaza deb ataladi.

Shaxsning tabiat, jamiyat va san'atdagi maqsad tarzida idrok etadigan, takomillashgan go'zallik borasidagi bahosining aks etishi estetik ideal deb ataladi.

Tarbiyaviy faoliyatning shunday shakllari borki, ular shaxsning estetik voqelikka munosabatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tarbiyaviy faoliyatning bunday shakllari estetik tarbiya vositalari deb ataladi.

Ta'lim muassasasini boshqarishning pedagogik- psixologik asoslari. Boshqarish faqat ishlab chiqarishgagina xos bo'lgan jarayon emas. Balki ijtimoiy sohalar, shuningdek, ta'lim tizimida ham boshqarishni to'g'ri tashkil etilishi juda muhim.

Hozirgi paytda yagona pedagogik jarayonni boshqarishga ilmiy yondashish harakati kuchaydi. Bu esa intellektual salohiyati yuqori kadrlarni shakllantirish uchun o'ta muhim hisoblanadi

Avvalo, boshqarishning ijtimoiy mohiyatini anglab olaylik. Boshqarish ma'lum bir ob'ektga tashkiliy, rejali, tizimli ta'sir ko'rsatish demakdir.

Ta'lim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarish ta'lim muassasasining faoliyat xususiyatiga ko'ra pedagogik jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil qilish maqsadida amalga oshiriluvchi boshqaruv faoliyatidir. Bugungi kunda pedagogika faniga ta'lim muassasalarini boshqarish bo'yicha yangidan-yangi tushunchalar kirib kelyapti, ularning mohiyati avvalgilardan ham teranroqdir. Masalan, «ta'sir etish» tushunchasining o'rniga «o'zaro harakat», «hamkorlik», «refleksiv boshqarish» kabi tushunchalar qo'llanilmoqda. Ta'lim muassasalarini boshqarish nazariyasi ta'lim muassasalarining menejmenti nazariyasi bilan boyitildi. Menejment nazariyasi xodimlarga nisbatan ishonch, ularning unumli mehnat qilishlari uchun sharoit yaratish hamda o'zaro hurmat bilan tavsiflanadi.

Xo'sh, menejment va menejer atamalarining asl mohiyati nimani anglatadi?

Biz ushbu tushunchalarning mohiyati, ta'lim muassasida davlat-jamoa boshqaruvining pedagogik-psixologik asoslarini tushunishimizda ushbu yo'nalishda tadqiqot olib borgan pedagog R.Ahliddinovning qarashlari alohida diqqatga sazovor. Menejment deganda, odatda rahbarlik lavozimiga rasman tayinlangan shaxslarning ishigina tushuniladi. Boshqarishga, shuningdek, murabbiylik ishi ham taalluqli hisoblanadi. Menejment (yoki boshqarish) mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta'sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jarayonidir. Ta'lim muassasasi menejmenti haqida so'z yuritilganda, O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning 4.6-bandida so'z yuritilayotgan jarayonning mohiyati haqida batafsil to'xtalib o'tilganligini alohida ta'kidlash zarur. Ushbu hujjatda qayd etilicha, ta'lim muassasasi menejmentida quyidagi holatlar nazarda tutiladi:

uzluksiz ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tarkibiy jihatdan o'zgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yo'li bilan boshqarib borilishi;

barcha darajadagi ta'lim boshqaruv organlarining vakolat doiralari «Ta'lim to'g'risida»gi qonunga muvofiq belgilanadi;

ta'limning normativ-huquiy bazasi rivojlantiriladi; moliya-xo'jalik faoliyatini olib borish hamda ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quv yurtlarining huquqlari kengayadi va mustaqilligi ta'minlanadi;

ta'lim muassasalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkaziladi hamda akkreditatsiyalanadi. Akkreditatsiya yakunlariga ko'ra ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatish huquqi beriladi; Muassis tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo-sanoat doiralarining, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va homiy vakillarni o'z ichiga oluvchi vasiylik va kuzatish kengashlari tizimi orqali ta'lim muassasalarining samarali, jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi.

Bundan tashqari, olimlar ta'lim menejmetining bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ham ta'kidlab o'tishadi. Ular orasida quyidagi xususiyatlar asosiy hisoblanadi. Ta'lim menejmenti «maqsadga muvofiqlik» so'zi bilan aniqlanadigan ma'naviy o'lchovga ega;

Ta'lim menejmenti – bu fan va san'at (chunki bunda insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar katta rol o'ynaydi);

Menejment mazmunida o'z aksini topadigan shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarining o'zaro dialektik birligi; ta'limni boshqarishda jamoatchilikning faol qatnashuvi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, endilikda ta'lim tizimini davlat tomonidan boshqarishdan davlat-jamoatchilik boshqaruviga o'tiladi. Davlat-jamoatchilik boshqaruvining maqsadi – ta'lim muassasalarining dolzarb masalalarini davlat va jamoatchilik hamkorligida hal qilish, o'qituvchilar, o'quvchilar hamda ota-onalarga ta'lim dasturlarini, turlarini, ta'lim muassasalarini tanlashda huquq va erkinlik berishni kengaytirishdan iborat.

Xalq ta'limi Vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi O'zbekiston Respublikasida ta'limni boshqarishning davlat yuqori organlari hisoblanadi. Vazirliklar o'zini vakolatlik doirasida:

Ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqaradi; ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi va uslub masalalarida ularga rahbarlik qiladi;

Davlat ta'lim standartlari, mutaxassislarining bilim saviyasi va kasbiy tayyorgarligiga bo'lgan talablarning bajarilishini ta'minlaydi;

o'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etadi, o'quv va o'quv-usulbiy adabiyotlarni yaratadi va nashr etishni tashkil qiladi;

Ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta'lim muassasalarida eksternat to'g'risidagi nizomlarini tasdiqlaydi;

davlat oliy ta'lim muassasasining rektorini tayinlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;

Pedagog xodimlarni tayyorlash, ularning malasini oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etadi.

Maktabni boshqarish ishiga maktab inspeksiyasi, ya'ni, vazirliklar va xalq ta'limi bo'limlarining maktab inspektorlari xizmati yordam beradi. Ular maktab faoliyatini o'rganadi, ta'lim-tarbiya jarayonining natijalarini tahlil qiladi, ilg'or tajribalarini aniqlaydi va ularni ommalashtirish chora-tadbirlarini belgilaydi, kamchiliklarni anihlab, ularni bartaraf etish yo'llarini izlaydi, maktab direktori va o'qituvchilarga metodik va moddiy yordam ko'rsatadi.

Ta'lim tizimini jamoatchilik asosida boshqarish o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar va jamoatchilik vakillaridan iborat pedagogik Kengashning umumiy o'rta ta'lim muassasasi faoliyatini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan faoliyatidir.

Bir yilda bir marta o'tkaziladigan maktab konferensiyasi ham jamoatchilik boshqaruviga kiradi. Konferensiyada maktab Kengashi, uning raisi saylanadi, maktabning Ustavi qabul qilinadi.

Davlat ta'lim muassasalari bilan bir vaqtda nodavlat ta'lim muassasalarining faoliyat ko'rsatishi ham ta'limni boshqarishning jamoatchilik xarakterini ifodalaydi.

Nazorat uchun savollar;

1. Mehnat tarbiyasining maqsad vazifalari.
2. Mexnat tarbiyasining mazmuni va metodlari.
3. Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari.
4. Jismoniy tarbiya vositalari.
5. Estetik tarbiyaning maqsad vavazifalari.
6. Axborot iste'moli madaniyati.
7. O'quvchilarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish texnologiyalari.
8. Ta'lim muassasasida menejment haqida tushuncha.

9. Ta'lim muassasasi ustavi- raxbarlik va boshqaruv tizimini aniqlovchi xujjat.

ADABIYOTLAR.

1. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2017. 15

2. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. – T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018.

3. Ro'ziyeva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019.

4. Mutalipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU, 2015

5. www. Ziyonet. uz

TEST SAVOLLARI

1. Qachondan boshlab O'zbekistonda ta'lim tizimi isloh qilina boshladi?

A * 1992 yil iyun B 1993 yil may

V. 1997 yil 27 avgust G. 1997 yil 29 avgust

2. O'zbekistonda qaysi olimlar pedagogik texnologiya masalasi bo'yicha ilmiy izlanish olib bormoqda?

A. M.V.Klarin, V.P. Bespalko. Berunova S, U.N.Nishonaliyev

B. * N.Nishonaliyev, S.Saidaxmedov, L.Farberman

V. L.Farberman, R.Jurayev

3. Pedagogik texnologiyaga berilgan YUNESKO ta'rifini aniqlang?

A. Pedagogik texnologiya ta'limni sistemalashtirish

B. Pedagogik maqsadga erishishda foydalaniladigan shaxs instrumental va metodik vositalar majmuasi

V.* Pedagogik texnologiya ta'lim shakllarini muqobillashtirish uchun inson va texnik resurslarning o'zaro ta'sirini e'tiborga olib ta'limning samarali shaklini tashkil etish. Pedagogik texnologiya metodik vositalar majmuasi

3.Yangi pedagogik texnologiya o'qitishning qaysi metodidan voz kechishni tavsiya etadi?

A.* an'anaviy metodidan

B. og'zaki metodidan

V. o'yin metodidan

G. texnik vositalardan foydalanish metodi

4.Yangi pedagogik texnologiyada o'qitish jarayoni qanday tuzilishi bilan an'anaviy dars jarayonidan farqlanadi?

A.* loyixalashtirilgan dars jar

B. rejalashtirilganligi bilan

V. dasturlangan loyixalashtirilgan dars

G. mukammal o'ylab to'zilishi

5.Pedagogik texnologiyaning ta'limdagi samarasi nimada?

A. bir xil yakuniy natijaga erishishda

B. barcha o'quvchilarning faollashtirishda

V.* mustaqil fikrlashga o'rgatishida

G.zamonaviy texnika vositasidan foydalanganligida

6.O'quv jarayoniga texnologik yondashishda o'qituvchining vazifasi qanday bo'ladi?

A. tashkilotchi va maslahatchi vazifani bajaradi

B. o'quv jarayonini tashkil qiladi

V.* o'quv jarayonini dasturlashda loyixalaydi

G. o'qituvchi axborot beradi va to'playdi

7.Pedagogning innovatsion faoliyatiga qanday faoliyat turlari kiradi?

A. mahoratini oshirish faoliyati.0

B.malakasini oshirish faoliyati

V.* darsda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik kiritish

G.darsda yangi o'qitish metodlaridan foydalanish

9.Umumiy o'quv maqsadlari aniqlashtirilganda qanday maqsadlar ko'zda tutiladi?

A. o'yin faoliyat faoliyat maqsadi

B. bilishga va baxolashga oid

V. affektiv sintez qilish faoliyatiga doir

G.* bilish, tushunish, qo'llash tahlil qilish, sintez,baholash

10.Etalon deb nimaga aytiladi?

A.o'quvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan mezon

B. o'quv maqsadini aniqlashtirilgan belgilari

V.* umumiy o'quv maqsadini aniqlashtirishga

G. o'quv maqsadlarining batafsil ro'yxatiga

11.Yangi pedagogik texno-logiyada o'quv jarayoni qanday jarayonga aylantiriladi?

A.* texnologik dasturlangan

B.an'anaviy ta'lim jarayoni

V. takrorlanuvchi jarayon

G.maqsadlari aniqlashtirilgan

12.O'quv materialini to'la o'zgartirish modelining asosiy belgisiga nima kiradi?

A. o'quvchilarni qobiliyati bo'yicha ajratib o'qitish

B. individual o'qitish

V. qobiliyatga muvofiq bo'lgan dastur asosida o'qitish

G.*barcha o'quvchi erisha oladigan yuqori darajadagi o'quv natijalarini belgilanishi

13.To'la o'zlashtirish metodikasini kim ishlab chiqqan?

A. J.Kerroll

B. B.Blum

V. J.Blok

G.* J.Blok, L.Andersen

14. Belgilangan o'quv maqsadiga o'qituvchi erishganligini qanday aniq-laydi?

A. yakuniy test o'tkazgandan so'ng

B.*oraliq test topshiriqlari soni qo'yilgan o'quv maqsadlari soniga teng ishlab chiqilgandan so'ng

V.nazorat o'tkazgandan so'ng

G.joriy testdan so'ng

15. Manitoring deganda.....

A. Inglizcha «uzluksiz kuzatish» ma'nosini bildiradi;

B. O'qituvchi va o'quvchini tug'ri qarorlar chiqarish-ga imkon beradigan za-rur axborot bilan ta'-minlash;

V. Uquv-tarbiyaviy jarayonning natijalari va maqsadga erishish uchun ish-latiladigan vositalar tek-shirilishi;

G. *Pedagogik-psixologik rivojlanish darajasini kuzatish, taxlil samaradorligini baxolash va va ta'lim-tarbiyani istiqbolini bashorat qilish.

16. Tarbiyaga texnologik yondashuv.....

A.* «Ijtimoiy pedagogika» bilan birgalikda fuqorolik g'ururi, vatanparvarlik;

B. Yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarning g'oyasi, mazmuni va tarkibini aniqlaydi ;

V. Fuqoro o'z xuquqlarini yaxshi biladi;

G. Milliy o'zlikni anglashni butun olam insonparvarlik g'oya va madaniyati, umuminsoniy qadriyatlar ko'p millatli xalqimiz an'analarini yaxshi ang-lash;

17. Zamonaviy tarbiyalash texnologiyasi har tomonlama yondashuvni amalga oshirishda qaysi talablarga asoslanadi?

A. Tafakkuriga, sezgilariga va xuquqiga;

B. Shaxsning ma'lum sifatlarini amaldagi tarbiyaviy ishlar majmui orqali hosil qiladi;

V. *Tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi barcha vo-sita va tadbirlarni

muvoqilashdirish ijtimoiy institutlar, birlashmalar, ommaviy axborot vositalari, adabiyot, san'at, oila, maktab, xuquq-tartibot idoralari, jamoalar;

G. Tarbiya (tashki pedagogik ta'sir) va o'z-o'zini tarbiyaning o'zviyligi tufayli ijobiy natijaga erishdi;

18. Pedagogik texnologiya orqali o'qituvchi xatti-harakatida ifodalangan tarbiya natijalarini aniqlang.

A. Ta'lim olishning dolzarbligi sezishni namoyon etadi

B. * Kiyinishda, ichki shinamlikda, memoriylikda, tasviriy san'atga estetik omillarni sezishni namoyon etadi.

V. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy xayoti masalalariga va boshqalar extiyoj va masalalariga diqqat-e'tibor namoyon etishi.

G. O'zbekiston va boshqa millatlar tarixi, madaniyatiga qiziqish, shark buyuk mutafakkirlari me'roslari xakidagi bilimlarni kengaytiradi.

19. Treningning xissasini aniqlang?

A. Trening uchun kerakli boshlang'ich ma'lumot va yetarli bilimlar va biror faoliyat turini utkazish uchun fan mazmunini namoish kilish.

B. Boshqalarni fikrini eshitishni tashkil kilish va ma'lumotlar yigish.

V. O'qitishni yangi usulini qatnashuvchilarga yetkazish.

G. Tinglovchilarga pedagogik mahoratini namoyon kilish.

20. "Interaktiv" usul bu.....

A. Bu treningni yuragi.

B. Bu- jamoaviy muxokama, taxlil va baxolashdir.

V. * "Interaktiv" ingilizcha so'z "Interact": "inter", birgalikda, o'zaro "akt" harakat ma'nosini bildiradi.

G. Interaktiv O'qitish usuli - bilish faoliyatini maxsus shakilda tashkil etish demakdir.

21. O'qituvchi o'zini faoliyatida texnologiyadan foydalanish jarayonida nimalarga e'tibor berish kerak?

A. O'qituvchilarning darsga tayyorgarligiga.

B. O'qituvchilarning ijodkorlik mahoratiga.

V.*Tartibga solish, bir tizimga keltirish va oldindan loyixalashtiril-gan ta'lim jarayonini bosqichma-bosqich amaliyotga tadbik etish.

G. Ma'lumotlarning ahamiyatiga e'tibor beradi.

22. Yangi pedagogik texnologiya asosida o'quv jarayonini to'g'ri tuzilishini aniqlang.

A. O'qitish, o'qitishning umumiy maqsadi, dars maqsadi, baxolash.

B. Dars maqsadi, o'qitish, o'qitishning umumiy maqsadi, baxolash.

V. O'qitishning umumiy maqsadi, dars maqsadi, o'qitish, baxolash.

G.*Takomillashtirish, o'qitishning umumiy maqsadi, darsning maqsadi, o'qitish, baxolash.

23. O'qituvchini axborot texnologiyasi bilan qurollantirishning ahamiyati.

A. O'z xalkining an'analari va urf-odatlaridan xabardor bulishi.

B. Axlokning ruxiyatini, ijtimoiy, axlokiy, mafkuraviy, xuquqiy, maishiy, oi-laviy odatlari yangi ax-borot olib turishi.

V. Ta'lim tarbiya jarayonidagi yangi axborotlar bilan kurollanish.

G.*Kompyuter tarmoqlari negizida yangi axborotlar bilan ta'minlashni rivojlantiradi.

24. Test usuli bu.....

A.* Test bu xolis nazorat usuli.

B. Test-qiyosiy baxolash xususiyatini kuchaytiruvchi usul.

V. O'qituvchilarni bilimini tekshirishda kulay usul.

G. Molslik, oddiylik, aniqlik, muayyanlikka asoslangan usul.

25. Shaxsni rivojlantirishga karatilgan pedagogik texnologiyalar.

A. Mutaffakkirlar va allomalar merosiga inson shaxsiga e'tibor.

B. Shaxsga gumanistik nazar texnologiyasi.

V. Shaxsning umumiy xislatlari va ahlokiy xislatlari.

G.* Sotsiogenetik, biogenetik, psixogenetik ijtimoiy pedagogik yondoshuvlar.

26. Jadallashtirilgan ta'lim tizimiga asoslangan pedagogik texnologiya nima?

A. Bu bo'lajak o'quv tarbiyaviy jarayonni oldindan loyixalash texnologiyasidir.

B. Ta'lim maqsadini aniq shakllantirish.

V.* Yakuniy natijaning kafolatlanishi.

G. Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi.

27. Ta'lim jarayonining qaysi didaktik tarkibi pedagogik texnologiyalarga asoslangan.

A.* O'quv-tarbiya maqsadlarini bajarishga sabab buluvchi omillarni yaratishga va boshqarishga asoslangan pedagogik texnologiya.

B. Amaliyot qoidalariga asoslangan pedagogik texnologiya.

V. Bevosita ijtimoiy munosabatlarga asoslangan pedagogik texnologiya.

G. Hamkorlikka asoslangan pedagogik texnologiya.

28. O'quv omillarini yaratishga asoslangan pedagogik texnologiya o'qituvchilarining o'qituvchilarga kommunikativ ta'sir etish metodlari qaysi?

A. Ishontirish metodi.

B. Isbotli natijalarga asoslangan metodi.

V. Bevosita ta'sir metodi.

G.* O'z-o'zini tarbiyalash va o'zaro ta'sir metodi.

29. O'quv jarayonini pedagogik texnologiyasi asosida tashkil etish sistemasini aniqlang?

A.* DTS fan, kurs bulimlar darajasida aniqlanadi.

B. Mavzu bo'yicha mutaxassisliklarga ko'nikma va malakalarini ifodalaydi.

V. Joriy va oraliq, yakuniy baholash, mustaqil ta'lim uchun baxolash.

G. Talabalarning bilimi kobiliyatining faollashtiruvchi didaktik konstruksiyalar.

30.Xozirgi kunda jahon pedagogikasida pedagogik texnologiya tushunchasiga necha xil ta'rif berilgan

A.* 12 xil

B.9 xil

V.3 xil

G.1 xil

31.“Pedagogik texnologiya” ta'lim shakllarini maqbullashtirish uchun inson va texnik resurslarni xamda ularning o'zaro ta'sirini e'tiborga olgan holda o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishi jarayonini yaratish qo'llash va aniqlashning sistemali metodidir.

A. Golbrayt.

B.* YUNESKO- tashkiloti.

V. M.V. Klarin.

G.N.F.Talizina.

32.“Pedagogik texnologiya” fani qaysi fanlar bilan aloqador?

A.Umumiy pedagogika.Pedagogika nazariyasi va tarixi. Pedagogik mahorat

B. Psixologiya, sosiologiya.

V. Statistika, informatika va axborot texnologiyasi.

G* Ijtimoiy iqtisodiy, aniq va tibbiy fanlar bilan bog'lik

33.Intefaol faoliyat elementlarini aniqlang?

A.*Ijobiy-samimiy o'zaro bogliklik, guruh ichida shaxsiy ma'suliyatlik va bir-biriga ta'sir etuvchi o'zaro faoliyat xamkorlikda va guruhlarda ish-lash.

B. Tushunish, fikrlash davrini aniqlash.

V.Axborot almashinuvi.

G.To'la o'zlashtirilishi imkoniyati.

34.Tanqidiy fikrlash nima?

A. O'zida biror xaqiqat to'g'risidagi fikrlarni qamrab olish.

B. Bilim va tajribalarga asoslanib fikr yuritish.

V.*U faol, muvofiqlashtiruvchi shunday jarayonki, o'zida biror xakikat tug'risidagi fikrlarni qamrab oladi.

G. Boshqalar bildirgan fikrga nisbatan javob.

35.Tanqidiy fikrlashning rivojlantirish muhitini yaratish shartini aniqlang?

A.* O'qituvchilarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish, g'oya va fikrlarni qabul qilish, o'quvchi faolligini ta'minlash.

B.Xar bir o'quvchi tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga ishonch xissini uyg'otish.

V.Turlicha fikrlarni e'tibor berib tinglash.

G.Fikrlarni o'z so'zlari bilan ifodalash.

36.O'qitishni individuallashtirish texnologiyasi nima?

A. Pedagog birgina o'quvchi bilan o'zaro munosabatda bulishi.

B.*Bitta o'quvchi faqat O'qitish vositalari (kompyuter, kitoblar va boshqalar) bilan o'zaro alokada bulish.

V. Shaxsiy yondoshuv

G.O'quvchi o'qishda birgina o'zi ilgari boradi.

37.Programmalashtirilgan o'qitish texnologiyasini ta'limiy programmalardan farqini aniqlang?

A.Ravon programmalar.

B.Tarmoqlanuvchi programmalar.

V.Soddalashtirilgan programmalar.

G.*Aralash programmalar, algoritm, blokli o'qitish, modumli o'qitish, bilimlarni tulik o'zlashtirish.

38.Mualliflik texnologiyasi nima?

A.* O'qitish texnologiyasi pedagogik strategiya sifatida o'quvchi va o'qituvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish vositasiga ekanligi.

b. Pedagogik jarayonda shaxsni ko'zda tutishga asoslangan pedagogik texnologiyasi (SH.A.Amanashivili)

V. O‘quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etish asosiga kurilgan texnologiyasi (S.N.Lisenkova tex. N.P.Go'zikning rej.tex)

G.O‘quv jarayonini mustaqil tashkillashtirish.

39.Muammoli ta'lim qanday operasiyalar va qanday konuniyatlardan to'zilgan ta'lim?

A. Ovozini sozlash, musikaga qiziqish.

B* Mantikiy fikr ortish, izlanishli faoliyati.

V.Yugirish, sakrash.

G.Musiqaga qiziqish, mantikiy fikr yuritish.

40.Muammoli ta'lim jarayoni nechta asosiy tarkibga ajratiladi?

A. 2 B. 3 V. 5 G.* 4

41. Kommuniaktiv so'zining ma'nosi?

A. Bir tomonlama axborot uzatish.

B.* Ikki tomonlama o'zaro ta'sir

V. O'zaro bir-birini idrok kilish.

G.O'z-o'zini idrok kilish.

42.Tarbiyachining faoliyatiga qanday talablar qo'yiladi?

A Tarbiyachi bolalarni uygun rivojlantirishi kerak.

B *Bilimdon bolalarni sevuvchan, g'oyaviy yo'nalgan, bolalarn ruhiyatini biladigan, kobiliyatli.

V Siyosiy yetuk, axlokli.

G Rostguy, xozirjavob, sezgir.

43.Pedagogik amaliyotning qanday turlari mavjud?

A.Ishlab chikarish, sessiya oraligi amaliyot.

B.O‘quv pedagogik, yozgi pedagogik amaliyot

V.Mavsumiy pedagogik amaliyot.

G.*O‘quv, ishlab chikarish, bitiruv pedagogik amaliyot.

44.Pedagogik amaliyot qachon yakunlanadi?

A.O‘quvchilar amaliyot yakuniy bo‘yicha xisobot yozganlaridan keyin.

B.Maktabda pedagogik kengash utkazilgandan keyin.

V.Pedagogik amaliyot bo‘yicha o‘quvchilar baholangandan keyin.

G.* Bolalar bogchasi, maktab pedagogik kengashda muxokama qilinib yauniy konferensiya utkazilib yakunlanadi

45.Nima uchun dars o‘qishning asosiy shakli deb xisoblanadi?

A.Chunki unda yangi bilim beriladi.

B.Chunki unga o'qituvchi raxbarlik kiladi.

V.Bir xil yoshdagi o‘quvchilarga dastur asosida bilim beriladi.

G.*Yangi bilim beriladi, ko‘nikma va malaka shakillantiriladi, o'zlashtirish natijasi nazorat qilinadi.

46.Qachondan boshlab O'zbekistonda ta'lim tizimi islox qilina boshladi?

A. 1992 yil iyun

B.1993 yil may

V.1997 yil 27 avgust

G* 1997 yil 29 avgust

47.O'zbekistonda qaysi olimlar pedagogik texnologiya masalasi bo‘yicha ilmiy izlan ish olib bormoqda?

A M.V.Klarin, V.P. Bospalko

B Berunova S, U.N.Nishonaliyev

V * N.Nishonaliyev, S.Saidaxmedov, L.Farberman

G L.Farberman, R.Jurayev

48 Pedagogik texnologiyaga berilgan YUNESKO ta'rifini aniqlang?

A Pedagogik texnologiya ta'limni sistemalashtirish

B *Pedagogik maqsadga erishishda foydalaniladigan shaxs instrumental va metodik vositalar majmuasi

V Pedagogik texnologiya ta'lim shakllarini muqobillashtirish uchun inson va texnik resurslarning o'zaro ta'sirini e'tiborga olib

G Pedagogik texnologiya metodik vositalar majmuasi

49 Yangi pedagogik texnologiya o'qitishning qaysi metodidan voz kechishni tavsiya etadi?

A amaliy metodidan

B * ogzaki metodidan

V o'yin metodidan

G texnik vositalardan foydalanish metodi

50. Yangi pedagogik texnologiyada O'qitish jarayoni qanday to'zilishi bilan an'anaviy dars jarayonidan farklanadi?

A loyixalashtirilgan dars jarayoni

B rejalashtirilganligi bilan

G * dasturlangan loyixalashtirilgan dars

D mukammal uylab to'zilishi

51 Pedagogik texnologiyaning ta'limdagi samarasi nimada?

A.* bir xil yakuniy natijaga erishishda

B. barcha o'quvchilarning faollashtirishda

V. mustaqil fikrlashga urgatishida

G.zamonaviy texnika vositasidan foydalanganligida

52.O'quv jarayoniga texnologik yondashishda o'qituvchining vazifasi qanday bo'ladi?

A * tashkilotchi va maslaxatchi vazifani bajaradi

B o'quv jarayonini tashkil kiladi

V o'quv jarayonini dasturlashda loyixalaydi

G o'qituvchi axborot beradi va tuplaydi

53. Pedagogning innovasion faoliyatiga qanday faoliyat turlari kiradi?

A mahoratini oshirish faoliyati

B malakasini oshirish faoliyati

V darsda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik kiritish

G * interfaol, muammoli, ta'lim metodlari va axborot texnologiyasidan foydalanishi

54 Ta'lim tizimining innovatsiyalariga nimalar kiradi?

A kollej va liseylarni tashkil qilinishi

B * ta'limda axborot, kompyuter texnologiyasidan foydalanish

V masofali ta'lim test texnologiyasining joriy etilishi

G kollej, lisey, oliy ta'lim va magistratura, aspiranturalarning joriy etilishi

55.O'quv maqsadlarini belgilashda qanday faoliyatlar ko'zda tutiladi?

A o'yin faoliyati

B bilishga oid baxolash faoliyatlari

V affektiv sintez qilish faoliyati

G * bilish, tushunish, kullab kurish harakatlariga oid faoliyat

56. O'quvchilar bilimni nazorat qilishda oraliq nazorati uchun qancha foiz ball ajratiladi?

A Umumiy maksimal balning 70%

B Umumiy maksimal balning 30%

V Umumiy va ma'ro'za dars soatlari yigindisining 70%

G * Fakat ma'ro'za dars soatlarining 70%

57.Endilikda o'qitishning qanday metodlari samaraliroq deb xisoblaysiz?

A Axborot texnologiyasi yordamida O'qitishmetodi

B Muammoli uyin metodlari

V Interfaol, muammoli uyin metodlari

G * Yangi pedagogik texnologiya

58. Pedagogik texnologiyaning ta'limdagi samarasi nimada?

A. * bir xil yakuniy natijaga erishishda

B barcha o'quvchilarning faollashtirishda

V mustaqil fikrlashga urgatishida

G zamonaviy texnika vositasidan foydalanganligida

59. O'quv jarayoniga texnologik yondashishda o'qituvchining vazifasi qanday bo'ladi?

A * tashkilotchi va maslaxatchi vazifani bajaradi

B o'quv jarayonini tashkil qiladi

V o'quv jarayonini dasturlashda loyixalaydi

G o'qituvchi axborot beradi va tuplaydi

60. Pedagogning innovatsion faoliyatiga qanday faoliyat turlari kiradi?

A mahoratini oshirish faoliyati

B malakasini oshirish faoliyati

V darsda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik kiritish

G * interfaol, muammoli, ta'lim metodlari va axborot texnologiyasidan foydalanishi

61. Ta'lim tizimining innovatsiyalariga nimalar kiradi?

A kollej va liseylarni tashkil qilinishi

B * ta'limda axborot, kompyuter texnologiyasidan foydalanish

V masofali ta'lim test texnologiyasining joriy etilishi

G kollej, lisey, oliy ta'lim va magistratura, aspiranturalarning joriy etilishi

62. O'quv maqsadlarini belgilashda qanday faoliyatlar ko'zda tutiladi?

A uyin faoliyati

B bilishga oid baxolash faoliyatlari

V affektiv sintez qilish faoliyati

G * bilish, tushunish, kullab kurish harakatlariga oid faoliyat

63 Etalon deb nimaga aytiladi?

A o'quvchi o'zlashtirishi lozim bulgan mezon

B o'quv maqsadini aniqlashtirilgan belgilari

V * umumiy o'quv maqsadini aniqlashtirishga

G o'quv maqsadlarining batafsil ruyxatiga

64. Yangi pedagogik texnologiyada o'quv jarayoni qanday jarayonga aylantiriladi?

A texnologik dasturlangan

B an'anaviy ta'lim jarayoni

V * takrorlanuvchi jarayon

G maqsadlari aniqlashtirilgan

65. To'la o'zlashtirish metodikasi qachon va kim tomonidan asoslangan?

A 16 asrda YA.L.Kamenskiy

B * 1960 yil J.Kerroll va B.Blum

V 1960 yil J.Blok va B.Blum

G 1950 yil J.Kerroll va B.Blum

66 O'quv rejasi qanday tartibda tuziladi?

A O'quv rejasi mutaxassis tayyorlash mazmunini o'z ichiga oladi.

B Davlat ta'lim standarti talablrini o'z ichiga olgan xolda to'ziladi.

V Mutaxassis tayyorlash predmetlari ularga ajratilgan soatlardan iborat to'ziladi.

G * O'quv predmeti, soati, semestrlardagi o'quv soati, ularning xaftalik mikdori.

67. Jadallashtirilgan ta'lim tizimiga asoslangan pedagogik texnalogiya nima?

A* Bu bulajak o'quv tarbiyaviy jarayonni oldindan loyixalash texnologiyasidir.

B Ta'lim maqsadini aniq shakillantirish.

V Yakuniy natijaning kafolatlanishi.

G Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi.

68. Ta'lim jarayonining qaysi didaktik tarkibi pedagogik texnologiyalarga asoslangan.

A* O'quv-tarbiya maqsadlarini bajarishga sabab buluvchi omillarni yaratishga va boshqarishga asoslangan pedagogik texnologiya.

B Amaliyot koidalariga asoslangan pedagogik texnologiya.

V Bevosita ijtimoiy munosabatlarga asoslangan pedagogik texnologiya.

G Xamkorlikka asoslangan pedagogik texnologiya.

69. O'quv omillarini yaratishga asoslangan pedagogik texnologiya o'qituvchilarining o'qituvchilarga kommunikativ ta'sir etish metodlari qaysi?

A Ishontirish metodi.

B Isbotli natijalarga asoslangan metodi.

V Bevosita ta'sir metodi.

G * Sharoitga karab ta'sir etish.

70. Tanqidiy fikrlash nima?

A O'zida biror xakikat tugrisidagi fikrlarni kamrab olish.

B Bilim va tajribalarga asoslanib fikr yuritish.

V*U faol, muvofiqlashtiruvchi shunday jarayonki, o'zida biror xakikat tugrisidagi fikrlarni kamrab oladi.

G Boshqalar bildirgan fikrga nisbatan javob.

71. Shaxsni rivojlantirishga karatilgan pedagogik texnologiyalar.

A Mutaffakkirlar va allomalar merosiga inson shaxsiga e'tibor.

B Shaxsga gumanistik nazar texnologiyasi.

V Shaxsning umumiy xislatlari va axlokiy xislatlari.

G * Sosiogenetik, biogenetik, psixogenetik ijtimoiy pedagogik yondoshuvlar.

72 O'qitishni individuallashtirish texnologiyasi nima?

A Pedagog birgina o'quvchi bilan o'zaro munosabatda bulishi.

B * Bitta o'quvchi fakat O'qitish vositalari (kompyuter, kitoblar va boshqalar) bilan o'zaro alokada bulish.

V Shaxsiy yondoshuv

G O'quvchi ukishda birgina o'zi ilgari boradi.

73 Pedagogik texnologiyaning ta'limdagi samarasi nimada?

A * bir xil yakuniy natijaga erishishda

B barcha o'quvchilarning faollashtirishda

V mustaqil fikrlashga urgatishida

G zamonaviy texnika vositasidan foydalanganligida

74. O'quv jarayoniga texnologik yondashishda o'qituvchining vazifasi qanday bo'ladi?

A * tashkilotchi va maslaxatchi vazifani bajaradi

B o'quv jarayonini tashkil kiladi

V o'quv jarayonini dasturlashda loyixalaydi

G o'qituvchi axborot beradi va tuplaydi

75. Tarbiyaga texnologik yondashuv.....

A * «Ijtimoiy pedagogika» bilan birgalikda fukorolik gururi, vatanparvarlik;

B Yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarning g'oyasi, mazmuni va tarkibini aniqlaydi ;

V Fukoro o'z xuquqlarini yaxshi biladi;

G Milliy o'zlikni anglashni butun olam insonparvarlik g'oya va madaniyati , umuminsoniy qadriyatlar, kup millatli xalkimiz an'analarini yaxshi anglash;

12-MA'RUZA. Tarbiyaning umumiy metodlari

Reja

1. Tarbiya metodlari to'g'risida umumiy tushuncha.
2. Tarbiya metodlari va ularni guruxlash.
3. Tarbiya metodlarini tanlashgan nisbatan qo'yiladigan talablar.
4. Shaxs ongini shakillantirish metodlari.
5. Faoliyatni tashkil etish metodlari.
6. Rag'batlantirish metodlari.
7. Tarbiyada nazorat va o'z-o'zini nazorat hamda o'z-o'zini baxolash metodlari.
8. Tarbiyaga kompleks yondashuvi.

Tayanch so'z va iboralar: tarbiya metodlari, metodlarni tanlash, ong, rag'bat, jazo, nazorat, baxolash,

1. Tarbiya metodlari to'g'risida umumiy tushuncha.

Tarbiya metodi (yunoncha "metodos" - yo'l) tarbiya maqsadiga erishishning yo'li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar - bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullaridir. Tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga bironta tarbiyachining kuchi etmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachi o'zining imkoniyatiga ko'ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o'zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi. Metodning ijobiy va salbiysi bo'lmaydi, tarbiya jarayonida ma'lum yo'lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u

qo'llanilayotgan sharoit nuqati nazaridan baholash mumkin. Tarbiya metodlarini to'g'ri tanlash bir qator omillarga bog'liq. Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Tarbiya maqsadi va mazmuni metodlarni to'g'ri tanlashga imkon beradi. Maqsad qanday bo'lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo'lishi zarur. Tarbiyaning mazmuni shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat. Unutmazlik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog'lash g'oyat muhimdir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, hozirgi kunda shaxs tarbiyasini muvaffaqiyatli, zamon talabi darajasida amalga oshirish va boshqarishni tahminlovchi samarali metodlarni va vositalarni ishlab chiqish hamda ulardan foydalanish imkoniyatlari masalasi pedagog olimlar va mutaxassislar oldida turgan muhim vazifalar hisoblanadi. Pedagogikada tarbiya metodlari masalasi tarbiya jarayonining murakkab va, shu bilan birga, muhim komponentlaridan sanaladi.

Tarbiya metodlari umumiy ma'noda jamiyat qo'ygan tarbiyaning maqsadlarini va tarbiya jarayoni hal etadigan konkret vazifalarni amalga oshirish yo'llaridir.

Tarbiya metodlari tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning tarbiya maqsad va vazifalarini hal etishga yo'naltirilgan o'zaro birgalikdagi faoliyat usullaridir. Tarbiya metodi «shaxsga yaqinlashishning quroli» bo'lib, u bevosita tarbiyalanuvchi shaxsiga qaratilgandir.

Shunday qilib, tarbiya metodlari shunday usullar yig'indisiki, uning yordamida shaxs ongi va xulqiga maqsadga muvofiq ta'sir etish orqali, unda zarur insoniy sifatlar, foydali faoliyat tajribalari va ko'plab axloqiy fazilatlar shakllantiriladi.

Pedagogika nazariyasida tarbiya metodlari bilan birga tarbiya usullari va tarbiya vositalari tushunchalari ham ishlatiladi.

Usul tarbiya metodining xususiy, alohida mahno kasb etuvchi tushunchasi hisoblanib, u o'sha metod samaradorligi, ta'sirchanligini oshirishga faol yordam beradi. Metodga nisbatan usul yordamchi, xususiy xarakter kasb etadi.

Masalan, mehnat jarayonida mehnat faoliyatini ko'rsatish usul sifatida foydalanilib, jarayonni qanday qilib aniq bajarish yo'li ko'rsatiladi. Hikoya, mahruza metodlarida aniq dalillar keltirish (usul) bilan ko'rsatmalilikka (usul) e'tibor qaratiladi.

Tarbiya vositasi kengroq tushuncha hisoblanib, unda tarbiya vazifalarini hal etish uchun pedagogik maqsadga muvofiq tashkil etilgan har qanday uslubiy yo'llar tushuniladi. Bu umumiy tushunchaga, predmetlar, hodisalar, faoliyat ko'rinishlari, texnik imkoniyatlar, obrazlar, pedagog faoliyati va boshqalar kirishi mumkin. Tarbiya vositasiga ko'rgazmali qurollar, kitoblar, ommaviy axborot vositalari, umuman olganda, tarbiya jarayonida qo'llanilgan imkoniyatlar barchasi kirishi mumkin.

Metod, usul va vosita tushunchalari o'rtasida aniq bir chegara yo'q. Metod, usul va vositalar o'zaro dialektik birlikka ega. Tarbiyaviy ta'sir tizimida turli

tarbiya metodlari o‘zaro bog‘liq holdagina ma'lum natijaga erishishi mumkin.

Hozirgi zamon falsafasining, undan keyin pedagogikaning ham tasdiqlashicha, hodisa, narsalar, faoliyat ko‘rinishlari tarbiya jarayonida tarbiya vositasi sifatida qo‘llanilsa-da, ular o‘zlaricha haqiqatni anglab yetish va qayta o‘zgartirish vazifasini olmaydi. Ular ma'lum tarbiya maqsadlariga erishish uchun qo‘llanilsagina tarbiya vositasi bo‘ladi.

Tarbiya metodlari o‘zining ta’sir kuchi va natijasiga ko‘ra dialektik xarakter kasb etadi va u harakatchanligi, o‘zgaruvchanligi, qo‘llanish holati bilan turlicha natija berishi mumkin.

Tarbiya metodi ba’zi hollarda u yoki bu konkret maqsad va vazifalarni mustaqil hal etish yo‘li sifatida foydalanilsa, boshqa bir holatda xususiy ko‘rinishga ega bo‘lib, uslub sifatida qo‘llaniladi, yana bir holda esa zarur umumiy sharoit yoki vosita sifatida qo‘llaniladi. Jamoaning o‘z ahzolariga nisbatan qathiy e’tiqod sifatida qo‘yilgan talablari jamoaning ma'lum rivojlanish bosqichida tarbiyaning eng muhim metodi sifatida ta’sir ko‘rsatadi. SHu bilan birga, ma'lum odatlarni yuzaga keltirish metodiga qo‘yilgan talablar usul birligi sifatida ko‘makka keladi. Pedagogik jamoa uchun talablar birligi, tarbiya jarayonini butun olganda, uning samaradorligini tahminlash sharti bo‘lib xizmat qiladi.

Tarbiya jarayonining maqsadi shundaki, turli tarbiya metodlarini muomalaga kiritib, ulardan ixcham, o‘zgaruvchan tarzda, turlicha holatlarda turlicha foydalanishga erishiladi. Bu o‘rinda tarbiya jarayonining maqsadi tarbiya metodlaridan foydalanishga dialektik yondashuvdan iborat bo‘lib, ko‘plab holatlar pedagogik jarayon sodir bo‘lishidan, tarbiyalanuvchining yosh xususiyatlaridan, ularning o‘sib borayotgan intilishlaridan, ular faoliyatining ichki intilishidan, muomaladagi o‘zgargan holat va boshqalardan kelib chiqadi. Tarbiya metodlari hamma holatlar uchun bir xil va doimiy bo‘lmaydi. Faqat metodlarning o‘zaro birgalikdagi ta’siri tufayligina ko‘zlangan tarbiyaviy maqsadga erishish mumkin. Tarbiya jarayonining murakkab tomonlaridan biri ham mana shunda.

Masalan, ahil bo‘lmagan jamoada do‘stlik to‘g‘risida axloqiy suhbat o‘tkazish tarbiyachining mushkulini oson qiladi, deb bo‘lmaydi. Buning uchun amalda do‘stlik aloqalarini mustahkamlash, o‘zaro bir-biriga yordam, hamjihatlikni shakllantirish, shu yo‘nalishdagi turlicha tadbirlar, o‘zaro hamkorlik munosabatlari kabi juda ko‘plab tadbirlar axloqiy suhbat kamchiliklarini to‘ldirishi mumkin.

2.Tarbiya metodlari va ularni guruhlash.

Pedagogik jarayonda tarbiyaning davriylik tuzilishi — bu tarbiya texnologiyalarining asosiy xususiyatlariga muvofiq bo‘lgan, uning tarkibiy qismlari yig‘indisidir. O‘qituvchi buning natijasida tarbiyaning davriylik tuzilmasini belgilab olishi mumkin:

1. Maqsadni belgilash — tarbiyalashdan kelib chiqadigan maqsadlarni ma’lum bir muddatli jarayonlarga bo‘lib chiqishi.
2. Mazmunni tanlash — tarbiyalash mazmunini jamiyat talablari

darajasida mustaqil ishlab chiqishi.

3. Demokratik faoliyatli — tarbiyaviy jarayon ishtirokchilarini tarbiyalashda va o‘zaro munosabatda erkin fikrlilik va umuminsoniylik me‘yorlariga rioya qilish qonuniyatlari.

4. Baholash — tarbiyalash jarayonida erishilgan natijalar samaradorligining o‘qituvchi tomonidan baholanib borishi va doimiy tahlil qilinish

Tarbiya metodlari - pedagogik tushuncha bo‘lib, respublikamiz milliy tarbiya tizimida yangicha shakl va mazmun kasb etadi. U avtoritar, pedantik pedagogikadagi tarbiya metodlari bilan chiqisha olmaydi. Xalqning qadimdan foydalanib kelinayotgan milliy pedagogikasida ilgari surilgan, mahlum darajada nazariy jihatdan asoslangan tarbiya metodlari mavjudki, bular minglab yillar davomida oila, mahalla, jamoat joylarida unumli va o‘ta ustalik bilan qo‘llangan va o‘zining yashovchanligi tufayli bugungi kungacha o‘zining ta’sirchanligini yo‘qotmagan. Tarbiya metodlari o‘zining vazifasiga ko‘ra mazkur davlat, tuzum ideologiyasi, g‘oyasi va qarashlariga xizmat qiladi.

Shuning uchun ham metodlar nazariyasi va amaliyoti o‘z tizimini shaxs yashayotgan jamiyat talablari, ehtiyojlari va buyurtmasidan kelib chiqib belgilashi va amalga oshirishi zarur.

uning uchun ham metodlar nazariyasi va amaliyoti o‘z tizimini shaxs yashayotgan jamiyat talablari, ehtiyojlari va buyurtmasidan kelib chiqib belgilashi va amalga oshirishi zarur.

Tarbiya metodlari muammosining murakkabligidan kelib chiqib, ilmiy asoslangan tasnif mavjudki, bu masala turli pedagogik adabiyotlarda turlicha munozaralarga sabab bo‘lmoqda. O‘rganilayotgan mavzu uchun ajratilgan vaqtning chegaralanganligi va oldimizda turgan maqsad yo‘nalishining o‘zgacha ekanligini hisobga olib, ushbu masala yuzasida keng tahlilga berilmadik. SHu jihatdan tarbiya metodlari jamiyat oldida turgan maqsadlardan kelib chiqishini hisobga olgan holda, pedagogik fanlarda mavjud bo‘lgan tarbiya metodlariga oid ilmiy imkoniyatlar, ilmiy - uslubiy manbalardan foydalanish orqali ushbu masalaga oydinlik kiritishga harakat qilindi.

Tarbiya metodlari tasnifida quyidagi nazariy jihatdan muhim deb hisoblangan asosga tayanish mumkin.

1. Falsafaning, undan so‘ng pedagogikaning har qanday metodi (jumladan, tarbiya metodlari ham) haqiqatni bilish va uni o‘zgartirish yo‘li sifatida talqin etildi.

2. O‘quvchini tarbiyalash jarayoni alohida murakkab faoliyat bo‘lib, uning markazida bola xulqi, dunyoga va odamlarga munosabati, murakkab ichki dunyosi, yosh va o‘ziga xos xususiyatlari bilan, maxsus va stixiyali tarzda egallagan bilim va tajribalari bilan ajralib turuvchi shaxs yotadi.

3. Tarbiya metodlari yuqoridagilar bilan birga tarbiya jarayonining murakkab komponenti hisoblanib, u tarbiya maqsadi, mazmuni, shuningdek, tarbiyachi oldiga qo‘yiladigan vazifalarni hal etishga yo‘naltirilgan. Tarbiya metodlari o‘z o‘rnida tarbiyalanuvchi shaxsining shakllanishida uningbarcha o‘ziga xos tomonlarini hisobga olishi kerak: tarbiyalanuvchining

tarbiyalanganlik darajasi, kelajakdagi rivojlanishi va keyingi turmush tarzidagi o'zni hisobga olinishi zarur.

4. Tarbiya jarayoni shaxs shakllanishi kabi turli qarama-qarshiliklardan iborat bo'lib, tarbiya metodlari shaxs faoliyatidagi o'zgarishlarni korrrektirovka qiladi, noqulay sharoit va stixiyali ta'sir tufayli yuzaga kelgan salbiy qarashlar, usullarni, sifatlarni tuzatish bilan ham shug'ullanadi.

Tarbiya metodlari quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Shaxs ongini shakllantirish metodlari.
2. Faoliyat, muomala, ijtimoiy xulq tajribalarini tashkil etish metodlari.
3. Faoliyat va xulqni rag'batlantirish va motivlarni chuqurlashtirish metodlari.
4. Faoliyat va xulqni nazorat qilish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini baholash metodlari.

Ushbu metodlarni ajratishga shaxs faoliyatining yaxlit tizimi asos qilib olingan bo'lib, u faoliyat jarayonini anglab yetish, uni tashkil etish, faoliyatni rag'batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil etishni o'z ichiga oladi.

Pedagogik jarayonning rivojlanish dialektikasida tarbiya metodlari murakkab va ziddiyatli birlikda ishtirok etadi. Hal qiluvchi ahamiyatga bu o'rinda ayrim birlashgan vositalar mantiqi emas, balki ularning tizimini o'zaro uyg'un tarzda tashkil etish ega bo'ladi. Albatta, tarbiya jarayonining mahlum bosqichida bu metod alohida ajratilgan holda qo'llanilishi mumkin. Lekin boshqa metodlar yordamida, ular bilan bevosita bog'liq holda qo'llanilmasa, o'zining ahamiyatini yo'qotadi, ko'zlangan maqsad sari borish jarayonini sekinlashtiradi.

2. Tarbiya metodlarini tanlashgan nisbatan qo'yiladigan talablar.

Tarbiya metodlarining tuzilishi va tanlanishini belgilovchi bog'liqliklar ichida birinchi o'rinda uning jamiyat ideallari va tarbiya maqsadlariga muvofiq kelishi turadi.

Tarbiyachi amaliy faoliyatida tarbiya metodlarini tanlashda, odatda, tarbiya maqsadlari va uning mazmuniga tayanadi. Konkret pedagogik vaziyatlardan kelib chiqib, tarbiyachi qanday metodlardan foydalanishni o'zi hal etadi. Bu metod xoh mehnat ko'nikmasini ko'rsatish bo'lsin, xoh ijobiy namuna yoki mashq bo'lsin, bular, avvalo, ko'plab omillar va sharoitlar bilan bog'liq bo'lib, tarbiyachi shu holat uchun eng mahqul keladiganini tanlaydi.

Metod yaxshi ham, yomon ham bo'lmaydi. Tarbiyaga metodlar emas, balki ularning tizimi asos qilib olinadi. Mahlum tarbiya natijalariga erishish uchun qo'llanilayotgan metodlar bir xilda bo'lsa-da, sharoit, holatga qarab turlicha variantlarda qo'llanilishi mumkin. Bu o'rinda pedagogik mahorat shundaki, tarbiyachi o'quvchilar rivojlanishining yosh va o'ziga xos xususiyatlari hamda qonuniyatlariga mos eng qulay tarbiya metodlarini topadi va qo'llaydi.

Tarbiya metodlarini tanlashda pedagogik amaliyotda tasdig'ini topgan quyidagi kabi bir qator pedagogik talablarga rioya qilish kerak:

1. tarbiya metodlarining tarbiya maqsad va vazifalariga muvofiq kelishi;
2. tarbiya printsiplari talablariga javob berishi;
3. tarbiyani amalga oshirishga xizmat qilishi;
4. o'quvchilarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi;
5. tarbiyalanuvchining tarbiyalanganlik darajasiga bog'liq bo'lishi;

6. metodlar jamoa rivojlanish darajasiga ko'ra ham tanlanishi;
7. konkret shart-sharoit, imkoniyatlarning ham hisobga olinishi;
8. bolaning shu konkret sharoitdagi ruhiy holatiga ham alohida e'tibor berilishi kerak.

3. Shaxs ongini shakllantirish metodlari.

Shaxs ma'naviy hayoti va faoliyatida tor doiradagi qarashlar hamda ilmiy ong o'rtasida doimo kurash ketadi. Faoliyat va munosabat sohasining kengayishi, insonning o'z ichki dunyosiga bo'lgan shaxsiy ehtiyojining ortib borishi, hayotida yangi hodisalar bilan ro'baro' bo'lishi o'quvchidan chuqur mushohada yuritishni, muammolarni hamma narsaga intilish orqali hal etishni talab qiladi. Paydo bo'layotgan savollarga, muammolarga javob izlash shunga olib keladiki, o'quvchining ong zahirasi, qarashlari, tushuncha va dunyoqarashi, baho berishi, xulosa chiqarish imkoniyati yetarli emasligi mahlum bo'ladi. Bu o'rinda shaxs ongiga yangi bilimlar, talablar, mehyor, qoida va qonuniyatlarni kiritishda tarbiyachi yordamga keladi. Anglab yetilgan va g'oyaviy asoslangan bilimlar esa o'quvchida qathiy hamda o'ziga xos qarashlar va ishonch tizimining yuzaga kelishiga asos bo'ladi.

Ushbu guruh metodlarining 2 ta vazifasi mavjud: ulardan birinchisi o'quvchi ongiga axloq, mehnat jarayoni, estetik bilimlar to'g'risidagi nazariyalarni singdirishdan iborat bo'lsa, ikkinchisi - o'quvchining shaxsiy tajribalarini, uning harakatlari, faoliyati, xulq-atvorini umumlashtirishdan iborat.

Ushbu metodning bosh quroli tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning nutqi hisoblanadi va u o'quvchining faol-hayotiy o'rnini belgilash, o'z qarashlarini, fikr-mulohazalari, printsiplarini asoslash va himoya qilishga o'rgatadi. Mazkur metodlar guruhi o'quvchilarni o'z-o'zini anglashga va, oxir-oqibatda, o'z-o'zini tarbiyalashga olib keladi.

Ongni shakllantirish metodlari murakkab ijtimoiy, axloqiy, mehnat, estetik me'yor va tushunchalarni konkretlashtiradi, faoliyatning emotsional holatini yaratadi, ijobiy axloqiy, ijtimoiy motivlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Har bir yosh davrida bu metodlar yanada ko'proq, kengroq va chuqurroq ma'no kasb etib boradi.

Masalan, kichik yoshdagi o'quvchilarni ishonarli dalillar yordamida ishontirish mumkin bo'lsa, o'smirlik yoshidan bolalarni misollar bilan emas, balki mantiqiy asoslash orqali, katta yoshdagi o'quvchilarni axloqiy tushunchalarni atroflicha chuqur asoslash, bir necha ko'rinishlarni qiyosiy tahlil etish orqali ishontirish zarur bo'ladi. Katta yoshdagi o'quvchilarda qat'iy ishonchni yuzaga keltirish uni ko'proq munozara-bahslarga taklif etish va shu orqali boshqalarda o'zining fikri qandayligini anglab yetish orqali amalga oshiriladi.

Ushbu metodlar guruhiga kiruvchi suhbat metodi turli ko'rinishlarga ega bo'lib, undan siyosiy, estetik, axloqiy va boshqa ko'rinishlarda foydalanish mumkin.

Suhbat metodining asosiy vazifalari - voqea, axloqiy ko'rinishlar, ijtimoiy turmushdagi hodisalarga munosabat bildirish, ularni baholashdan iborat bo'lib, oqibatda tarbiyalanuvchining o'rab turgan borliqqa, o'zining fuqarolik, siyosiy va

axloqiy burchlariga qarashlarini shakllantirishdan iborat. Agar suhbat davomida muhokama etilayotgan masala, muammo bola shaxsiy tajribasida tayanch topa olsa, uning ishtirovchi kuchi yuqori bo'ladi. Ushbu metodning ijobiy tomoni shundaki, avvalo, turmush va faoliyatning har qanday ko'rinishiga faol munosabat bildiriladi, o'quvchi qiziqqan savollariga javob topadi, bolalarning har bir faoliyatda o'z o'rnini bo'lib, qo'yilgan masalalarning jonli muhokamasida erkin ishtirok eta oladi, aniq holatni o'ylab, fikrlash imkoni yaratiladi.

Suhbat metodini amalga oshirishda rioya qilinadigan asosiy pedagogik talablar:

1. Tanlangan mavzu dolzarb bo'lishi va u tarbiya vazifalari va o'quvchi ehtiyojiga mos kelishi shart.

2. O'quvchilardagi mavjud tajribaga tayanish, ulardan foydalanish va zarur bo'lsa, unga tuzatishlar kiritish. Yoshga ko'ra suhbatning majburiy dinamikasini hisobga olish.

3. Suhbat mazmunini ustalik bilan tanlash, o'quvchilar uchun yangi, noma'lum fikrlarni topish, ushbu yoshdagi o'quvchilar guruhi uchun o'zlashtirish qulay bo'lgan xulosalarni shakllantirish.

4. Savollarni, masalani qiziqarli qilib qo'yish, albatta, uni muammoli tarzda qo'yishga, o'ylashga, fikrlar bilan faol qatnashishga imkon beruvchi suhbat tashkil etish.

5. Suhbatga ijobiy emotsional ko'rinish berish zarur.

6. Suhbatni ko'rgazmali qilish, misollarni konkretlashtirish, texnika vositalaridan foydalanish.

Bu umumiy talablar asosida qo'yiladigan maqsad, suhbat mazmuni ishtirokchilarning yosh tarkibi bo'yicha turlicha xarakter kasb etadi. Har qanday tarbiyaviy suhbat uchun umumiy va majburiy talab uning ishtirokchilar uchun ta'sirchanligi, ularni o'ziga jalb eta olishidir. Yangilik bir xilda bo'lmasligi kerak, chunki u bolalar uchun zerikarli qaytariqdir. Turli yo'nalishdagi tarbiyaviy suhbat - mazkur holatda bolalar uchun jonli, o'ziga jalb eta oladigan, zarur, eng kerakli, qiziqarli gaplar demakdir.

Suhbatlarni tashkil etish va o'tkazishda imkoniyatlar nazarda tutilishi kerak.

Masalan, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun suhbatlarni induktiv yo'l bilan tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Yangi konkret dalillardan umumlashtirishga qarab borish zarur.

Yosh ulg'ayib borishi bilan o'quvchilar xulq, faoliyatiga asos bo'lgan dalillarni tahlil qilishga o'rganib borib, tushunchalarni keng, umumiy tarzda talqin eta olish bilan, suhbat mazmunini va uni o'tkazish metodikasini, tarbiyalanuvchining tashabbusiga tayanish orqali tanlash samarali natija beradi.

Ijtimoiy ongning shakllanishi o'quvchilarda ijtimoiy turmush, mehnat, fan va texnika, axloq va estetika sohasidagi tasavvur va tushunchalarning paydo bo'lishidan boshlanadi. Tarbiyachi bolalar bilan qaysi mavzuda gap boshlasa, ushbu maslahat, fikr sinf uchun ahamiyatli ekanligiga bolalarda oldindan qat'iy ishonch uyg'otishi, ijobiy qarash bilan javob berishga erishishi zarur. Bu esa, o'z o'rnida, suhbatdan yanada murakkabroq metodga - mahruza metodiga o'tishga olib keladi. Bu eng qulay, keng, atroflicha va tashkiliy jihatdan ahamiyatli bo'lgan

metod ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, g'oyaviy, estetik mazmundagi u yoki bu muammolar mohiyatini tinglovchilarga izchil, asosli yetkazishga yordam beradi.

Mahruzaning mantiqiy asosi ilmiy onga aloqador mahlum mahnodagi nazariy fikrlar hisoblanadi. Bu o'rinda mahruza materialining asosini tashkil etuvchi kirish suhbat, dalillar, illyustrativ manbalar yo'naltiruvchi holat bo'lib xizmat qiladi.

Dalillarning ishonchliligi, asosliligi, kompozitsion tuzilishi, jonli va yurakdan bildirilgan fikrlar, so'zlar mahruzaning g'oyaviy va emotsional ta'sirchanligini oshirishga yordam beradi. Yuqori sinf o'quvchilari, talabalar ayniqsa, mahruza vaqtida o'qituvchining erkin va mustaqil fikr yuritishiga, kutilmaganda mavzuni o'zgartira olishiga, berilayotgan materialga shaxsiy qarashlarini, nuqtai nazarini bildira olishiga, tanqidiy tahlil eta olish qobiliyatiga baho beradilar.

Ommaviy axborot vositalari orqali o'quvchilar, talabalar juda ko'p ma'lumotlarni egallashayotgani, ma'lum tushunchalarga ega bo'layotganini nazarda tutish zarur. Lekin bu yo'llar bilan olingan to'liq bo'lmagan bilimlar, ularning fikricha, haqiqiy bilim bo'lib tuyuladi. Shuning uchun o'qituvchi ma'ruza vaqtida o'quvchi, talabalar ko'rgan, eshitgan hodisa, voqea to'g'risidagi ma'lumotlar mohiyatini anglab yetishga, axborot vositalari orqali olingan bilimlarni tahlil etish, baho bera olishga o'rgatishi muhimdir.

Qat'iy fikr, ishonchni shakllantirish, oldindan ma'lum bo'lgan qonuniyatlarga asoslangan fikrlar to'qnashuvida egallangan bilimlar, turlicha nuqtai nazar hamma vaqt yuqori darajadagi mustahkamligi va ixchamligi, umumiyliigi bilan ajralib turishi jihatidan munozara metodi alohida ahamiyat kasb etadi. Munozara yuqori sinf o'quvchilari xususiyatlariga to'raligicha mos keladi. Shakllanayotgan shaxs turmushning haqiqiy mahnosini topishga intilish, yuzaki narsalarga ishonmaslik, haqiqatni bilish uchun juda ko'plab dalillarni qiyosiy o'rganish kabi sifatlarga ega bo'ladi. Munozara qat'iy, tugal qarorni talab etmaydi.

Bu metod o'quvchilarga tushuncha va asoslarni tahlil etish, o'z qarashlarini himoya qilish, boshqalarni bunga ishontirish uchun imkon yaratadi. Munozarada ishtirok ztish uchun qarama-qarshi tomonning kuchli va bo'sh tomonlarini aniqlash, bu borada o'z nuqtai nazari to'g'riligini, ikkinchi tomonning xatolarini, dahvolari noto'g'riligini isbotlash, uni dalillab ko'rsatish kerak. Munozara haqiqat yo'lida kurashishga, haqiqatni tan olish kabi olijanob sifatlari shakllanishiga yordam beradi.

Pedagogik nuqtai nazardan muhokama, munozara uchun tanlangan mavzu o'quvchi, talaba hayotida muhim o'rin egallaydigan, ularni qiziqtiradigan, ochiqchasiga suhbatga torta oladigan bo'lmog'i lozim. Munozara mavzularini o'quvchilarning o'zlari aytishi mumkin. Nima uchun xulq hayot talablariga doimo to'g'ri kelavermaydi? Ko'ngilchan odamlar qanday paydo bo'ladi? O'z baxtining haqiqiy egasi bo'lish mumkinmi? kabi mavzular ochiqchasiga erkin munozara yuritish uchun xizmat qila oladi.

Munozara tarbiyachining, shuningdek, o'quvchining ham puxta tayyorlanishini talab etadi. Muhokama uchun kiritilayotgan savollar o'quvchilarni faol jalb etgan holda oldindan tuzilsa yaxshi bo'ladi. Haqiqiy tarbiyachi o'zining

madaniyatlilik, irodalilik sifatlari bilan o'rnak bo'lishi, munozaraga o'rinsiz aralashmasligi, qo'pollik bilan buzmasligi, o'z fikrini majburan o'tkazmasligi kerak. Munozarani boshqarishda qathiy tasdiqlash yoki qathiy man etish yo'lidan bormaslik kerak.

O'quvchining shakllanayotgan ongi real hayotda, amaliyotda, jonli obrazlar misolida o'ziga tayanch, asos bo'ladigan va jamiyat talab etayotgan ideal sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan insoniy fazilatlarni ko'rishni xohlaydi. Bunday izlanishda o'quvchidagi taqlidchilik muhim hisoblanib, u tarbiya metodi sifatida ibratning psixologik asosi bo'lib xizmat qiladi. Taqlidchilik, ko'r-ko'rona ergashish, o'xshash bo'lish emas, balki g'oyalar ideal sifatlarga yetaklovchi yangi ko'rinishdagi harakatlarni shakllantirishga xizmat qilishi zarur. Taqlid orqali insonda ijtimoiy-axloqiy maqsadlarni amalga oshiruvchi, faoliyatning ijtimoiy jihatdan yuzaga kelgan usullari shakllanadi.

Taqlidchilik faoliyati o'z xarakteriga ko'ra yosh o'zgarishi, tajriba, o'z hayotiy o'rning ortib borishi orqali, intellektual va axloqiy rivojlanish tufayli o'zgarib boradi. Odatda kichik yoshdagi o'quvchilar taqlid uchun tayyor obrazlarni tanlaydi. O'smir yoshda taqlid mustaqil fikr yuritish orqali u yoki bu tarzda yuzaga keladi. Katta maktab yoshida taqlidchilik ko'proq onglilik, gaplarning ichki mohiyatini anglab yetish bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Ibratning ta'sirchanlik mexanizmida eng kami uchta bosqichni ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi bosqichda, konkret faoliyatni qabul qilib olish natijasida, o'quvchida shunday bo'lishga harakat yuzaga keladi. Lekin taqlid uchun ibrat bilan keyingi faoliyat o'rtasida bog'liqlik bo'lmasligi mumkin.

Bunday aloqa, bog'liqlik ikkinchi bosqichda yuzaga kelishi mumkin.

Uchinchi bosqichda taqlidchilik va mustaqil faoliyatning birlashuvi yuzaga keladi hamda bunga hayotiy va maxsus tashkil etilgan tarbiyaviy holat faol ta'sir etishi mumkin.

Taqlid uchun mahqul bo'lgan ibratlar maktabda ham, uyda va ko'cha-ko'yda ham bo'lishi mumkin. Aka-opalar, ota-ona, qarindosh-urug'lar, keksa avlod, o'rtoq-do'stlar, turli badiiy asar qahramonlari, boshqa odamlar ibrat bo'lishi mumkin. Ayniqsa, o'tmish avlodlar jasorati, ularning o'chmas obrazlari, xalqimizning turli sohalardagi asl mehnatkash farzandlari ham ibrat bo'la oladi.

SHunday qilib, taqlidchilik va uning asosidagi ibrat tarbiya jarayonida qo'llanishida o'zining haqiqiy o'rnini topa olishi zarur.

4. Faoliyatni tashkil etish metodlari

Inson mehnat, bilish va muomalaning subhekti sifatida haqiqatning ilmiy o'zlashtirilishini tahminlaydigan faoliyat jarayonida shakllanadi. Mehnat, bilim, muomala shaxsning rivojlanishi va shakllanishi uchun qurilish materiali bo'lib xizmat qiladigan iroda va quvvatni faollashtiradi, qiziqish, his-tuyg'uni uyg'otadi, yangi ehtiyojlarni yuzaga keltiradi. Faoliyat sog'lom turmush tarzining asosiy sifatida o'quvchilarda ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy xulq tajribalarini boyitishda muhim manba hisoblanadi.

Har qanday faoliyat operatsiya va harakatdan tashkil topadi. Operatsiya yaxlit, bir butun faoliyatni tashkil etishga yordam beruvchi kichik jarayonlar,

qisqa muddatli holatlardir. Harakatlar - jarayonlar bo'lib, ularning motivlari o'sha faoliyatda mavjud va harakatlar faoliyat tarkibiga kiradi. Tarbiya jarayonida tarbiyachining o'rni shundan iboratki, pedagogik operatsiyalarni boshqarishdan harakatlarni boshqarishga o'tadi, keyinchalik o'quvchilarning faoliyatini boshqarish tomon boradi.

Pedagogika nazariyasida qator umumiy qonuniyatlar aniqlanganki, bular o'quvchilar faoliyatiga pedagogik rahbarlik metodini va ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishni belgilab beradi.

1. Ijtimoiy faoliyatlar mahlum tarbiyaviy imkoniyatlarga ega. Lekin bitta ko'rinishdagi faoliyat qolganlarning o'rnini bosa olmaydi. Shuning uchun tarbiyada faoliyatning kompleks ko'rinishlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

2. «Shaxsiy ma'no» kasb etmagan har qanday faoliyat ijtimoiy ta'sir ko'rsata olmaydi.

3. Tarbiyaviy ta'sir natijasida o'quvchilarda faoliyat, maqsad va usullarni tanlashga tayyor bo'lish sifatleri shakllanadi.

4. Agar pedagogic ko'rsatmaning kerakli usullari topilmagan va amalga oshirilmagan bo'lsa, o'quvchi shaxsining shakllanishiga nisbatan faoliyat neytral jarayon bo'lib qoladi. Ushbu ko'rsatmada turlicha metod va usullar o'z aksini topishi, ularda qo'zg'atuvchi va mashq, ijtimoiy xulq tajribalarining shakllanishi ta'minlanishi zarur.

Kuzatuvchi, harakatlantiruvchi vazifani bajaruvchi metodlar ichida pedagogik talablar eng ahamiyatlilaridan biri hisoblanadi. Talablarda tarbiya jarayonining ichki va tashqi dialektikasi aniq o'z ifodasini topgan. Pedagogik talablar shaxs rivojlanishidan nafaqat ilgarilab ketishi, balki keyinchalik tarbiyalanuvchining o'z-o'ziga talablar qo'yishiga zamin bo'lib xizmat qilishi kerak.

Pedagogik talablar jamiyat amal qiluvchi axloqiy me'yorlar, ta'lim muassasalarining ichki tartib-qoidalari, o'quvchilar uchun berilgan qoidalar asosida belgilanadi.

«Aylanma yo'l» bilan qo'yiladigan talablar o'quvchilarda shakllangan motivlar, maqsadlar, e'tiqodlarga tayanadi. Talablarning bu tarzda ko'rinishlari ta'sirchanligi bilan o'zbek xalqi tarbiya tizimida qadimdan ma'lum. Ota-onalarimiz yosh avlodni uning nozik his-tuyg'ularini, o'ziga xosligini, sharoit masalasining qanchalik muhimligini hisobga olgan holda, bolaga to'g'ridan-to'g'ri qo'yiladigan talablarga qaraganda, maslahat berish, holatni tahlil etish yo'li bilan unga baho berish zaruriyatini uqtirish orqali u yoki bu topshiriqni bajarilishga yo'naltirganlar. Odatda, bunday hollarda tarbiyachi, ota-ona bajarilishi zarur bo'lgan pedagogik vazifani boladan yashirish, yahni o'zining qathiy talablarini birinchi o'ringa qo'ymaslik, balki masalani shaxsdagi turli imkoniyatlarga tayanib ilgari surish va uni bajarish qanchalik ahamiyatligini izohlash yo'li bilan maqsadga erishishga harakat qilinadi. Albatta, pedagoglar qo'yiladigan talablarning me'yoriy jihatlarini to'g'ri hisobga olishlari kerak.

Har qanday pedagog o'zi qo'yayotgan talablarning ijtimoiy xarakterini ocha borib, jamoa manfaatlaridan kelib chiqishga erishmog'i lozim. Jamoatchilik fikri jamoa talablarining ifodasi hisoblanadi. Jamoatchilik fikri o'zida jamoa bahosi,

fikr-mulohazasi, irodasini birlashtirib, faol va ta'sirchan kuch sifatida namoyon bo'ladi va u pedagog qo'lida tarbiya metodi vazifasini o'taydi.

Maktab jamoasi ijtimoiy munosabatlarni yo'lga qo'yar ekan, uning asosida o'quvchilarda ong, xulq va faoliyatning kerakli jihatlari shakllanishiga e'tiborni qaratadi. Jamoa o'zining rivojlanishida g'oyaviy intellektual-emotsional-irodaviy va tashkiliy birlikka erishib, o'z-o'zini boshqarishga qodir bo'ladi va bunda jamoatchilik fikri eng muhim hisoblanadi. Bunday jamoa fikri subhektiv hisoblanib, pedagogning yaqin tayanchi va ishonchli hamkori bo'lib qoladi.

O'qituvchi tarbiyalanuvchilar o'rtasida sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish uchun ularni sinf va maktabdagi barcha voqea va hodisalarni jamoa bo'lib printsiptal tarzda muhokama etishga jalb qiladi. Agar sinfdagi ko'pchilik o'quvchilar jamoa faoliyatida faol ishtirok etsa, muvaffaqiyatlarni birgalikda baham ko'rsa, mavjud kamchiliklarga tanqidiy munosabatda bo'lsa, uni ko'pchilik bo'lib bartaraf etishga kirishsa, bu holat ushbu jamoada yetuk ijtimoiy fikr yuzaga kelganini ko'rsatadi. Buning aksi esa jamoada o'zi bo'larchilik, ozchilik manfaatini himoya qilish, kechirimlilik, betaraflik kabi salbiy qarashlar mavjudligini ko'rsatadi.

Amaldagi jamoatchilik fikri, uning ijtimoiy-ma'naviy, g'oyaviy yo'naltirilganligi ko'p jihatdan yoshlar ittifoqining, ularda bir maqsad sari ko'pchilik bo'lib harakat qilish kabi sifatning yuzaga kelishiga sharoit yaratadi.

O'rgatish bolalar tomonidan ma'lum harakatlarning keyinchalik ijtimoiy xulqning odatiy shakllariga aylantirish maqsadida rejali va doimiy bajarilishini tashkil etishdan iborat. Ma'lum sharoitda odat shaxsning turg'un xususiyati, insoniy sifati bo'lib qolishi zarur. Odat shunday jarayonki, uning vositasida ishonch moyillikka aylanadi va fikr amaliyotga o'tadi.

O'rgatish tarbiyaning va bolalar rivojlanishining dastlabki bosqichida yaxshi samara beradi. Ushbu metodni qo'llash bahzi pedagogik shartlarga rioya qilishni talab etadi: o'rgatish, avvalo, o'zlashtirish zarurligini aniq tasavvur qilishdan boshlanadi; o'quvchilarga u yoki bu harakat obrazini tavsiya etish bilan uni ixcham va aniq qoidalarda tushuntirish zarur; har bir vaqt bo'lagi uchun ayrim harakatlar bajarilishini ajratish kerak va undan ma'lum xulq ko'rinishi yuzaga keladi, yahni vaqtga nisbatan xulqiy harakatlarni ayrim-ayrim ko'rinishlarga bo'lib bajarilishini tashkil etish; ma'lum odatlarning yuzaga kelishi uchun vaqt kerak. Bunda shoshma-shosharlik yaramaydi; avvalo, o'sha harakatning aniq bajarilishiga erishish va keyinchalik tez bajarilishiga o'tish kerak; o'rgatish metodi harakatlarni bajarish usullarini nazorat qilishni taqozo etadi.

Nazorat o'qituvchidan tarbiyalanuvchiga nisbatan xayrixohlik, qiziqish bildirishni, paydo bo'lgan qiyinchiliklarni tahlil etish, aniqlash, keyinchalik izlash usullarini muhokama etishni talab qiladi. Yana, eng muhimi, o'rgatish metodi o'quvchilar o'z-o'zini nazorat qilishining tashkil etilishiga, ularning yoshi, turmush sharoiti, tarbiyasiga bog'liq holda o'zgartirib turiladi. Hamma vaqt ham ochiqdan-ochiq u yoki bu xulq usullarini egallashni vazifa qilib qo'yish maqsadga muvofiq bo'lavermaydi. O'qituvchi bunday holatda bola faoliyatini shunday tashkil etadiki, o'quvchi uni qoniqish bilan bajara borib, kerakli xulq ko'rinishiga o'zi bilmagan holda erkin va majburiyatsiz odatlanadi. Bahzi hollarda o'quvchilar

oldiga ma'lum darajada o'zini boshqarish kerakligi ochiqdan-ochiq vazifa qilib qo'yiladi.

Masalan, xushmuomala, hushyor, intizomli bo'lish. Ayrim hollarda o'quvchilarga u yoki bu sifatlarni egallashi zarur ekanligini eslatib turish kerak. Bunday intilish o'quvchilar mahlum odatlarni egallashiga sababchi bo'ladi.

Sinovdan, tajribadan o'tgan o'rgatish vositalaridan biri turmush rejimi va o'quvchilar faoliyatini tartibli yo'lga qo'yishdan iborat. Rejim qanchalik qat'iy bo'lsa, u shunchalik yaxshi dinamik strategik shakllanishga imkoniyat yaratadi.

O'rgatish asosida bolalar tomonidan amaliy harakatlarning bajarilishi yotadi. Unga odatlantirish harakatning qanday bajarilishini amalda ko'rsatish bilan xarakterlanadi, shundan so'ng esa uni mustahkamlash kerak bo'ladi. Buning uchun harakatni ko'p martalab sistemali qaytarish, mashq qilib borish lozim.

Shartlarning doimiyligi, aniqligi, izchilligi va amaliy harakatlarni asta-sekin murakkablashtira borish oxir-oqibat o'quvchilarda mukammal ko'rinishdagi zaruriy xulqiy ko'rinishlardan odatlarning shakllanishiga olib keladi. Odatiy faoliyat o'zining tezligi, aniqligi, yengil bajarilishi bilan ajralib turadi, ko'p kuch va vaqt talab etmaydi.

Bunday zaruriy xulqiy ko'rinishlar tajribada mustahkamlangan bo'lib, mashq ta'siri ostida yuzaga keladi va bular tarbiya metodlari tizimiga kiradi.

Mashqning ahamiyati ijtimoiy xulqning barqaror asosi sifatida harakatlarning qimmatli usullarini takomillashtirishdan iborat. Uning ko'rinishi ushbu usul va harakatlarni ko'p martalab takrorlashdan iborat. Ilg'or tajribalarni umumlashtirishdan kelib chiqib, mashq metodiga qo'yiladigan uslubiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Mashq metodidan bajarilayotgan harakatlar, odatlar zarurligi va foydaliligini anglab yetgachgina foydalanish zarur.

2. Bajarilayotgan harakatlarni oldin aniq takrorlashni o'rganib, undan so'ng tez bajarishga o'tish kerak.

3. Foydali usulni egallash harakatni takrorlash soniga, tarbiyalanuvchining tajribasiga bevosita bog'liq.

4. Mashq natijasining aniqlanishi bola muvaffaqiyatining sezilarli bo'lishiga va uning hissiy mustahkamlanishiga bog'liq.

Tarbiyaning boshlang'ich bosqichida tarbiyalanuvchilarni tashkiliy harakatlarga o'rgatish, odatlantirish tarbiyachi yoki kattalar yordamida amalga oshirilsa, pirovard natijada ularning o'z faoliyatini o'zlari tashkil etishiga olib keladi. Mashq metodi ko'pgina topshiriqlar orqali amalga oshiriladi.

Maktab o'quvchilarining real hayoti va faoliyatida tarbiyaviy jarayonlarda shakllangan butun bir tizimning qanchalik puxtaligi aniqlanadigan va sinovdan o'tkazib turiladigan holatlar doimiy yuzaga kelib turadi. Bunday holatni yaratish, undagi mavjud ziddiyatlarni aniqlash, yuzaga kelayotgan mavjud muammolarni hal etish har bir pedagog uchun juda muhimdir. Shunday maxsus uyushtirilgan pedagogik sharoitlar tarbiyalovchi holatlar deyiladi. O'e mohiyati bilan bunday holatlar erkin tanlanadi. Ushbu holatda o'quvchi uchun bir necha variantlardan birini tanlash imkoniyati yaratiladi. Bunda o'quvchi berilgan imkoniyatlardan foydalanishi yoki indamay turish yoxud to'g'risini aytishi mumkin. O'qituvchi

tomonidan yaratilgan ushbu holatlardan chiqish maqsadida o'quvchi o'zining imkoniyatlari, xulqiy odatlarini qayta ko'rib chiqadi.

Tarbiyalovchi holat tarbiya jarayonining barcha asosiy komponentlarini o'z ichiga oladi. Bunday mazmundagi faoliyatning vazifasi mahlum guruh bolalarining o'ziga xosligi, shakllangan jamoaning mavjudligi bilan xarakterlidir. Yaratilayotgan holatning asosiy mohiyati uning tarbiyaviy muhit yaratishida va bu holat ishtirokchilari o'rtasidagi muomala va ular o'rtasidagi munosabatlar qay darajadiligiga bog'liq.

Inson, hozirgi zamon psixologiyasining tasdiqlashicha, muhitning ajralmas bir bo'lagi bo'lib, uning dunyoga bo'lgan munosabati muhitning o'zgarishiga obhektiv ta'sir etuvchi faktor sifatida namoyon bo'ladi.

Bu holatlarning har biri mahlum ko'nikmalarning shakllanishiga ta'siri bilan, shu bilan birga, ko'rsatilgan holatlar, albatta, o'quvchilarning bir-birlari bilan muomalasi asosiga va bunday munosabatlarning boshqa o'quvchilar guruhiga bevosita ta'siri bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga, tarbiyalovchi holatning tarbiyaviy metod sifatidagi eng kuchli tomoni ayrim o'quvchilar faoliyati va xulqini zarur usullar bilan qurollantirishdan, umumiy holatda esa zarur bo'lgan turlicha munosabatlarning ishtirokchilar o'rtasida shakllanishiga yordam berishdan iborat.

Aniq tarbiyaviy vazifalar bilan bog'liq bo'lgan maxsus o'yin holatlarini yaratishda ham tarbiyaviy holatlarning ahamiyati kattadir.

5.Rag'batlantirish metodlari

Rag'batlantirish (stimullash) deganda, fikrlashga, his etishga va faoliyatga jalb etish, turtki berish, kuch berish tushuniladi. U yoki bu omilning o'quvchi shaxsiga ta'sirini mustahkamlash va kuchaytirish maqsadida stimullovchi metodlar qo'llaniladi va bularning ichida eng ko'p qo'llaniladigani musobaqalarni rag'batlantirishdir.

Ushbu guruh metodlari tarbiyachi foydalanadigan juda ham nozik qurolki, u tez o'zgaruvchan xarakterga hamda doimiy rivojlanishdagi, bir vaqtning o'zida ham effekt javob kuchiga, ham effekt ta'sir kuchiga ega bo'lib, shaxs bilan muloqot davomida qo'llaniladi. Shuning uchun ham ushbu metoddan foydalanuvchining obro'si alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur guruh metodlaridan foydalanishda ularning harakat mexanizmi har tomonlama o'rganilgan va tajribada ko'p sinovdan o'tkazilgan bo'lishi kerak.

Qadimdan xalqimizda turli sport o'yinlari (uloq, kurash, dasta-chikaldak, chovgon singari), askiya payrovlari kabilardan bolalarni tarbiyalashda juda ustalik bilan foydalanib kelingan.

Hozirgi davrda ham musobaqalardan mehnat, ijtimoiy faoliyat, o'qishda eng yaxshi natijalarga erishish uchun, orqada qolayotganlarni ilg'orlar safiga ko'tarish, turli ijodiy faollik, tashabbus, ijodkorlik, mashuliyat va o'zaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida foydalaniladi.

Odatda, musobaqalarni turli sinflar o'rtasida eng yaxshi o'zlashtirish bo'yicha o'tkazish, shuningdek, eng ko'p sher yodlash, eng ko'p misol yechish,

eng yaxshi taklif, eng toza daftar, eng pokiza kitob, eng ko'p daraxt, gullar o'tqazish, sinfni namunali saqlash kabi yo'nalishlarda o'tkazish maqsadga muvofiq.

Musobaqalar, odatda, guruhlar o'rtasida, yakka tartibda, jamoalar orasida o'tkaziladi.

Musobaqalarni tashkil etish va o'tkazish davomida oshkoralik, aniqlik, natijalarni qiyoslash, halollik, do'stlik, ilg'or tajribalarni amaliyotda qo'llash va rag'batlantirish qoidalariga amal qilish kerak.

Rag'batlantirish - ayrim o'quvchilar yoki jamoalar xulqi va faoliyatini jamoatchilik tomonidan ijobiy baholash usuli hisoblanadi. Uning stimullovchi roli o'quvchi tomonidan bajarilayotgan va amalga oshirilayotgan ishning hayotdagi talqinini jamoatchilik tomonidan tan olinishidir. O'quvchi bunday bahodan qoniqish hosil qila borib, unda o'zidagi kuch, imkoniyatga ishonchi ortadi. SHuni nazarda tutish kerakki, mahqullash va rag'batlantirish har doim ham, hamma yerda ham bir xil natija beravermaydi. Rag'batlantirishning tarbiyaviy ahamiyati tarbiyaviy ishning natijasidagina emas, balki uni keltirib chiqaruvchi motiv va faoliyat usullarida hamda baholanib borilishida ko'rinadi. Bolani o'z intilishlarining moddiy rag'batlantirilishi emas, balki tarbiyachi tomonidan ma'qullanishi qimmatli ekanligiga o'rgatib borish kerak. Ozgina qilingan ishga ham mukofot kutishdan yomoni yo'q.

Rag'batlantirishga, ayniqsa, yetarli darajada qathiyatli bo'lmagan bolalar ko'proq muhtoj bo'ladi. Rag'batlantirish metodidan kichik va o'smir yoshidagi bolalar tarbiyasida foydalanish yaxshiroq samara beradi. Chunki, bu yoshdagi bolalar o'z xulqi va faoliyatini baholashga o'ta sezgirlik, chanqoqlik bilan qaraydilar. O'qituvchi ortiqcha erkalatib yuborilgan yoki e'tibordan chetda qolgan o'quvchilarga alohida diqqatini qaratmog'i zarur. Rag'batlantirishning tarbiyaviy ta'sir kuchi ko'pchilik tomonidan obyektiv qo'llab-quvvatlanishiga bog'liq.

Rag'batlantirishning ko'plab usullari mavjud bo'lib, shulardan, ma'qullash, maqtash, ishonch bildirish, qayd etish, buyruq yo'li bilan minnatdorchilik bildirish, ko'pchilik oldida mukofotlash, rasmga tushish va boshqalarni keltirish mumkin.

Shuningdek, xalqimiz pedagogik tajribasida yana hali nazariy asoslashni taqozo etadigan juda ko'plab rag'batlantirish usullari mavjudki, ularni aniqlab, tarbiya tizimida unumli foydalanish imkoniyatlarini ochib berishni talab etiladi.

Pedagogika nazariyasi va amaliyotida jazolash metodiga nisbatan qarashlar bir-biriga zid. Qadimdan ota-bobolarimiz bu metodning samarasi kam ekanligini aytib kelganlar. Lekin, shu bilan birga, jazolash shunday tarbiya metodiki, u bolani ijtimoiy me'yor va qoidalarga, odob va axloqqa zid ma'lum salbiy xatti-harakatlardan qaytarish, uning xulqini o'zgartirish usuli sifatida qo'llanilib kelinadi.

Jazolash bola xulqiga o'zgarishlar kiritadi, uning qayerda va nimada xato qilganligini anglab yetishiga, o'zidan qoniqmaslik, uyat hissining shakllanishiga yordam beradi.

Jazo bolaga ma'naviy, ruhiy, axloqiy yoki jismoniy jihatdan ziyon yetkazmasligi zarur. Shuningdek, shaxsni kamsitish, ko'pchilikdan yotsirash,

qochish kabi sifatlarning, egoistik qarashlarning yuzaga kelishiga olib kelmasligi kerak.

Har qanday jazo u yoki bu harakatlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni tahlil qilish, isbotlashdan iborat. Tasodifan yoki o'ylab qilingan harakatlarni bir-biridan ajrata bilish, ushbu kamchilikni keltirib chiqaruvchi motivlarni tez ilg'ab olish va baho berish tarbiyachidan pedagogik sezgirlik va mahorat talab qiladi.

Hech qachon taxminan, bilmay yoki ataylab jazolamaslik zarur.

Rag'batlantirish va jazolash metodlaridan foydalanishga nisbatan qo'yilgan pedagogik talablar:

1. Rag'batlantirish va jazolash biron-bir tarbiya maqsadini mustaqil hal etib bermaydi, balki ushbu metodlar asosiy metodlar guruhining ta'sir kuchini oshirishga yordam bermog'i lozim.

2. Ushbu metodlar guruhi faqat tarbiyaviy ahamiyat kasb etmog'i kerak.

3. Ushbu metod guruhi sodir bo'lgan holatni, motivlarni keltirib chiqargan sabablarni, yosh va o'ziga xos xususiyatlarni, shaxs obro'sini hisobga olmog'i lozim.

Ushbu metod guruhining kuchi uni qo'llayotgan tarbiyachi yoki shaxsning jamoa yoki o'sha guruhdagi obro'siga bog'liq.

Doim bitta shaxsni rag'batlantirish yoki jazolash metodning ta'sir kuchini yo'qotadi.

Ushbu metodlar guruhi shaxsni hurmat qilish, undagi eng yaxshi insoniy sifatlarga tayanish asosida qo'llanilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jazolashning ko'rinishlari: ogohlantirish, xayfsan ehlon qilish, muomalani o'zgartirish, turg'izib qo'yish, uyaltirish, darsdan chiqarib yuborish, maktabdan haydash va boshqalar.

5. Tarbiyada nazorat va o'z-o'zini nazorat hamda o'z-o'zini baxolash metodlari.

Yaxlit pedagogik jarayonni boshqarish qayta aloqasiz mumkin emas, chunki bunday aloqa o'sha jarayon natijalari tavsifini ifodalaydi. Ushbu vazifani bajarishda esa nazorat, o'z-o'zini nazorat va o'z-o'zini baholash metodlari yordam beradi.

Tarbiya jarayoni samaradorligini baholash uchun tarbiyalanuvchining faoliyatini, xulqini o'rganish zarur, chunki insonni uning harakatlari, bevosita faoliyati orqali baholash mumkin. Tarbiya samaradorligi deganda, erishilgan natijalarning darajasini, qo'yilgan tarbiya maqsadlariga to'g'ri kelishini tushunamiz.

O'quvchilarning tarbiyalanganlik ko'rsatkichlarini ularning yechimga muvofiq keladigan barcha asosiy faoliyatdagi qatnashuvi darajasi bilan belgilash mumkin bo'ladi. Bu o'rinda o'quvchilarning o'yin, o'quv, mehnat, ijtimoiy va boshqa sohalardagi ishtiroki natijalari ko'zda tutiladi.

Maktab o'quvchilari tarbiyalanganligining muhim ko'rsatkichlarini ularning tengqurlari bilan, kattalar bilan jamoadagi muomalasi va munosabatlari ham belgilab beradi. O'quvchilarning muomala va xulqiy harakatlari ko'p jihatdan shaxsga tarbiyaviy ta'sir natijalarini ifodalaydi.

Shaxsning tarbiyalanganlik ko'rsatkichini uning axloqiy, siyosiy, ma'naviy va boshqa sohalardagi ma'lumoti, bilim darajasi ham ko'rsatib beradi. Yuqoridagi ko'rsatkichlarning har biri alohida olib qaralmaydi, chunki shaxs ongi, harakati, xulqi va muomalasini bir-biridan ajratgan holda aniqlab bo'lmaydi. Har qanday faoliyatni alohida qismlarga bo'lish, taqsimlashni shartli ravishda tushunmoq kerak, chunki uni bo'lish o'quvchilar tarbiyalanganlik darajasini qismlarga, elementlarga bo'lib o'rganish uchun kerakligini nazarda tutish zarur. Xuddi shu fikrni tarbiyaning ma'lum metodlari va uning samaradorligini baholashni shartli ravishda ajratish to'g'risida ham aytish mumkin.

Pedagogik faoliyatni umumiy tahlil etishdan ko'zlangan maqsad tarbiya jarayonining kechish holatlarini ifodalovchi natijaviy va protsessual komponentlarni baholashdan iborat. Tarbiyachilarning o'z harakatlarini, ularning o'quvchilarga yondashuvining to'g'riligi, ular qo'llayotgan muomala stilining xarakteri, o'zaro ta'sirini, o'quvchilarning tashabbusi va mustaqilligini rivojlantirishga ularning ta'sirini baholashi zarur. Natijaviy va jarayonli ko'rsatkichlarni uzviy birlikda ko'rib chiqish tarbiya jarayonini o'rganishning obektivligini tahminlaydi.

Nazorat metodining asosiy ko'rinishlari quyidagicha: o'quvchini pedagogik kuzatish; uning-tarbiyalanganligini aniqlashga yo'naltirilgan suhbatlar, so'rovlar, foydali faoliyat natijalarining tahlili; u yoki bu mashuliyatli topshiriqlarni bajarish, tarbiyalanuvchi xulqini o'rganish maqsadida yaratilgan holatlar va boshqalar.

Ushbu metodlarga tavsif berib o'tamiz:

1. Pedagogik kuzatish shaxs faoliyati, muomalasi, xulqi va ularning o'zgarish dinamikasini yaxlitligicha o'rganish va ularni bivosita idrok etish uchun qo'llaniladi. Kuzatishning turli ko'rinishlari mavjud: bevosita va bivosita, ochiq va yopiq, uzluksiz va chegaralangan, monografik va qisqa kuzatish.

Pedagog kuzatishdan muvaffaqiyatli foydalanish uchun uni ma'lum bir maqsad bilan olib borishi, shaxsni o'rganish dasturini o'zlashtirishi, uning tarbiyalanganligini bildiruvchi belgilar va mezonlar bilan qurollanishi kerak bo'ladi.

Kuzatish maqsadli, rejali, sistemali xarakter kasb etishi zarur. Eng muhimi, kuzatilayotgan objekt to'g'risidagi dalillarni qayd etish tizimini yaxshilab o'ylab olish kerak.

Masalan, kuzatish daftariga yozib borish, kuzatish xaritasiga maxsus belgilar qo'yish, magnitafon yoki yozuvlarda qayd etish.

2. Suhbatlar tarbiyalanuvchilarning axloqiy, siyosiy muammolardan to'liq xabardorligini, xulqiy mehyor va qoidalarni bilishini, mazkur mehyor va qoidalaridan chetga chiqish sabablarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bu vaqtning o'zida tarbiyachi o'quvchilarning fikr-mulohazalarini alohida qayd etib boradi va bu orqali o'z tarbiyaviy ta'sirining sifatini, bolalarning bir-birlariga munosabati, e'tibori, e'tiborsizligi va boshqa shu kabilarni ham baholab boradi.

3. Sinfidagi psixologik muhit, o'zaro do'stlik, jamoa ahzolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar yoki nosog'lom kayfiyatlarni aniqlash maqsadida turli ko'rinishdagi so'rovlar o'tkaziladi.

Bunday so'rovlar paydo bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida aniqlash va tez

hamda ustalik bilan ularni bartaraf etish imkonini beradi. Bunday so'rovlarni qo'llash shunchaki oddiy ish emas, balki uni tuzishda va o'tkazishda ma'lum qoidalarga rioya etish zarur, ya'ni savollar to'ntoq bo'lmashligi, tor mahno bermaydigan, o'quvchilarning javobga kuchi yetmaydigan bo'lmashligi, javoblar mazmuni tekshiruvchi uchun zarur ma'lumotlarni berishi kerak. Bunday savollarni tuzishga bo'lgan talablar pedagogika va psixologiya bo'yicha qo'llanmalarda yoki o'quvchilarni o'rganish bo'yicha tavsiyalarda bayon etilgan bo'lib, ular talabalarning pedagogik amaliyotga chiqishi oldidan beriladi.

O'quvchilarning, talaba yoshlarning mehnat, ijtimoiy, ma'naviy va boshqa sohalaridagi faolliklarini, ularning tayyorgarlik darajasini aniqlash yuzasidan nafaqat suhbatlar olib borish, balki turli mavzularda tanlovlar, olimpiadalar, ko'riklar o'tkazish, chiqishlar tashkil etish ham mumkin.

4. Maktab o'quvchilari tarbiyasining qay darajada kechishini nazorat qilish uchun tajribali tarbiyachilar faoliyat natijalarini tahlil etish kabi murakkab metodlarni qo'llaydilar.

Masalan, o'qituvchi o'quvchini o'zining tarbiyalanganlik darajasini yanada to'laroq atroflicha kengroq ko'rsata olishga imkoniyat beruvchi faoliyat va munosabatlarga ongli ravishda jalb etadi. Bu bilan o'quvchiga o'zining salbiy va ijobiy tomonlarini aniqlash imkoniyati yaratilsa, ikkinchi tomondan, mana shunday oshkora muloqotlarga keyinchalik tayyorgarlik ko'rish imkoniyatlari ham ochib beriladi. Lekin bu metod tarbiyachi yoki tashkilotchilardan maxsus tayyorgarlik ko'rishni, ikki shaxs yoki guruhlardagi shaxslar imkoniyatlarini atroflicha o'rganishda zarur pedagogik mahoratni talab etadi.

Tarbiyaviy ishlarning borishini nazorat qilish o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini, uning natijalarini baholash bilan birga o'qituvchi, tarbiyachilar va maktab jamoasining tarbiyaviy faoliyati darajasini butunicha baholashdan ham iboratdir. Bunday baholash ma'lum qoida va talablarga amal qilingan holda olib boriladi.

O'qituvchi olib borayotgan tarbiyaviy ishlar natijalarini baholashda uning zamonaviy, ilg'or, ta'sirchan, samarali tarbiyaviy metod, shakl va vositalardan foydalana olish ko'nikmasini, konkret sharoit uchun metod, shakl, vositalarning o'zaro bir-biriga mos kelishini, o'quvchilarga differentsial yondasha olishini, tarbiyalanuvchilar xulqini asosli tarzda baholay olishini, o'quvchilarning mehnat, kasbiy tayyorgarligini, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar xarakterini belgilashda tarbiyachining o'rnini hisobga olish juda zarur.

Tarbiya samaradorligi borasida quyidagi ko'rsatkichlarni nazarda tutmoq lozim: o'quvchilarda ilmiy, ma'naviy, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashlarning yuzaga kelganligi; ularning voqea, hodisalarni davlatimiz ichki va tashqi siyosati nuqtai nazaridan tahlil etishi va baholay olishi; axloq-odob norma va qoidalarini o'zlashtirganligi; ichki tartib-intizom qoidalariga amal qilishi; davlatimiz qonun va farmonlarini yaxshi bilishi, ijtimoiy faollik, jamoa bilan ishlay olishi; yoshlar tashkiloti faoliyatida ishtirok etishi: tashabbuskorligi va muntazam faoliyat ko'rsata olishi; estetik va jismoniy barkamolligi va h.k.

Eng muhim, doimiy qoida - so'z va ish birligiga amal qilish tarbiyalanganlikning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Tarbiya metodlari deganda nimani tushunasiz?
2. Tarbiyaning qanday metodlari bor?
3. Rag'batlantirish metodi nima va uningqanday turlari mavjud?
4. Jazolash metodi va uning turlarini tushuntirib bering.
5. Tarbiya jarayonida metodlar nima uchun qo'llaniladi?